kiritilgan. Yoshlarni medialardan to'g'ri foydalanishga o'qitishdagi samarali uslubiy usullarini quyidagi asoslar bo'yicha tasniflash mumkin: 1. Tarbiyaviy ishlar turlari bo'yicha (axloqiy, vatanparvarlik, ekologik, oilaviy va boshqalar). Bu tasnifni fin olimi Z.Tell ta'biri bilan aytganda, "mediaxabarlari fanlararo va ko'p tarmoqli xususiyatga ega bo'lishi" bilan murakkablashadi. Masalan, maktab o'quvchilarini axloqiy jihatdan tarbiyalash masalalarini hal qilish maqsadida medianing badiiy yoki multfilmlarni namoyish etish orqali ulardagi estetik tarbiya imkoniyatlarini kengaytiramiz, chunki biz san'at asarini axborot manbai deb hisoblaymiz.

2. Global kompyuter tarmoqlari va boshqa ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar bo'yicha. Axborotdan foydalanishning turli xil imkoniyatlarini izlash va joriy etish yoshlarga media sohasi bilan yaxshiroq tanishishiga va ta'lim muammolarini samarali hal qilish imkonini beradi.

Mediamadaniyat pedagogikada umumiy tarzda shaxsning turli ko'rinish, janr va shakllardagi mediamatni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish, sotsiumda mediafaoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo'ladigan integrativ sifati tarzida qaraladi. Shuning uchun pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediamadaniyatini rivojlantirish masalasi fan va amaliyot oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga mos holda pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediamadaniyatini oshirish borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlar orasida alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning tez taraqqiy etishi natijasida "media" atamasi paydo bo'ldi. "Media" atamasi lotin tilidan (media, medium so'zidan) olinib, qo'llanma, vositachi ma'nolarini anglatadi. Media – bu jamiyatda to'g'ri va aylanma kommunikativ aloqa tizimi bo'lib, insonlar bilan vaqtincha o'zaro aloqadorlikni yuzaga keltiruvchi va ularni qiziqtiruvchi, chalg'ituvchi makondir. "Media" atamasi – XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo'llangan. Mediata'lim yoshlarda mediamadaniyatni va savodxonlikni shakllantirib, ma'naviy estetik va intellektual jihatdan ularning nutqini, muloqot qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda internet tarmog,i yordamida turli sahifalardan, jumladan, Youtube, Mytube, Facebook, Telegram, Instagram, WhatsApp, Twitter kabi axborot uzatish vositalaridan olina'etgan turli xil ko,,rinishdagi axborotlarni yopish va taqiqlash, uzatilayotgan turli syujetlarni chegaralashning imkoniyati kamroq bo'lganligi sababli, katta sahnada — Mediata'lim tushunchasining paydo bo'lishi, uning kelajakda ta'lim sohasida rivojlanishi imkoniyatlarini yanada orttirib yuboradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gaybullaevna, N. M. (2021). Linguculturological properties of medical units of uzbek language. *Journal of Contemporary Issues in Business & Government*, 27(4).
2. Davronov D. I. Methodological Possibilities of using the Media Education System in the Educational Process // *International Journal of Culture and Modernity*. – 2021. – Т. 11. – С. 32-37.
3. Davronov D. Evisiting valuation methods of tech companies : дис. – Central European University, 2019.
4. Davronov D. Zamon bilan hamnafas yashagan alloma // центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2022. – Т. 21. – №. 21.
5. Ismoilovich D. D. THEORETICAL FOUNDATIONS OF WORK ON TEXT ANALYSIS IN PRIMARY SCHOOL.
6. Ismoilovich D. D. Methodological Possibilities of Using Media Educational Technologies to Increase the Professional Activity of Future Primary School Teachers // *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*. – 2021. – Т. 12. – С. 141-145.
7. Y.U. Nurova. Homonymy of ethnonyms in uzbek folk parems. *European Scholar Journal (ESJ)* Available Online at: <https://www.Scholarzest>
8. N.Y.Ubaydullaevna. Ethnolinguistics: Emergence, Development and Theoretical Research.
9. N.Y. Ubaydullayevna. ethnolinguistic study of outerwear and underwear parts in paremas ny Ubaydullayevna. *European journal of modern medicine and practice* 2(4), 86-89.
10. Saodat K. ANCIENT PROVERBS // *European Scholar Journal (ESJ) ISSN*. – С. 2660-5562.
11. Abdurakhimovna K. S. Idealistic Study of Proverbs // *International Journal on Integrated Education*. – Т. 3. – №. 11. – С. 201-202.
12. Baymuradovna B. S. et al. Pedagogical technologies for the development of cognitive creative abilities of students in the lessons of the Russian language // *Journal of Critical Reviews*. – 2020. – Т. 7. – №. 6. – С. 492-496.
13. Gaybulloevna S. M. Urgent Problems of the Quality of the Educational Environment // *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 152-154.
14. Gaybulloyevna S. M. THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE LESSONS OF THE RUSSIAN LANGUAGE AND LITERATURE IN THE CONTEXT OF STUDENT-CENTERED EDUCATION // *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 102-106.
15. Qosimov, F. M., & Qosimova, M. M. (2022). MATEMATIKADAN IJODIY O 'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIIY JURNALI, 2(2), 206-211.

16. Muhammedovich, Q. F., & Muhammedovna, Q. M. (2022). BOSHLANG'ICH SINFDA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(4), 358-362.

17. Qosimova, M. M., & Usmonova, Z. U. (2022). BOSHLANG 'ICH SINFDA MATEMATIKA O 'QITISH JARAYONIDA O 'QUVCHILARDA TEJAMKORLIK KO 'NIKMASINI TARKIB TOPTIRISH. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 75-77.

18. Qosimov, M. F., & Kasimov, F. F. (2021). Methods of teaching to solve non-standard problems. Middle European Scientific Bulletin, 11.

19. Qosimov, F. M., & Qosimova, M. M. (2021). Ikki (yoki bir necha) sonni ularning yigindisi va ayirmasiga kora topishga doir masalalar. Scientific progress, 2(6), 1138-1145.

20. QOSIMOVA, M. (2020). TO DEVELOP STUDENTS'SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

21. Kasimov, F. M., & Qosimova, M. M. TECHNOLOGY OF WORK ON COMPARISON TASKS.

22. Yunus Y. S. DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN MATHEMATICS LESSONS AS THE BASIS FOR IMPROVING THE QUALITY OF THE EDUCATIONAL PROCESS //Chief Editor.

23. Алимова, А. Н., & Бабаева, Ш. Б. (2021). СОЦИАЛЬНАЯ РЕАЛЬНОСТЬ СОВРЕМЕННОГО ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. In НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ОБЩЕСТВО: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 134-136).

24. Фазылова, Н. С., & Бабаева, Ш. Б. (2021). ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОВЛАДЕНИЯ РУССКИМ ЯЗЫКОМ МЛАДШИМИ ШКОЛЬНИКАМИ.

25. Бабаева, Ш. Б. (2022). ОСНОВНЫЕ ПРИЁМЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕТОДА МОДЕЛИРОВАНИЯ СИНТАКСИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА: Бабаева Шоира Баймурадовна, доцент, Бухарский государственный университет. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 39-44.

26. Бабаева, Ш. Б. (2022). ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К МОДЕЛИРОВАНИЮ СИНТАКСИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ РОДНОГО (РУССКОГО) ЯЗЫКА: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.009> Бабаева Шоира Баймурадовна Доцент, Бухарский государственный университет. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 73-77.

27. Узакова, А. Б., Рохатова, З. И., & Бабаева, Ш. Б. (2021). РАЗВИТИЕ АКТИВНОЙ РУССКОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ УЗБЕКСКИХ ШКОЛ.

28. Бабаева, Ш. Б. (2021). ЦЕЛЕНАПРАВЛЕННОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА МОДЕЛИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ. In НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ОБЩЕСТВО: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 131-133).

29. Bakhronova, A., & Sadirova, M. (2021). PROBLEMS OF TRAINING WITH THE FAMILY IN EXTRACURRICULAR EDUCATIONAL ACTIVITIES. In World science: problems and innovations (pp. 216-218).

30. Ismoilovna, B. A. (2021). Problems of Training Future Primary School Teachers to Cooperate with The Family in Extracurricular Educational Activities. Middle European Scientific Bulletin, 8.

31. Omonova, D. N. Methodical fundamentals of linguistic competence in language teaching based on integrative approach\\Middle European Scientific Bulletin. 2021.

32. Omonova, D. N. Q. (2021). The Linguistic competence in language teaching based on Integrative Approach. In World science: problems and innovations (pp. 213-215).

**МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА УЗВИЙЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА
МУАММОЛИ МЕТОДНИНГ САМАРАДОРЛИГИ**

Ҳакимова Меҳринисо Ҳомитовна

*Бухоро давлат университети
бошланғич таълим методикаси кафедраси
катта ўқитувчиси*

Аннотация: Ушбу мақолада мактабгача ва бошланғич таълим жараёнида муаммоли методнинг самарадорлиги ҳақида фикр юритилган. Мактабгача ва бошланғич таълим иштирокчиларининг фазовий фикрлашни шакллантириш жараёнига бундай ёндашув ёрдамида улар учун мос бўлган моддий моделлар билан лойиҳалаш фаолияти орқали тушунчаларнинг дастлабки образлари шакллантириш ёритилган.

Калит сўзлар: Мактабгача таълим, Бошланғич таълим, ривожланиш, лойиҳалаш, репродуктив, геометрик материал, кўпбурчак, конструктив кўникма, фазовий фикрлаш.

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективность проблемного метода в дошкольном и начальном образовании. При таком подходе к процессу формирования пространственного мышления участников дошкольного и начального образования выделяется формирование исходных образов понятий посредством проектной деятельности с подходящими для них материальными моделями.

Ключевые слова: дошкольное образование, начальное образование, развитие, проектирование, воспроизведение, геометрический материал, многоугольник, конструктивный навык, пространственное мышление.

Abstract: This article discusses the effectiveness of the problem-based method in preschool and primary education. Using this approach to the process of forming spatial thinking of preschool and primary education participants, the formation of initial images of concepts through design activities with material models suitable for them is highlighted.

Key words: Pre-school education, Primary education, development, design, reproductive, geometric material, polygon, constructive skill, spatial thinking.

Муаммоли таълим дидактик тизим саналиб ўқувчиларни муаммоли характердаги масалаларни ечишга ундайди. Педагогик адабиётлар таҳлилида муаммоли вазият муаммоли таълимнинг асосини ташкил қилади. Фикримизча, ўқувчи томонидан асосий факт, тушунча, тамойил, масала ва мисол ечиш усуллари чуқур ва мустаҳкам ўзлаштирилгандагина муаммоли таълим фойдали бўлиши мумкин. Муаммоли таълимнинг моҳияти эвристик таълим моҳиятидан тубдан фарқ қилади. Эвристик услубда ўқитувчи томонидан ўқувчиларга аниқ изланишларга

йўналтирувчи саволлар тизими аввалдан ўйлаб қўйилишида ифодаланадики, эвристиканинг мақсади таълимда янгиликларга олиб борувчи метод ва қоидаларни излашдан иборат.

Шу ўринда айтиш жоизки, мактабгача ва бошланғич таълимда математик тасаввурларни шакллантиришда узвийликни таъминлашда муваффақиятли, аниқ ташкил этилган ўқув мавзуларига асосланган лойиҳалар ўқув жараёнининг дидактик самарадорлигини таъминлаш имконини беради. Мазкур ҳолатни қуйидагича тасвирлаш мумкин:

Муайян мавзуга асосланган дарс лойиҳасининг таркиби.

Дарснинг тартиб рақамлари. 1, 2, 3, 4,5,6,7 - дарс каби.

Ўтиладиган мавзунинг номи.

Шу мавзуда ўтиладиган дарснинг мақсади ва тадрижий тизими.

Дарснинг тури.

Дарсда амал қилинадиган умумий методлар мажмуи. Жумладан, репродуктив ёки маҳсулдор методлар алоҳида - алоҳида тавсифланган ҳолда берилади.

Дарсда қўлланиладиган техник воситалар ҳамда фойдаланиладиган ахборот манбалари.

Мазкур туркумдаги дарсларда ташкил этиладиган назорат ишларининг турлари.

Ўқув жараёнини долзарблаштириш.

Дарсда ўқувчиларга тақдим этиладиган билимлар, тушунчалар, далиллар ва ҳаракат усуллари.

Ўқувчиларда шакллантириладиган янги тушунчалар ва ҳаракат усуллари.

Янги тушунчалар ва ҳаракат усуллари.

Асосий ва иккинчи даражали муаммолар.

Амалиётда қўлланиладиган билим, кўникма, малака ва компетенциялар.

Мактабгача ва бошланғич таълимда математик тасаввурларни шакллантиришда узвийликни таъминлаш имкониятлари.

Такрорлаш.

Уй вазифаси.

Мазкур талаблар асосида дарснинг дидактик таркибини ҳам лойиҳалаштириш имконияти вужудга келади. Унинг қисмлари ўқувчиларга тақдим этиладиган билимларнинг элементлари, ҳаракат усуллари, мустақил иш турлари, ўқитиш мазмуни ва усуллари ўзида мужассамлаштиради. Бироқ педагоглар томонидан тузиладиган лойиҳалар қатъий қолипга эга бўлиши мумкин эмас. Педагогларнинг ижодкорлик асосида ёндашиши натижасида лойиҳалар такомиллашиб мураккаб кўриниш касб этиб борадики, бунда ўқув жараёнини лойиҳалаштиришга қўйилган методик талаблар мактабгача таълим ташкилоти тарбиячилари ва ўқитувчиларнинг ижодий изланишлари учун йўналтирувчилик вазифасини ўтайди. Таълим жараёнида қандай методикани қўллаш, оддийдан мураккабга қараб мавзу моҳиятини ўқувчиларга тушунтириш педагоглардан касбий компетентлиликни талаб қилади.

Мактабгача таълим ташкилотида геометрик шакллар билан таништириш масаласига кенг эътибор берилган. Катта гуруҳ болаларида шакллар ҳар хил ўлчамда бўлиши мумкинлиги ҳақида, масалан, катта доира, кичик доира, катта учбурчак, кичик учбурчак, катта квадрат, кичик квадрат каби тасаввурлар ҳосил бўлиши, шакл ва унинг айрим белгилари ҳақида тасаввур ҳосил қилинади. Масалан, тўртбурчакнинг турли кўринишлари мисолида тўртбурчакнинг 4 та бурчаги ва 4 та томони борлиги, шар, куб, цилиндр ҳақидаги тасаввурларни мустаҳкамлаш, конус билан таништириш, доира ва овал шакллари фарқлашга оид турли машқларни бажариш, атрофдаги нарсалар орасидан таниш бўлган геометрик шаклларни ажратишга ўргатилади. Учбурчак ва тўртбурчаклардан турлича катта ўлчамдаги нарсалар ҳамда шакллар тузиш, турли геометрик шакллар тўпламидан намунадаги нарсаларни ясашга ўргатилади. Таёқчалардан геометрик шакллардан бир неча таёқчани олиш усули билан кўринишини ўзгартиришга доир муаммоли топшириқларни ҳал этишни машқ қилиш, лабиринтлар билан таништириш ва уларни ечимини топишга ўргатиш.

Бу тушунчалар мактабгача таълим ташкилотининг тайёрлов гуруҳларида янада мустаҳкамланиб, уларга қуйидагилар ўргатилади: болаларни ромб шакли билан таништириш, кўпбурчак ҳақида тасаввур ҳосил қилиш, кўпбурчак элементлари (томонлари, бурчаклари, учлари) билан таништириш; болаларни 2 та 4та учбурчакдан кўпбурчаклар тузишга, кичик тўртбурчаклардан катта тўртбурчак тузишга ўргатиш; етишмаган шакл масалан, шар цилиндр, конус номини топишга доир мантиқий масалаларни ечишни машқ қилиш; таёқчалардан ҳосил бўлган геометрик шакллардан бир неча таёқчани олиш усули билан кўринишини ўзгартириш; махсус шакллар тўпламидан фойдаланиб, намунадаги нарсаларни ҳосил қилиш. Умумий таълим мактабининг 1-синфида геометрик тасаввурлар мактабгача таълим ташкилотида ўрганиладиган тушунчалар такрорланиши билан бирга қуйидаги янги тушунчалар: фазовий ва ясси шакллар, бурчак ва унинг турлари (тўғри, ўткир, ўтмас), нарсаларнинг ойнадаги акси, симметрия, симметрик шаклларнинг киритилиши белгиланган.

Қайд этиш лозимки, мактабгача таълим ташкилотидаги айрим тушунчалар 1-синфда дастлабки тушунча сифатида қаралиб, 2-синфда ўтилиши назарга тутилган. Масалан, квадрат хоссалари, доира. Бошланғич синф дастурига ромб тушунчаси киритилмаган. Таёқчалардан ҳосил бўлган геометрик шакллардан бир неча таёқчани олиш усули билан кўринишни ўзгартириш усули 1-синфда мавжуд эмас. 2-3-синфларда бундай топшириқлар келтирилган. 1-синф математика ўқув дастуридаги кўпгина математик тушунчалар ҳақида мактабгача таълим ташкилотида болаларнинг тасаввурига эга бўлишини кўриш мумкин. Аммо ҳозирги 1-синф ўқувчилари орасида МТТ биритувчилари 30-35% ни ташкил этади. 1-синфга келган болаларнинг тайёргарлиги ҳар хил. Бу албатта ўқитувчининг ўз ишини лойиҳалашади анча қийинчилик туғдиради. Эҳтимол, бу ҳозирги кунда МТТда болаларнинг математик

тасаввурлари ва 1-синфда ўқувчиларнинг математик тушунчалари шаклланиши орасидаги узвийлигини таъминланмаганлигининг сабабларидан биридир.

Кузатишларимиз шуни кўрсатадики, тарбиячилар ва мактаб бошланғич синф ўқитувчилари орасида узвийлик таълими ҳақидаги фикрларнинг ўзаро мувофиқлиги, нуқтаи назарлар бирлиги ҳам талаб даражасида шаклланмаганлигини кўрсатмоқда. Бу эса ёш мутахассисларнинг таълим ташкилотига келганидан сўнг, унинг бола шахсидан узоқлашиши, таълим-тарбия жараёнини мавжуд педагогик талаблар асосида лойиҳалаштира олмаслигига сабаб бўлмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Хакимова, М. Х. (2017). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 32, pp. 101-102). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.

2. Касимов, Ф. М., Касимова, М. М., & Хакимова, М. Х. (2016). Специфические принципы построения системы учебных задач. Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения, (50-2), 58-62.

3. Hakimova, M. K. (2019). THEORITICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF THE NON-PROBLEMS FOR THE DEVELOPMENT OF THE MATHEMATICAL THINKING IN PRESCHOOL AND INITIAL TRAINING. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(4), 356-363.

4. Хакимова, М. Х. (2020). Проблемы обеспечения преемственности дошкольного и начального образования при формировании математических понятий у учащихся. In European reseach: innovation in science, education and technology (pp. 69-71).

5. Homitovna, H. M. (2020). A model of continuity in the formation of mathematical concepts in kindergarten and primary school pupils. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1756-1764.

6. Sadullojeva, M. (2022). МАКТАБ О 'QUVCHILARI ORASIDA DEVIANT XULQ-ATVOR SABABLARI, SHAKLLARI VA KORREKSION ISHLAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 17(17).

7. Kurbanova, S. (2021). TEXNOLOGIYA DARSİ JARAYONIDA TALABALARNING MENNAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 3(3).

8. Бахронова, А. И. (2021). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ДАРСДАН ТАШҚАРИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ АМАЛГА ОШИРИШГА ТАЙЁРЛАШ ЙЎЛЛАРИ. Scientific progress, 2(6), 1074-1082.

9. Бахронова, А. И. (2021). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ЎҚУВЧИЛАРНИ АХЛОҚИЙ ТАРБИЯЛАШГА ТАЙЁРЛАШДА ДАРСДАН ТАШҚАРИ ИШ ШАКЛЛАРИ. Scientific progress, 2(6), 1083-1089.

10. Наврузова, М. Г. (2020). Креативность педагога-условие инновационности его профессиональной деятельности. Вопросы науки и образования, (11 (95)), 109-111.
11. Вахронова, А. (2022). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ДАРСДАН ТАШҚАРИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ АМАЛГА ОШИРИШГА ТАЙЁРЛАШ ЙЎЛЛАРИ. Физико-технологического образование, 1(1).
12. Bakhronova, A., & Sadirova, M. (2021). PROBLEMS OF TRAINING WITH THE FAMILY IN EXTRACURRICULAR EDUCATIONAL ACTIVITIES. In World science: problems and innovations (pp. 216-218).
13. Ismoilovna, B. A. (2021). Problems of Training Future Primary School Teachers to Cooperate with The Family in Extracurricular Educational Activities. Middle European Scientific Bulletin, 8.
14. Omonova, D. N. Methodological fundamentals of linguistic competence in language teaching based on integrative approach. Middle European Scientific Bulletin. 2021.
15. Omonova, D. N. Q. (2021). The Linguistic competence in language teaching based on Integrative Approach. In World science: problems and innovations (pp. 213-215).
16. Omonova, D. (2022). LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA MEDIA TA'LIM VOSITALARDAN FOYDALANISH. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 182-183.
17. Qizi, O. D. N. METHODOLOGICAL FUNDAMENTALS OF LINGUISTIC COMPETENCE IN LANGUAGE TEACHING BASED ON INTEGRATIVE APPROACH.
18. Farmonova, S. (2021). Opportunities for the Development of the Communicative Culture of Future Teachers through the Design of Teaching. International Journal of Culture and Modernity, 11, 172-175.
19. Farmonova, S. (2019). THE TOLE OF THE PROJECT TEACHING TOOL IN DEVELOPING THE COMMUNICATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 434-441.
20. FARMONOVA, S. M. (2020). Improvement of Professional Thinking in Future Teachers. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 7(05), 251-257.
21. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. Eastern European Scientific Journal, (1).
22. Hamroev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.
23. Xayrullayeva, D. (2021). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ONA TILI TA'LIMINING ANAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
24. Dilnoza, X. (2022). 1-SINF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA ETNOPEDAGOGIKA NAMUNALARINI O'RGATISH METODIKASI. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(4), 337-341.

25. Xayrullayeva, D. N. Q. (2021). BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLIKLARIDAGI IJODIY MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIZIMI. Scientific progress, 2(7), 1235-1242.

26. HAMROYEVA, M. (2021). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUV. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

27. Rasulovna, H. M. (2022). TOHIR MALIKNING ASARLARIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR QOLLANILISHINING USLUBIY TAHLILI. BARQARORLIK VA ETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAIN ILMIIY JURNALI, 2(4), 391-398.

28. Rasulovna, H. M. THE LITERARY OF ANTHROPONYMS. Chief Editor.

29. Rasulovna, H. M. (2021). Anthroponymic forms in the text of artistic work (On the example of Tahir Malik's work). Middle European Scientific Bulletin, 10.

30. Rasulovna, H. M. (2021). Use Of Anthroponyms In Tahir Malik's Stories. Journal of Contemporary.

31. Hamroyeva, R. M. (2021). Application of Anthroponymic Units in the Works of Tahir Malik (On The Example of the Story "Devona"). Middle European Scientific Bulletin, 8.

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA OG'ZAKI NUTQNI O'STIRISHGA DOIR MASHQLAR TAHLILI

Hamroyeva Maftuna Rasulovna

BuxDU o'qituvchisi,

Shahnoza Ostonayeva

BuxDU talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kishi kamolotida nutqning tutgan o'rne va aynan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ma'naviyatida ona tilimizning boy imkoniyatlaridan foydalanib, ularni teran ahloqli va tilimizdagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qila oladigan qilib voyaga yetkazish masalalari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *xalq, talaffuz, harf, go'sala, millat, til, ixtirochi, Frenk, savodxonlik, o'qish, tarbiya, ta'lim.*

“Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin”, – deydi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

Til – millatning ma'naviy boyligi bo'lishi bilan bir qatorda xalqning madaniyati, urf-odat, uning turmush tarzi hamda tarixidir. Abdulla Avloniy “Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmakdir” – deb ta'kidlaydi. Shunday ekan bolalarga ta'lim va tarbiya berish jarayonida tilimizdagi so'zlarni talaffuz qilganda boricha qo'shimchalar va ba'zi harflarni tushirib qoldirmasdan talaffuz qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik yoshdagi bolalarga hayvonlar nomini o'rgatish jarayonida yoki ismlarni aytishni boshlashda to'lig'icha, qisqartirmasdan qo'llash muhimligiga e'tibor qaratish o'rinli. Bu bolaning yoshligidan nutqini to'g'ri va aniq ifoda etishiga yordam beradi. Maktab yoshidagi bolalarda ham so'zlarni xato talaffuz qilish jarayonida shu so'zlarning ma'nolarini bilmaslik holatlarini ham uchratish mumkin. Buday holatlarga e'tibor bermaslik sababli so'z boyligining yetarli bo'lmasligi hamda so'zlarni to'g'ri va ravon o'z o'rnida qo'llay olmaslik kabi holatlar yuzaga keladi. Bunday holatlar tez-tez kuzatilgani sari tinglovchi uchun sizning so'zlab turgan nutqingiz zerikarli va o'z o'rnida tushunarsiz hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda bu kabi oqsoqlikning oldini olish uchun ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ko'plab metodlar yordamida muammoni hal qilish mumkin. Jumladan, 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan “Kuchukmi yoki itcha?” matni orqali o'quvchilar hayvon bolalari nomlarini o'rganishadi. Shu bilan birga ongli ravishda tushunib to'g'ri talaffuz qilishga, nutqida nomlardan aniq va o'rinli foydalanishni

ham o'rganadi. O'qituvchi dars mobaynida "Kuchukmi yoki itcha?" matnidagi talaffuz qilishga qiyin bo'lgan uy hayvonlarining nomlarini lug'at daftarlariga yozdirishi bilan bolalarning lug'at boyligini oshirib borishni tashkil qilsa dars o'z maqsadiga erishadi. So'zlarni talaffuz qilishga qiynaladigan o'quvchilar yozish bilan bir qatorda ma'nosini ongli ravishda tushunadi va tallafuzida xatolarga yo'l qo'yishi sekin-astalik bilan kamayadi. Ba'zi o'quvchilar nutqida "tog'ga" so'zining toqqa shaklida talaffuz qilinishiga to'xtaladigan bo'lsak. Bu vaziyatda o'qituvchilar, birinchi navbatda, shu so'zni to'g'ri yozishni o'rgatib, takror holda bir necha marotaba aytirishlari lozim.

Ikkinchi sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida "Ixtirochi Frenk" nomli hikoyada o'quvchiga tushunarsiz hamda talaffuz qilganda qiyin bo'lgan ikkita so'z ko'rsatib o'tilgan. Darslikda shu so'zlarning to'g'ri talaffuzi va imlosini ta'minlash maqsadida quyidagicha izohni ko'rishimiz mumkin:

– tasodifan so'zining ma'nosini yozuvchi quyidagicha izohlagan: tasodifan oldindan reja qilmay, masalan, siz biror narsani atay qilmasangiz, oldindan shunday qilishni reja tuzmagan bo'lsangiz o'sha narsa tasodifan sodir bo'ladi. Bunda bolalar so'zning ma'nosini yozilishi hamda talaffuz qilib to'g'ri aytilishini o'rganishadi.

Ikkinchi so'zni esa o'quvchilarning ko'pchiligi "ayalashma" deb xato aytishadi, kitobda esa so'zning imlosi hamda ma'nosi berilgan, ya'ni aralashma – bir necha xil narsalarning aralashmasidan hosil bo'ladigan narsa. O'qituvchi bu kabi so'zlarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish jarayonida "Kim chaqqon-u, kim topqir" metodidan foydalanishi ham mumkin. so'zlarning talaffuzini shu metod asosida o'rgatishni ko'rib chiqamiz. Bunda o'quvchilar uchun oldindan matn tayyorlab qo'yiladi shu matn asosida talaffuzda qiyinchilik tug'diradigan so'zlar doskaga yozib boriladi. O'quvchilarga topshiriq sifatida doskadagi har bir so'zni qo'llagan holda to'rtttadan gap tuzish va tuzgan gaplarini o'qib berish talab qilinadi. Bu metodning tezroq natija berishi uchun doskadagi so'zlardan foydalangan holda qo'shimcha uyga topshiriq sifatida qisqa matn tuzish vazifa qilib beriladi. O'quvchilar talaffuzda qiyinchilik tug'dirgan so'zlarni takroran qo'llash orqali bu so'zlarni aniq talaffuz qilish bilan bir qatorda to'g'ri yozishni ham o'rganishadi.

Demak, o'quvchi so'zni to'g'ri talaffuz qila olmasa, unga faqatgina so'zlarni takror aytirish bilan cheklanib qolmasdan, balki, ma'nosini tushuntirish, yozilishini o'rgatish hamda eng muhimi ongli ravishda talaffuz qilishga o'rgatish eng asosiy omil sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamroyeva, R. M. (2021). Application of Anthroponymic Units in the Works of Tahir Malik (On The Example of the Story "Devona"). Middle European Scientific Bulletin, 8.
2. Rasulovna, H. M. (2021). Use Of Anthroponyms In Tahir Malik's Stories. Journal of Contemporary.
3. Rasulovna, H. M. (2021). Anthroponymic forms in the text of artistic work (On the example of Tahir Malik's work). Middle European Scientific Bulletin, 10.
4. Rasulovna, H. M. THE LITERARY OF ANTHROPONYMS. Chief Editor.
5. Rasulovna, H. M. (2022). TOHIR MALIKNING ASARLARIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR QOLLANILISHINING USLUBIY TAHLILI. BARQARORLIK VA ETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAIN ILMIIY JURNALI, 2(4), 391-398.
6. HAMROYEVA, M. (2021). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUV. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
7. Kamilovna, R. N. (2021). Coaching approach at a mathematics lesson in grade 3 in the educational structure "equal partner". Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(1), 228-234.
8. Rajabova, N., & Fayziyeva, D. (2021). FOLKLORISM IN THE WORKS OF DILSHOD RAJAB. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 212-214).
9. Ражабова, Н. К. (2022). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(4), 349-352.
10. Rajabova, N. (2022). BO „LAJAK BOSHLANG „ICH SINF O „QITUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHGA TA“ SIR ETUVCHI OMILLAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 19(19).
11. Radzabova, N. K. (2022). FACTORS INCLUDING RESEARCH ACTIVITIES OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. In НАУКА, ТЕХНОЛОГИИ, ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 119-121).
12. Radzabova, N. K. (2022). IMPROVING THE RESEARCH ACTIVITY OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS AS A SOCIAL PEDAGOGICAL NEED. In ОБРАЗОВАНИЕ, ВОСПИТАНИЕ И ОБУЧЕНИЕ В СООТВЕТСТВИИ С ФГОС: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 79-81).
13. Komilovna, R. N. (2021). METHODS AND TOOLS OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF THE CONCEPT OF FIGURE FACE IN STUDENTS.
14. Radzabova, K. N. (2021). Pedagogical Conditions for Improving Research Activity in Future Primary School Teachers.
15. RAJABOVA, N. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH. EDAGOGIK AHORAT, 145.

16. RAJABOVA, N. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLIKLARIDAGI MISOLLAR YECHISH JARAYONIDA O'QUVCHILAR TOMONIDAN YO'L QO'YILADIGAN AYRIM XATOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH. EDAGOGIK AHORAT, 54.

17. Rajabova, N. K. Pedagogical Conditions for Improving the Research Activities of Future Primary School Teachers.

18. Xalilova, M. F., & Niyazova, D. S. (2021). Ecological education of children in primary school. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 615-622.

19. Xalilova, F. M. (2021). TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA O'QUVCHILAR TASAVVUR VA TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH HAMDA RIVOJLANTIRISH. Scientific progress, 2(6), 1030-1037.

20. Xalilova, F. (2020). "СУВЎТЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК ГУРУҲЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ" МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ХУСУСИЙ МЕТОДЛАР. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 4(4).

21. Mamatkulovna, K. F., & Muxamedjonovna, G. S. (2022). European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE).

22. Mamatqulovna, X. F., & Muxammedovna, G. S. (2021). Pedagogical and psychological features of the organization of lessons on the basis of pedagogical technologies in the primary school. Middle European Scientific Bulletin, 11.

23. Mamatkulovna, K. F. (2021). Formation and Development of Students' Imagination and Concepts in Science Lessons. International Journal of Culture and Modernity, 11, 196-200.

24. Mahmudovich, S. G. U. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI OQITISH VA TASHKIL ETISH. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 103-111.

25. Makhmudovich, S. G., & Khalilovna, A. L. BIOLOGY OF COMMERCIAL PREDATORY FISH, LOWER REACHES OF THE ZARAFSHAN RIVER BASIN. Chief Editor.

26. Сайфуллаева, Р., & Ҳамроева, Ҳ. (2010). НЕКОТОРЫЕ СВОЙСТВА ЯЗЫКОВЫХ ИГР О. ШАРАФИДДИНОВА ОБРАБОТАНЫ В ЭЛЕКТРОННОМ ФОРМАТЕ. Наука и новые технологии, (1), 293-295.

27. Makhmudovich, S. G. U., & O'tkirovich, Y. F. (2021). Methods of teaching younger students the ability to solve cognitive tasks of environmental protection. Middle European Scientific Bulletin, 11.

28. Алимова, Л. Х., Гафарова, С. М., & Сайфуллаев, Г. М. (2018). Нарушение обмена энергии в митохондриях печени при гелиотринном гепатите. Вопросы науки и образования, (10 (22)), 14-15.

29. Сайфуллаев, Г. М. (1995). Биология и хозяйственное значение промысловых хищных видов рыб, проникших из реки Амударья в водоемы низовья бассейна реки Зарафшан.

30. Sayfullayev, G. (2021). Methods of teaching younger students the ability to solve cognitive tasks of environmental protection. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 5(5).
31. Хамраев, А. (2018). Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся. Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи, (2), 23-26.
32. Adizov, B. R., & Khamroev, A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. Ilmiy xabarnoma, 69.
33. Ҳамроев, Р. (2014). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 22(1), 53-58.
34. Hamroyev, R. A., Qoldoshev, A. R., & Hasanova, A. M. (2021). Methods of teaching 1st grade students to use writing tools effectively. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(1), 168-174.
35. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. Middle European Scientific Bulletin, 11.
36. Laziz, Q. (2022, March). BOSHLANGICH SINIF MATEMATIKASIDA MIQDOR TUSHUNCHASINI ORGATISH: DOI: 10.53885/edinres. 2021.43. 38.112 Qayimov Laziz, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dispetcheri. In Научно-практическая конференция.
37. Mirzo o'g'li, Q. L. FORMATION OF READING SKILLS IN JUNIOR SCHOOL CHILDREN.
38. Farahani, M. TRANSLATION, THE BASICS: A Book Review Written by: Juliane House, Published by Routledge. New York: USA, 2018, Pp. 1-210.
39. Тўхсанов, Қ. Р. (2021, December). АРХАИЗМ ВА ТАРЖИМА: Қаҳрамон Раҳимбоевич Тўхсанов БўхДУ филология фанлари доктори, доцент. In Научно-практическая конференция.
40. Жаналиева, Р. Н., Торсыкбаева, Б. Б., Кистаубаева, Д. М., Абдуллина, Д. С., & Алиева, Г. А. (2016). Аспекты системы образования Республики Казахстан и методическое обеспечение среднего образования. Наука и мир, 3(1), 65-67.
41. Тухсанов, К. Р. (2014). К вопросу о переводе на узбекский и русский языки притчи " Спор грамматика с кормчим" персидского поэта Руми. In Филология и лингвистика в современном обществе (pp. 36-39).
42. Tukhsanov, K. R. (2020). DJAMAL KAMAL IS AN EXPERIENCED TRANSLATOR. Theoretical & Applied Science, (4), 950-956.

MAKTAB DARSLIKLARIDA MORFEMIKA BO`LIMIGA DOIR MAVZULARNI O`QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO`LLASH SAMARADORLIGI

Hamroyeva Maftuna Rasulovna

BuxDU o`qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab darsliklaridagi morfemika bo`limiga doir mashqlarni bajartirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o`ziga xos xususiyatlari va samaradorligi haqida fikr-mulohazalar ilmiy bayon qilingan. Namuna sifatida mashq va topshiriqlar berib o`tilgan.*

Kalit so`zlar: *morfemika, talaffuz, harf, morfemika, millat, til, yasovchi, hukumat, savodxonlik, bosqich, shakl yasovchi, pedagog, ta`lim, innovatsion, texnologiya.*

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Hukumatning tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta`lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o`qituvchilarining eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta`lim berish, ularni jismoniy va ma`naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iborat. Farzandlarimiz uchun ish joylari yaratish, ularni hayotda munosib o`rin egallashini ta`minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko`tarishni davrning o`zi taqozo etmoqda”, – kabi fikrlari ayni damda bizning pedagogik salohiyatimizni yanada oshirish maqsadida o`z ustimizda tinimsiz ishlashimiz lozimligini anglatadi.

O`zbekiston Respublikasining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy-ma`naviy sohalardagi rivoji fan va ta`lim darajasini yanada kuchaytirish, fanlarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligiga erishishning yangi bosqichlariga ko`tarishni dolzarb qilib qo`ymoqda. Ayniqsa, madaniyatlar to`qnashuvi, turli xalq vakillari “oldi-berdi”si tezkor rivojlanayotgan bu zamonda madaniyatning tilga munosabati, tilning madaniyatga munosabatini o`rganish dolzarb bo`lib qolayotganini ko`rsatadi. Madaniy stereotiplarni bilmaslik, u haqida xato xulosalarga kelish jamiyatlar o`rtasida tushunmovchilikka sabab bo`lishi ham mumkin. Chunki bir madaniyat uchun stereotipga aylangan holat boshqasi uchun haqoratli xulosalar keltirishi mumkin. Bu haqida so`z yuritganda bobomiz Alisher Navoiyning “Tilga ixtiyorsiz – elga e`tiborsiz” degan so`zlarida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Darhaqiqat, istiqlol xalqimizning ma`naviy uyg`onishi uchun to`la imkoniyat yaratdi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy sifatlari bu - pedagogik texnologiyalar kabi murakkab obyektlarni tavsiflash uchun ularning asosiy umumiy sifatlarini ajratib ko`rsatish kerakligidadir. Bular:

- Mustahkamlik - bu integral xususiyat va sifatlarning mavjudligida ifodalangan tashkil etilgan komponentlar to`plamining alohida sifati.

- Butunlik - tarkibiy elementlarning o`ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan holda umumiy integral sifatlarning mavjudligi.

- Ilmiylik - tajribani tahlil qilish va undan foydalanish, kontseptuallik, bashorat qilish va boshqa fazilatlarni o'z ichiga oladi, fan va amaliyot yutuqlarining sintezi, o'tmish tajribasining an'anaviy elementlari va ijtimoiy taraqqiyot, jamiyatni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish natijasida tug'ilgan narsalarning kombinatsiyasi.

- Konseptuallik - pedagogik jarayon, g'oyalar, tamoyillar, ular asosida faoliyat tashkil etish haqidagi qarashlar tizimi.

- Strukturalash - tizimning barqarorligi va ishonchliligini ta'minlaydigan tizimning ma'lum bir ichki tashkiloti (maqsadlari, mazmuni), elementlarning magistral aloqalari (konsepsiya, usullar), barqaror o'zaro ta'sirlar (algoritm) mavjudligi.

- Davomiylik - umumiy vazifaning ma'lum bir qismini hal qiladi, mazmuni, vaqti va boshqa parametrlari bo'yicha muvofiqlashtiriladi.

- O'zgaruvchanlik – moslashuvchanlik esa texnologiyani amalga oshirish shartlariga qarab algoritm elementlarining ketma-ketligini, tartibini, siklligini o'zgartirishga asoslangan bo'lishidir.

- Instrumentallik - o'quv jarayonining asosiy vositalari bilan (darsliklar, jihozlar va boshqalar) bir qatorda o'quv, uslubiy, didaktik vositalar va vositalar majmuasi bilan ta'minlash.

- Samaradorlik - natijaning sarflangan resurslar miqdoriga nisbati.

Maktab darsliklarida o'quvchilar morfemika bo'limiga doir bilimlar bilan dastur va darslikda berilgan "So'z tarkibi haqida umumiy ma'lumot" mavzusi ta'limida, asosan, ona tilimiz agglyutinativ til ekanligini anglashi, shuningdek, asos va affiksial morfemalarni o'z o'rnida qo'llay olishni bilishi zarur. Bunda o'quvchilarga tilimizdagi so'zlarda asos morfema bilan affiksial morfema chegarasi aniq sezilib turishi, asosan, uni flektiv tillar bilan qiyoslash orqali tushuntirish samarali bo'ladi. Masalan,

1- topshiriq. O'zbekcha so'zlarning tuzilishi bilan o'zlashma so'zlarning shaklini solishtiring. Ular haqida mulohaza bildiring. Shunday so'zlar ro'yxatini (lug'atdan foydalanib) davom ettiring.

ko'rmoq – ko'ryarman; видит – вижу (r); yurmoq – yuryarman; ходит –хожу (r); hukm – mahkama – hokim – hakam – mahkum (a);

fikr – tafakkur – mutafakkir (a); zulm – zolim – mazlum (a);

hol – ahvol (a); xulq – axloq (a); she'r – ash'or (a).

2- topshiriq. Berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va bu so'zlarning asos qismini aniqlashga harakat qiling.

3- topshiriq. Asosga qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgarishini kuzating. Buning sababini tushuntirishga harakat qiling.

sayla–saylov, sina–sinov, aya–ayovsiz; so'ra–so'roq, bo'ya–bo'yoq; o'yna–o'ynoqi, sayra–sayroqi

"Qo'shimchalarning ma'no vazifasiga ko'ra turlari" mavzusi ta'limida o'quvchilarga imkon qadar qiziqarli topshiriqlar berishga harakat qilish zarur, toki o'quvchini mavzu mohiyati (nazariy bilimlar) zeriktirmasin. Masalan,

1-topshiriq. She'riy matnni o'qing va uqing. She'riy matn tarkibidagi so'zlarni berilgan jadvalga moslab joylashtiring.

Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada,

Bu nihol nomini Yaxshilik ata.

Niholing yoniga bir gul ekib qo'y,

U gulning ismini Go'zallik deb qo'y.

№ asos so'z

yasovchi lug'aviy shakl yasovchi aloqa-
munosabat qo'shimchasi

1 yurt -dosh – -im

2 bog' – – -ing, -ga

3

4

...

2-topshiriq. She'riy matnda shoir Yaxshilik, Go'zallik so'zlarini bosh harf bilan yozganligini qanday tushundingiz? Matn mazmunini bitta gapda ifodalang.

Xullas, Joriy ona tili darsliklarida "Morfemika" bo'limiga doir mavzularni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning qaysi metodlarini qo'llash bevosita o'tilayotgan mavzuning xarakteridan kelib chiqadi. Ta'lim jarayoniga rejalashtirilmagan, loyihalashtirilmagan metod va usullarni o'rinsiz qo'llash ijobiy natijalarga olib kelmasligi mumkin. Pedagog o'zidagi pedagogik mahoratini bu kabi mavzularni tushuntirishda turli xil metodlar vositasida ko'rsatish imkoniyatiga ega, albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamroyeva, R. M. (2021). Application of Anthroponymic Units in the Works of Tahir Malik (On The Example of the Story "Devona"). Middle European Scientific Bulletin, 8.
2. Rasulovna, H. M. (2021). Use Of Anthroponyms In Tahir Malik's Stories. Journal of Contemporary.
3. Rasulovna, H. M. (2021). Anthroponymic forms in the text of artistic work (On the example of Tahir Malik's work). Middle European Scientific Bulletin, 10.
4. Rasulovna, H. M. THE LITERARY OF ANTHROPONYMS. Chief Editor.
5. Rasulovna, H. M. (2022). TOHIR MALIKNING ASARLARIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR QOLLANILISHINING USLUBIY TAHLILI. BARQARORLIK VA ETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAIN ILMIIY JURNALI, 2(4), 391-398.
6. HAMROYEVA, M. (2021). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUV. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 1(1).
7. Сайфуллаев, Г. М., Алимова, Л. Х., & Ходиев, Б. О. У. (2020). Формирование и развитие ихтиофауны водоемов низовьев р. зарафшан. Вестник науки и образования, (12-3 (90)), 22-25.

8. Sayfullaev, G., Alimova, L., & Ollokova, U. (2019). Formation of environmental knowledge in pupils of second class in the lessons the world around us. In *Bridge to science: research works* (pp. 206-208).
9. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
10. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
11. Hamroev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2019.
12. Kamroev, A. (2019). STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(7), 285-296.
13. Хамраев, А. (2018). Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся. *Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи*, (2), 23-26.
14. Adizov, B. R., & Khamroev, A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. *Ilmiy xabarnoma*, 69.
15. Ҳамроев, Р. (2014). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, 22(1), 53-58.
16. Hamroyev, R. A., Qoldoshev, A. R., & Hasanova, A. M. (2021). Methods of teaching 1st grade students to use writing tools effectively. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(1), 168-174.
17. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
18. Azimov, Y. (2003). Hamroyev A//Husnixat va uni oqitish usuliyoti (Maruza matnlari).
19. Khamroev, A. (2021). Quality and effectiveness for design of learning outcomes in the language teaching. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 549-558.
20. Pulatova, A. Y. (2021). Scientific and Theoretical Foundations of an Integrative Approach to the Formation of Literary Concepts in Primary School Students. *Middle European Scientific Bulletin*, 8.
21. Asadovna, Y. (2021). Psychological Characteristics of Speech Cultivation by Working on the Text in Primary School Reading Lessons. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 437-446.

22. Polatovna, A. Y. (2021). Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 490-501.
23. Pulotova, Y. (2021). Principles of Integration of Primary School Mother Tongue and Learning Classes. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 185-191.
24. Avezmurodovich, Q. L. R., & Oybekovna, N. D. (2022). BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH. QAYTA HIKOYALASH VA BAYON TURLARI.
25. Rustambek, Q. L. (2020). Birinchi sinf chapaqay o 'quvchilarining maktabga moslashishi, maktabga moslashishi davridagi pedagogik yordamning mazmuni. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
26. Gordon, N. (1986). Left-handed ness and Learning. *Developmental Medicine & Child Neurology*, 28(5), 656-661.
27. Azimov, Y. Y., & Qo'ldoshev, R. A. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (metodik qollanma). *GlobeEdit*, 2020.-141bet.
28. CHAPAQAY, R. A. Q. B. S., & O'QUVCHILARNI YoZUVGA O'RGATISHNING, I. N. A. (2021). Scientific progress. 2021.№ 6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlan-ich-sinf-chapa-ay-uvchilarni-yozuvga-rgatishning-ilmiy-nazariy-asoslari> (ma'lumotlar obrascheniya: 25.10. 2021).
29. Farmonova, S. (2021). Pedagogical and Innovative Activities in Project Education. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 176-180.
30. FARMONOVA, S. M. (2020). Improvement of Professional Thinking in Future Teachers. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(05), 251-257.
31. Mukhamedjanova, S. D. (2019). IMPROVEMENT OF PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE CULTURE IN FUTURE HIGHER EDUCATION SPECIALISTS. *Theoretical & Applied Science*, (12), 356-359.
32. Laziz, Q. (2022, March). BOSHLANGICH SINIF MATEMATIKASIDA MIQDOR TUSHUNCHASINI ORGATISH: DOI: 10.53885/edinres. 2021.43. 38.112 Qayimov Laziz, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dispetcheri. In *Научно-практическая конференция*.
33. Mirzo o'g'li, Q. L. FORMATION OF READING SKILLS IN JUNIOR SCHOOL CHILDREN.
34. Farahani, M. TRANSLATION, THE BASICS: A Book Review Written by: Juliane House, Published by Routledge. New York: USA, 2018, Pp. 1-210.
35. Тўхсанов, Қ. Р. (2021, December). АРХАИЗМ ВА ТАРЖИМА: Қаҳрамон Раҳимбоевич Тўхсанов БухДУ филология фанлари доктори, доцент. In *Научно-практическая конференция*.
36. Жаналиева, Р. Н., Торсыкбаева, Б. Б., Кистаубаева, Д. М., Абдуллина, Д. С., & Алиева, Г. А. (2016). Аспекты системы образования Республики Казахстан и методическое обеспечение среднего образования. *Наука и мир*, 3(1), 65-67.

37. Тухсанов, К. Р. (2014). К вопросу о переводе на узбекский и русский языки притчи "Спор грамматика с кормчим" персидского поэта Руми. In Филология и лингвистика в современном обществе (pp. 36-39).

38. Tukhsanov, K. R. (2020). DJAMAL KAMAL IS AN EXPERIENCED TRANSLATOR. Theoretical & Applied Science, (4), 950-956.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH

Boymurodova Nodirabegim Bahodirovna

Buxoro davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Maqolada matematika darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish yo'llari haqida fikr yuritilgan. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalarni fikrlashga o'rgatishi, ularning bilish ehtiyojlarini rivojlantirishning samarali usullari qayd etilgan.

Kalit so'zlar: *mustaqil ish, o'quv-biluv faoliyati, didaktik, nazorat, ratsional*

Ключевые слова: *самостоятельная работа, учебный знание, дидактика, контроль, рационал*

Key words: *independent work, didactic, superintendence, rational*

Mustaqil ish – o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi vositadir. Mustaqil ish katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. U o'quvchilarda ta'lim jarayonida mustahkam va ongli bilim olishni, mahorat va malakaning shakllanishini, o'zlashtirilgan bilimlardan foydalanishni, o'zgargan sharoitlarda mahorat va malakalarni qo'llashni, bilim orttirish qobiliyatini (kuzatuvchanlik, harakatchanlik, mantiqiy fikrlash, sinfiy faollik va hokazo) rivojlanishini, aqliy va jismoniy mehnat madaniyatiga ko'nikishini, kelgusida mustaqil bilim olish bilan samarali shug'ullanishni faollashtiradi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini turli olimlar turlicha talqin qilishadi. Ayrimlar uni o'qitish metodi sifatida qarashsa, ba'zilar o'qitish vositasi, shuningdek o'qitishni tashkil etish shakli sifatida talqin qilishadi. Zero, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faolligidan kelib chiqib uni o'qitish metodi sifatida, o'quv jarayonini tashkil etish nuqtai nazarida o'qitishni tashkil etish shakli ko'rinishida, o'quvchi o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish jihatidan uni o'qitish vositasi sifatida o'rganish mumkin.

Mustaqil ishni turli olimlar turlicha talqin qilishar ekan, unga turlicha ta'riflar keltirilgan. Shular ichidan pedagog olim B.P.Esipovning mustaqil ishga bergan ta'rifini kengroq deb qarash mumkin. Ushbu olim mustaqil ishga quyidagicha ta'rif beradi: "O'quvchilarning mustaqil ishi – bu o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo o'qituvchining topshirig'i bo'yicha bajariladigan mehnatdir. Bunda o'quvchilar o'z kuchini sarflab, u yoki bu shaklda aqliy yoki jismoniy (yoki: birgalikda) harakat natijasini ko'rsatgan holda maqsadga erishishga ongli ravishda intiladilar"

Boshlang'ich ta'lim nazariyasida kichik yoshdagi o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish yuzasidan juda ko'p tadqiqot ishlari olib borilgan. Ammo o'quvchi mustaqil ishi tushunchasining maqsadi va mohiyati, uni tashkil etish usuliyotining barcha qirralari ochib berilmagan.


5. Radzabova, N. K. (2022). FACTORS INCLUDING RESEARCH ACTIVITIES OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. In НАУКА, ТЕХНОЛОГИИ, ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 119-121).

6. Radzabova, N. K. (2022). IMPROVING THE RESEARCH ACTIVITY OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS AS A SOCIAL PEDAGOGICAL NEED. In ОБРАЗОВАНИЕ, ВОСПИТАНИЕ И ОБУЧЕНИЕ В СООТВЕТСТВИИ С ФГОС: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 79-81).

7. Komilovna, R. N. (2021). METHODS AND TOOLS OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF THE CONCEPT OF FIGURE FACE IN STUDENTS.
8. Radzabova, K. N. (2021). Pedagogical Conditions for Improving Research Activity in Future Primary School Teachers.
9. RAJABOVA, N. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH. EDAGOGIK AHORAT, 145.
10. RAJABOVA, N. BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLIKLARIDAGI MISOLLAR YECHISH JARAYONIDA O'QUVCHILAR TOMONIDAN YO'L QO'YILADIGAN AYRIM XATOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH. EDAGOGIK AHORAT, 54.
11. Rajabova, N. K. Pedagogical Conditions for Improving the Research Activities of Future Primary School Teachers.
12. Yunus Y. S. DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN MATHEMATICS LESSONS AS THE BASIS FOR IMPROVING THE QUALITY OF THE EDUCATIONAL PROCESS //Chief Editor.
13. Yunusovna Y. S. METHODOLOGY OF FORMATION OF GRAPHIC SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 129-133.
14. Yunusovna Y. S. METHODOLOGY OF FORMATION OF GRAPHIC SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 129-133.
15. Olloqova, M. O. (2021). Intensive education and linguistic competence in mother tongue. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(1), 580-587.
16. Tog'ayeva, U. (2020). IMPROVING THE MODULE" MOTHER TONGUE TEACHING METHOD" IN PROJECT EDUCATIONAL INSTRUCTIONS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).
17. Yusufzoda S., Ortiqova S. Improving the methods of developing thinking ability of primary school students in mathematics //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 4. – С. 1458-1463.
18. Yunus Y. S. FORMATION OF CURRENCY SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 281-285.
19. YUSUFZODA S. O'quvchi mantiqiy tafakkurini shakllantirish omillari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
20. Dilnoza, X. (2022). 1-SINF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA ETNOPEDAGOGIKA NAMUNALARINI O'RGATISH METODIKASI. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(4), 337-341.
21. Xayrullayeva, D. (2021). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ONA TILI TA'LIMINING ANAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
22. Hamroyeva, R. M. (2021). Application of Anthroponymic Units in the Works of Tahir Malik (On The Example of the Story" Devona"). *Middle European Scientific Bulletin*, 8.

23. Rasulovna, H. M. (2021). Use Of Anthroponyms In Tahir Malik's Stories. *Journal of Contemporary*.
24. Rasulovna, H. M. (2021). Anthroponymic forms in the text of artistic work (On the example of Tahir Malik's work). *Middle European Scientific Bulletin*, 10.
25. Rasulovna, H. M. THE LITERARY OF ANTHROPONYMS. Chief Editor.
26. Rasulovna, H. M. (2022). TOHIR MALIKNING ASARLARIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR QOLLANILISHINING USLUBIY TAHLILI. BARQARORLIK VA ETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAIN ILMIIY JURNALI, 2(4), 391-398.
27. NAMROYEVA, M. (2021). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUV. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 1(1).
28. Наврузова, М. Г. (2020). Креативность педагога-условие инновационности его профессиональной деятельности. *Вопросы науки и образования*, (11 (95)), 109-111.
29. Habiba, G. (2021). BIRINCHI SINIF O 'QUVCHILARIDA YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH. *Scientific progress*, 2(7), 983-989.
30. G'aforovna, J. H. (2022). SAVOD O 'RGATISHGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O 'QISH VA YOZUVGA O 'RGATISH. BOShqARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAIN ILMIIY JURNALI, 2(3), 1-4.
31. Хакимова, М. Х. (2017). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 32, pp. 101-102). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
32. Касимов, Ф. М., Касимова, М. М., & Хакимова, М. Х. (2016). Специфические принципы построения системы учебных задач. *Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения*, (50-2), 58-62.
33. Farmonova, S. (2021). Opportunities for the Development of the Communicative Culture of Future Teachers through the Design of Teaching. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 172-175.
34. Farmonova, S. (2019). THE TOLE OF THE PROJECT TEACHING TOOL IN DEVELOPING THE COMMUNICATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 434-441.
35. FARMONOVA, S. M. (2020). Improvement of Professional Thinking in Future Teachers. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(05), 251-257.
36. Laziz, Q. (2022, March). BOSHLANGICH SINIF MATEMATIKASIDA MIQDOR TUSHUNCHASINI ORGATISH: DOI: 10.53885/edinres. 2021.43. 38.112 Qayimov Laziz, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dispetcheri. In Научно-практическая конференция.
37. Mirzo o'g'li, Q. L. FORMATION OF READING SKILLS IN JUNIOR SCHOOL CHILDREN.
38. Farahani, M. TRANSLATION, THE BASICS: A Book Review Written by: Juliane House, Published by Routledge. New York: USA, 2018, Pp. 1-210.

39. Тўхсанов, Қ. Р. (2021, December). АРХАИЗМ ВА ТАРЖИМА: Қаҳрамон Раҳимбоевич Тўхсанов БухДУ филология фанлари доктори, доцент. In Научно-практическая конференция.
40. Жаналиева, Р. Н., Торсыкбаева, Б. Б., Кистаубаева, Д. М., Абдуллина, Д. С., & Алиева, Г. А. (2016). Аспекты системы образования Республики Казахстан и методическое обеспечение среднего образования. Наука и мир, 3(1), 65-67.
41. Тухсанов, К. Р. (2014). К вопросу о переводе на узбекский и русский языки притчи " Спор грамматика с кормчим" персидского поэта Руми. In Филология и лингвистика в современном обществе (pp. 36-39).
42. Tukhsanov, K. R. (2020). DJAMAL KAMAL IS AN EXPERIENCED TRANSLATOR. Theoretical & Applied Science, (4), 950-956.
43. Ҳамроев, Р. (2014). Бошланғич таълимни ижодий ташкил этиш истиқболлари. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха, 22(1), 53-58.
44. Hamroyev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.
45. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. Middle European Scientific Bulletin, 11.
46. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. Eastern European Scientific Journal, (1).
47. Hamroyev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.
48. Kamroyev, A. (2019). STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(7), 285-296.
49. Хамраев, А. (2018). Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся. Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи, (2), 23-26.
50. Adizov, B. R., & Khamroyev, A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. Ilmiy xabarнома, 69.
51. Ҳамроев, Р. (2014). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 22(1), 53-58.
52. Hamroyev, R. A., Qoldoshev, A. R., & Hasanova, A. M. (2021). Methods of teaching 1st grade students to use writing tools effectively. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(1), 168-174.
53. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. Middle European Scientific Bulletin, 11.

54. Azimov, Y. (2003). Hamroyev A//Husnixat va uni oqitish usuliyoti (Maruza matnlari).

55. Khamroev, A. (2021). Quality and effectiveness for design of learning outcomes in the language teaching. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 549-558.

**ПАРЕМАЛАРДА ИФОДАЛАНГАН МАТО НОМЛАРИНИНГ ЭТНОЛИНГВИСТИК
ХУСУСИЯТЛАРИ**

Нурова Юлдуз Убайдуллаевна

*Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедраси
ўқитувчиси*

Аннотация. Ўзбек халқ паремаларида ич кийим номларидан лозим, иштон, чолвор, яктак; уст ва ич кийим қисмлари номларидан ёқа, кишан ёқа, сувсар ёқа, энг, жияк, балоқ, тугма, ямоқ, этак, авра, астар; кийимларга ёрдамчи буюм номларидан қайиш, қийиқ(ча), белбоғ; мато номларидан атлас, кимхоб, еқасам, шойи, мовут, бахмал, ипак каби номлар иштирок этганлиги аниқланди.

Аннотация. Названия нижнего белья в узбекском фольклоре включают штаны, шаровары, штаны; от наименований верхней и внутренней частей одежды: воротник, дужка, воротник мусар, анг, жияк, балоқ, пуговица, нашивка, подол, авра, подкладка; от наименований вспомогательных предметов для одежды пояс, пояс, пояс; Установлено, что среди наименований тканей задействованы такие наименования, как атлас, кимхоб, экасам, шёлк, мовут, бархат, шёлк.

Annotation. Names for underwear in Uzbek folklore include pants, bloomers, trousers; from the names of the upper and inner parts of clothing: collar, shackle, musar collar, ang, jiyak, beams, button, stripe, hem, avra, lining; from the names of auxiliary items for clothing belt, belt, belt; It has been established that among the names of fabrics such names as satin, kimhob, ekasam, silk, movut, velvet, silk are involved.

Калит сўзлар. Газлама, этнолингвистика, мато, қимматбаҳо мато номлари, этник идентификация.

Ключевые слова. Газлама, этнолингвистика, сукно, драгоценные суконные наименования, этническая идентификация.

Key words. Ghazlama, ethnolinguistics, cloth, precious cloth names, ethnic identification.

Халқ этник идентификациясининг энг муҳим таркибий қисмларидан бири кийимдир. Кийим номлари инсон дунёсининг лингвистик манзарасида алоҳида ўрин тутди, улар бевосита халқнинг ҳаёти, тарихи, маданияти билан боғлиқ, ривожланиши ва истеъмолда бўлиши эса этномаданий ҳамжамият ҳаётида юз берадиган ижтимоий ўзгаришларга бориб тақалади. Кийим фақат вазифаси билан чекланмай, у энг барқарор этник кўрсаткичлардан бири сифатида халқ руҳияти ва ҳаёт тарзини ифодаловчи ижтимоий вазифани ҳам бажаради. Халқ кийимларининг миллий мажмуаси шаклланишига ахлоқий ва эстетик ғоялар, авлодлар анъаналари,

моддий ва иқтисодий турмуш шароитлари, шунингдек, бошқа этник гуруҳлар билан алоқалари таъсир кўрсатади.

Мато арабча ашё, юк маъносини ифодалаб, газлама, кийим тайёрланадиган материал деган мазмунда қўлланади. Ўзбек халқ паремаларида мато номлари баъзан ундан тайёрланган кийим маъносида қўлланганлиги учун ҳам бундай номларни ушбу бандда ўрганишни лозим деб топдик. Мато номларини сифат ва баҳосига кўра таснифлаш мақсадга мувофиқ:

Қимматбаҳо мато номлари

Атлас кийсанг бўзингни унутма,

Кимхоб кийсанг – алагингни.

Атлас – [а. текис, силлиқ; ипақдан тўқилган майин мато]. Бир томони ялтироқ, гулдор, кудунгланган маҳаллий ипақ газлама .

Атлас – ипақдан тўқилган майин мато .

Атлас (араб. текис, силлиқ) – танда ипи ҳам, арқоқ ипи ҳам табиий ипақдан тўқиладиган бир юзлама силлиқ мато. Танда ипи абр банди усулида бўяб безатилади. Алоҳида ишлов бериб атласга жило берилади, шунга кўра у товланиб туради.

Изоҳлардан шундай хулосага келиш мумкинки, атлас ипақдан тўқиладиган, бир юзлама силлиқ миллий матоларимиздан бўлиб, қимматбаҳо саналган ва у лексема мақолларда “қимматбаҳо кийим” маъносида метонимияга учраган.

Кимхоб (форс.) – танда ипи зар, арқоғи ипақдан гул (нақш) ҳосил қилиб тўқилган қимматбаҳо мато. Зар ипининг рангига қараб сариқ кимхоб, кумуш ранг (оқ) кимхоб деб номланган; Бой хонадонлардаги аёл ва эркакларнинг ўстки кийимлари (тўн, нимча, камзул, паранжи ва бошқалар), асосан, кимхобдан тикилган. Кимхоб тўқиш Бухоро, Шаҳрисабз, Ғиждувон шаҳарларида қадимдан ривожланган. XX асрнинг 20-йилларигача Туркистон ўлкасининг чет элларга чиқарадиган асосий матоларидан ҳисобланган .

Демак, кимхоб ҳам атлас сингари қимматбаҳо мато бўлиб, мақолларда худди шу жиҳати билан муқимлашган.

Ёқаси қолса ҳам – беқасам.

Беқасам – 1. Ўриши ипақ, арқоғи ипақдан тўқиладиган, йўл-йўл гулли пишиқ газлама .

Беқасам, беқасаб – йўл-йўл гулли пишиқ мато; танда ипи ипақ, арқоғи ипақдан тўқилади. ...Бухоро, Самарқанд водийсида олача номи билан ҳам машҳур .

Беқасам сифати юқори мато сифатида халқимиз маиший турмуш тарзида алоҳида ўринга эга бўлган ва мақолдан ўрин эгаллашига ҳам шу хусусияти асос бўлган.

Кийсанг шойи, кимхоб, мовут,

Охир тушкунг ёғоч тобут.

Шойи – [ф. шоҳга оид, мансуб]. Ипақдан тўқилган газлама, мато; шоҳи.

Шойи. Бу тожикча от асли шоҳи товуш таркибига эга бўлиб, ўзбек тилига ҳ товуши й товушига алмаштириб олинган, шеъриятда шоҳи шаклида ҳам ишлатилади; “ипакдан тўқилган газлама” маъносини англатади.

Мовут – ўнг томони силлиқ, жун ёки ярми жун мато, сукно. Мовут – жун толалардан ёки уларга бошқа толалар аралаштириб тўқиладиган жун ёки ярим жун газлама.

Ер юзини бахмал олса ҳам, анқовга такалик тегмайди.

Бахмал – [ф. тукли; духоба, бархит]. От, сфт. 1 айн. Духоба.

Бахмал, ола бахмал, духоба – майин, силлиқ, патли газлама. Патлари табиий ёки сунъий ипакдан, замини ип ёки канопдан тўқилади.

Бахмал ўзбек хонадонларида ҳозирги кеча-кундузда ҳам қизлар сепи учун энг қимматбаҳо матолардан саналади.

Ейишинг – кепак, кийишинг – ипак.

Ипак – пилла қурти чиқарган жуда ингичка, пишиқ, ялтироқ, товланиб турадиган мулойим тола ва ундан йигирилган ип. Шундай иплардан тўқилган мато, шойи ва ундан тикилган кийим ёки буюм.

Ипак “пилладан олинадиган ингичка пишиқ майин тола”. Бу сўз ип отидан кичрайтириш маъносини ифодаловчи -(қ)к қўшимчаси билан ҳосил қилинган, шунга кўра асли “ўта ингичка тола” маъносини билдирган, “пилла толаси” маъноси шу маънодан ўсиб чиққан: ип + қк= ипқк . барчїн-ипак-парча.

Ипак, пилла толаси – ингичка, пишиқ, ялтироқ, товланиб турадиган тола; ипак қўртининг ипак ажратувчи иккита безидан чиқувчи суюқликдан ҳосил бўладиган табиий тўқимачилик хом ашёси. Ипакдан тайёрланган кийимлар бозоргир эканлиги билан ҳозир ҳам ажралиб туради.

Қимматбаҳо матолардан атлас, кимхоб, беқасам, шойи, мовут, бахмал, ипак каби номлар паремаларда иштирок этганлиги аниқланди.

Арзон мато номлари

Арзон мато номлари паремаларда нисбатан кам учрайди. Чунончи:

Сўз – эмгак бўлар,

Бўз – кўйлак бўлар.

Бўз – II [а]. Қўл дастгоҳида пахта ипидан тўқилган мато.

Бўз II. Бу арабча сўз асли базз (ун) шаклига эга, ўзбек тилига а унлисини ў унлисига алмаштириб сўз охиридаги зз товушларидан бирини ташлаб қабул қилинган: Базз < бўз. Бу сўз асли кўп маъноли базза феълидан ҳосил қилинган масдар бўлиб, “хонаки дастгоҳда пахта ипидан тўқилган оқ-кулранг дағал мато” маъносини англатади .

“Девону луғотит турк”да ҳам бу сўз изоҳининг учраши унинг аждодларимиз турмуш тарзида қадимдан мавжуд эканлигини кўрсатади: бōз – бўз [110, 75]. Бўз – II. Ипдан тўқилган мато: Тикилди ўрдуйиким, кўрмамиш кўз, Хазу иксину атлас ончаким бўз....

Атлас кийсанг бўзингни унутма, кимхоб кийсанг – алагингни.

Алак – арқоғи ва танда ипи ярим пишитилган ипдан тўқилган мато, дастаки дастгоҳ (қўл дўкон)да турли рангда йўл-йўл қилиб тайёрланган. Алақдан тўн, кўрпа ва кўрпача тикилган. Алакнинг гуллари йўл-йўл бўлганидан қалами, баъзи ингичка йўлчилари эса зевак деб номланган. Алак ўтмишда кенг тарқалган, айниқса, Фарғона водийси, Самарқанд ва Қашқадарё вилоятларида кўплаб тўқилган, чет мамлакатларга ҳам чиқарилган. Алак – пахта ипидан қўлда тўқилган мато, силлиқ бўз. Бундан шундай хулосага келиш мумкинки, алак ҳам бўзнинг бир тури, фақатгина бўздан биров силлиқлиги билан фарқланади.

Бўз ва унинг силлиқ шакли – алак арзон мато номлари сифатида паремаларда иштирок этган.

Хулоса. Ўзбек халқ паремалари таркибида кийим ва мато номларини ажралмас тузилма сифатида аниқлаб тадқиқ этиш иқтисодий ва ижтимоий-сиёсий турмуш шароитларининг ўзгариши натижасида миллат ҳаётида рўй берган миллий маданий ўзгаришлар ҳақида хулоса чиқаришга имкон бериши билан бирга ҳар бир этноснинг ўзига хос ҳаёт тарзи, дунёқараши, турмуши, билим даражаси ҳақида батафсил маълумотга эга бўлишга имкон беради.

Фойдаланилган адабиётлар :

1. N.Y. Ubaydullaevna. Ethnic expressions of uzbek folk names. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) 9 (5), 316-320
2. N.Y. Ubaydullayevna. ethnolinguistic study of outerwear and underwear parts in paremas ny Ubaydullayevna. European journal of modern medicine and practice 2(4), 86-89.
3. N.Y.Ubaydullaevna. Ethnolinguistics: Emergence, Development and Theoretical Research.
4. N.Y. Ubaydullaevna. Central asian journal of literature, philosophy and culture 2 (10), 120-124.
5. Y.U. Nurova. Homonymy of ethnonyms in uzbek folk parems. European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.Scholarzest>
6. Ulug'bekovna, A.N., & Moxirovna, N. (2022). Boshlang'ich sinflarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. Results of National Scientific Research International Journal, 1(3), 35-42.
7. Sayidova, R., & Toyirova, N. (2022). The use of interactive methods in the analysis of poetry in the native language and reading courses. in научные исследования молодых учёных (pp. 199-201).
8. Bakhtiyorovna, A. N., & Madina, O. Description of Non-Traditional Teaching Techniques Used in the Classes of the 3rd Class Native Language. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 3(3), 269-274.

9. Ozodova, M. (2021). boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlar. центр научных публикаций (buxdu.uz), 8(8).
10. Kodirova S. A. IDEOLOGICAL AND ARTISTIC FEATURES OF «ZARBULMASAL» //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 10. – С. 318-320.
11. Abdurakhimovna K. S. Idealistic Study of Proverbs //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 11. – С. 201-202.
12. Кодирова С. А. Жанровые особенности" зарбулмасала" //современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2021. – С. 97-99.
13. Davronov D. I. Methodological Possibilities of using the Media Education System in the Educational Process //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – Т. 11. – С. 32-37.
14. Davronov D. REVISITING VALUATION METHODS OF TECH COMPANIES : дис. – Central European University, 2019.
15. Davronov D. Zamon bilan hamnafas yashagan alloma //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2022. – Т. 21. – №. 21.
16. Ismoilovich D. D. THEORETICAL FOUNDATIONS OF WORK ON TEXT ANALYSIS IN PRIMARY SCHOOL.
17. Ismoilovich D. D. Methodological Possibilities of Using Media Educational Technologies to Increase the Professional Activity of Future Primary School Teachers //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – Т. 12. – С. 141-145.
18. Fayzullayev M. B., Sadullayeva M. G., Fayzulloyev O.M. Национально-культурные ценности востока в баснях мухаммада шарифа гульхани //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – С. 528-532.
19. Baymuradovna B. S. et al. Pedagogical technologies for the development of cognitive creative abilities of students in the lessons of the Russian language //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 6. – С. 492-496.
20. Gaibulloevna S. M. The unique idiolect of gulkhani—the fable writer. – 2021.
21. Gaybulloyevna S. M., Farkhodovna K. M. Causes, Forms and Corrective Actions of Deviant Behavior among School Children //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – Т. 11. – С. 43-46.
22. Gaybulloevna S. M. Urgent Problems of the Quality of the Educational Environment //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 152-154.
23. Садуллоева М. Г. Гуманизация отношений в системе «Учитель-учащийся»-установление связей сотрудничества //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 8-3 (49). – С. 103-104.
24. Садуллоева М. Г. Лингвокультурема как тесная связь языка и культуры, на примере басни гулхани «рассказы о сове» //актуальные вопросы современной науки и образования. – 2021. – С. 218-220.

25. Gaybulloyevna S. M. The use of modern technologies in the lessons of the russian language and literature in the context of student-centered education //european journal of modern medicine and practice. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 102-106.

26. Sadulloyeva M. “National culture in the fables of gulhaniy //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 10. – №. 9

27. Haydarova, M. (2017). Impact of globalisation on economic growth and investment attractiveness of regions. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (4), 149-158.

28. Ismoilovna, B. A. (2021). Problems of Training Future Primary School Teachers to Cooperate with The Family in Extracurricular Educational Activities. Middle European Scientific Bulletin, 8.

29. Bakhronova, A., & Sadirova, M. (2021). Problems of training with the family in extracurricular educational activities. In World science: problems and innovations.

30. Mirzo o'g'li, Q. L. FORMATION OF READING SKILLS IN JUNIOR SCHOOL CHILDREN.

31. Abdurakhimovna K.S. Poetics of Proverbs //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 303-307.

32. Abdurakhimovna K. S. Main Subject way of “Zarbulmasal” //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 286-290.

33. Saodat K. ANCIENT PROVERBS //European Scholar Journal (ESJ) ISSN. – С. 2660-5562.

34. Abdurakhimovna K. S., Dilchiroy A. Ancient Proverbs //European Scholar Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 95-99.

35. Omonova, D. N. Q. (2021). The Linguistic competence in language teaching based on Integrative Approach. In World science: problems and innovations (pp. 213-215).

36. Omonova, D. (2022). LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA MEDIA TA'LIM VOSITALARDAN FOYDALANISH. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 182-183.

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA HIKOYANI TAHLIL QILISH ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH

Olloqova O'g'iljon Mamanazarova

Buxoro davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Rustamova Gulchehra Bo'ston qizi

Boshlang'ich ta'lim va sport – tarbiyaviy ish yo'nalishi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida hikoyani o'qitish orqali o'quvchilarining nutqini o'stirish usullari keltirilgan. Bolani aytib berishga o'rgatish – uning bog'lanishli nutqini shakllantiradi.*

Kalit so'zlar: *hikoya, nutq, bog'lanishli nutq, hikoya mazmuni, hayotiy tajriba, ijodiy fikrlash.*

Аннотация. *В статье представлены методы развития речи учеников посредством рассказывания на уроках чтения в начальной школе. Учить ребенка рассказывать – значит формировать его связную речь.*

Ключевые слова: *рассказ, речь, связная речь, содержание рассказа, жизненный опыт, творческое мышление.*

Annotation: *The article presents the methods by which students can cultivate their speech by teaching the story in primary school reading lessons. To teach a child to tell means to formulate his connecting speech.*

Key words: *story, speech, connected speech, story content, life experience, creative thinking.*

Insonlarni boshqa joyga eltadigan hikoyalar uchun har doim joy bor.

Gyote

Insoniyat rivojlanish taraqqiyotida erishgan eng katta yutuqlari, bu ongi, tafakkuri, nutqi. Ong va tafakkur degan hech qanday moddiylik bilan tenglashtirib bo'lmaydigan ne'mat borki, ahli insoniyat borliqni anglab, moddiy va ma'naviy ne'matlarni yarata oladi. Boshqa elat va xalqlarning ma'naviy va moddiy yutuqlaridan bahramand bo'lish bevosita o'zaro muloqotning mahsulidir. Muloqot vositasi nutq bo'lib, uni rivojlantirish antik davrda ham, hozirda ham ta'lim jarayonining yetakchi vazifasi bo'lib kelmoqda. Ta'limning har bir bosqichida ta'lim oluvchilar nutqini o'stirishga alohida e'tibor beradilar. Barchamizga ayonki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'langan holda o'stiriladi. Bolalarning nutqi va tafakkurini o'stirish boshlang'ich ona tili va sinf o'qish savodxonligi fanidan hikoya o'rganish darslarida samarali ishlash imkoniyati mavjud.

Darsda o'qilgan hikoyani o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar

qo'llanadi. O'qilgan hikoyani analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o'qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o'qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so'raydi. Natijada o'qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O'qituvchi bergan savollar yordamida hikoyaning mazmuni aniqlanadi.

Bolaga gapirishni o'rgatish - bu uning izchil nutqini shakllantirishni anglatadi. Bu vazifa maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirishning umumiy vazifasida ajralmas hisoblanadi. So'zlarning izchil shakllarini o'zlashtirish murakkab va uzoq jarayon bo'lib, malakali pedagogik ta'sir va yetakchilikni talab qiladi. Bolaning izchil nutqini rivojlantirish kundalik hayot jarayonida, shuningdek, sinfda amalga oshiriladi. Bolani hikoya qilishga o'rgatish, ya'ni o'z fikrlarini mustaqil ravishda izchil va ravon bayon etishga, o'qituvchi unga aniq so'zlar va iboralarni topishga, jummalarni to'g'ri tuzishga, ularni mantiqiy ravishda bir-biri bilan bog'lashga, ovoz va so'zlashuv normalariga rioya qilishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, o'qituvchi bola nutqining barcha jihatlarini – leksika, grammatika, fonetikasini yaxshilash uchun tizimli va muntazam ravishda ish olib bormog'i lozim.

Bolaning hikoyalari mazmunan turli xil bo'lishi mumkin: o'yinchoqlar va o'yinlar, kundalik hayot obyektlari, bajarilayotgan ish topshiriqlari, boshqa bolalar bilan munosabatlar, tabiat va boshqalar. Bolalar o'zlariga ma'lum bo'lgan narsalar, faktlar, voqealar haqida gapirishlari muhimdir. Shundagina ularning nutqi yanada izchil va ravon bo'ladi. Ta'lim jarayonida bolalarning turli xil hikoyalar yaratish qobiliyatlari shakllantiriladi. Hayotiy mavzulardagi hikoyalar bolaning hayotiy, aniq faktlarni taqdim etishni talab qiladi. O'yinchoqlar, o'simlik va hayvonlar haqidagi hikoyalar bolaning hayot tajibasi bilan bevosita bog'liq bo'lganligi uchun ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi, ularning ijodiy fikrlashiga, nutqining ravonlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tavsiflovchi hikoya mavzulari rasmlar bilan tuzilishi mumkin. Ko'pincha, hikoya mazmunining o'quvchilar tomonidan so'zlab berilishi balalarning idrokini, tafakkurini rivojlantiriladi. Shu bilan birga, tavsiflovchi hikoyada o'quvchilar xotirasidagi voqeahodisa materiallaridan ham foydalanish mumkin. Turli xil hikoyalarni ijod qilish - bolalar uchun nutq faoliyatining eng qiyin turi hisoblanadi. Shuning uchun, o'qituvchi asta-sekin oddiy vazifalarni yanada murakkab, ammo ayni paytda ushbu yoshdagi bolalar uchun mos qilib tuzadi. Bolalar tomonidan egallangan nutq malakalarini doimiy ravishda mustahkamlash, ularni takomillashtirish kerak. O'qituvchi, ayniqsa, bolaning diqqatini jalb qilish kerak bo'lgan narsalarni aytib berishda bolalarda qanday qiyinchiliklar paydo bo'lishini aniq tasavvur qila olishi lozim. O'qituvchining vazifasi o'quvchini tanlangan mavzu bo'yicha hikoyani to'g'ri boshlash va uni jonli, qiziqarli, mantiqiy ravishda ketma-ket yetkazib bera olishga o'rgatishdir. O'quv jarayonida bolaning hikoyasi tinglovchilarga tushunarli, uning barcha qismlari o'zaro bog'langan va tushunarli, izchil bo'lmog'i lozim. Bolalarning bog'lanishli nutqni rivojlantirishning muhim sharti - to'g'ri so'zlashuv va grammatik

ko'nikmalarni shakllantirishdir. Shu bilan birga, o'qituvchining hikoyasi har doim qiziqarli, mazmunan rang-barang, qurilishi aniq bo'lishi ularning nutq ko'nikmalarini takomillashtirishda juda muhim.

Odatda, amaliyotda, rasm mazmunini gapirishga o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlar katta qiyinchiliklarga olib keladi. Bolalarning rasmning mazmunini yaxshiroq tushunishi uchun o'qituvchi ularning shaxsiy tajribasidan, rasmdagi tasvirga o'xshash voqealar xotiralaridan foydalanadigan dastlabki suhbatni o'tkazishi kerak. Kirish suhbatidan rasmni ko'rib chiqishga o'tish mantiqan izchil va silliq bo'lmog'i lozim. Savollar yordamida rasmda markaziy tasvirni ta'kidlash kerak: "Rasmda kimni yoki nimani ko'rayapsiz?". Ushbu yosh guruhidagi o'qituvchining savollari asosiy metodik usul bo'lib, ular bolalarga obyektlarning harakatlarini, sifatini, xususiyatlarini eng aniq idrok qilinishiga yordam beradi. To'g'ri, izchil ravishda qo'yilgan savollar rasmni idrok etishning yaxlitligini ta'minlaydi, bolalarga to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi.

O'qituvchining savollari emas, balki bolalarning javoblarini umumlashtiradigan jumalarni tuzish, so'z birikmalarini kengaytirish uchun namuna bo'lib xizmat qiladigan so'zlari ham katta rol o'ynaydi. Rasmni qayta ko'rib chiqishda yangi so'zlar, iboralar bolalar xotirasida saqlanadi. Rasm asosidagi hikoyalar o'qituvchining umumlashtiruvchi hikoyasi bilan yakunlanadi va bolalarga o'qituvchining savollariga va tushuntirishlariga kiritilgan so'zlar va iboralarni yana bir bor tinglash imkonini beradi. Rasm asosidagi hikoyalarda bolalarning nutqini yangi so'zlar bilan boyitish, og'zaki nutqning aniq va hissiy jihatdan mazmunli bo'lishiga e'tibor qaratmoq lozim.

Bolalarning nutqi qiziqish bilan tinglanishi kerak: tabassum bilan yoki boshni qimirlatib uning fikrini ma'qullash, yuz ifodani o'zgartirib turish. Agar bola hikoyani boshlashga qiynalsa yoki bir muddat jim tursa, unga boshqa voqea-hodisalarni eslatish, sevimli mashg'uloti haqida so'rash mumkin. Tasvirni muhokama qilish jarayonida bolaga tushuntirish savollarini berish tavsiya etilmaydi, chunki u hikoyadan muloqotning savol-javob shakllariga o'tishi mumkin. Bolaning nutqini tinglab, uning hikoyasini tahlil qilish va baholash, unga butun guruhni jalb qilish, bolalarning taassurotlarini ifoda etadigan savollar berish, o'quvchilarning fikr bildirishi zarur.

Shundan keyin o'qituvchi hikoyani qisqacha va aniq ifodalashi kerak. O'qituvchi nutqi bolalarga o'rtoqlarining nutqlarini tahlil qilish va ular haqida oddiy qarorlar chiqarishga o'rgatadi. Ayniqsa, birinchi hikoyalar batafsil tahlil qilinadi va baholanadi, chunki bu boshqa bolalarga nutq xatolarini takrorlamaslik uchun nutqlarini yanada mazmunli va maqsadga muvofiq nazorat qilishga yordam beradi.

Yoshligidan boshlab, bolalar ertaklarni muntazam ravishda aytib berishlari, hikoyalar, she'rlar o'qishlari kerak, shuning uchun badiiy asarlar ularning xattiharakatlariga, o'yinlariga, nutqni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar ish hikoya mazmunini yaxshi o'zlashtirishlari uchun suhbat davomida bir yoki bir nechta qismni tanlab o'qib, bolalarga ijodiy mualliflik nutqini yana bir bor tinglash imkoniyatini berish lozim.

Hikoyani o'qishni o'rgatishda quyidagi usullar qo'llaniladi:

1. Bir necha marta matn mazmunini o'qittirish.
2. Suhbat. Bolalar uchun hikoyaning mazmuni haqida savollar, uning asosiy qismlarini aks ettirish.
3. Hikoyani qayta o'qish.
4. Bolalarning hikoyasini tinglash va tahlil qilish.

Agar hikoya hajmi katta bo'lsa, uni kichik birliklarga bo'lish mumkin. Bunda - birinchi bola birinchi, mantiqiy ravishda tugagan qismning mazmunini, ikkinchisi hikoyaning o'rtasini, uchinchisi yakuniy qismni so'zlaydi. Bolalarning hikoya matnini to'liq o'zlashtirgandan so'ng o'qituvchi ularga ijodiy vazifa berishi mumkin. Adabiy va badiiy materiallarga tayangan holda bolalarning og'zaki ijodkorligi bilan to'ldirilishi mumkin. Bolalarni hikoya mazmunini qayta hikoyalashga o'rgatishda modul, sxemalardan foydalanishingiz mumkin. Bu bolalarga voqealar ketma-ketligini eslab qolishga yordam beradi, qiziqishini yanada oshiradi.

Shunday qilib, turli usullar yordamida bolalarga hikoya mazmunini to'liq yetkazish, noto'g'ri talqin qilmasdan, matnning lingvistik materiallari bilan ishlashga, izchil ifodali nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga o'rgatish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqini o'stirish kelajakda ulardan o'z so'zi va nutqini erkin so'zlaydigan insonlar chiqishi uchun zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. OLLOQOVA, O. (2021). ONA TILI TA'LIMIDA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 1(1).
2. Olloqova, O. M. (2021). ONA TILI DARSLARIDA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. Scientific progress, 2(6), 1025-1029.
3. Olloqova, O. (2021). Эффективность Использования Информационно-Коммуникационных Технологий В Повышении Лингвистической Компетентности Учащихся На Уроках Родного Языка. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 1(1).
4. Olloqova, O. (2022). ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING ANAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 22, 22.
5. Olloqova, O. (2022). УЧАЩИЕСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА ОРГАНИЗАЦИЯ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 8(8).
6. Mamanazarovna, O. O. (2022). O'QUV JARAYONIGA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING ANAMIYATI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 67-70.

7. Yunus Y. S. DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN MATHEMATICS LESSONS AS THE BASIS FOR IMPROVING THE QUALITY OF THE EDUCATIONAL PROCESS //Chief Editor.
8. Yunusovna Y. S. METHODOLOGY OF FORMATION OF GRAPHIC SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 129-133.
9. Yunusovna Y. S. METHODOLOGY OF FORMATION OF GRAPHIC SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 129-133.
10. YUSUFZODA S. BOSHLANG'ICH SINIF HUSNIXAT DARSLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
11. Sidiqova, D. S. (2021). ZAMONAVIY TA'LIMDA MASOFAVIY O'QITISH TIZIMI. Scientific progress, 2(7), 1027-1031.
12. Shavkatovna, S. D. (2022). Issues of Formation of Professional Competence of Students. European journal of innovation in nonformal education, 2(2), 291-294.
13. Sidiqova, D. (2020). Boshlang'ich sinflarda interfaol ta'lim va loyihalash texnologiyasi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 4(4).
14. Shavkatovna, S. D. (2021). Developing Students' Professional Competencies in Distance Learning. Central asian journal of literature, philosophy and culture, 2(10), 152-155.
15. Садуллоева М. Г., Ражабова С., Холова Г. Т. ЯЗЫК И РЕЧЬ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В ШКОЛЕ //СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2021. – С. 218-220.
16. Gaybulloevna S. M., Farkhodovna K. M. Causes, Forms and Corrective Actions of Deviant Behavior among School Children //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – Т. 11. – С. 43-46.
17. Gaybulloevna S. M. Urgent Problems of the Quality of the Educational Environment //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 152-154.
18. Садуллоева М. Г. Гуманизация отношений в системе «Учитель-учащийся»-установление связей сотрудничества //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 8-3 (49). – С. 103-104.
19. Jobirovich, Yarashov Mardon. "Advantages of the Introduction of Digital Technologies into the Educational Process." Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT 7 (2021): 17-20.
20. Jobirovich Y. M. The Role Of Digital Technologies In Reform Of The Education System //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 04. – С. 461-465.

21. Ярашов М. THE IMPORTANCE OF USING DIGITAL TECHNOLOGY IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS EDUCATION //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 10. – №. 9.
22. Ярашов М. TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
23. Хайдарова, М. Д. (2020). Единство трудового и эстетического воспитания школьников. Вестник науки и образования, (23-2 (101)), 63-65.
24. Хайдарова, М. Д. (2021). ОСОБЕННОСТИ ВЕДЕНИЯ БИЗНЕСА В ИНДУСТРИИ КРАСОТЫ. In Формирование и реализация стратегии устойчивого экономического развития Российской Федерации (pp. 349-352).
25. Хайдарова, М. Д. (2021). ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ГОСТИНИЧНОГО СЕРВИСА НА ПРИМЕРЕ Г. МИРНЫЙ. In Формирование и реализация стратегии устойчивого экономического развития Российской Федерации (pp. 346-349).
26. Tog'ayeva, U. (2021). ONA TILI O'QITISH METODIKASI. MODULINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH//ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
27. Tog'ayeva, U. (2020). IMPROVING THE MODULE" MOTHER TONGUE TEACHING METHOD" IN PROJECT EDUCATIONAL INSTRUCTIONS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).
28. Tog'ayeva, U. (2020). SCIENTIFIC-THEORETICAL BASES OF USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING METHODS OF MOTHER TONGUE. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).
29. Tog'ayeva, U. (2021). Роль проектного обучения в совершенствовании модуля методики обучения родному языку. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
30. Tog'ayeva, U. S. Q. (2021). ONA TILI O'QITISH METODIKASI MODULINI TAKOMILLASHTIRISHDA LOYIHAVIY TA'LIMDAN FOYDALANISH. Scientific progress, 2(7), 1022-1026.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI O'RGATISH METODIKASI

Madina Ozodova

*Buxoro davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalardan so'z birikmasi va gapni o'rgatishning metodik imkoniyatlari va uni amaliyotga joriy etish usullari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf, ona tili, sintaktik tushuncha, so'z birikmasi, gap, metodik imkoniyat.*

Annotation: *This article discusses the methodical possibilities of teaching syntactic concepts and sentences in primary grades and the methods of its implementation.*

Key words: *elementary school, mother tongue, syntactic concept, phrase, sentence, methodical possibility.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методические возможности обучения синтаксическим понятиям и предложениям в начальных классах и методы его реализации.*

Ключевые слова: *начальная школа, родной язык, синтаксическая концепция, словосочетание, предложение, методическая возможность.*

Hozirgi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi Vatanimizning kelajagi bo'lgan barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish, ularni mustaqil fikrlashga, bilim olishga, ajdodlarimizning boyilmiy, ma'naviy-ma'rifiy merosini qadrlashga o'rgatish hamda ta'limning uzliksizligini ta'minlashdan iboratdir.

Ta'lim jarayonida dastlabki bosqich – boshlang'ich ta'lim hisoblanadi. Garchi inson ongiga til ona suti orqali singsada, dunyo bilimlarini o'rganish va ularni hayotga tadbiiq etish dastlab boshlang'ich sinfda boshlanadi. Bola o'z ona tilida biyron so'zlay olishi uning yozma savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Dastlabki qalam yoki ruchka uchlash jarayoni ham boshlang'ich sinfda amalga oshadi.

Bola 7 yoshidan boshlab o'quvchi sifatida faoliyat olib boradigan bola ilk harflarni birin-ketin daftarga tushira boshlaydi. Bu uning hayotidagi yozma nutqning ilk ko'rinishi hisoblanib, uning yozma savodxonligiga o'z ta'sirini, albatta ko'rsatadi. Bu esa yuqorigi sinflarda mustahkamlanadi. Bola nutqini erkin bayon qila olishi, nutqidagi gaplarni to'g'ri tuza bilishi va undan samarali foydalanib, fikrini to'liq va aniq bayon eta olishi uchun boshlang'ich sinf ona tili darslarining o'rni va ahamiyati beqiyos. Buning uchun sintaktik tushunchalar bo'lmish so'z birikmasi va gaplarni nutqda o'z o'rnida to'g'ri qo'llay olish zarur.

Boshlang'ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar amaliy o'rganiladigan va nazariy o'rganiladigan bo'limlarga bo'linadi. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy o'rganish savod o'rgatish davridanoq boshlanadi va 3-4-sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang'ich sinfda "So'z birikmasi", "Gap", "Darak gap", "So'roq gap", "Buyruq gap", "His-hayajon gap", "Sodda gap", "Gap bo'laklari", "Gapning uyushiq bo'laklari", "Undalmali gaplar" mavzulari nazariy o'rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi.

Gapning bosh bo'laklarini kuzatish bilan o'quvchilar o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish ko'nikmasi shakllanadi. Gapni o'rganish me'yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan, so'z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi.

Dasturga ko'ra, 1-sinfda o'quvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so'zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma'lum tinish belgilari qo'yilishi haqida amaliy ma'lumotlar beriladi.

2-sinfda esa o'quvchilar gap haqida amaliy tushunchalar oladilar. Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni ajratishga o'rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga muqaddima bo'ladi.

3-sinf gap ustida ishlashda yangi bosqichdir. O'quvchilar gapni amaliy o'rganishdan tushuncha sifatida o'rganishga o'tadilar. Ular gapning muhim belgilarni bilib oladilar. Bu bosqichda bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning ta'rifi, ega va kesim atamaları kiritiladi. Bu sinfda gapda so'zlarning bog'lanishiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar gapning asosi (ega va kesim)ni ajratadilar, ikkinchi darajali bo'laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so'z (hokim va tobe so'z)ni, so'zlarning grammatik jihatdan, ya'ni qo'shimchalar orqali bog'lanishni bilib oladilar.

O'quvchilarda gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasini shakllantirish muhim sintaktik va nutqiy ko'nikmalar qatoriga kiradi. So'z birikmasi gap qismi sifatida ajratiladi va boshlang'ich sinflarda uning muhim belgilari idrok qilinadi. "So'z birikmasi" atamasi darsliklarga kiritilmagan, ta'rifi berilmaydi. Ammo kichik yoshdagi o'quvchilar uning quyidagi muhim belgilarini amaliy bilib olishlari zarur.

1. So'z birikmasi mazmun va Grammatik tomondan bo'g'langan ikki qism bo'ladi. Masalan, "Dunyo xalqlari tinchlik uchun kurashadilar" gapida ikkita so'z birikmasi bor. 1) dunyo xalqlari; 2) tinchli uchun kurashadilar.

2. So'z birikmasida bir so'z hokim ikkinchi so'z tobe bo'ladi. Hokim so'zdan tobe so'zga so'roq beriladi, tobe so'z shu so'roqqa javob bo'ladigan so'zdir. Masalan,

Gap tarkibidagi so'z birikmalarini ajratish ko'nikmasi uzoq mashq davomida shakllantirib boriladi. Buning uchun o'quvchilarning so'z birikmasidan bir so'zning boshqa so'zga tobeligini tushunishga qaratilgan mashqlar tizimidan foydalaniladi. Bunday mashq turlariga

1) Gaplarni yoyish.

Buning uchun gaining qaysi bo`lagi yoyishni talab qilishi aniqlanadi. Masalan, 3-sinf ona tili darsligidagi 386-mashq Berilgan gaplarga sifatga oid so`zlar qo`shib, gapni qayta tuzing topshirig`i berilgan.

1.Yoz keldi. 2. Mevalar pishdi.

Demak bu yerda faqatgina bosh bo`laklar ya`ni ega va kesimdan tuzilgan gaplar berilgan bo`lib, o`quvchilar bu gaplarga sifatga oid so`z qo`shib gapni yoyishlari kerak, ya`ni gapni mazmunini to`ldirish uchun ikkinchi darajali bo`laklardan foydalanishlari zarur. Bunda birinchi gapda qanday yoz keldi savoli orqali gap mazmuniga mos sifat tanlanadi. Masalan, jazirama yoz keldi. Ikkinchi gapda esa mevalar qanday pishdi savoli orqali gap mazmuniga mos sifat tanlanadi. Masalan, mevalar g`arq pishdi.

2So`zlari aralash berilgan gapni qayta tiklash.

Avval gapning asoslari (ega va kesim) tiklanadi (aniqlanadi), so`ng so`roqlar yordamida ikkinchi darajali bo`laklar (so`z birikmalari) "topiladi", tiklanadi. Masalan, Dehqon, yer, o`rtog`idan, olibdi, sotib. (3-sinf ona tili 142-mashq)

- Gap kim haqida aytilgan? (Dehqon haqida, kim?- dehqon)

- U haqida nima deyilgan? (sotib olibdi. Dehqon sotib olibdi- bosh bo`laklar)

- So`roq yordamida so`z birikmasini toping. Kimdan? Sotib olibdi (O`rtog`idan sotib olibdi), nimani? sotib olibdi.(Yerni sotib olibdi). Keyin gapda so`zlarning qulay tartibi aniqlanadi. (Dehqon o`rtog`idan yer sotib olibdi.) Gap ohanggi ustida ishlanadi.

3 . Uzluksiz (tinish belgilarisiz) matndan gaplarni ajratish.

Mashqning bu turi ongli bo`lishi uchun har bir gapning bosh bo`laklarini va so`z birikmalarini ajratish lozim.

4. Gapni tahlil qilish va chizmasini chizish

Gap tahlil qilinayotganda dastlab uning asosi ajratiladi, keyin egani izohlovchi ikkinchi darajali bo`lak, kesimni izohlovchi ikkinchi darajali bo`lak, boshqa ikkinchi darajali bo`lakni izohlovchi ikkinchi darajali bo`lak ajratiladi. Shunday qilib, asta-sekin so`z birikmalari ham aniqlanadi.

5. O`qituvchi bergan chizma yoki so`roqlar aosida gap tuzish

Kim? nimalarni? nima qiladi? (Bolalar olmalarni terdi).

So`z birikmasida ikki yo`nalishda ish olib boriladi:

1)so`z birikmasiga gap ichida gapninig tarkibiy qismi sifatida qaraladi;

2)so`z birikmasiga predmetning yoyiq nomi sifatida qaraladi, masalan, olma- so`z, qizil olma, shirin olma, kuzgi olma- so`z birikmalari (3-sinf 143-mashq)

Boshlang`ich sinf ona tili darslarida sintaktik tushunchalarni o`rgatishning metodik imkoniyatlari keng bo`lib, faqatgina undan samarali va yuqori natijaga erisha olishni ko`zlab foydalanish zarurdir. Chunki o`quvchi boshlang`ich ta`limda ona tilini puxta egallasa, og`zaki va yozma nutqi ravon bo`lsa yuqori sinflarda ham qiynalmaydi.

Xulosa qilib aytganda, har bir kishi nutqini to`g`ri va tushunarli qilib yetkazishida gap qurilishiga alohida e`tibor qaratishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karima Qosimova, Safo Matjonov, X. G`ulomova, Sh. Yo`ldoshev, Sh. Sariyev Ona tili o`qitish metodikasi Toshkent "Nosir" 2009
2. Ulug'bekovna, A. N., & Moxirovna, N. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARNI O`QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. Results of National Scientific Research International Journal, 1(3), 35-42.
3. Sayidova, R., & Toyirova, N. (2022). THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE ANALYSIS OF POETRY IN THE NATIVE LANGUAGE AND READING COURSES. In НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ (pp. 199-201).
4. Bakhtiyorovna, A. N., & Madina, O. Description of Non-Traditional Teaching Techniques Used in the Classes of the 3rd Class Native Language. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 3(3), 269-274.
5. Ozodova, M. (2021). OSHLANG 'ICH SINFLARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI O`RGATISHNING METODIK IMKONIYATLAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
6. Sidikova, S. D. (2021). Theoretical and didactic principles of distance learning. Academia: an international multidisciplinary research journal, 11(1), 541-548.
7. Shavkatovna, S. D. (2021). OLIYGOHLARDA MASOFAVIY TA'LIMDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. In Научно-практическая конференция.
8. Tog'ayeva, U. (2020). IMPROVING THE MODULE" MOTHER TONGUE TEACHING METHOD" IN PROJECT EDUCATIONAL INSTRUCTIONS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).
9. Tog'ayeva, U. (2021). ONA TILI O`QITISH METODIKASI. MODULINI O`QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH//ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
10. N.Y. Ubaydullaevna. Central asian journal of literature, philosophy and culture 2 (10), 120-124.
11. Y.U. Nurova. Homonymy of ethnonyms in uzbek folk parems. European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.Scholarzest>
12. Sayidova, R., & Toyirova, N. (2022). THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE ANALYSIS OF POETRY IN THE NATIVE LANGUAGE AND READING COURSES. In НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ (pp. 199-201).
13. Хамраев, А. (2018). Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся. Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи, (2), 23-26.
14. Adizov, B. R., & Khamroev, A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. Ilmiy xabarnoma, 69.

15. Ҳамроев, Р. (2014). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 22(1), 53-58.
16. YUSUFZODA, S. (2021). BOSHLANG'ICH SINIF HUSNIXAT DARSLARINI INNOVATION TECHNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
17. Yunus, Y. S. (2022). FORMATION OF CURRENCY SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(2), 281-285.
18. Yunus, Y. S. DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN MATHEMATICS LESSONS AS THE BASIS FOR IMPROVING THE QUALITY OF THE EDUCATIONAL PROCESS. Chief Editor.
19. Omonova, D. N. Q. (2021). The Linguistic competence in language teaching based on Integrative Approach. In World science: problems and innovations (pp. 213-215).
20. Omonova, D. N. Q. (2021). The Linguistic competence in language teaching based on Integrative Approach. In World science: problems and innovations (pp. 213-215).
21. Sidiqova, D. (2020). Boshlang'ich sinflarda interfaol ta'lim va loyihalash texnologiyasi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 4(4).
22. Shavkatovna, S. D. (2022). Issues of Formation of Professional Competence of Students. European journal of innovation in nonformal education, 2(2), 291-294.
23. Pulatova, A. Y. (2021). Scientific and Theoretical Foundations of an Integrative Approach to the Formation of Literary Concepts in Primary School Students. Middle European Scientific Bulletin, 8.
24. Asadovna, Y. (2021). Psychological Characteristics of Speech Cultivation by Working on the Text in Primary School Reading Lessons. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 437-446.
Fanlarni o'zaro integratsiyalashdan asosiy maqsad o'quvchilarga berilayotgan bilimlarni takrorlanishini oldini olish, bir xillikka barham berish va vaqtni tejab qolishdir. Shunday ekan yuqorida ko'rib o'tilganidek integratsiyalash orqali biz juda ko'p vaqtni tejagan holda o'quvchilarga har tomonlama puxta bilim berishimiz va darslarni qiziqarli tashkil etishimiz mumkin bo'ladi. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish bir tomondan dastur talablarini o'zlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan o'quvchida fanlararo bog'liqlik haqida tasavvur uyg'otadi.

Ona tili darslari elementlarini tasviriy san'at va mehnat darslari bilan integratsiyalash masalasiga metodistlar, pedagoglar, psixologlar alohida e'tibor qaratmoqdalar. Bu fanlar integratsiyasi o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlanishida, xotirasini yaxshilashda, nutqini takomillashuvida, boyishida alohida ahamiyat kasb etadi. Ona tili va tasviriy san'at darslari integratsiyasida o'quvchilar asar mualliflarining tarjimai holi, asarlarni yaratish tarixi bilan tanishish bilan birga, asarni muhoakama qilish va tahlil qilish mobaynida ularning diqqati asar mohiyatiga qaratiladi. Asar bilan tanishish barobarida bolalar rasmni hayotda ko'rganlari bilan taqqoslaydilar, bu esa ularda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Ona tili darslarida rassomlarning asarlaridan foydalanish o'quvchilarda ko'tarinki kayfiyatni yuzaga keltiradi, nutqini boyishiga yordam beradi, mustaqil ravishda ijodiy yondashuviga imkoniyat beradi. Rasm darslarida biror bir asar muallifi bo'lgan rassomning tarjimai holini o'quvchilar tomonidan gapirib berishlari, ular yaratgan asarlarni yaratish tarixi bilan tanishishlari barobarida o'quvchilar og'zaki nutqi ravonlashadi, takomillashadi. Shuningdek, ona tili darslarida yozma topshiriqlarni bajarishdan avval o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi mazmundagi vazifani bajarishni topshirishi mumkin: daftaringizga uydan chiqib, maktabga kelguningizga bo'lgan yo'lni chizing, chizish vaqtida har bir burilish, yo'lning qayirilish o'rinlarini aniq ko'rsatishni taklif qilishi mumkin. Bu xildagi mashq, eng avvalo, o'quvchilarda xotirani mustahkamlaydi, qiziqishini orttiradi, o'quvchilarni bajarishi kerak bo'lgan vazifaga tayyorlaydi va, eng asosiysi, ular barmoqlarini yozuvga tayyorlaydi. Bunday xarakterdagi topshiriqlarni turli

shakllarini o'ylab ko'rish va joriy etish mumkin. Bu, asosan ,o'qituvchining ijodkorligiga bog'liq. Daftarga o'ylab chizilgan chiziqalar o'quvchini harflarni, so'zlarni chiroyli yozishga tayyorlaydi. Bunday daqiqalardan yozuv daralarida ham foydalanish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilar bilim darajasini oshirishda ta'lim mazmunini integratsiyalash yuqori natijalarga olib keladi. Unda nafaqat fanlarni o'zaro bog'lash orqali, balki o'zaro uyg'unlashishi mumkin bo'lgan va bolaga ijobiy ta'sir etadigan obyektlar orqali ham bolalarni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlashga ko'maklashishi mumkin. Buning uchun ta'limni zamonaviy talqin asosida tashkil etish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tog'ayeva, U. (2021). ONA TILI O'QITISH METODIKASI. MODULINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH//ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

2. Tog'ayeva, U. (2020). IMPROVING THE MODULE" MOTHER TONGUE TEACHING METHOD" IN PROJECT EDUCATIONAL INSTRUCTIONS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

3. Tog'ayeva, U. (2020). SCIENTIFIC-THEORETICAL BASES OF USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING METHODS OF MOTHER TONGUE. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

4. Tog'ayeva, U. (2021). Роль проектного обучения в совершенствовании модуля методики обучения родному языку. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

5. Tog'ayeva, U. S. Q. (2021). ONA TILI O'QITISH METODIKASI MODULINI TAKOMILLASHTIRISHDA LOYIHAVIY TA'LIMDAN FOYDALANISH. Scientific progress, 2(7), 1022-1026.

6. Asadovna, Y. (2021). Psychological Characteristics of Speech Cultivation by Working on the Text in Primary School Reading Lessons. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 437-446.

7. Polatovna, A. Y. (2021). Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 490-501.

8. Asadovna, P. Y. (2021). Methods of working on the text in the integration of primary school reading lessons. Middle European Scientific Bulletin, 11.

9. Pulatova, A. Y. (2021). Scientific and Theoretical Foundations of an Integrative Approach to the Formation of Literary Concepts in Primary School Students. Middle European Scientific Bulletin, 8.

10. Asadovna, Y. (2021). Psychological Characteristics of Speech Cultivation by Working on the Text in Primary School Reading Lessons. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 437-446.

11. Polatovna, A. Y. (2021). Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 490-501.
12. Bakhtiyorovna, A. N., & Madina, O. Description of Non-Traditional Teaching Techniques Used in the Classes of the 3rd Class Native Language. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 3(3), 269-274.
13. Ozodova, M. (2021). OSHLANG 'ICH SINFLARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI O'RGATISHNING METODIK IMKONIYATLAR. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
14. Ulug'bekovna, A. N., & Moxirovna, N. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(3), 35-42.
15. Sayidova, R., & Toyirova, N. (2022). THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE ANALYSIS OF POETRY IN THE NATIVE LANGUAGE AND READING COURSES. In *НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ* (pp. 199-201).
16. Gaybulloevna S. M. Urgent Problems of the Quality of the Educational Environment // *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 152-154.
17. Садуллоева М. Г. Гуманизация отношений в системе «Учитель-учащийся»-установление связей сотрудничества // *Достижения науки и образования*. – 2019. – №. 8-3 (49). – С. 103-104.
18. Садуллоева М. Г. ЛИНГВОКУЛЬТУРЕМА КАК ТЕСНАЯ СВЯЗЬ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ, НА ПРИМЕРЕ БАСНИ ГУЛХАНИ «РАСКАЗЫ О СОВЕ» // *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ*. – 2021. – С. 218-220.
19. Gaybulloevna S. M. THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE LESSONS OF THE RUSSIAN LANGUAGE AND LITERATURE IN THE CONTEXT OF STUDENT-CENTERED EDUCATION // *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 102-106.
20. Sadulloeva M. "NATIONAL CULTURE IN THE FABLES OF GULHANIY // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. – 2020. – Т. 10. – №. 9
21. Sidikova, S. D. (2021). Theoretical and didactic principles of distance learning. *Academia: an international multidisciplinary research journal*, 11(1), 541-548.
22. Shavkatovna, S. D. (2021). OLIYGOHLARDA MASOFAVIY TA'LIMDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. In *Научно-практическая конференция*.
23. Shavkatovna, S. D. THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN DISTANCE LEARNING.
24. Sidiqova, D. (2021). «МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ» В УСЛОВИЯХ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ СТУДЕНТОВ В ПРЕПОДАВАНИИ НАУКИ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 3(3).

25. Sidiqova, D. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В КОНТЕКСТЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 6(6).

26. Yunusovna Y. S. METHODOLOGY OF FORMATION OF GRAPHIC SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 129-133.

27. Yunusovna Y. S. METHODOLOGY OF FORMATION OF GRAPHIC SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 129-133.

28. YUSUFZODA S. BOSHLANG'ICH SINIF HUSNIXAT DARSLARINI INNOVATSION TECHNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

29. Yunus Y. S. FORMATION OF CURRENCY SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 281-285.

30. Yunus Y. S. et al. Use of innovative technologies in improving the efficiency of primary school students //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11. – №. 1.

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGIDAGI FASLLARGA BAG'ISHLANGAN SHE'RLARNING G'OYAVIY BADIY MUNDARIJASI

Toyirova Nazokat Moxirovna

*Buxoro davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim metodika kafedrasida
o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklaridagi fasllarga bag'ishlangan she'rlarning g'oyaviy-badiiy mundarijasi tahlil qilib chiqilganligi, o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar bo'yicha fikr yuritilgan.*

Annotation. *The article analyzes the ideological and artistic content of the poems dedicated to the chapters in the sections of the native language and textbooks of primary school, the students' conscious understanding of the read work, the main content, the idea. for logical methods such as analysis, synthesis, comparison, generalization.*

Аннотация. *В статье анализируется идейно-художественное содержание стихотворений, посвященных главам в разделах родного языка и учебников начальной школы, осознанное понимание учащимися прочитанного произведения, основного содержания, идеи логическими методами, такими как анализ, синтез, сравнение, обобщение.*

Kalit so'zlar. *Integratsiya, darslik, milliy dastur, hikoya, she'r, obraz, lirika, majoz, she'riyat, qofiya, xalq og'zaki ijodi, masal.*

Keywords. *Integration, textbook, national program, story, poem, image, lyric, metaphor, poetry, rhyme, folklore, parable.*

Ключевые слова. *Интеграция, учебник, национальная программа, рассказ, поэма, образ, лирика, метафора, поэзия, рифма, фольклор, притча.*

Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy o'stiriladi. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo'llanadi. O'qilgan asarni analiz qilishda har xil ish uslublaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o'qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o'qituvchi ularni asarda qatnashish4 tartibida aytishni so'raydi. Natijada o'qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O'qituvchi bergan savollar yordamida asarlarning mazmuni aniqlanadi.

Shunday qilib, asar mazmuni bilan birinchi tanishish o'quvchilardan ongli ishlashni, ya'ni voqealarni, qatnashuvchilar tarkibini analiz qilishni talab etadi. O'qish bilan bog'liq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta-sekin murakkablasha boradi.

H.Imonberdiyevning "Qish tongida" she'ri tabiiy manzara talqiniga bag'ishlangan:

Erta tursam hovuzda

Birov oyna solibdi.

Ko'm-ko'k, tiniq, zilol suv

Eng ostida qolibdi.

Bola tasavvuri, tafakkuri aynan shunday fikrlashga moyil. Zotan, she'r jonli tasvir asosida yaratilgan.

Yana bir xassos bolalar shoiri Dilshod Rajabov majoziy obrazlar orqali talay she'rlar yaratgan. Shoir she'riyatida qushlar, uy hayvonlari, turli buyumlar bor. Ular yordamida shoir hayotiy xulosalar qilib, o'quvchilarni hayotni tushunishga chorlaydi. Goho bir xil obrazlar turli ma'noda kelishi mumkin. Masalan, Qarg'a obraziga shunday yondashadi:

Men qarg'aman, qarg'aman,

Bekor so'kib, qarg'amang.

Men-ku bir beozor qush,

Sizga nima qildim, xo'sh?

Qarg'a majoziy obraz sifatida salbiylik kasb etadi. Shoir o'quvchidagi shu kayfiyatni o'zgartirish uchun qarg'aning o'zini gapirtiradi. Qarg'a o'zini beozor qush deb biladi. O'zining qag'-qag' etib yurishini poetik tarzda izohlaydi :

Bahor yozdamas faqat

Kuylash kerak hamma vaqt.

Shunda qolmaysiz qotib

Va qayg'u g'amga botib

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida so'z ma'nolari ustida ishlash alohida ahamiyatga ega. So'z ma'nolari ustida ishlash o'qisho'quv predmetining barcha tarkibiy qismlari bilan aloqadorlikda tashkil etiladi. Binobarin, so'z ma'nolarini izohlashda uning tovush tomoniga, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish hamda to'g'ri yozish, o'quvchilar nutqini o'stirish ishlari kompleks amalga oshiriladi.

Quadrat Hikmatning bolalar uchun yozilgan ko'pgina she'rlari kitobxonlarni o'ylantiradi, ularni fikrlashga, hayot haqida mulohaza etishga da'vat etadi. Jumladan "Nok nusxa lampochka", "Qo'lqop kiygan askarga, o'xshaydi mix polvon ham", "Tog'dan kelar pildirab, ariqlarda shildirrab", "Serhosil, qaychi bargcha, xuddi bir qarich archa" kabi satrlari ko'p jihatdan sodda topishmoqlarga o'xshaydi.

Shoir she'rlarining badiiy olami ulardagi rang-barang tasviriy ifodalar, obrazlar orqali ko'zga tashlanadi. Masalan, "Bahor" she'rida o'ziga xos topilmalar mavjud.

Uchib yurar mayin shamollar

Yelpib- yelpib anhor yuzini

Qirg'oqlarda soyabon tollar

Oyna suvda ko'rar o'zini

Biluv topshiriqlari vositasida qarama-qarshi, o'zaro yaqin ma'noli so'zlar bo'yicha ham bilishga oid topshiriqlar tuzib, ta'limga tatbiq qilish bolalarda izlanish layoqatlarini o'stiradi. Bunda ot so'z turkumiga oid so'zlar beriladi. Bolalar predmetning belgisi, harakatini bildirgan so'zlarni izlab topishadi, gaplar tuzishadi.

Topshiriq. Ikkinchi ustundagi so'zlarning ma'nolarini mos belgi va harakatiga oid so'zlar topib yozing.

1-ustun	2-ustun	3-ustun
.....	daraxt
.....	bino
.....	lola
.....	shamol

Uchala ustundagi so'zlardan foydalanib, quyidagi gaplarni tuzish osonlashadi. Tuzilgan gaplar tahlilidan narsani bildirgan so'zlardan oldin belgi, undan keyin harakatni bildirgan so'zlarning kelishini anglab olishadi: Kattakon daraxt gulladi. Ko'rkam bino qurildi. qip-qizil lola ochildi. Yoqimli shamol esdi.

So'zlarni ma'nolariga ko'ra guruhlariga ajratishga oid biluv topshirilari o'quvchilar diqqatini so'z ma'nolariga tortishning faol usuli hisoblanadi. Shunday so'zlar berilgan bo'lsin: quyosh, maysa, chiqdi, bolalar, kom-ko'k, quvnoq, ko'kardi, o'ynadi, qizarib.

O'ylangchi, shu so'zlarni qanday qilib uch guruhga ajratib yozish mumkin. Bolalar topshiriqni bajarib, shu so'zlar ustida ishni davom ettirish mumkin. Buning uchun yana bir biluv topshiriqi tashkil etiladi.

Topshiriq. So'zlardan foydalanib, quyosh, bolalar, maysalar to'g'risida uchta gap tuzing.

O'quvchilar: quyosh qizarib chiqdi. Ko'm-ko'k maysalar ko'kardi. "Quvnoq bolalar o'ynadi" kabi gaplarni tuzishadi.

So'z ma'nolarini ajratishda taqqoslash usuli bilan bajariladigan biluv topshiriqlari alohida ahamiyatga ega. Shunday topshiriqlar berilgan bo'lsin.

Topshiriq. Uning. (issiq, hisa, katta, uzoq, kichik, ya'in, uzun, sovuq). Shu so'zlarni qanday qilib to'rt juft qarama-qarshi ma'noli so'zlarga ajratish mumkin?

Bolalar qavs ichida berilgan s'zlarning birinchisi (issiq)ni tanlab, unga qarama-qarshi ma'noli so'z (sovuq)ni, ikkinchi so'z (qisqa)ni tanlab, unga qarama-qarshi ma'noli so'z (uzun)ni, uchinchi so'z (katta)ni tanlab, unga qarama-qarshi ma'noli so'z (kichik)ni, to'rtinchi so'z (uzoq)ni ajratib, unga qarama-qarshi ma'noli so'z (yaqin)ni tanlashadi. Shu yo'l bilan to'rtta zid ma'noli so'zlar juftligi hosil qilinadi.

Topshiriq. Dumaloq, kuldi, yurdi, keldi so'zlariga zid ma'noli so'zlar topib yozing.

Topshiriqni bajarib, dumaloq-uzun, kuldi-yig'ladi, yurdi-to'xtadi, keldi-ketdi juftliklari hosil qilinadi. Bu ko'rinishdagi biluv topshiriqlari o'quvchilarning so'z ma'nolarini anglashlarini ta'minlaydi, bolalarda so'zga munosabatni tarbiyalaydi.

Ona tilidan o'rganiladigan bilim, hosil qilinadigan malakalar o'quvchilarda nutqni, nutq madaniyatini taraqqiy ettirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'qishpredmeti amaliy o'quv predmeti bo'lganligi tufayli situativ nutq tuzish malakalarini rivojlantirishni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.//Toshkent - 2017, "O'zbekiston", 593 b

2. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: "O'qituvchi", 1985. –B. 216.

1. Pulatova, A. Y. (2021). Scientific and Theoretical Foundations of an Integrative Approach to the Formation of Literary Concepts in Primary School Students. Middle European Scientific Bulletin, 8.

2. Asadovna, Y. (2021). Psychological Characteristics of Speech Cultivation by Working on the Text in Primary School Reading Lessons. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 437-446.

3. Polatovna, A. Y. (2021). Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 490-501.

4. Ulug'bekovna, A. N., & Moxirovna, N. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. Results of National Scientific Research International Journal, 1(3), 35-42.

5. Sayidova, R., & Toyirova, N. (2022). THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE ANALYSIS OF POETRY IN THE NATIVE LANGUAGE AND READING COURSES. In НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ (pp. 199-201).

6. Bakhtiyorovna, A. N., & Madina, O. Description of Non-Traditional Teaching Techniques Used in the Classes of the 3rd Class Native Language. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 3(3), 269-274.

7. Ozodova, M. (2021). OSHLANG 'ICH SINFLARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI O'RGATISHNING METODIK IMKONIYATLAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

8. Haydarova, M., & Yuldashev, B. (2022). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ИНДИВИДУАЛ ЁНДАШУВНИ ТАДБИҚ ЭТИШ УСУЛЛАРИ. Физико-технологического образование, 1(1).

9. Sidikova, S. D. (2021). Theoretical and didactic principles of distance learning. Academicia: an international multidisciplinary research journal, 11(1), 541-548.

10. Shavkatovna, S. D. (2021). OLIYGOHLARDA MASOFAVIY TA'LIMDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. In Научно-практическая конференция.

11. Tog'ayeva, U. (2021). ONA TILI O'QITISH METODIKASI. MODULINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH//ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
12. Tog'ayeva, U. (2020). IMPROVING THE MODULE" MOTHER TONGUE TEACHING METHOD" IN PROJECT EDUCATIONAL INSTRUCTIONS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).
13. Yusufzoda S., Ortiqova S. Improving the methods of developing thinking ability of primary school students in mathematics //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 4. – С. 1458-1463.
14. Yunus Y. S. FORMATION OF CURRENCY SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 281-285.
15. Sadulloyeva M. "NATIONAL CULTURE IN THE FABLES OF GULHANIY //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 10. – №. 9
16. Mamanazarovna, O. U., & Gulnoza, M. (2021). Use of didactic games in mother tongue lessons.
17. Mamanazarovna, O. O. (2022). O'QUV JARAYONIGA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 67-70.
18. N.Y. Ubaydullaevna. Central asian journal of literature, philosophy and culture 2 (10), 120-124.
19. Y.U. Nurova. Homonymy of ethnonyms in uzbek folk parems. European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: [https://www. Scholarzest](https://www.Scholarzest)
20. Tilavova, M., & Erkinova, N. (2022). O 'QUVCHILARINI MA'NAVIY BARKAMOL INSON RUHIDA TARBIYALASHDA ERTAKLARDAN FOYDALANISH. Science and innovation, 1(B4), 130-131.
21. Tilavova, M., & Erkinova, N. (2022). OQUVCHILAR NUTQINI OSTIRISHDA SHE'RIY MATNLARDAN FOYDALANISH. Science and innovation, 1(B4), 127-129.
22. Tilavova, M. M., & Alimova, M. A. Q. (2021). TEXNOLOGIYA DARSLARIDA QO 'L MEHNATIDAN FOYDALANISH TALABLARI. Scientific progress, 2(7), 975-982.
23. Mukhamadovna, T. M. (2021). Challenges of Feminism and Gender Equalization. Middle European Scientific Bulletin, 10.
24. Mukhamadovna, T. M., Djamshitovna, K. M., & Narzullayevna, Q. S. (2021). Art as a significant factor of forming world outlook of students. Middle European Scientific Bulletin, 11.
25. Muhammedovna, T. M. (2019). Qualification features of the teacher of" technology" and the technology of its development. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.
26. Тилавова, М. М. (2020). Гендерный подход на уроках технологии. In European research: innovation in science, education and technology (pp. 33-35).

27. Бахронова, А. И. (2021). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ЎҚУВЧИЛАРНИ АХЛОҚИЙ ТАРБИЯЛАШГА ТАЙЁРЛАШДА ДАРСДАН ТАШҚАРИ ИШ ШАКЛЛАРИ. *Scientific progress*, 2(6), 1083-1089.

28. Вахронова, А. (2022). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ДАРСДАН ТАШҚАРИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ АМАЛГА ОШИРИШГА ТАЙЁРЛАШ ЙЎЛЛАРИ. *Физико-технологического образование*, 1(1).

29. Bakhronova, A., & Sadirova, M. (2021). PROBLEMS OF TRAINING WITH THE FAMILY IN EXTRACURRICULAR EDUCATIONAL ACTIVITIES. In *World science: problems and innovations* (pp. 216-218).

30. Ismoilovna, B. A. (2021). Problems of Training Future Primary School Teachers to Cooperate with The Family in Extracurricular Educational Activities. *Middle European Scientific Bulletin*, 8.

31. Hamroyev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2019.

32. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.

33. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. *Eastern European Scientific Journal*, (1).

34. Hamroev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2019.

35. Kamroev, A. (2019). STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(7), 285-296.

36. Хамраев, А. (2018). Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся. *Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи*, (2), 23-26.

37. Adizov, B. R., & Khamroev, A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. *Ilmiy xabarнома*, 69.

38. Ҳамроев, Р. (2014). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, 22(1), 53-58.

39. Hamroyev, R. A., Qoldoshev, A. R., & Hasanova, A. M. (2021). Methods of teaching 1st grade students to use writing tools effectively. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(1), 168-174.

40. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ИНДИВИДУАЛ ЁНДАШУВ.

Haydarova Malika Djamshitovna

VuxDU o'qituvchisi

Аннотация. Ушбу мақолада бошланғич таълим жараёнига индивидуал ёндашувни тадбиқ этишнинг ўзига хос жиҳатлари ҳақида фикр юритилган бўлиб, унда кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг ёшга оид ва психологик хусусиятлари, индивидуал ёндашувни тадбиқ этишда амал қилиниши керак бўлган педагогик шарт-шароитлар баён қилинган.

Таянч сўз ва иборалар: кичик мактаб ёшидаги ўқувчи, индивидуал ёндашув, ўйинга мойиллик, жисмоний, психологик, ижтимоий ривожланиш, педагогик шарт-шароитлар, мустақил иш шакллари, методлар, ўқув топшириқлар, қобилият, қизиқиш.

Аннотация. В статье рассматривается специфика реализации индивидуального подхода к процессу начального образования, описываются возрастные и психологические особенности младших школьников, педагогические условия, которые необходимо соблюдать при реализации индивидуального подхода.

Ключевые слова и фразы: младший школьник, индивидуальный подход, игривость, физическое, психологическое, социальное развитие, педагогические условия, самостоятельные формы работы, методы, учебные задания, способности, интерес.

Annotation. This article discusses the specifics of the implementation of an individual approach to the process of primary education, which describes the age and psychological characteristics of primary school students, the pedagogical conditions that must be followed in the implementation of an individual approach.

Key words and phrases: junior schoolchild, individual approach, playfulness, physical, psychological, social development, pedagogical conditions, independent forms of work, methods, study assignments, abilities, interest.

Индивидуал ёндашув ўзбек халқи таълим тизимида асрлар давомида мавжуд бўлган. Ўтмишда мактабхоналар айниқса мадрасаларда таълим олувчиларга алоҳида ёндашилган ҳолда, уларнинг қизиқишлари ва интилишларини ҳисобга олиб таълим-тарбия берилган. Ҳар бир таълим олувчининг муайян мавзунини билиш имкониятлари ва ўзлаштириш даражалари аниқлангандан кейингина унга навбатдаги топшириқ берилган.

Бошланғич таълим жараёнига индивидуал ёндашувни тадбиқ этишда ўқувчиларнинг ёшга оид ва психологик хусусиятларини инобатга олиш лозим:

1. Ўйинга мойиллик. Ўйинлар ёрдамида бола умумқабул қилинган хулқ тўғрисида билимларни эгаллайди. Ўйинларда, бошқа фаолият турларида кўра кўпроқ боладан қоидаларга риоя этиш талаб этилади. Болалар уларни бузганга алоҳида эътибор билан танбеҳ берадилар. Агар бола кўпчиликнинг фикрига бўйсунмаса, унда у кўпгина ёқимсиз сўзларни эшитиши, ўйиндан чиқиши ҳам мумкин. Бунда бола бошқалар билан ҳисоблашишга ўрганади, адолат, ҳақиқат, ростгўйликдан дарс олади.

2. Бир маромдаги фаолият билан узоқ шуғуллана олмаслик. Психологлар таъкидлаганларидек, 6-7 ёш давридаги болалар ўз диққатларини 7-10 дақиқадан ортиқ бир предметда сақлай олмасликларини таъкидлайдилар. Бундан ортиқ вақтда болалар чалғий бошлайдилар, ўз диққатларини бошқа предметларга кўчирадилар, шунинг учун машғулотлар вақтида фаолият турларини тез-тез ўзгартириш зарур.

3. Тажрибанинг етишмаслиги сабабли ахлоқий тасаввурларнинг етарли аниқ эмаслиги.

4. Шунингдек, амалга ошириш тартиби ва амалий қўллаш ўртасида зиддиятлар бўлиши мумкин.

5. Катталар ва тенгдошлари билан мулойим мулоқотни қўллашнинг бир текис эмаслиги (кундалик ҳаётда ва уйда, мактабда ва кўчада).

Қадим замонлардан инсонлар ёш ва жисмоний, ақлий ривожланишнинг ўзаро алоқадорлигини тушунганлар. Бу ҳақиқат алоҳида исботларни талаб этмаган: ёш улғайиши билан донишмандлик шаклланади, тажриба тўпланади, билимлар ортади. Ҳар бир ёш даврида жисмоний, психологик, ижтимоий ривожланишнинг ўз даражаси мос келади.

Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида "...ўқитиш методикасини такомиллаштириш, таълим-тарбия жараёнига индивидуаллаштириш тамойилларини босқичма-босқич татбиқ этиш" каби устивор йўналишлар белгиланган [1]. Замонавий жамият халқ таълими олдида қўядиган асосий вазифалар орасида фаол онгли ижодий шахсни тарбиялаш вазифаси долзарб вазифа ҳисобланади. Бошланғич синф ўқувчилари ўқув фаолиятига киришиб, ўқув топшириқларини бажаришда ҳамда ўз хулқлари усулларини аниқлашда мақсадга мувофиқ ҳаракат қилишга ўрганадилар. Уларнинг ҳатти-ҳаракатлари онгли хусусият касб этади. Кўпинча ўз муаммоларини ҳал этишда ўқувчилар эгалланган тажрибадан фойдаланадилар. Ривожланиш жараёнларини тўғри бошқариш учун инсон ҳаёти даврларини таснифлаш зарурати юзага келди.

Бошланғич таълим жараёнига индивидуал ёндашувни татбиқ этишда қуйидаги педагогик шарт-шароитлар назарда тутилади:

- бошланғич синфларда ўқитиш мароми ва изланувчанлик қобилиятларини инобатга олиш, бунда ўқув топшириқларини индивидуаллаштириш;

- кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларни ўқишга бўлган эҳтиёжларини ривожлантириш, бунда топшириқни ҳар бир ўқувчи томонидан бажарилишини таъминлаш;

- бошланғич таълим жараёнида ўқувчиларнинг ўқишга бўлган қизиқишларини ошириш, бунда ўқитишни гуруҳли, индивидуал ва мустақил иш шаклларига асосланган ҳолда ташкил этиш;

бошланғич синф ўқувчиларида мустақиллик, меҳнатсеварлик, креативликни шакллантириш, бунда дарснинг аксарият қисмини индивидуал ишлашга ажратиш имкониятидан фойдаланиш кабилар.

Америкалик ўқитувчиларнинг аксарияти ўқувчиларнинг дарсда фаол иштирок этишларини афзал кўрадилар ва шу туфайли ҳар хил интерфаол усуллардан фойдаланадилар. Интерфаол усулдаги дарс анъанавий, ўқитувчилар кўникиб кетган маъруза шаклида ўтказиладиган дарсдан сезиларли фарқ қилади. Тадқиқотлар далолат беришича, педагогик жараёнларни индивидуал ёндашув асосида ташкил этиш ўқувчилар ўртасидаги ётсирашни олдини олишнинг самарали техникасидир. Масалан, индивидуал ёндашилганда ҳатто ўзга болалар ўзларидан фарқ қилган тақдирда ҳам ўзларини гуруҳнинг қисми сифатида сезишларига имкон беради. Таълимни бундай ташкил этиш ўқувчилардаги тафаккур усулини “Мен ва улар”дан “Бизлар”га айлантиради.

Австриялик психолог ва файласуф В.Франкл [4] индивидуалликнинг аҳамияти, инсон шахсининг қадр-қиммати ва мазмуни ҳамма вақт у яшаётган жамиятга боғлиқлигини таъкидлайди. Америкалик социолог Т.Паркинсоннинг фикрича [4], чинакам шахсий қадр-қиммат инсоннинг ўраб турувчи муҳит билан муносабатида, яъни унга индивидуал ёндашилганда намоён бўлади.

Жаҳонда таълимда қўлга киритилган муҳим натижаларга кўра ўқув жараёнига индивидуал ёндашувни тадбиқ этиш таълим олувчиларнинг ақлий қобилиятлари ва қизиқишларига қараб амалга оширилмоқда. Таълим босқичлари орасида бошланғич таълимда ўқув жараёнини индивидуал ёндашув асосида ташкил этиш ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, у ўта мураккаб педагогик жараён сифатида тавсифланади.

Бошланғич синф ўқувчиси айтилганларни текширади, уни қизиқтирган саволларга жавобларни мустақил топишга интилади, чунки боланинг аввалги ҳаёти – унинг тўпланган шахсий индивидуал тажрибаси ҳисобланади ва катта инсоннинг у билан ўзаро муносабати ҳам айнан мазкур тажрибани ҳисобга олиб, қатъий индивидуал бўлиши лозим.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mukhamadovna, T. M., Djamshitovna, K. M., & Narzullayevna, Q. S. (2021). Art as a significant factor of forming world outlook of students. Middle European Scientific Bulletin, 11.

2. Djamshitovna, X. M. (2021). Pedagogical Opportunities for Implementing an Individual Approach to the Primary Educational Process. International Journal of Culture and Modernity, 11, 192-195.

3. Djамshitovna, X. M. (2021). The Didactic Potential of Modern Information Technologies in Achieving the Professional Competence of the Future Teacher. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 201-204.

4. Djамshitovna, X. M. (2021). Pedagogical Opportunities for Implementing an Individual Approach to the Initial Educational Process. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 12, 252-255.

5. Haydarova, M., & Yuldashev, B. (2022). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ИНДИВИДУАЛ ЁНДАШУВНИ ТАДБИҚ ЭТИШ УСУЛЛАРИ. Физико-технологического образование, 1(1).

6. Хайдарова, М. Д., & Юлдашев, Б. Н. (2022). ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ТРУДОВОМ ОБУЧЕНИИ ШКОЛЬНИКОВ. БАҒҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(4), 387-390.

7. Haydarova, M., & Yuldashev, B. (2021). БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАТИВ ЁНДОШУВ. Физико-технологического образование, (2).

8. Haydarova, M. (2019). MODEL AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS CONDUCIVE TO THE FORMATION OF MANAGERIAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(11)*, 90-93.

9. Haydarova, M., & Qodirova, M. (2021). ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ТАБИИЙ МАТЕРИАЛЛАР БИЛАН ИШЛАШГА ЎРГАТИШ. Физико-технологического образование, (2).

10. Haydarova, M. (2017). Impact of globalisation on economic growth and investment attractiveness of regions. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (4), 149-158.

11. Хайдарова, М. Д. (2013). Роль интеграции в школьном образовании. Педагогика и современность, (4), 33-36.

12. Хайдарова, М. Д., Юлдашев, Б. Н., & Узбекистан, Б. (2019). Информационные технологии в трудовом обучении школьников. *teacher Namangan region, Norin district school*, 40, 542.

13. Хайдарова, М. Д. (2020). Способы реализации индивидуального подхода к начальному образованию. *European research*, 6, 64.

14. Хайдарова, М. Д. (2020). Единство трудового и эстетического воспитания школьников. *Вестник науки и образования*, (23-2 (101)), 63-65.

15. Хайдарова, М. Д. (2021). ОСОБЕННОСТИ ВЕДЕНИЯ БИЗНЕСА В ИНДУСТРИИ КРАСОТЫ. In *Формирование и реализация стратегии устойчивого экономического развития Российской Федерации* (pp. 349-352).

16. Хайдарова, М. Д. (2021). ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ГОСТИНИЧНОГО СЕРВИСА НА ПРИМЕРЕ Г. МИРНЫЙ. In *Формирование и реализация стратегии устойчивого экономического развития Российской Федерации* (pp. 346-349).

17. Хайдарова, М. Д. (2019). Интеграция уроков технологии с другими предметами. Теория и практика современной науки, (5), 755-758.
18. Sidiqova, D. S. (2021). ZAMONAVIY TA'LIMDA MASOFAVIY O'QITISH TIZIMI. Scientific progress, 2(7), 1027-1031.
19. Shavkatovna, S. D. (2022). MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG 'ICH TA'LIM YO 'NALISHI TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 61-62.
20. Shavkatovna, S. D. (2022). Issues of Formation of Professional Competence of Students. European journal of innovation in nonformal education, 2(2), 291-294.
21. Sidiqova, D. (2020). Boshlang'ich sinflarda interfaol ta'lim va loyihalash texnologiyasi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 4(4).
22. Shavkatovna, S. D. (2021). Developing Students' Professional Competencies in Distance Learning. Central asian journal of literature, philosophy and culture, 2(10), 152-155.
23. Shavkatovna, S. D. (2021). THE IMPORTANCE OF DISTANCE LEARNING IN THE TEACHING OF" METHODS OF TEACHING MATHEMATICS".
24. Yunusovna Y. S. METHODOLOGY OF FORMATION OF GRAPHIC SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 129-133.
25. YUSUFZODA S. BOSHLANG'ICH SINFLAR HUSNIXAT DARSLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8
26. Ismoilovna, B. A. (2021). Problems of Training Future Primary School Teachers to Cooperate with The Family in Extracurricular Educational Activities. Middle European Scientific Bulletin,
27. Bakhronova, A., & Sadirova, M. (2021). PROBLEMS OF TRAINING WITH THE FAMILY IN EXTRACURRICULAR EDUCATIONAL ACTIVITIES. In World science: problems and innovations
28. Bakhronova, A. (2022). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ SINFLAR ўқитувчиларини ДАРСДАН ТАШҚАРИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ АМАЛГА ОШИРИШГА ТАЙЁРЛАШ ЙЎЛЛАРИ. Физико-технологического образование, 1(1).
29. Бакронова, А. И. (2021). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ SINFLAR ўқитувчиларини ўқувчиларни АХЛОҚИЙ ТАРБИЯЛАШГА ТАЙЁРЛАШДА ДАРСДАН ТАШҚАРИ ИШ ШАКЛЛАРИ. Scientific progress, 2(6), 1083-1089.
30. Mamanazarovna, O. O. (2022). O'QUV JARAYONIGA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 67-70.
31. Fayzullayev M. B., Sadullayeva M. G., Fayzulloyev O. M. НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ЦЕННОСТИ ВОСТОКА В БАСНЯХ МУХАММАДА ШАРИФА ГУЛЬХАНИ //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – С. 528-532.

32. Baymuradovna B. S. et al. Pedagogical technologies for the development of cognitive creative abilities of students in the lessons of the Russian language //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 6. – С. 492-496.
33. Gaibulloevna S. M. THE UNIQUE IDIOLECT OF GULKHANI–THE FABLE WRITER. – 2021.
34. Садуллоева М. Г., Ражабова С., Холова Г. Т. ЯЗЫК И РЕЧЬ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В ШКОЛЕ //СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2021. – С. 218-220.
35. Gaybulloyevna S. M., Farkhodovna K. M. Causes, Forms and Corrective Actions of Deviant Behavior among School Children //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – Т. 11. – С. 43-46.
36. Hamroyev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.
37. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. Middle European Scientific Bulletin, 11.
38. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. Eastern European Scientific Journal, (1).
39. Hamroev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.
40. Kamroev, A. (2019). STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(7), 285-296.
41. Хамраев, А. (2018). Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся. Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи, (2), 23-26.
42. Adizov, B. R., & Khamroev, A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. Ilmiy xabarnoma, 69.
43. Ҳамроев, Р. (2014). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 22(1), 53-58.
44. Hamroyev, R. A., Qoldoshev, A. R., & Hasanova, A. M. (2021). Methods of teaching 1st grade students to use writing tools effectively. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(1), 168-174.
45. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. Middle European Scientific Bulletin, 11.
46. Azimov, Y. (2003). Hamroyev A//Husnixat va uni oqitish usuliyoti (Maruza matnlari).

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TAYYORLOV GURUHLARIDA HAMDA 1-SINF
"ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA ETNOPEDAGOGIKA NAMUNALARINI
O'RGATISH METODIKASI**

Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi

BuxDU o'qituvchisi

Maqolada *hozirgi vaqtda o'tmishning madaniy-tarixiy merosini qayta tiklash, uning eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan etnopedagogikaning boy an'analari va yosh avlodni tarbiyalash haqida fikrlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *dars, nutq, tovush, ta'lim, pedagogika, etnopedagogika, maktabgacha ta'lim*

Annotation *This article deals with the restoration of the cultural and historical heritage of the past, the rich traditions of ethnopedagogy, which is its most important part in the upbringing of the younger generation.*

Keywords: *lesson, speech, education, ethnopedagogy, pedagogy, preschool education*

Maktabgacha ta'lim hamda maktab yoshidagi bolalarni yuksak ma'naviy fazilatlarini rivojlantirib, milliy ma'naviyatini oshirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'alarimizga hurmat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Har bir millat hamda jamiyat o'ziga xos tarixga ega bo'lib, tarixiy shakllangan jamiyatning har birida o'z bolalarini tarbiyalash jarayoni, farzand tarbiyasiga oid qarashlari shakllangan. Yosh avlodga eng qadimgi davrlardan boshlab o'z xalqining madaniy qadriyatlarini haqida ma'lumot berish, ajdodlarining tajribalarini avlodlarga yetkazish muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Bunda ular o'z tarixini, ajdodlari kim va qanday insonlar bo'lganligini o'rganadi hamda qaysidir ma'noda o'z qadr-qimmatini ham bilib oladi. Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyalanib ta'lim oladi. O'quv yili, deb atalgan oraliq 35 haftani tashkil etadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ma'naviyat saboqlari" ni o'tkazishga imkoniyat bor ekan. Bunga sabab maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dastlabki davrdayoq jamoaning va jamoadagi bolalarning inoqlashuv davri boshlanadi. Bu davrda bolalar o'z murabbiy va tarbiyachilarini diqqat bilan tinglaydi, ular aytgan har bir fikrni tahlil qiladi. Shuning bilan birga murabbiy va tarbiyachilar yordamida ular o'z ajdodlarining milliy boy va takrorlanmas merosini o'rganadi.

Etnopedagogika-turli xil etnik guruhlar o'rtasida tarixan rivojlangan, an'anaviy tarbiya va ta'lim amaliyoti sifatida xalq pedagogikasi bo'lgan fan. Ushbu atama Rossiya ta'lim akademiyasining akademigi G.N.Volkov tomonidan kiritilgan va ommalashtirilgan.

Juda tez o'zgarib borayotgan, cheksiz o'zgarishlar kuzatilayotgan davrda yashamoqdamiz. O'sib kelayotgan yosh avlod ham yangiliklarning bevosita ishtirokchisi

bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham bolalarimizga ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiya berish masalasi zamonaviy pedagogika fanining eng muhim masalalaridan biridir. Yoshlarimizga inson o'z mulkiy manfaatlarini ustun qo'ymasdan, vijdon, uyat, burch, or-nomus, mas'uliyat, rahm-shafqat, sevgi, go'zallik, vafo kabi tushunchalarning mohiyatini, xalqimizning eng qadimgi davrlaridan boshlab boshdan kechirgan hayotiy tajribalarini o'rgatib bormog'imiz lozim. Bizga ma'lumki, xalqimizning pedagogik qarashlari uzoq asrlar davomida shakllangan va ular bizga alohida darslik yoki qo'llanma shaklida yetib kelmay, balki asosiy qismi xalq og'zaki ijodiga oid har xil janrlarda, buyuk olimlarimiz asarlarida, muqaddas kitobimiz Qur'oni Karim hamda hadislarda o'z aksini topgan. Xalqimiz bor ekan etnopedagogika sohasi yashayveradi va yanada sayqallanib, insonlar orzulari, quvonch-u tashvishlari, shodlik va armonli kunlari, dunyoqarashi hamda hayotiy ta'lim-tarbiyaviy xulosalari avlodlar uchun o'rnak bo'lib qolaveradi.

Yuqoridagi fikrlarning isboti sifatida yurtimizda 2020-yilda ta'lim sohasida jahonning yetakchi mamlakatlari tajribalariga asoslangan "Milliy o'quv dasturi" qabul qilindi. Bosqichma-bosqich tarzda barcha umumta'lim maktab darsliklari "Milliy o'quv dasturi" asosida tuzilib, eski darsliklardan voz kechiladi. 2021-2022-o'quv yilidan boshlab umumta'lim muassasalariga yetkazib berildi.

Boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarga o'zbek millatining tarixiy tajribasini qo'llashga o'rgatish, o'tgan ajlodlarning yosh avlodlarni tarbiyalash haqidagi fikrlarini singdirib bormog'imiz darkor. Fikrimizning dalili sifatida Milliy dastur asosida yaratilgan "Alifbe" darsligini o'rganish jarayonidanoq o'quvchilarga maqol, topishmoqlar darslikda o'z aksini topganligiga guvoh bo'lamiz. Bizga ma'lumki, 2021-2022-o'quv yilidan boshlab "Ona tili" va "O'qish" darsliklari birlashtirilib, "Ona tili va o'qish savodxonligi" sifatida o'qitila boshlandi. 1-sinfning 2-yarim yilligidan boshlab o'quvchilar yangi dastur asosida yaratilgan darsliklarda oila, hayot, milliy g'urur, xalqimizga xos an'ana va qadriyatlarni o'z xalqlarining o'tmishi, tarbiyaga oid qarashlarini bilib, tahlil qilib bormoqalar.

1-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligining 28-betida Hayit bayramidan bir kun oldingi kun Arafa kuni haqidagi matnning keltirilishida faqat o'zimizning millatgagina xos bo'lgan hayitda yangi kiyim kiyish, qo'ni-qo'shnilar birlashib bir-birining uyiga turli xil bo'g'irsoq va shirinliklar ulashishi, qarindosh-urug'larning hayit ayyomida yig'ilishlari bolalarga xos oson va sodda tilda tushuntirilgan. 32-betda "Navro'z taronasi" she'ri va undan so'ng bahoriy milliy taom hisoblangan "Sumalak"ning pishirilish jarayoniga oid rasmlarda aks etgan o'zbek oilalariga xos bo'lgan ahillik, bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbatni jajji o'quvchilar anglab, milliy qadriyatlarimizni bilib olishlari qiyin emas.

Xalq og'zaki poetik ijodining eng qadimgi va ommaviy janrlaridan biri bo'lgan, jahondagi barcha xalqlar folklorida uchraydigan topishmoqlar ham ushbu darslikdan o'rin olgan. Topishmoqlarda ham xalq hayoti, turmush darajasi, madaniyati va urf-odatlari ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Topishmoqlar bolalarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi tushuncha va tasavvurlarini, mulohaza qobiliyatini kengaytirishda tarbiya vositasi hisoblanadi. Vatanga muhabbat, mehnat, ahillik, donolik

kabi ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati g'oyat katta bo'lgan maqollar ham asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda ko'rinishga kelgan. Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otut turk" asarida keltirilgan. Bu maqollarning har birida xalqimizning necha yillik tajribalari aks etganligini sezish qiyin emas. Bular orqali yosh avlodda ham fikrlar izchilligi rivojlanib, dono ota-bobolarimizning aytgan har bir gaplari bejizga aytilmaganligini sezadilar va o'zlari ham yod olib boradilar. 92-betda o'zbek milliy o'yinlaridan "Oq terakmi, ko'k terak?", "Bekinmashoq", "Kurash", "Uloq" kabi o'yinlar va ularning tasviri keltirilgan. Hozirgi axborot texnologiyalari va kompyuter o'yinlari hamda virtual olam kutilmagan holda kirib kelgan ayni vaqtda madaniyat, bilim, ta'lim-tarbiya masalalari bizda biroz muammo tug'dirishi mumkin. Buning uchun ko'p yillik tarixiy tajribamizga suyanishimiz lozim. O'sib kelayotgan yosh avlod qalbida milliy o'yinlarimizga muhabbatni uyg'otishimiz lozim.

Har bir xalqning sevimli milliy o'yinlari bo'lgani kabi o'zbek xalqining ham o'ziga xos o'yinlari bo'lgan. Milliy o'yinlarimiz serharakatligi, chidamlilikka o'rgatuvchi, chiniqtiruvchi harakatlardan tashkil topganligi bilan boshqa xalqlarning o'yinlaridan tubdan farq qiladi. Bu o'yinlarni o'rgatish orqali bolalarni qiziqtirib, bo'sh vaqtlarida o'rtoqlari bilan ushbu o'yinlarni o'ynab, kelajak avlodlarga ham yetkazib borsalar milliylikimiz hech qachon yo'qolmaydi. Haqiqatdan ham, o'zbek milliy o'yinlari hayotiyli, xalq tomonidan yaratilganligi uchun ham katta-yu kichik va hatto xotin-qizlar tomonidan ham yoshligidan boshlab sevib o'ynalgan. Ota-bobolarimizning o'z farzandlariga qiyinchiliklar kelganda o'z irodasini yo'qotmaslik, biror-bir hayot zarbalariga duch kelganda qo'rqmay, dadil kelajak tomon harakat qilish lozimligini, og'ir, sertashvish kunlardan keyin, hamda sayllar o'yinlar orqali kayfiyatlarini ko'tarib, tetiklashib kuch to'plaganliklarini bolalarimizga namuna sifatida ko'rsatib va o'rgatib borishimiz kerak. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2022-yil 28-yanvarda o'tkazilgan maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha bo'lib o'tgan videoselektorda mamlakat kelajagi, barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tgan. Albatta, bu fikrlar bejiz emas. Kelajak yoshlar qo'lida. Yoshlar bilimli, tarbiyali, madaniyatli bo'lar ekan biz kelajagimiz buyuk deya baralla ayta olamiz. "Yangi O'zbekiston", "Uchinchi renesans" kabi tushunchalar bekorga kirib kelgani yo'q. Hamma-hammasi ta'lim va tarbiyaga bog'liq. Prezidentimizning quyidagi fikrlari hammamizga tegishli:

"Yosh avlodni tarbiyalash biz uchun eng asosiy vazifadir", "Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda. Ta'limga e'tiborda bir kun emas, bir soat kechiksak bu juda katta ziyon bo'ladi." Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, o'sib borayotgan avlodning ta'lim-tarbiya tizimini xalqimizning tajribalariga tayangan holda olib borsak, farzandlarimiz ham tarixini, buyuk ajdodlarini, ham milliy an'ana va marosimlarini o'rganadi va ularga hurmat ruhida tarbiya topadi deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xayrulloeva, D. (2021). The gradual development of native language textbooks for grades 3-4 in primary school. центр научных публикаций (buxdu. uz), 7(7).
2. Xayrulloeva, D. (2021). System of Creative Exercises and Tasks in Primary School Mother Tongue Textbooks. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 7(7).
3. Xayrullayeva, D. N. Q. (2021). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLIKLARIDAGI IJODIY MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIZIMI. Scientific progress, 2(7), 1235-1242.
4. Dilnoza, X. (2022). 1-SINF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA ETNOPEDAGOGIKA NAMUNALARINI O'RGATISH METODIKASI. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(4), 337-341.
5. Xayrullayeva, D. (2021). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ONA TILI TA'LIMINING ANAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
6. Ҳамроев, Р. (2014). Бошланғич таълимни ижодий ташкил этиш истиқболлари. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха, 22(1), 53-58.
7. Sayfiddinovich, R. K. (2022). The importance of using ethnopedagogy in primary school students. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(4), 92-97.
8. Farmonova, S. (2021). Opportunities for the Development of the Communicative Culture of Future Teachers through the Design of Teaching. International Journal of Culture and Modernity, 11, 172-175.
9. Farmonova, S. (2019). THE TOLE OF THE PROJECT TEACHING TOOL IN DEVELOPING THE COMMUNICATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 434-441.
10. FARMONOVA, S. M. (2020). Improvement of Professional Thinking in Future Teachers. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 7(05), 251-257.
11. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. Eastern European Scientific Journal, (1).
12. Hamroev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.
13. Kamroev, A. (2019). STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(7), 285-296.
14. Хамраев, А. (2018). Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся. Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи, (2), 23-26.
15. Adizov, B. R., & Khamroev, A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. Ilmiy xabarnoma, 69.

16. Ҳамроев, Р. (2014). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 22(1), 53-58.
7. Каримова В, Нишонова З. Мустақил ижодий фикрлаш ва шахснинг ҳиссий, иродавий ва интеллектуал ҳислатлари орасидаги боғлиқлик // Ж. Халқ таълими, 2001. № 3-6.-Б.-64-69.
8. Хуторский А.В. Развитие одарённости школьников: методика продуктивного обучения. – М.: Владис, 2000. – 320 с.

9. Ҳамроев, Р. (2014). Бошланғич таълимни ижодий ташкил этиш истиқболлари. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха, 22(1), 53-58.
10. Hamroyev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2019.
11. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
12. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
13. Hamroyev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2019.
14. Kamroev, A. (2019). STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(7), 285-296.
15. Хамраев, А. (2018). Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся. Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи, (2), 23-26.
16. Adizov, B. R., & Khamroyev, A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. *Ilmiy xabarнома*, 69.
17. Ҳамроев, Р. (2014). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 22(1), 53-58.
18. Hamroyev, R. A., Qoldoshev, A. R., & Hasanova, A. M. (2021). Methods of teaching 1st grade students to use writing tools effectively. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(1), 168-174.
19. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
20. Azimov, Y. (2003). Hamroyev A//Husnixat va uni oqitish usuliyoti (Maruza matnlari).
21. Khamroyev, A. (2021). Quality and effectiveness for design of learning outcomes in the language teaching. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 549-558.
22. Pulatova, A. Y. (2021). Scientific and Theoretical Foundations of an Integrative Approach to the Formation of Literary Concepts in Primary School Students. *Middle European Scientific Bulletin*, 8.
23. Asadovna, Y. (2021). Psychological Characteristics of Speech Cultivation by Working on the Text in Primary School Reading Lessons. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 437-446.

24. Polatovna, A. Y. (2021). Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 490-501.

25. Pulotova, Y. (2021). Principles of Integration of Primary School Mother Tongue and Learning Classes. International Journal of Culture and Modernity, 11, 185-191.

26. Asadovna, P. Y. (2021). Methods of working on the text in the integration of primary school reading lessons. Middle European Scientific Bulletin, 11.

27. Asadovna, P. Y. (2021). An integrative approach in speech development by working on m atn in reading lessons. Middle European Scientific Bulletin, 11.

28. Tog'ayeva, U. (2021). ONA TILI O'QITISH METODIKASI. MODULINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH//ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

29. Tog'ayeva, U. (2020). IMPROVING THE MODULE" MOTHER TONGUE TEACHING METHOD" IN PROJECT EDUCATIONAL INSTRUCTIONS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

30. Tog'ayeva, U. (2020). SCIENTIFIC-THEORETICAL BASES OF USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING METHODS OF MOTHER TONGUE. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

ЎЗБЕК ТИЛИДА ТИББИЙ БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Наврузова Муяссар Гайбуллаевна

БухДУ. Бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси

Калит сўзлар: мулоқот маданияти, тиббиёт деонтологияси, тиббий этика, психотерапия, тиббий таълим.

Ключевые слова: культуры коммуникации, медицинская этика, психотерапия, медицинское образование.

Key words : *culture of communication, medical deontology, medical ethics, psychotherapy, medical education*

Аннотация: *Ушбу мақола шифокорнинг мулоқот маданияти, тиббиёт деонтологияси, шифокор билан бемор ўртасидаги муносабат, шифокор билан беморнинг яқинлари ўртасидаги муносабат, шифокорнинг ҳамкасблари билан муносабати, тиббий этика, психотерапиянинг шифокор фаолиятидаги ўрни, тиббиёт соҳаси тилининг лингвомаданий аспекти, эвфемизациянинг лингвомаданий нутқ натижаси эканлиги масалалари тадқиқига бағишланган.*

Аннотация : *Данная статья посвящена изучению культуры общения врача, медицинской деонтологии, взаимоотношений врача с пациентом, взаимоотношений врача с родственники пациентом, медицинской этики, роли психотерапии в работе врача, лингвокультурологического аспекта медицинского языка, эвфемизма.*

Annotation: *This article is devoted to the study of physician's communication manner, medical deontology, doctor-patient relationship, the relationship of doctor with the relatives of patient, medical ethics, the role of psychotherapy in physician's work, linguocultural aspect of medical language, the linguocultural speech result of euphemism.*

МАВЗУНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

Жаҳон тилшунослигида халқ тили ҳамиша адабий тилни бойитувчи асосий ички манба сифатида қаралган. Унинг таркибида тиббий бирликларнинг ҳам алоҳида ўрни бор. Инсоният азалдан касаллик турлари, уларнинг халқона муолажасини аниқлаб, белги-хусусиятларига кўра атаб келган. Баъзан уларни номлашда табу ва эвфемизмларга риоя қилган. Натижада ҳар бир халқ тилида тиббий бирликларнинг муайян тизими шаклланиб, қадимий кўринишлари фольклор асарлари тилида сақланиб қолганлиги кузатилади. Уларни ўрганиш эса тил тарихида этнолингвистика, лингвофольклористика, диалектология, лингвокультурология ассоциациялашувини очиш учун аҳамият касб этади.

Жаҳон тилшунослигида фольклор лексикологияси, диалектологияси ва кроссмаданий лингвофольклористикаси соҳаси тобора ривожланиб бормоқда. Фольклор тили ва унда қўлланувчи сўзларнинг изоҳли луғатини тузишга эътибор

оширилмоқда. Шу сирада ўзбек фольклори тилида учрайдиган тиббий бирликларнинг архаик, тарихий ҳамда замонавий, гендер табиатли турларини далиллаш, лексик-семантик жиҳатдан таснифлаш, морфологик структурасини кузатиш, луғатлаштириш тамойилларини аниқлаш, этнолингвистик ва лингвопоэтик ифода хусусиятларини ойдинлаштириш долзарб масалалардан ҳисобланади.

Мустақиллик йилларида ўзбек фольклори намуналарини тилшунослик нуқтаи назаридан тадқиқ қилиш орқали халқ тилининг тараққиёт хусусиятларини очишга қизиқиш ортди. Бу қизиқиш фольклор тилида ифодаланиб келаётган тиббий бирликлар билан ҳам боғлиқ. Уларнинг халқ тилидаги ўрни, шеваларда турлича учраши, этнолингвистик ва этнофольклористик асослари, лингвофольклористик ва фольклор матнларидаги лингвомаданий ҳамда лингвопоэтик ифода хусусиятларини аниқлаш ечимини кутаётган долзарб вазифалар қаторига киради. Зеро, “Илмни, тарбияни тўғри қилсак, ҳамма соҳаларни малакали мутахассислар ўзлари ривожлантиради”.⁴⁴ Шундай экан, юқорида кўтарилган муаммо ечими фольклор тили лексикологиясининг ўзига хос хусусиятларини ойдинлаштириш имконини бериши жиҳатидан аҳамиятга эга.

Бугунги кун ўзбек тилшунослигида тил маданиятига алоҳида эътибор қаратилмоқда ва лингвистиканинг лингвокультурология сатҳи тараққий этмоқда. Зеро, мазкур йўналишнинг асосий объекти маданият ва тил алоқадорлигини, уларнинг ўзаро боғланиши, ўзаро таъсирини бир бутун тизимли яхлитлик сифатида турли касб эгалари доирасида ўрганишдан иборат. Мазкур мақолада шифокорлар нутқида қўлланиладиган лингвомаданий унсурлардан фойдаланишнинг айрим масалалари ҳақида баҳс юритамиз. Ўзбек тилшунослигида тиббиёт ходимлари нутқи махсус тадқиқот мавзуси предмети бўлмаган. Рус, турк, инглиз тилидаги тиббий нутқни эвфемизация – нутқни юмшатишнинг лисоний воситаларини ҳар томонлама таҳлил қилишга бағишланган монографик тадқиқотларнинг мавжудлиги жаҳон тилшунослигида тиббий нутқ эвфемизацияси масаласининг аҳамиятлилик даражасини, ўзбек тилшунослигида ҳам шундай тадқиқот яратиш мавзунинг долзарблигини белгилайди.

МАҚСАД ВА ВАЗИФА:

Тадқиқотда шифокор билан бемор алоқасини ўрнатишда сўз муҳим аҳамият касб этиб, муваффақиятли даволашга ёрдам берадиган восита сифатида талқин қилинади. Шифокор иш жараёнида лингвомаданий унсурлардан оқилона фойдалана олишини, қолипланган сўз сифатида эвфемизациянинг тиббиёт терминологиясини бойитишдаги ролини ўрганиш, тиббиёт билан боғлиқ шифокор нутқи эвфемикасини тадқиқ қилиш мақсад ва вазифа қилиб қўйилган.

УСУЛЛАР:

⁴⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Миллий университетида олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари раҳбарлари, академиклар, олимлар, ёш тадқиқотчилар билан учрашувидаги нутқидан. – Халқ сўзи, 2019 йил, 26 май.

Тадқиқотда қўйилган мақсадга қуйидаги усулларни бажариш асосида эришилади: тиббиётга доир маданий нутқнинг функционал тавсифини бериш – тиббиётга доир нашр қилинган даврий нашр материалларидан сўзларни юмшатиш учун ишлатилган эвфемик қирраларини топиш, тиббий нутқда сўзларни юмшатиш воситаларини аниқлаш ҳамда уларни маъновий гуруҳларга ажратиш, тиббий эвфемизмлар луғати учун материаллар йиғиш.

НАТИЖАЛАР ВА МУЛОҲАЗА:

Шифокорлик – лингвоактив касб. Тиббиёт соҳаси тилининг лингвомаданий аспекти тиббиёт деонтологияси, психотерапия, тиббий этика масалалари билан чамбарчас боғлиқ бўлганлиги сабабли қуйида шу омилларнинг тиббиёт амалиётдаги аҳамиятига тўхталамиз.

Тиббиёт деонтологияси – тиббиёт ходимларининг касбга алоқадор этикаси, дори-дармон, умуман, давонинг таъсирини оширишга қаратилган хулқ-атвор таомиллари. Деонтология, яъни кишининг хулқи, одоби ҳақидаги тушунча XIV асрнинг бошларида инглиз файласуфи ва иқтисодчиси И.Бентам томонидан муомалага киритилган. Тиббиёт деонтологиясига оид маълумотлар узоқ тарихга эга бўлиб, кенг фалсафий мазмун касб этади. Деонтология шифокор билан бемор ўртасидаги муносабат (1); шифокор билан беморнинг яқинлари ўртасидаги муносабат (2); шифокорнинг ҳамкасблари билан муносабати (3) каби бир неча йўналишдан иборат. Тиббиёт деонтологиясига мувофиқ, тиббиёт ходими беморга алоҳида эътибор бериши, унинг соғлигини тиклаш, азобини енгиллатиш учун бутун билимини сарфлаши, беморга унинг соғлиғи ҳақидаги фақат фойда келтира оладиган маълумотларни айтиши, беморнинг шифокор билан сирдош бўлишига эришмоғи зарур. Беморнинг касаллиги ҳақида унинг иштирокида ҳамкасблари билан сўзлашиш ярамайди. Тиббиёт деонтологиясининг тиббий амалиётга тўғри жорий қилиниши, шифокорнинг онги, савияси, маданияти, дунёқараши, билими ва қайси жамиятда яшаётганлиги билан боғлиқ равишда амал қиладиган жараён. Кишилиқ жамиятининг турли даврларида деонтологик муносабатлар турлича кечган, у замон талабига мос равишда ўзгариб борган[1]. Кўриниб турибдики, даволаш амалиётида деонтологиянинг муҳим фактори – нутқий омил етакчи ўринни эгаллайди, шифокор нутқи бемор психологик ҳолатини бошқаришнинг асосий воситаси саналади.

Қадимда табиблардан, кейинчалик шифокорлардан маданиятли, хушмуо-мала, соддадил ва камтар бўлиш талаб қилинган. Алишер Навоий ҳазратлари табиб ҳақида фикр юритар экан, шундай дейдилар: “Табиб ўз фанининг моҳир билимдони бўлиши, беморларга меҳр-шафкат билан муомала қилиши, асл тиб илмига табиати келишмоғи, донишмандлар сўзига риоя қилиб, уларга эргашмоғи, мулойимсўз, бемор кўнглини кўтарувчи, андишали, хушфеъл бўлмоғи керак. Табиб агар ўз касбига моҳир бўлса-ю, аммо ўзи бадфеъл, бепарво, қўполсўз бўлса, беморни ҳар қанча муолажа қилганда ҳам барибир унинг мижозидида ўзгариш пайдо қилолмайди”. Абу Али Ибн Сино табибнинг касални даволашдаги уч таянч қуроли: сўз, гиёҳ, тиф

орасидан сўзни биринчи ўринга қўйган ҳолда, шифокорнинг кўзи бургутники каби ўткир, қўллари қизнинг қўллари каби нозик, юраги шерникидек довурак ва ақли илон каби бўлишини эътироф этганлиги диққатга сазовордир[2].

Тиббий этика (юнонча *одат, характер*) умумий этика меъёрининг бир қисми сифатида шифокорнинг ахлоқий мезонлари, унинг хатти-ҳаракатлари, ахлоқий меъёри мажмуини, профессионал бурч ва ҳурмат, виждон ва қадр-қиммат туйғусини ўз ичига олади. Тиббий этика тиббиёт ходимининг кундалик ҳаёти, фаолиятида, унинг маданияти, жисмоний ва ахлоқий поклик каби муайян ҳаракатлар стандартини қамраб олади. Умуман олганда, тиббий этика шифокор ички дунёсининг кўзгуси саналади[12]. Нутқий этикет масаласи билан шуғулланган таниқли мутахассис Н.И.Формановскаянинг фикрича, нутқий этикет – нутқий хулқ-атвори тартибга солувчи қоидалар, суҳбатдошнинг алоқани танланган тоналликда ўрнатиш, тутиб туриш ва узиш учун жамият томонидан қабул қилинган ва буюрилган мулоқотнинг миллий ўзига хос, стереотип, барқарор формулалари эканлигини ёш авлодга, умуман, сўзлашувчиларнинг барчасига етказиш зарур[5]. Юқоридаги фикрлардан келиб чиқадики, ҳар бир шахс, касбидан қатъи назар, нутқий этика – мулоқот маданиятини эгаллаб олмоғи зарур. Зеро, барча муносабатларда кишининг инсонлараро мулоқот жараёни жуда муҳим социо-психологик аҳамият касб этади.

Психотерапия – беморни даволаш мақсадида қулай шарт-шароит яратиш, чиройли сўз, хушмуомалалик билан уларнинг онгига руҳий таъсир этиш. Психотерапиянинг рационал, тушунтириш, ишонтириш (сергаклик ва гипноз ҳолатларида), ўз-ўзини ишонтириш (аутоген машқ) ва бошқа хиллари бор[7]. Психотерапияда шифокор нутқи, сўзлаш маданияти, беморга сўз воситасида ижобий таъсир этиш кўникмасининг шаклланганлиги шифокор муваффақияти гаровидир.

Шифокор касаллик ва жароҳатнинг олдини олиш (профилактика), уни аниқлаш, ташхис қўйиш (диагностика) ва даволаш (терапия) билан шуғулланади. Бунга тиббий билими, шифокорлик маҳоратини доимий такомиллаштириш йўли билангина эришиб бориши мумкин. Бу эса бир қатор фундаментал, умумий врачлик ва махсус фанларни ўрганиш, бемор билан бевосита мулоқотда бўлиш тажрибасини эгаллаш, унинг ички эҳтиёжлари ва дарддан азият чекишини билишдек муҳим жараёнлар билан боғлиқ[9]. Шундай экан, беморнинг умиди шифокордан, бетоб ётган киши шифокорга даволаниш жараёнида тез-тез мурожаат қилади, шифокор касаллик сабабларни суриштиради, чунки ҳеч қандай касаллик ўз-ўзидан келиб чиқмайди. Шундай пайтда шифокор бемор билан шундай муносабатда бўлмоғи зарурки, унинг муолажасини қабул қилаётган киши у ҳақда фақат яхши фикрда бўлсин. Буюк табиб Абу Али ибн Сино таъбири билан айтганда, шифокор беморнинг дўсти, устози ва ёрдамчиси бўлиши лозим. Шифокорнинг инсонпарварлик фазилати бемор билан муносабатда асосий ўрин эгаллайди. А.Чехов: “Шифокорлик касби – жасорат. У фидокорлик, қалб тозалиги ва эзгу ниятлар улўглигини талаб қилади. Ҳар ким ҳам бунга қодир эмас”, таниқли профессор Н.Эльштейн: “Тингламоқ ва эшита билмоқ ҳам даволаш”, – деб

ёзганда шуни назарда тутган. Врач анамнез (касалликнинг келиб чиқиш тарихи) йиғиш маданиятини ўзлаштирган бўлиши жуда муҳим. Бемор касаллиги бўйича сўраб-суриштириш, ўрганиш – ижодий жараён, чунки диагностика усуллари орасида анамнез ўзининг қулай ҳамда самарали эканлигини исботлаган[11]. Бундай вазият шифокордан бемор билан мулоқот нутқ юмшоқлиги, вазиятни бошқара олиш, салбий жараёни беморга етказишда эҳтиёткорлик, воқеликни яшириш лозим бўлганда касалликни ўз номи билан эмас, беморга оғир ботмайдиган ифода билан аташни – эвфемизацияни тақозо этади.

Беморнинг қўлига тиббий атамалар қўлланилган, тасвирлар акс этган рентген суратлари, тегишли бланкадаги меъёрий кўрсаткичлар, умуман, хаста кишини қўрқитадиган лаборатория текшируви натижаларини бериб бўлмайди. Шифокорлик этика ва деонтологияси принципларини унутмаган ҳолда касаллик диагностикасида касаллик турига қараб беморга унинг касаллиги ташхиси тўғрисида хабар беришнинг ўзига хос меъёрий томонлари бор. Бу жуда ҳам нозик ва мураккаб психологик масала. Одатда, бу беморнинг руҳиятини инобатга олиб, индивидуал тарзда ҳал қилинади. Буюк юнон табиби Гиппократ: “Беморни меҳр-муҳаббат ва ақлли таскин бериш йўли билан ўраб ол, бироқ, асосийси, унга нима хавф туғдираётган бўлса, ўшандан уни хабарсиз қолдир”, – деган. Олдинги мақолада эвфемизмларнинг функционал турларидан бири сифатида Л.А.Булаховскийнинг фикрига таяниб, “қўрқинчли предмет ва ҳодисанинг номини яшириш ва алмаштириш” мақсадида қўлланиладиган эвфемизмлар турини ажратган эдик. Беморни касаллик диагностикасидан хабардор қилиш жараёни шифокор нутқида мана шундай эвфемизмларни қўллашни талаб этади.

Оғир кечувчи, тузатиб бўлмайдиган касалликларда беморнинг яқинларини соғайиб кетиши мумкинлигига тўлиқ ишонтириш керак эмас, лекин уларни касалликнинг ремиссияси(касаллик аломатларининг вақтинча заифлашуви)га эришишда беморга ёрдам учун шифокор тиббиётда барчага баравар имкониятлардан фойдаланаётганлигини билдириши зарур. Шундай пайтда ҳам, Н.С.Арапова айтганидек, моҳиятнинг аслини яшириш мақсадида қўлланилувчи эвфемизмдан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади. Буюк файласуф Гомер бежизга: “Битта шифокорнинг моҳирлиги кўпчилик жангчи (аскар)ларга арзийди”, – деб ёзмаган. Беморнинг маънавий дунёсига кириш учун хушмуомалалик, инсонийлик, хайрихоҳлик, кўтаринкилик мижозга ижобий таъсир кўрсатади, унда ўз касаллигига тўғри қарашни шакллан-тиришга, йўқотилган руҳий мувозанатни тиклашга ёрдам беради.

Ўзбек тилшунослигида тиббиёт ходимлари нутқи махсус тадқиқот мавзуси предмети бўлмаган. Рус, турк, инглиз тилидаги тиббий нутқни эвфемизация – нутқни юмшатишнинг лисоний воситаларини ҳар томонлама таҳлил қилишга бағишланган монографик тадқиқотларнинг мавжудлиги жаҳон тилшунослигида тиббий нутқ эвфемизацияси масаласининг аҳамиятлилик даражасини, ўзбек тилшунослигида ҳам

шундай тадқиқот яратиш долзарблигини белгилайди. Бундай тадқиқотлар тиббий таълим мазмунини бойитиш, тиббиёт таълимида ўқув материали сифатида ишлатилиши билан аҳамиятли.

Шифокорлик жуда инсонпарвар касб, унинг меҳнати – инсон саломатлиги, оила бахти, тинчлик-хотиржамликни таъминловчи омил. Аммо унинг муваффақияти фақат профессионал маҳоратига эмас, балки бемор, унинг яқинлари, ҳамкасблари билан мулоқот маданияти, этик-эстетик хислатлари, зоҳирий, ботиний маданиятига ҳам боғлиқ бўлади. Шифокорнинг ташқи кўриниши (дазмолланмаган халат, кир кўйлак, қалпоқча, шимлар, ифлос кўл ёки парваришланмаган тирноқлар, ўта ёрқин косметика, ўстирилган соч-соқол, кариоз тиш, ўткир духи ва одеколон, хунук мимика), ички маданияти (маданиятсиз мулоқот, пала-партиш, бетартиб, ёқимсиз нутқ) беморда салбий, итарувчи туйғу пайдо қилмаслиги лозим. Зоҳирий ва ботиний маданий савия яхлит бир бутунликни ташкил этиб, шахсий фазилатни кўрсатиб туради. Терапия фани асосчиси М.Я.Мудров шифокор маданияти ҳақида ўзининг қатор маърузаларида батафсил тўхталади, тиббиёт олий ва ўрта махсус ўқув юртларида шифокор маданияти ҳақида алоҳида фан – деонтология фани ўқитилади. Мулоқот маданияти масаласи янги муаммо эмас. Испан ёзувчиси, файласуф Грасиан Балтасар: “Ақл ва дид учун маданият жуда муҳим. Ким нозик ҳис этса, ўша гўзалликка кўпроқ интилади” – деб ёзган. Бугунги кунда ҳам инсоннинг ички маданияти унинг хатти-ҳаракати, иш фаолияти билан ўлчанади.

Шифокор – бемор, шифокор – талаба муносабатида бир қатор ечилмаган саволлар бор. Умумназарий муаммолардан ташқари нозик хусусий ҳолат масалалар ҳам пайдо бўладики, улар бўйича амалий таклиф, маслаҳатлар бериш орқали муаммога йўл топиш мумкин бўлади. Буюк француз ёзувчиси, математик Б.Паскал ва замондошимиз академик А.Ф.Билибиннинг бу борадаги фикрларини қиёслаймиз. Блез Паскал “Ўйлар”да: “Ҳамма нарсага ўргатиш мумкин, фақат одоблиликка эмас; одамлар ўқимишлилик эмас, кўпроқ одоблилик билан – яъни уларга махсус таълим берилмаган фазилат билан назарга тушишга интилишади[3]” – деб ёзган. А.Ф.Билибин эса: “Талабалар таҳсилида барча ҳаракат билимга, касбий методика маҳоратга қаратилади, аммо инсонлараро муносабатлар, хусусан, мижоз (пациент) билан мулоқот маданияти эътибордан четда қолади. Шифокор ҳаёт йўлида инсонлар билан муомала-мулоқот масаласи – энг муҳим фан. Бизнинг олий таълим муассасаларимизда шундай фанлар ўқитиладими? Ҳа, тиббий адабиётларда ҳам бу соҳада бўшлиқ мавжуд. Клиник фаолиятнинг муҳим ва ҳал қилувчи фактори тадқиқ методикаси (касаллик келиб чиқиши, кечиши ва тарихи) эмас, балки шифокорнинг шахсий инсоний маданиятидир. Фақат шахсий-маданий фазилатларнинг юксалиши шифокор продукцияси хусусиятининг ўсишишга олиб келади”[3], –деб таъкидлайди. Иккала олим ҳам мулоқот маданияти таълимининг шифокор касбий маҳорати шаклланишида ўта муҳим омил эканлигини уқтирган. Мулоқот маданиятини эгаллаш бир жойда муқим турадиган жараён эмас, бу прогрессив жараён. Агар бу фазилат

тарбияланиб борилса, шифокор шундай иқтидорнинг юксак чўққисига – донишмандликка эриша олади.

ХУЛОСА СИФАТИДА ШУНИ АЙТИШ ЖОИЗКИ:

Сўз – шифокор билан бемор алоқасини ўрнатишда муҳим аҳамият касб этадиган, муваффақиятли даволашга ёрдам берадиган восита. Нутқ маданияти эса – шифокор умумқасбий маҳоратининг зарурий шартларидан бири. Шифокорлик – лингвоактив касб бўлганлиги сабабли тиббиёт соҳаси тилининг лингвомаданий аспекти тиббиёт деонтологияси, психотерапия, тиббий этика билан чамбарчас боғлиқ. Тиббиёт деонтологияси шифокор билан бемор ўртасидаги муносабат (1); шифокор билан беморнинг яқинлари ўртасидаги муносабат (2); шифокорнинг ҳамкасблари билан муносабати (3) каби бир неча йўналишдан иборат бўлиб, даволаш амалиётида деонтологиянинг муҳим фактори – нутқий омил етакчи ўринни эгаллайди, шифокор нутқи бемор психологик ҳолатини бошқаришнинг асосий воситаси саналади.

Тиббий этика умумий этика меъёрининг бир қисми сифатида шифокорнинг ахлоқий мезонлари, унинг хатти-ҳаракатлари, ахлоқий меъёри мажмуини, профессионал бурч ва ҳурмат, виждон ва қадр-қиммат туйғусини ўз ичига олади. Психотерапия – беморни даволаш мақсадида қулай шарт-шароит яратиш, чиройли сўз, хушмуомалалик билан уларнинг онгига руҳий таъсир этиш. Психотерапияда шифокор нутқи, сўзлаш маданияти, беморга сўз воситасида ижобий таъсир этиш кўникмасининг шаклланганлиги шифокор муваффақияти гаровидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Fayzullayev M. B., Sadullayeva M. G., Fayzulloyev O. M. НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ЦЕННОСТИ ВОСТОКА В БАСНЯХ МУХАММАДА ШАРИФА ГУЛЬХАНИ //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – С. 528-532.
2. Садуллоева М. Г., Ражабова С., Холова Г. Т. ЯЗЫК И РЕЧЬ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В ШКОЛЕ //СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2021. – С. 218-220.
3. Gaybullaevna, N. M. (2021). LINGUCULTUROLOGICAL PROPERTIES OF MEDICAL UNITS OF UZBEK LANGUAGE. Journal of Contemporary Issues in Business & Government, 27(4).
4. Gaybullaevna, N. M. (2021). Fundamentals of medical termsformation in uzbek language. Middle European Scientific Bulletin, 12, 488-491.
5. Navruzova, M. G. (2021). Lexical-semantic features of some medical linguistic units. Scientific reports of Bukhara State University, 5(2), 135-142.
6. Gaybullaevna, N. M. Etymology of Uzbek Medical Terms. JournalNX, 7(06), 169-171.
7. Navrozova, M. G. (2021). XALQONA TIBBIY BIRLIKLARDA MANO KOCHISH USULLARI. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1487-1491.

8. Кодирова С. А. Жанровые особенности " зарбулмасала" //современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2021. – С. 97-99.
9. Kodirova S. A. IDEOLOGICAL AND ARTISTIC FEATURES OF «ZARBULMASAL» //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 10. – С. 318-320.
10. Abdurakhimovna K. S. Idealistic Study of Proverbs //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 11. – С. 201-202.
11. Kodirova S. A. Idealistic study of proverbs in "zarbulmasal" of gulkhani //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 170-179.
12. Saodat K. ANCIENT PROVERBS //European Scholar Journal (ESJ) ISSN. – С. 2660-5562.
13. Abdurakhimovna K. S., Dilchiroy A. Ancient Proverbs //European Scholar Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 95-99.
14. Farahani, M. TRANSLATION, THE BASICS: A Book Review Written by: Juliane House, Published by Routledge. New York: USA, 2018, Pp. 1-210.
15. Laziz, Q. (2022, March). BOSHLANGICH SINF MATEMATIKASIDA MIQDOR TUSHUNCHASINI ORGATISH: DOI: 10.53885/edinres. 2021.43. 38.112 Qayimov Laziz, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dispetcheri. In *Научно-практическая конференция*.
16. Қодирова С., Одилова М. ҚАДИМИЙ МАҚОЛЛАР ТАШНИФИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1036-1040.
17. Abdurahimovna Q. S. "ZARBULMASAL"—MAQSADNI MAJOZ YOLI BILAN IFODALASHGA QARATILGAN NIHOYAT //БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 363-365.
18. Abdurakhimovna K. S. Poetics of Proverbs //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 303-307.
19. Abdurakhimovna K. S. Main Subject way of" Zarbulmasal" //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 286-290.
20. N.Y. Ubaydullaevna. Ethnic expressions of uzbek folk names. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) 9 (5), 316-320
21. N.Y. Ubaydullayevna. ethnolinguistic study of outerwear and underwear parts in paremas ny Ubaydullayevna. European journal of modern medicine and practice 2(4), 86-89.
22. N.Y.Ubaydullaevna. Ethnolinguistics: Emergence, Development and Theoretical Research.
23. Наврузова, М. Г. (2020). Креативность педагога-условие инновационности его профессиональной деятельности. *Вопросы науки и образования*, (11 (95)), 109-111.
24. Davronov, D. (2019). *REVISITING VALUATION METHODS OF TECH COMPANIES* (Doctoral dissertation, Central European University).

25. Davronov, D. I. (2021). Methodological Possibilities of using the Media Education System in the Educational Process. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 32-37.

26. Farmonova, S. (2021). Opportunities for the Development of the Communicative Culture of Future Teachers through the Design of Teaching. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 172-175.

27. Farmonova, S. (2019). THE TOLE OF THE PROJECT TEACHING TOOL IN DEVELOPING THE COMMUNICATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 434-441.

28. FARMONOVA, S. M. (2020). Improvement of Professional Thinking in Future Teachers. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(05), 251-257.

29. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. *Eastern European Scientific Journal*, (1).

30. Hamroev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2019.

31. Kamroev, A. (2019). STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(7), 285-296.

32. Хамраев, А. (2018). Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся. *Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи*, (2), 23-26.

33. Adizov, B. R., & Khamroev, A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. *Ilmiy xabarnoma*, 69.

34. Ҳамроев, Р. (2014). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, 22(1), 53-58.

**БОШЛАНҒИЧ СИНФ ОНА ТИЛИ ВА ЎҚИШ ДАРСЛАРИДА НУТҚ ЎСТИРИШНИНГ
МЕТОДИК ИМКОНИАТЛАРИ**

Юлдуз Асадовна Пўлотова

*Бухоро давлат университети
бошланғич таълим методикаси
кафедраси ўқитувчиси, p.f.f.d. (PhD)*

Сайёра Каримова

*Бухоро давлат университети
талабаси*

Мақолада бошланғич синф она тили ва ўқиш дарсларини интеграциялашнинг методик имкониятлари хусусида фикр юритилган. Жумладан, «Ўқиш китоби» дарсликларидан берилган матнлар бошланғич синф ўқувчиларида нутқ кўникмаларини шакллантиришда восита ҳисобланади. Бошланғич синфларда ўқиш дарсларининг асосий мақсади ўқувчиларни матн мазмунини тўғри тушуниш, онгли ва ифодали ўқий олиш, матнда берилган ахборотни идрок қилиш, матнда ифодаланган воқеликка нисбатан муносабат билдиришга тайёрлаш каби масалалар ёритилган.

Калит сўзлар: она тили, ўқиш, интеграция, тил, нутқ, лингвистик компетенция, ўқитувчи, ўқувчи.

В статье рассматриваются методические возможности интеграции уроков родного языка и чтения в начальных классах. В частности, тексты, представленные в учебниках "книга для чтения", являются средством формирования речевых навыков у младших школьников. Основной целью уроков чтения в начальных классах является освещение таких вопросов, как правильное понимание учащимися содержания текста, умение читать осознанно и выразительно, восприятие информации, представленной в тексте, подготовка учащихся к реагированию на реальность, выраженную в тексте.

Ключевые слова: родной язык, чтение, интеграция, язык, речь, лингвистическая компетентность, учитель, ученик.

The article discusses the methodological possibilities of integrating native language and reading lessons in primary classes. In particular, the texts presented in the textbooks "book for reading" are a means of developing speech skills in younger students. The main purpose of reading lessons in primary classes is to highlight such issues as the correct understanding of the content of the text by students, the ability to read consciously and expressively, the perception of information presented in the text, and preparing students to respond to the reality expressed in the text.

Keywords: native language, reading, integration, language, speech, linguistic competence, teacher, student.

Жаҳон билан бўйлашаётган Ўзбекистон Республикасининг таълим сиёсатининг мазмун-моҳияти ҳам “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиш” [1, 146] ларига қаратилган, жумладан, она тили ва адабиёти фани ўқитувчилари олдида она тилини севадиган, қадрлайдиган, унинг бойлиги, гўзаллиги ва бетакрорлигини ҳис этадиган, лингвистик ва нутқий билим, малака ва кўникмалари ҳамда лаёқатлари етук ўқувчиларни тарбиялашдек муҳим вазифа қўйилган. Бу бадий матнлар таҳлили асосида ўқувчиларда ҳаётий эҳтиёжга айланган прагматик компетенцияларни ривожлантириш ва такомиллаштириш масалалари тадқиқи долзарб эканлигини кўрсатади.

Она тили фанидан давлат таълим стандартлари – ДТСнинг малака талаблари бўйича ўқувчи шахсида шакллантирилажак ўз-ўзини жисмоний, маънавий, руҳий, интеллектуал ва креатив ривожлантириш; камолотга интилиш, мустақил ўқиб-ўрганиш; нутқий коммуникатив компетенциясини мунтазам ошириб бориш; ўз билими, хатти-ҳаракатини баҳолаш ва мустақил қарор қабул қилиш компетенциясини эгаллаш, тил имкониятларидан фойдаланган ҳолда фикрни тўғри, равон баён эта олиш қобилиятини ривожлантириш каби меъёрларга алоҳида эътибор қаратилган [2].

Ҳар бир давлатнинг таълим соҳасида болаларда нутқ ўстириш тизимнинг асосий таркибий элементи сифатида эътироф этилган. Ўзбекистонда ҳам узлуксиз таълимнинг дастлабки босқичлари – мактабгача ва бошланғич таълим даврида болаларда нутқни ўстириш педагогик жараённинг муҳим йўналиши этиб белгиланган. Глобал ахборотлашув ва инновацион таълим муҳитининг шаклланиши, инсон капитални ривожлантиришга бўлган ижтимоий эҳтиёжнинг ортиши ёш авлодни ҳар томонлама камол топтириш, интеллектуал жиҳатдан ривожлантириш, бунда нутқ имкониятларидан фойдаланишни тақозо этмоқда.

«Интеграция» сўзи лотинча интегрatio — тиклаш, тўлдириш, «интегер» — бутун сўзидан келиб чиққан. Бу борада икки тушунчага эгамиз:

1. Тизим, организмнинг алоҳида табақалаштирилган қисм ва вазифаларнинг боғлиқлик ҳолатини билдирувчи тушунча ва шу ҳолатга олиб боровчи жараён.

2. Табақалаштириш жараёнлари билан бирга амалга оширилаётган фанларни яқинлаштириш жараёни. Интегратив ёндашиш турли даражадаги тизимли алоқаларнинг объектив яхлитлигини акс эттиради. Интеграция илгари бўлинган қисмларни бир бутунга бирлаштириш билан боғлиқ. Интеграциялаш мобайнида бир-бирига боғлиқлик ҳажми ошади ва тартибга тушади, шу тизим қисмларнинг ишлаши ва ўрганиш обектининг яхлитлиги тартибга солинади. Бу умумий қоидаларни қандай қилиб мактаб таълимида қўллаш мумкин?

Таълимдаги интеграция ўқув фанлари мазмунини конструкциялашга тизимли ёндашиш орқали кўриб чиқилади. Интеграциянинг турли даражалари ажратилади:

бошланғич, билимларни бирлаштириш; оралиқ - фанлар бўлимларини бўлиш интеграцияси.

Шахс нутқини ўстиришда мактабгача ва бошланғич таълим босқичлари бошланғич давр бўлиши инобатга олинса, уларнинг такомиллаштирилиши, “бошланғич таълим мазмунини тўлиқ интеграллаштириш, мазкур мазмунда таълим-тарбия элементлари уйғунлигини таъминлаш” [3, 15-б.]нинг нақадар долзарб аҳамиятга эгаллигини кўрсатади.

“Нутқ”, “нутқ ўстириш”, “матн устида ишлаш”, “матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш”, “бошланғич синф ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш” кабилар тадқиқот муаммосининг муҳим таянч тушунчаларидир. Уларнинг моҳиятини етарлича англаш тадқиқотни олиб боришда муаммонинг тўғри, оқилона ечимини топишга имкон беради.

Нутқда қуйидаги хусусиятлар намоён бўлади:

1) фикрни баён этиш эҳтиёжини амалга оширишга қаратилади, тугалланган мавзунини ифодалайди, логик ва грамматик қоидалар асосида тузилади, мустақил, тугалланган, ўзаро боғланган маъноли қисмларга бўлинади (у боғланишли нутқ деб аталади) [7, 321-б.];

2) оғзаки ва ёзма шаклда ифодаланади;

3) оғзаки ва ёзма нутқни ривожлантириш ягона жараёнда кечади;

4) шунга қарамай, оғзаки ва ёзма нутқ орасида жиддий тафовутлар мавжуд (улар ҳақида ишнинг кейинги бобида батафсил сўз юритилади);

5) нутқ мулоқот чоғида иштирок этувчиларнинг сонига кўра диалогик ва монологик каби турларга бўлинади;

6) диалог оғзаки нутқнинг кенг тарқалган турларидан, нутқий мулоқотнинг табиий шаклларида бири бўлиб, икки ёки бир неча шахс ўртасида кечади;

7) оғзаки нутқ, табиатига кўра, кўпроқ суҳбат шаклида юзага келади;

8) нутқнинг жуда муҳим шаклларида бири саналадиган монолог диалогга нисбатан мазмунни ифодалаш учун тил воситаларини танлаш, нутқнинг қурилишига кўра бир қадар анъанавийликка эга.

«Ўқиш китоби» дарсликларида берилган матнлар бошланғич синф ўқувчиларида нутқ кўникмаларини шакллантиришда восита ҳисобланади. Бошланғич синфларда ўқиш дарсларининг асосий мақсади ўқувчиларни матн мазмунини тўғри тушуниш, онгли ва ифодали ўқий олиш, матнда берилган ахборотни идрок қилиш, матнда ифодаланган воқеликка нисбатан муносабат билдиришга тайёрлашдир. Шунга кўра, бошланғич синф ўқитувчиси методик тайёргарликни дарснинг мақсади, ўрганилаётган материалнинг мазмуни, ўқувчиларнинг мавжуд билим, кўникма, малакалари даражасига кўра амалга оширади. Ўқувчиларни асар матнини ўқишга тайёрлашда, биринчи навбатда, уларни матн мавзуси, тили, ғоявий мазмуни ва бадиий-эстетик қиймати билан таништириш, матн мазмунидан тегишли хулоса

чиқаришга эътибор қаратилади. Ўқиш фаолияти ҳам нутқнинг алоҳида кўриниши ҳисобланади.

Ўқувчининг ўз фикрини қанчалик мазмунли, аниқ ва тўғри ифодалай олиши унинг ўқув-билиш фаоллиги даражасини, кўникма ва малакаларини аниқлашга имкон беради. Ўқиш дарсларида матнни идрок қилиш ва мазмун-моҳиятини ўзлаштириш юзасидан қўйилган савол ва топшириқлар ўқувчиларни ўйлашга мажбур қилиши, жавоб беришда муаллиф қўллаган иборалардан, бадий тасвир воситаларидан фойдаланишга қаратилиши, нутқда кўпроқ ўзи учун янги сўз ва ибораларни ишлатишга ундаши лозим.

Матнни ўқиш кўникмасига эгалик, ўз навбатида, ўқувчи нутқини бойитувчи муҳим омиллардан бири саналади.

Ўқитишнинг мустақил қисми бўлган ҳар қандай дарс таълимий, ривожлантирувчи ва тарбиявий мақсадни амалга оширишга хизмат қилади. Ҳар қандай дарснинг умумий мақсади “ўқувчиларга билим бериш ва улар олган билимни амалда қўллай оладиган даражага етказишга эришиш, ҳар бир ўқувчида комил шахсга хос фазилатларни шакллантиришдир [8, 120-б.].

Маълумки, нутқда инсоннинг фикрлари билан биргаликда ҳис-туйғулари ҳам ифодаланади. Бошланғич синфларнинг “Ўқиш китоби” дарсликларида келтирилган бадий матн намуналарини ўрганиш орқали ўқувчилар ўшбу жиҳатни ҳам ўзлаштирадilar. Бадий матн бадий асар мазмунини ифодалаган, функционал жиҳатдан тугалланган, тилнинг тасвирий имкониятлари асосида шаклланган, ўзида турли услуб кўринишларини муаллифнинг бадий ниятига кўра эркин жамлай оладиган, тингловчи ёки ўқувчига эстетик завқ бериш, таъсир этиш хусусиятига эга бўлган ғоят мураккаб бутунлик ҳисобланади [9, 88-б.]. Шундай экан, бадий матн устида ишлашда нутқ ўстириш учун кенг имкониятлар мавжуд.

Ўқиш дарсларида матн устида ишлаш жараёнида асосий эътибор унинг мазмунига қаратилса-да, тузилишини ҳам назардан қочирмаслик керак. Жумладан, воқеа кечаётган шароит, пейзаж, асар қаҳрамонларининг кечмишлари, руҳияти тасвирида ўтган, ҳозирги ёки келаси замон шаклларида фойдаланилишини англаган ўқувчи матн мазмунини оғзаки ҳикоялашда адашмайди. Ўқувчилар диққатини матндаги бир мазмундаги ҳодисалар тасвирида (пейзаж, адабий қаҳрамоннинг руҳий ҳолати, портрети) феъл-кесимлар, одатда, битта замон шаклида бўлишига қаратиш уларнингнафақат ўқиш ва ёзув, балки матн мазмунини идрок этиш ва фикрлаш билан

боғлиқ кўникмаларини шакллантиришга ҳам ёрдам беради.

Матнларда жумлалараро алоқа алоҳида эътиборга молик. Одатда, матннинг айнан бир шахс ёки битта воқеа-ҳодиса ҳақида гап борадиган қисми ўзаро алоқада бўлиб, хатбошидан бошланади. Дарсларда ўқувчиларга матн қисмларини ўқиш ёки кўчириб ёзишни топшириш уларнинг диққатини маълум бир мақсад атрофида бирлаштиришга хизмат қилади.

Матндаги гаплар ўртасида коммуникация вазифалари билан белгиланган муносабатлар, яъни мазмуний алоқа мавжуд. Бу алоқа уни ифода этувчи лексик-грамматик воситалар орқали ўз аксини топади. Ҳар қандай сўзларни гапга бирлаштириб бўлмагани каби ҳар қандай гапларни ҳам битта боғланишли матнга бирлаштириб бўлмайди. Масалан, “Болалар дам олишга кетишди”, “Гуллар очилди”, “Атоқли отлар бош ҳарф билан ёзилади” каби гапларни бир матнга бирлаштириб бўлмайди. Улар турли мазмунга эга бўлгани боис бирор бир муносабатга кўра ҳам бирлаша олмайди.

Умумлаштириш ва хулосалар чиқариш. Бу каби иш турлари матн мазмуни юзасидан умумий хулосалар чиқариш орқали унда акс эттирилган масалаларни чуқур идрок этишга, мавзунинг очилмай қолган қирралари ҳақида мулоҳаза юритишга, ўзлаштирилган билимларни амалда қўллаш кўникмаларини ҳосил қилишга қаратилади.

Матн устида ишлаш жараёнида асар воқеалари юзасидан оғзаки тасвирлаш, қиёслаб ҳикоялар тузиш, адабий қаҳрамонларнинг хатти-ҳаракатлари, феъл-атворларини тавсифлаш нутқ ўстиришнинг муҳим воситаси саналади. Бу жараёнда ўқувчиларда матнда ифодаланган жараён, ҳодиса, шахс ёки унинг хатти-ҳаракатига нисбатан муносабат шаклланади. Яхшининг нима учун яхшилигини, ёмоннинг нима учун ёмонлигини, асар қаҳрамонларининг қилган ишларининг тўғри ёки нотўғрилигини аниқлаш бошланғич синфларнинг ўқиш дарсларида матн таҳлилининг асосий вазифасидир.

Умумий ўрта таълим мактабларидаги таълимнинг биринчи йилида нутқ

ўстириш бўйича кўзланган натижага эришилмаса, 2-синф ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш жараёни қийин кечади. Бу эса, ўз навбатида, ўқувчи томонидан барча ўқув предметларининг ўзлаштирилишига салбий таъсир кўрсатади. Шунинг учун ҳам ўқитувчининг ҳар бир дарсни қатъий режа асосида уюштириши тақозо қилинади.

Методика фанида матннинг икки хил йўл билан қайта тасвирланиши қайд қилинади. Булар:

а) сўз билан тасвирлаш; б) график тасвирлаш.

Сўз билан тасвирлаш ўзига хос мураккаб иш тури бўлиб, бунда асарда тасвирланган воқеа, қаҳрамон ёки манзарани сўз ёрдамида аниқ қайта тиклаш кўзда тутилади. Бундай тасвирлаш ўқувчилар нутқини ривожлантиришнинг муҳим воситаларидан бири сифатида сўзларни тўғри танлаш ва талаффуз қилишни талаб этади.

Матнни қайта тасвирлаш матн устида ишлашда катта аҳамиятга эга бўлиб, ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиради. Қайта тасвирлашдан тўғри фойдаланиш эса асарда ёзувчи тасвирлаётган ҳаётининг манзараларни ўқувчиларнинг аниқ тасаввур қилишлари учун қулай шароит яратади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбек тили халқимиз учун миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилик тимсоли, бебаҳо маънавий бойлик, буюк қадриятдир // <https://religions.uz/news/detail?id=1227>
2. Бошланғич таълим Концепцияси / Муаллифлар: Қ.А.Абдуллаева, Р.Ғ.Сафарова, М.О.Очилов, К.Н.Назаров, Н.У.Бикбаева, М.А.Зайнитдинова // *Boshlang'ich ta'lim j.* – Т.: 1998. № 6. – 12-18-б.
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (Ona tili. O'qish. Matematika. Atrofimizdagi olam. Tabiatshunoslik (1–4-sinflar)). – Т.: RTM, 2010. – 144 б.
4. Pulatova, A. Y. (2021). Scientific and Theoretical Foundations of an Integrative Approach to the Formation of Literary Concepts in Primary School Students. *Middle European Scientific Bulletin*, 8.
5. Asadovna, Y. (2021). Psychological Characteristics of Speech Cultivation by Working on the Text in Primary School Reading Lessons. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 437-446.
6. Polatovna, A. Y. (2021). Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 490-501.
7. Pulotova, Y. (2021). Principles of Integration of Primary School Mother Tongue and Learning Classes. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 185-191.
8. Asadovna, P. Y. (2021). Methods of working on the text in the integration of primary school reading lessons. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
9. Asadovna, P. Y. (2021). An integrative approach in speech development by working on m atn in reading lessons. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
10. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
11. Hamroev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2019.
12. Kamroev, A. (2019). STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(7), 285-296.
13. Хамраев, А. (2018). Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся. *Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи*, (2), 23-26.
14. Adizov, B. R., & Khamroev, A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. *Ilmiy xabarnoma*, 69.
15. Ҳамроев, Р. (2014). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, 22(1), 53-58.

16. Hamroyev, R. A., Qoldoshev, A. R., & Hasanova, A. M. (2021). Methods of teaching 1st grade students to use writing tools effectively. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(1), 168-174.
17. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
18. Azimov, Y. (2003). Hamroyev A//Husnixat va uni oqitish usuliyoti (Maruza matnlari).
19. Khamroev, A. (2021). Quality and effectiveness for design of learning outcomes in the language teaching. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 549-558.
20. Tog'ayeva, U. (2021). Роль проектного обучения в совершенствовании модуля методики обучения родному языку. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 8(8).
21. Tog'ayeva, U. S. Q. (2021). ONA TILI O'QITISH METODIKASI MODULINI TAKOMILLASHTIRISHDA LOYIHAVIY TA'LIMDAN FOYDALANISH. *Scientific progress*, 2(7), 1022-1026.
22. Tog'ayeva, U. (2021). ONA TILI O'QITISH METODIKASI. MODULINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH//ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 1(1).
23. Tog'ayeva, U. (2020). IMPROVING THE MODULE" MOTHER TONGUE TEACHING METHOD" IN PROJECT EDUCATIONAL INSTRUCTIONS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 2(2).
24. Tog'ayeva, U. (2020). SCIENTIFIC-THEORETICAL BASES OF USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING METHODS OF MOTHER TONGUE. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 2(2).
25. Наврузова, М. Г. (2020). Креативность педагога-условие инновационности его профессиональной деятельности. *Вопросы науки и образования*, (11 (95)), 109-111.
26. Xayrullayeva, D. (2021). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ONA TILI TA'LIMINING ANAMIYATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 8(8).
27. Dilnoza, X. (2022). 1-SINF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA ETNOPEDAGOGIKA NAMUNALARINI O'RGATISH METODIKASI. *БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 2(4), 337-341.
28. Abdurakhimovna K. S. Main Subject way of" Zarbulmasal" //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 286-290.
29. N.Y. Ubaydullaevna. Ethnic expressions of uzbek folk names. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)* 9 (5), 316-320
30. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.

31. Davronov, D. I. (2021). Methodological Possibilities of using the Media Education System in the Educational Process. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 32-37.

32. Davronov, D. (2019). REVISITING VALUATION METHODS OF TECH COMPANIES (Doctoral dissertation, Central European University).

**ОҒЗАКИ МАШҚЛАР ЁРДАМИДА БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ
МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ**

Фармонова Шабон Муҳамадовна

*Бухоро давлат университети “Педагогика” кафедраси ўқитувчиси, педагогика
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Бухоро, Ўзбекистон*

Аннотация: *Мазкур мақолада бошланғич синф ўқувчиларининг мантиқий фикрлашини ривожлантиришда мақсадга йўналтирилган оғзаки машқлардан фойдаланишнинг муҳим аҳамияти ҳақида сўз боради. Маълумки, бошланғич синф ўқувчиларида мантиқий фикрлашни ривожлантиришга йўналтирилган дарсларни ташкил этишнинг самарали методларини аниқлаш талаб қилинмоқда. Таълим мазмунига таянган назария ва амалиётнинг бирлиги илмий жиҳатдан тадқиқ этилган маазкур мақолада синфдан ташқари ишларда интеграциялашган таълимдан фойдаланишнинг самараси ва жаҳон тажрибаларида самарали ҳисобланган топшириқлар бериш сезиларли даражада натижа бериши илмий асосда кўрсатиб ўтилган. Айниқса бу жараёнда тақдим этиладиган мақсадга йўналтирилган савол ва оғзаки машқлар сифати жаҳон тажрибаси мисолида очиб берилган.*

Калит сўзлар: *ўйин, оғзаки машқлар, восита, эвристик қобилият, методика, фаолият, натижа, қобилият.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается важность использования целенаправленных устных упражнений в развитии логического мышления учащихся начальной школы. Известно, что существует необходимость определения эффективных методов организации уроков, направленных на развитие логического мышления учащихся начальных классов. В статье научно исследовано единство теории и практики на основе содержания образования, на научной основе показана эффективность использования интегрированного обучения во внеучебной деятельности и выдачи заданий, признанных эффективными в мировом опыте. В частности, на примере мирового опыта раскрывается качество целеполагающих вопросов и устных упражнений, представленных в этом процессе.*

Ключевые слова: *игра, словесное упражнение, инструмент, эвристическая способность, методика, деятельность, результат, способность.*

Abstract: *This article discusses the importance of using goal-directed oral exercises in the development of the logical thinking of elementary school students. It is known that there is a need to determine effective methods of organizing lessons aimed at developing logical thinking in primary school students. The unity of theory and practice based on the content of education is scientifically researched in this article. The effectiveness of using integrated education in extracurricular activities and giving assignments that are*

considered effective in world experiences are shown on a scientific basis. In particular, the quality of goal-oriented questions and oral exercises presented in this process is revealed by the example of world experience.

Keywords: *game, verbal exercise, tool, heuristic ability, methodology, activity, result, ability.*

КИРИШ

Ўқувчиларда мантиқий фикрлашини ривожлантиришда оғзаки машқлардан фойдаланишнинг педагогик жараён билан боғлиқ жиҳатларини ўрганиш алоҳида аҳамиятга эга. Чунки ўқувчиларда мантиқий фикрлашни ривожлантиришда мақсадга йўналтирилган оғзаки савол ва машқлар муҳим ўрин эгаллайди. Бунда оғзаки машқларнинг умумдидактик жиҳатларига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Биринчи навбатда уларнинг дидактик таснифини ўрганиш талаб этилади.

Муайян дидактик асосга таянган ҳолда таълим методларининг қуйидаги таснифи амалга оширилган:

-ахборотларни тақдим этиш манбалари ҳамда уларни ўқувчилар томонидан идрок этилиш характериға асосланадиган таълим методлари. Бунга оғзаки, кўргазмали ва амалий методлар киради.

-муайян таълим босқичида ҳал этиладиган дидактик вазифалар асосида ажратиб олинган таълим методлари. Бунга билимларни эгаллаш, кўникма ва малакаларни шакллантириш, билимларни қўллаш, ижодий фаолият кўрсатиш, кўникма ва малакаларни мустаҳкамлаш ҳамда текшириш кабилар киради.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Ўқувчиларнинг турлича билиш даражаларини аниқлашга асосланган методлар. Бундай методларга иллюстрацияли тушунтириш, репродуктив, муаммоли баён этиш, эвристик ва тадқиқотчилик методлари киради. И.Я.Лернер ва М.Н.Скаткин [1] томонидан ишлаб чиқилган ушбу методлар классификацияси ривожлантирувчи таълим методларини такомиллаштириш ва ривожлантиришда анчагина илгари босилган қадам бўлди.

Ўқувчилар олдиға мақсад қўйиш, муаммоли таълим жараёниға фаолиятли ёндашув принципларини ҳисобға олган ҳолда бинар асосида ишлаб чиқилган методлар. Бундай асосда методларни ишлаб чиқишға кўплаб тадқиқотчиларнинг ёндошувлари бўлишиға қарамасдан улар ичида анчагина мукаммали М.И.Махмутов томонидан тақлиф қилинган муаммоли- ривожлантирувчи таълим методларининг дидактик тизимидир [2]. Бу дидактик методлар тизимиға 7 та умумий муаммоли- ривожлантирувчи таълим методлари киради (монолог, диалог, кўргазмали, эвристик, тадқиқотчилик, алгоритмик, дастурлаштирилган) ва 5 та бинар методлар, яъни ўқитиш ва ўқиш (ўқитишнинг ахборотли-хабар берувчи методи ва ўқишнинг ижрочилик методи, ўқитишнинг тушунтириш ва ўқишнинг репродуктив методи, ўқитишнинг рағбатлантирувчи методи ва ўқишнинг қисман изланувчанлик методи,

ўқитишнинг чорловчи методи ва ўқишнинг изланувчанлик методи, ўқитишнинг инструкторив методи ва ўқишнинг амалий методи).

Тадқиқот методологияси. Дидактик ёндашувларга кўра таълим методлари учта гуруҳга бўлинади:

-ўқув-билув фаолиятини ташкил этиш методлари;

-ўқишга рағбатлантириш ва мотив уйғотиш методлари;

-ўқув-билув фаолиятининг самарадорлигини назорат қилиш ва ўз-ўзини назорат қилиш методлари.

Юқорида келтирилган ҳар бир гуруҳга мансуб методлар муайян таълим усулларини ўз ичига олади. Масалан, ўқув-билув фаолиятини (биринчи гуруҳ методлари) ташкил этишда оғзаки, кўргазмали ва амалий методларни қўлланилади. Бу эса ўқитувчи томонидан ўқув ахборотларини тақдим қилиш ва ўқувчилар томонидан эшитиш, кузатиш, амалий хатти-ҳаракатлар воситасида идрок этилишини таъминлайди.

Мутахассислар иккинчи гуруҳдаги методлар сирасига билиш ўйинлари, бахс-мунозара, рағбатлантириш ва бошқаларни, учинчи гуруҳга эса оғзаки, ёзма, лаборатория ишлари, якка ва ялпи назоратни киритганлар.

Адабиётлар таҳлили шунини кўрсатадики, амалиётда кўплаб таълим методлари қўлланилади. Биз тадқиқотимиз давомида юқоридаги биринчи ва учинчи гуруҳларга ўхшаш, лекин улардан кенгроқ бўлган таълим методлари таснифидан фойдаландик.

Дастлабки таснифда ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятининг шакллари намоён бўлади. Биз таҳлил қилаётган учинчи гуруҳга мансуб методлар ушбу фаолият мазмунидан келиб чиқади.

Маълумки, педагогик жараённинг мазмуни ва шакллари ўзаро боғлиқ бўлади. Шунинг учун жараённинг моҳиятини фақатгина унинг мазмуни ва шаклини ҳисобга олган ҳолда тушуниш мумкин. Бундан келиб чиқадики, таълим методларини таърифлаш ва таркиблашда ўқитувчи-ўқувчи фаолиятининг мазмуни ва шакллари мутаносиблигига эътибор қаратиш лозим.

Таълим методлари - воқеликни амалий ва назарий эгаллаш, ўзлаштириш, ўрганиш, билиш учун йўл-йўриқлар, усуллар мажмуаси, педагогик билимларни яратиш ва асослаш усули [3].

Таълим методларининг моҳияти тўғрисида бир нечта қарашлар мавжуд. Методларни таснифлашда турлича ёндашувларнинг мавжудлигига ишонч ҳосил қилдик.

Таълим методлари тизимида оғзаки машқларнинг ўрнини аниқлар эканмиз, иккита таснифга асосландик:

-билим манбаларига кўра қўлланиладиган методлар: оғзаки, кўргазмали, амалий методлар;

-фаолият характерига кўра қўлланиладиган методлар: иллюстрацияли тушунтириш, репродуктив, эвристик, муаммоли ифодалаш, тадқиқотчилик усулларидадан фойдаланган ҳолда ўқувчиларга тақдим этиш.

Таҳлил ва натижалар. Тадқиқотимиз натижалари бошланғич синф дарсларини ўқитиш жараёнида оғзаки машқлардан фойдаланиш самарали эканлигини кўрсатди.

Бошланғич синф дарсларини ўқитиш жараёнида оғзаки методдан кенгроқ фойдаланилишини ҳисобга олиб репродуктив, эвристик ва тадқиқотчилик методларининг қўлланилишига батафсилроқ тўхталиб ўтамиз. Репродуктив таълим [ре.. + лот. productio - ишлаб чиқариш, ҳосил қилиш] - репродуктив ўзлаштириш даражасида бир турдаги масала ёки машқлар (саволлар)ни намунага (тайёр ечиб кўрсатилган) қараб еча олишга мўлжалланган ўқув материалига айтилади [3].

Репродуктив метод намунага қараб ўқув материални ўзлаштириш методидир. Ҳар қандай материални баён қилишда ёки бу материални тезроқ тушуниш учун (дарсликларда берилди) тайёр ечиб кўрсатилган методик нуқтаи назардан қулай машқлар берилиши ҳозир одатга айланган. Бундай машқлар ўрганилгандан сўнг бошқа намунага ўхшамаган лекин намунага қараб ечилиши мумкин бўлган машқлар тушунилади. Машқлар (саволлар) намунадаги яъни репродуктив усулдаги ўзлаштиришга мўлжалланган ўқув материални бўлса, буларни намуна билан бир хил турдаги ўқув материални дейилади. Бу метод билан ҳар қандай материални ўрганиш қулай ва материални ўзлаштиришдаги дастлабки қадамлар бўлади. Лекин бу усулда олинган билим ўқувчининг эсида турмайди, яъни олинган билим мустаҳкам бўлмайди. Бу билимларни мустаҳкамлаш, чуқурлаштириш ва уни амалиёт билан боғлаш учун эса бошқа метод яъни продуктив методдан фойдаланилади. Репродуктив методда билимларни ўзлаштириш даражалари бир хил бўлади.

Эвристик методнинг моҳияти шундаки, ўқитувчи ўқувчиларни муайян далилларни таҳлили этишга жалб этиш имкониятига эга бўлади. Ўқитувчи ушбу метод ёрдамида шундай оғзаки машқларни лойиҳалаштирадики, унда машқларни қисмларга ажратиш ва ечимни излаш усулларига ишора қилади, лекин барча амалларни ўқувчининг ўзи бажаради. Бундай оғзаки машқларни бажариш орқали ўқувчи далиллар билан танишишга, тушунча ва кўникмаларни ўзлаштиришга йўналтирилади.

Берилган бўғинларга ўзаро мосини танлаб сўзлар ҳосил қилинг.

Расмни диққат билан кузатинг. Қайси фасл тасвирланган? Болалар нима қиляптилар? Болаларга исм қўйиб, расм асосида оғзаки ҳикоя тузинг.

Бундай машқларни ечишда ўқувчи муаммоларга дуч келади. Уларни ҳал қилиш учун ўқитувчи эвристик суҳбатлар ташкил этиши лозим. Ушбу методнинг моҳияти яна шунда кўринадики, ўқитувчи мақсадни амалга оширишга қаратилган саволлар тизимини тузади. Ўқувчи эса саволларга жавоб бериш орқали кўзланган натижага эришади.

Тадқиқотчилик методи эса илмий билиш жараёнини таъминлаш имконини беради. Унинг ёрдамида ўқувчиларда ижодий фаолият шаклланади ҳамда ва ўқув жараёнига нисбатан янгидан-янги талаблар қўйиш заруриятини вужудга келтиради. Тадқиқотчилик методининг моҳияти таълим олиш жараёнида ҳосил бўладиган янги муаммоларни ҳал қилишда ижодий фаоллик кўрсатишдан иборат[4]. Бу муаммоларни ҳал қилиш тадқиқот босқичларини рўёбга чиқариш ва ўқув ҳаракатларини амалга оширишни назарда тутди. Бошланғич таълимда оғзаки машқларни бажариш одатда, муаммоли вазиятни келтириб чиқаради. Тадқиқот ишларини мустақил амалга ошириш ўқувчидан муайян кўникма ва малакаларга эга бўлишни талаб қилади. Шунинг учун ҳам ўқувчини бундай ишларни амалга оширишга тайёрлаб бориш керак.

Бошланғич синф ўқувчиларининг мантиқий фикрлашини ривожлантиришда мақсадга йўналтирилган оғзаки машқлардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Ўқувчиларнинг мантиқий фикрлашини ривожлантиришга йўналтирилган дарсларда инновацион методлар муҳим ҳисобланади. Шунинг учун ҳам бошланғич синф ўқувчиларида мантиқий фикрлашни ривожлантиришга йўналтирилган дарсларни ташкил этишнинг самарали методларини аниқлаш талаб қилинмоқда.

Бошланғич синф ўқувчиларининг мантиқий фикрлашини самарали ривожлантиришга йўналтирилган дарсларни ўзига хос тарзда ташкил этиш, ушбу жараёнда инновацион жараёнлардан фойдаланиш керак. Чунки ўқув машғулоти ўқувчиларнинг ўқув фаолиятини ташкил қилишнинг асосий шаклидир. Улар қисман изланишга ундовчи, ўқувчи шахсига йўналтирилган бўлиши лозим. Шунинг учун ҳам дарслар ўқувчиларни ривожлантириш, уларнинг фикрлаш фаолиятини самарали шакллантириш функциясини бажаради. Бундай дарсда бошланғич синф ўқувчиларининг мантиқий фикрлашини ривожлантириш мақсади, вазифалари, усул ва методлари аниқ белгилаб қўйилади[6].

Бошланғич синф ўқувчиларини мантиқий фикрлашни ривожлантиришга бағишланган дарсларнинг мантиқий қурилиши, ўқув топшириқларини ўқувчилар томонидан самарали ечишга қулайлик яратилганлиги, топшириқларнинг кўп вариантлилиги, ўқувчиларнинг маҳсулдор фикрлаш фаолиятини ташкил этишга мўлжалланиши ўқитувчи томонидан аниқ лойиҳалаштирилиши керак.

Таълим тизимида бундай методлардан фойдаланиш ўқувчилар психикасини ривожланишини таъминлайди. Натижада, дарсларда ўқувчиларнинг психик жараёнлари самарали ривожланади. Янги дидактик тамойилларнинг қўлланилиши дарсларнинг самарадорлигини ошириб, ўқувчилар учун қулай педагогик-психологик муҳит яратилади.

Мақсадга эришишга йўналтирилган фаолият – бу шундай фаолиятки, ўқувчи ўқув жараёни субъектига айланади. Бунинг натижасида у ўз-ўзини ривожлантиради. Ўқув фаолиятини ташкил қилиш ўқитувчининг асосий ва мураккаб методик вазифасидир. Ушбу вазифани амалга ошириш учун қуйидаги методлар қўлланилади:

- муаммоли ўқитиш;
- ўқувчилар олдига вазифалар қўйиш;
- гуруҳли ва ялпи ўқитиш;
- натижаларни баҳолаш методи кабилар.

Ўқув фаолияти ўқув вазифаси, ўқув ҳаракати, ўз-ўзини баҳолаш ва назорат қилиш ҳаракати компонентлардан ташкил топади.

Ўқув вазифаси – ўқувчининг янги мавзунини ўзлаштиришга қаратилган фаолияти. Ўқув вазифаси ўқувчилар олдига муаммоли вазият шаклида қўйилади. Бу эса бир томондан, янги тушунчаларни мақсадга йўналтирилган ҳолда ўрганишни ташкил этиш, бошқа томондан эса ўқувчини фаоллаштириш ҳамда ўқув ҳаракатини амалга оширишни англашига эришишдан иборат.

Ўқув ҳаракати деганда, ўқувчиларнинг атроф олами билиш, билим ва тушунчаларни ўзлаштиришга йўналтирилган ўқув фаолияти тушунилади.

Ўз-ўзини назорат қилиш ва баҳолаш ўқув ҳаракатининг учинчи энг муҳим компоненти бўлиб, бунда ўқувчи ўз ҳаракатларининг натижасини ўзи баҳолайди ва ўзининг ривожланиш даражасини англаб етади.

Бошланғич таълим жараёнида ўқувчиларда мантиқий фикрлашни ривожлантириш муаммосини самарали ечиш учун бир қатор вазифаларни ҳал этиш лозим:

Фаолиятни ўрганиш – тўғри мақсад қўя олиш, унга эришиш йўлидаги ҳаракат натижаларини баҳолаш ва шу асосда ўз фаолиятини тўғри ташкил қила олиш.

Шахсий сифатларни вужудга келиши – билим, тушунча ва маълумотларни ўзлаштириш асосида ижобий сифатларни таркиб топтириш.

Ўқув дастурлари мазмунига атроф-муҳит, объектив борлиқни ўрганиш имконини берадиган мавзуларни киритиш.

Фаолиятли ёндашувнинг моҳияти шундан иборатки, бунда янги тушунчалар ва улар орасидаги муносабатлар тайёр ҳолда берилмайди.

Ўқувчилар мустақил изланиш жараёнида ушбу муносабатларни ўзлари кашф этишади. Ўқитувчи ўқувчиларни бу фаолиятга йўналтиради ва тугалланишида қабул қилинган хатти-ҳаракатлар алгоритминини аниқ шакллантириб беради ва яқун ясайди.

Шу тариқа ўқувчиларда мантиқий фикрлаш фаолияти шакллантирилади, фанларга оид тушунчалар улар учун шахсий аҳамият касб этиб ўқув предметининг қизиқарлилиқ даражаси ортади.

Ўқитишнинг маҳсулдор моделларини педагогик жараёнга татбиқ этиш бошланғич синф дарсларида оғзаки машқлардан фойдаланиш зарурияти кучайди. Ўқитиш технологияларини таҳлил этиш натижалари шуни кўрсатдики, бошланғич синф ўқувчиларида мантиқий фикрлашини ривожлантиришда оғзаки машқлар тизимидан самарали фойдаланишда мавжуд ёндашувлар билан бир қаторда инновацион технологияларни ҳам татбиқ этиш талаб қилинмоқда. Бу технология ягона ёндошув ҳамда ташқи ва ички омилларни фаоллаштиришга йўналтириш

асосида ўқувчиларда мантиқий фикрлашни ривожлантиришни таъминловчи ўқув предмети мазмунини ўзлаштиришга имкон яратади.

Оғзаки машқлар ёрдамида ўқувчиларнинг психик жараёнлари ривожланади. Бу қуйидагилар билан изоҳланади:

-нутқнинг равонлиги;

-оғзаки ҳисоблаш кўникмаларини жадал шаклланиши;

-мулоқот маданиятининг шаклланиши;

-билимларни ўзлаштиришга нисбатан эмоционал-қадриятли муносабат тажрибасининг таркиб топиши;

-мантиқий фикрлаш амалларини бажариш кўникмасининг ҳосил бўлиши;

-ижодий фаолликнинг таркиб топиши.

Оғзаки машқлар ўзида функционал-динамик топшириқларни мужассамлаштиргани учун ўқувчиларда диққатни ривожлантириш билан боғлиқ бўлган диққатни тўғри тақсимлаш ва унинг барқарорлигини таъминлаш имконини беради.

7 - 10 ёшли болаларда диққат суст ривожланган бўлади. Биринчи синф ўқувчилари бир пайтнинг ўзида иккита ҳаракатни амалга оширишга қийналади. Агар улар биттасини бажарса, демак иккинчисини эътибордан четда қолдиради. Улар нимани ёзаётган бўлса унинг мазмунинга эътибор қаратиб, шу пайтнинг ўзида ўқитувчини тинглашлари мумкин. Аммо бир пайтда бажарилиши лозим бўлган мураккаб хатти-ҳаракатларни бажара олмайдилар.

Оғзаки машқлар бир неча функцияларни бирданига бажарилишини тақозо этмайди, бу эса ўқув жараёнида босимнинг сезиларли даражада пасайишига кўмаклашади, шу билан бир қаторда ўқувчиларнинг ақлий фаолиятини фаоллаштиради. Натижада ўқувчиларнинг эътибори, хатти- ҳаракати битта объектда жамланиб уни батафсил ўрганади, фарқли жиҳатларини ўзаро таққослайди, ўхшашликни ва фарқларни пайқайди, муҳим белгиларини аниқлайди ва битта умумий тушунчанинг муҳим белгиларини бирлаштиради.

Бу ёшда диққатнинг барқарорлиги катта бўлмайди, мана шунинг учун ҳам ўқув ҳаракатларининг турли-туманлигини таъминлаш муҳим. Бир типдаги фаолият ўқувчиларни тезда чарчатиб қўяди ва уларнинг зерикишига сабаб бўлади.

Оғзаки машқлар тизимига кирувчи топшириқлар мазмун жиҳатдан турли-туман, мантиқан ўзаро боғлиқ бўлиши лозим. Бундай машқлар сирасига математикадан рақамлаш, оғзаки ҳисоблашлар, сонлар ва катталиклар устида амаллар бажариш, алгебраик ва геометрик характердаги топшириқлар киради. Бундай ишлар ўқувчилар диққатини бир фаолиятдан иккинчисига кўчиришга имконият яратади, шу билан ўқув жараёнининг динамик характерга эга бўлишини таъминлайди[9].

Оғзаки машқлар таълим жараёнини жадаллаштириб нутқни ривожлантиришга хизмат қилади. Бу ўз навбатида ўқувчиларнинг ақлий ривожланишига таъсир

кўрсатади. Чунки оғзаки машқлар тўла ёзма расмийлаштиришни талаб этмайди. Бу эса тилга кўпроқ эътибор қаратишга имкон яратганлиги учун ўқувчилар шахсини ривожлантириш воситаси бўлади ва унга шарт-шароит яратади. Охир оқибатда ўқувчиларнинг мантиқий фикрлаш услуби шаклланади. Юқорида айтилганларни муайян мисоллар ёрдамида асослашга ҳаракат қиламиз. Учинчи синф ўқувчиларидан қуйидаги тўртта масалани ечиш талаб этилди:

-Квадрат томонлари узунликларининг йиғиндиси 24 смга тенг.

Квадрат юзаси нимага тенг?

-Автомобил 5 соатда 300 км йўлни босиб ўтди. Агар шундай тезлик билан ҳаракатланса, 420 км масофани неча соатда босиб ўтади?

-Йўловчи йўлда 2 сутка ва 6 соат бўлди. У йўлда ҳаммаси бўлиб неча соат юрган?

-Одам суткада 8 соат ухлайди. У сутканинг қанча қисмини ухлаб ўтказди?

Ўқувчиларнинг биринчи гуруҳи масала шартини босма ёзув асосида ўқишади. Масала ечимини тушунтиришлар билан ёзма расмийлаштиришади, жавобни ёзишади. Бу ишларнинг барчасини бажаришларига 15 дақиқа вақт сарфланади.

Иккинчи ҳолатда ўқувчилар масала шартини эшитиб идрок этишади. Ўқитувчи масала шартини икки марта ўқийди, кейин ўқувчилар битта жавобни ёзишади. Барчасини бажаришларига 5 дақиқа кетади. Биринчи гуруҳ расмийлаштиришига сарфлаган ўша 10 дақиқадан иккинчи гуруҳ ҳар бир масалани таҳлил этишда фойдаланди. Бунда ўқувчилар ўз фикрларини баён қилиш, уни саводли, ўзаро боғлиқ, кетма-кет асосланган ҳолда ифодалашга ўрганишади.

Тўғри шаклланган нутқ аниқ тафаккур юритиш мавжудлигидан далолат беради. Мазкур нутқни эгаллаш жумланинг аниқ мазмунини, мантиқий боғлиқлигини тушиниб етишга кўмаклашади. Бу эса мантиқий факрлаш фаолиятининг тўғри шаклланганлигидан далолат беради.

Оғзаки машқлар дарсларни ўқитиш жараёнига қизиқарли элементларни киритиш имконини беради. Хусусан, дидактик ўйинлардан лавҳалар киритиш орқали ўқувчиларнинг мантиқий фикрлаш фаоллигини таъминлашга эришилади. Бу ўз навбатида ўқувчиларга жўшқинлик бағишлаб, ўрганилаётган мавзунинг қизиқарлилигини таъминлайди. Натижада ўқув жараёнининг объектив борлиқ билан алоқадорлиги вужудга келади. Ўйин ҳаракатлари ўқувчиларнинг аниқликка интилишлари, билимларни мустақил эгаллашлари ҳамда тасаввурларининг кенгайишига ёрдам беради. Шу билан бир қаторда ўқувчиларни ўқув ишларини бажаришга оид кўрсатмалар билан қуроллантириш лозим.

Бошланғич синфларда ўйинга асосланган ўқув фаолияти етакчи ўринни эгаллайди. Шунга кўра, дидактик ўйинлар шахсий ўқув фаолиятларини тузилиши ва ўқув ишларини шаклланишини таъминлаши лозим.

Оғзаки машқлар ёрдамида ўқувчиларни ахборотларнинг бойиши, кенгайишини олдиндан билишга ўргатиш керак. Ихтиёрий оғзаки машқ таркибида қандайдир муаммо қўйилади. Ўқувчилар муаммоларни қонуниятларини баён қилиш, ўз

таклифларини айтиш, ўзаро боғланиш сабабларини топиш орқали ҳал қилишади. Дарс охирида ўқувчиларнинг якуний натижалари тингланади ва намунадагиси билан солиштирилади. Бундай ишларнинг натижалари умумлаштирилади.

Оғзаки машқлар ўқувчиларнинг фикрлаш операцияларини бажариш лаёқатлари ва ижодий қобилиятлари ривожланиши учун навбатдаги топшириқлар тизимидан ташкил топиши лозим:

-Нарса-буюмларнинг аломатларини ажратиш.

-Уларни белгиларига кўра билиб олиш.

-Предметни муҳим белгиларига кўра ажрата олиш қобилиятини шакллантиришга доир топшириқларни тақдим қилиш.

-Икки ёки ундан ортиқ предметларни таққослаш.

-Предметларни белгиларига кўра таснифлаш[9].

Бундан ташқари, оғзаки машқлар тизими ўз ичига ўқувчиларнинг мантиқий фикрлаш фаолиятини шакллантирадиган ва у ёки бу белгилари тўғри ёки нотўғрилигини мулоҳаза қилиш йўли орқали аниқланадиган мантиқий топшириқларни қамраб олиши керак.

Бунга қуйидагиларни намуна сифатида келтириш мумкин:

-Сарварнинг бўйи Акмалникидан баланд, Мансурнинг бўйидан эса паст. Кимнинг бўйи баланд, Акмалникими ёки Мансурники?

-Кўчада иккита ота ва иккита фарзанд келмоқда. Агар кўчада келаётганлар учта бўлишса, бу қандай бўлиши мумкин?

-Менинг исмим Ёдгор. Агар менинг синглимнинг битта акаси бўлса, унинг исми ким бўлиши мумкин?

Хулоса ва таклифлар. Оғзаки машқларнинг кўп функциялилиги бошланғич синф ўқувчиларида мантиқий фикрлашини ривожлантириш имконини беради. Ўқув жараёнида оғзаки машқлардан фойдаланиш мунтазам, қатъий кетма-кетликда ва тизимли бўлиши зарур. Табиийки, бу ўринда оғзаки машқларни такомиллаштириш, уларнинг тизимлилиги, мантиқий алоқадорлиги, ўқувчиларнинг тасаввурларини кенгайтиришга хизмат қила олиши муҳим аҳамиятга эга.

АДАБИЁТЛАР:

1. Лернер И.Я. Процесс обучения и его закономерности. – М.: Педагогика, 1992. 174 с.
2. Махмутов М.И. Мактабда муаммоли таълимни ташкил қилиш. – Тошкент: 1981. -185 б.
3. Хамрақулов А. Активизация творческой деятельности учащихся в процессе решения геометрических задач в неполной средней школы. Автореф. дисс. канд. пед. наук. – М.: 1992. -16 б.

4. Янгабаева Е. Теория и практика обучения математики младших школьников Узбекистана. Дисс. в виде научн. докл. ... докт. пед. наук. – Т.: 2002. -63 б.
5. Каримова В.М. Суннатова Р. ва бошқалар. Мустақил фикрлаш. Академик лицейлар ва касб-хунар коллежлари учун ўқув қўлланма.- Т.: Шарқ, 2000.- 112 б.
6. Каримова В, Нишонова З. Мустақил ижодий фикрлаш ва шахсинг ҳиссий, иродавий ва интеллектуал ҳислатлари орасидаги боғланиш // Ж. Халқ таълими, 2001. № 3-6.-Б.-64-69.
7. Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари. Пед. фанл. докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 2003. -280 б.
8. Махмутов М.И. Организация проблемного обучения в школе. –М.: Просвещение, 1977. -240 с.
9. Ҳамроев, Р. (2014). Бошланғич таълимни ижодий ташкил этиш истиқболлари. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха, 22(1), 53-58.
10. Sayfiddinovich, R. K. (2022). The importance of using ethnopedagogy in primary school students. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(4), 92-97.
11. Farmonova, S. (2021). Opportunities for the Development of the Communicative Culture of Future Teachers through the Design of Teaching. International Journal of Culture and Modernity, 11, 172-175.
12. Farmonova, S. (2019). THE TOLE OF THE PROJECT TEACHING TOOL IN DEVELOPING THE COMMUNICATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 434-441.
13. FARMONOVA, S. M. (2020). Improvement of Professional Thinking in Future Teachers. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 7(05), 251-257.
14. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. Eastern European Scientific Journal, (1).
15. Hamroev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.
16. Kamroev, A. (2019). STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(7), 285-296.
17. Хамраев, А. (2018). Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся. Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи, (2), 23-26.
18. Adizov, B. R., & Khamroev, A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. Ilmiy xabarнома, 69.
19. Ҳамроев, Р. (2014). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 22(1), 53-58.

20. Hamroyev, R. A., Qoldoshev, A. R., & Hasanova, A. M. (2021). Methods of teaching 1st grade students to use writing tools effectively. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(1), 168-174.

21. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.

22. Azimov, Y. (2003). Hamroyev A//Husnixat va uni oqitish usuliyoti (Maruza matnlari).

23. Khamroev, A. (2021). Quality and effectiveness for design of learning outcomes in the language teaching. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 549-558.

24. Yunusovna Y. S. METHODOLOGY OF FORMATION OF GRAPHIC SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 129-133.

25. YUSUFZODA S. BOSHLANG'ICH SINIF HUSNIXAT DARSLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

26. Yunusovna Y. S. METHODOLOGY OF FORMATION OF GRAPHIC SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 129-133.

27. Юсупова, М. Ё., Бабаева, Ш. Б., Шербекова, Г. Я., Эшанкулова, А. Х., Тухтарова, А. Ф., Жумаева, Ф. Р., ... & Махмудов, В. В. ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH.

28. Алимова, А. Н., & Бабаева, Ш. Б. (2021). СОЦИАЛЬНАЯ РЕАЛЬНОСТЬ СОВРЕМЕННОГО ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. In *НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ОБЩЕСТВО: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ* (pp. 134-136).

29. Фазылова, Н. С., & Бабаева, Ш. Б. (2021). ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОВЛАДЕНИЯ РУССКИМ ЯЗЫКОМ МЛАДШИМИ ШКОЛЬНИКАМИ.

30. Бабаева, Ш. Б. (2022). ОСНОВНЫЕ ПРИЁМЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕТОДА МОДЕЛИРОВАНИЯ СИНТАКСИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА: Бабаева Шоира Баймурадовна, доцент, Бухарский государственный университет. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (6), 39-44.

31. Бабаева, Ш. Б. (2022). ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К МОДЕЛИРОВАНИЮ СИНТАКСИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ РОДНОГО (РУССКОГО) ЯЗЫКА: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.009> Бабаева Шоира Баймурадовна Доцент, Бухарский государственный университет. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (9), 73-77.

32. Узакова, А. Б., Рохатова, З. И., & Бабаева, Ш. Б. (2021). РАЗВИТИЕ АКТИВНОЙ РУССКОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ УЗБЕКСКИХ ШКОЛ.

33. Бабаева, Ш. Б. (2021). ЦЕЛЕНАПРАВЛЕННОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА МОДЕЛИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ. In НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ОБЩЕСТВО: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 131-133).

34. Бабаева, Ш. Б. (2022). МОДЕЛИРОВАНИЕ СВЯЗНЫХ ТЕКСТОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ТРАДИЦИОННЫХ ЦЕННОСТЕЙ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО НАРОДА. PEDAGOGS journali, 1(1), 109-110.

35. Babaeva, B. S., Uzakova, A. B., Rohatova, Z. I., Alimova, A. N., & Fazilova, N. S. (2021). The development of the Speech of Primary School Students in the process of studying a work of Art in Primary School. Middle European Scientific Bulletin, 10.

36. Алимова, А. Н., & Бабаева, Ш. Б. (2021). Международное исследование PIRLS способствует развитию речи и навыка чтения у младших школьников. Scientific progress, 2(6), 1045-1051.

ТАЪЛИМ СОҲАСИДА САРҲИСОБ ВА ИСТИҚБОЛ РЕЖАЛАР.

Ахмедова Мукаррамхон Турсуналиевна

Тошкент Тиббиёт Академияси “Педагогика ва психология” кафедраси доценти

Одилова Маҳлиё Чинпўлат қизи

*Тошкент Тиббиёт Академияси “1-Даволаш иши” йўналиши 1-курс 118-гурух
талабаси*

“Янги Ўзбекистонда эл азиз, инсон азиз” ғояси билан бошланган ўқитувчиларнинг анъанавий август кенгаши бу сафар янги ёндашув, яъни “Устозлар миллий форуми” дастури асосида ташкил этилди. Туманимиздаги нуфузли 6-сонли мактабда ўтказилган форум дастлаб барча мактабларнинг турли фанлар бўйича ўқув шўъбаларининг кенгаши билан бошланди. Унда энг тажрибали ўқитувчиларнинг таълим методикаси ва тажрибалари, таълим соҳасини ривожлантириш, замонавий ўқитиш методикалари, ўқувчиларнинг ижодий ва мантиқий фикрлашини ривожлантириш каби мавзулардаги лойиҳалари тинглаб мунозара қилинди. Форумнинг иккинчи қисмида барча мактаб директорлари, ўринбосар ва фаол устозлар иштирокидаги ялпи кенгаши иш бошлади. Устозлар форумининг бош мақсади, 2021 ва 2022 йил якунлари сарҳисоби ва янги ўқув йилидаги устувор вазифалар, истиқбол режаларни белгилаб олиш. Бу борада қандай ютуқ ва қувончли якунлар, янгиликлар бор? Янги ўқув йилига тайёргарлик қай тарзда кечди?

Бу ҳақида туман халқ таълими бўлими мудирини Ҳаёт Рашидов шундай ҳисобот берди:

Таъбир жоиз бўлса, ўз мулоҳазаларимни президентимиз Ш.Мирзиёевнинг қўйдаги фикрлари билан бошламоқчиман. “Янги Ўзбекистонни барпо этиш мактаб остонасидан бошланади... Таълим ва тарбия иши фақат таълим ташкилотларининг эмас, балки барча давлат ташкилотлари, жамоатчиликнинг эсосий эътиборидаги ишдир, деб бежизга айтмаган. Шундан келиб чиқиб, айтиш керакки, бугунги кунда туманимизда таълим ташкилотларига алоҳида эътибор қаратилимоқда. Мавжуд 43 та таълим масканлари тасарруфида 41 та мактаб, 1та “Баркамол авлод” болалар мактаби, 1та махсус мактаб интернати ташкил этилган. Умумий ўрта таълим мактабларида 15 минг 895 нафар ўқувчи ёшларга 1 минг 267 нафар педагоглар таълим бериб келмоқда. Жорий йилда умумтаълим мактабларини 1045 нафар ўқувчилар битиришган бўлса, шундан 52 нафари “Олтин”, 21 нафари “Кумуш” медални қўлга киритди. 2021 йилда 1270 нафар битирувчидан 333 нафари олийгоҳлар талабаси бўлган эди. Жорий йилда тажрибали устозлар сабоғини олган 112 нафар битирувчи муддатдан олдин талабалик сафига қабул қилинди. Бу кўрсаткичлар албатта олдинги ўқув йилларига нисбатан юқори бўлсада, ушбу натижалар билан чекланиб қолмасдан, сифат ва самарадорликда юнг юқори кўрсаткичларга эришишимиз керак.

Маълумки, ўқитувчи қачон ўз устида ишласа, ижодий изланса, кўзлаган мақсадига эриша олади. Шу мақсадда ўқитувчиларга малака тоифаларини бериш тартиби тубдан ўзгарди. Малакани баҳолаш методикаси асосида адолатли ва шаффоф тизим жорий этилди. Билим даргоҳларидаги 1267 нафар ўқитувчидан 79 нафари олий тоифали, 190 нафари 1-тоифали, 369 нафари 2- тоифага эга. 14 нафар чет тили фани ўқитувчилари халқаро ва миллий сертификатларга эга бўлдилар. Ўтган ўқув йилида 18-мактаб ўқитувчиси З.Олимбоева “Халқ таълими аълочиси” кўкрак нишони билан, 8-мактаб ўқитувчиси Раъно Мираҳмадова “Йил ўқитувчиси” кўкрак нишони билан, 5-ИДУМ ўқитувчиси Азиза Икромова “Йил аёли” кўрик танловининг Республика босқичида иштирок этиб, “Жонқуяр ўқитувчи” наминатцияси ғолиби деб топилди. 40-сонли мактаб ўқитувчилари Лайло Сатторова, Ирода Муллажоновалар ижодий лойиҳалари билан фахрли унвонга сазовор бўлдилар. Хуллас устозларимиз билим бериш ва изланиш борасида юксак чўққиларини забт этиптилар.Туманимиздаги барча мактаблар таълим ва тарбия бериш, спорт, мусиқа, ҳарбий таълим бериш учун етарли шароитлар яратилган.Янги ўқув йилига тайёргарлик кўриш учун, 40 та умумтаълим мактабларида жорий таъмирлаш ва ободонлаштириш ишлари олиб борилиб якунига етказилмоқда. Бунинг учун маҳаллий бюджетдан 145 млн. сўм маблағ ажратилди. Яна бир қувончлиси, ўтган ўқув йилида Инвестиция дастури доирасида 96 ўринли 39-сонли мактаб бунёд этилди. 6 та мактабда янги спорт зали биноси фойдаланишга топширилди. Маҳаллий бюджет маблаҳларида 600 млн сўм маблағ ажратилиб, 8 та мактаблар замонавий компьютерлар билан таъминланди. Буларнинг барчаси таълим масканларининг хар жихатдан мониторингини оширишга хизмат қилади. Мухтасар айтганда, Янги Ўзбекистонда таълим олаётган ёшларнинг юксак билим ва тафаккурга эга бўлиши учун барча имкониятлар муҳайё этилган. Келажагимиз бунёдкорлари хисобланган янги авдлод вакилларида талаб ва таклиф шуки бундай имкониятлардан унумли фойдаланиб, кўзланган марраларини баландроқ олишлари, хар соҳада зукко, хориж тилларини мукамал билувчи собитқадам, шижоаткор бўлиб етишишлари, Ватанимиз тараққиёти, халқимизнинг фаровон ҳаётлари учун хизмат қилишлари керак.

Она-тилини ўргатишга алшоҳида эътибор қаратилмоқда. Президентимиз Шавкат Мирзиёев 2023 йилга « Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили « деб ном беришни таклиф қилди. Юртбошимиз таъкидлаганидек болаларимиз мактабдан она тили ва чет тилларинин пухта ўзлаштириб, компьютерда ишлашни ўрганиб чиқиши зарур. Ўқувчиларда эркин танқидий ва креатив фикрлашни, жамоада ишлаш ва мулоқот кўникмакларини шакллантириш зарур. Давлатимиз раҳбарининг бу мулоҳазалари мактабда таълим тизимидаги ислоҳатларни изчил амалга оширишга, соҳада сифат ва самарадорликка эришиш, хориж давлатларнинг таълим йўналишидаги иш тажрибасини ўрганиш ва амалда тадбиқ қилишга даъват этади.Айниқса мактабда ўқувчиларга ўз она тилимизни пухта ўргатиш, 10 йиллик

таълим жараёнида яна бир хориж тилини мукаммал эгаллаган ёшларгина янги ўзбекистонни янги марраларга олиб чиқа олишини, дунёга танилишини таъкидлаб ўтдилар. Чиндан ҳам миллатимиз қўрғони бўлган она тилини ўқувчилар онгига чуқур сингдириб борсақкина биз ёш авлод тафаккурида тилга бўлган хурмат-эътиборини, миллий ғояларимизга нисбатан меҳри-ишончини уйғота оламиз. Мактабимизда бу борадаги ишларни амалга оширишимиз учун етарли имконият ва шароит мавжуд. Техник жихозлар билан таъминланган фан кабинетлари , 200 дан зиёд олий маълумотли она-тили адабиёт ўқитувчилари болаларга замонавий таълим бериш, турли тадбирлар, давра суҳбатлари ташкил этиб, уларнинг мустақил фикрлаш доирасини кенгайтириш, она тили фанининг хар бир бўлимига оид қонун-қоидаларни аниқ ва пухта ўргатишга ҳаракат қилмоқдалар.Таълим жараёнида Финландия давлатининг тажрибасидан фойдаланиш ўқувчиларимизда эркин, мантиқий фикрлаш, мулоқот кўникмаларини шакллантиришда асосий омил бўлади. Мақсадимиз, президентимизнинг биз ўқитувчилар олдида қўйган вазифаларни бажариб, келажагимиз учун зукко, билимдан, иқтидорли ёшларни тарбиялашдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Аҳмедова, М., Аскарлова, Н., & Анварова, Д. (2022). Тхе эссенсе анд структуре оф профессионал коммунисативе компетенсе ин тхе модерн эдусатион сйстем. Сосиетй анд инноватион, 3(2/С), 47-51.
2. Умарова. С. (2021). Форминг тхе чарактер оф пациенсе ин ёунг пеопле витх тхе ҳелп оф ҳадитҳс.
3. Мелибаева. Р. (2021). Метҳодологисал проблемс оф медисал псйчодиагностисс.
4. Умарова. С. (2022). Девелопмент оф креативе компетенсес ин дигитализатион оф эдусатион (Досторал диссертатион, Ўзбекистан Ташкент).
5. Умарова Севара Равшанжон, Ибодов Шаҳзод Абдунасимович, БОДЙ ЛАНГУАГЕ ИН СОНФЛИСТОЛОГЙ, Ссиентифис Импульс: Вол. 1 Но. 2 (2022): Ссиентифис Импульс.
6. Умарова Севара Равшанжон, Кҳалилова Диёра Собировна, ТХЕ СИГНИФИКАНСЕ ОФ ХАДИТХС ИН СОНФЛИСТ РЕЗОЛУТИОН, Ссиентифис Импульс: Вол. 1 Но. 3 (2022): Ссиентифис Импульс.
7. Зайцев Н. А. Обучение чтению и письму. УРЛ: [хтп://www.данилова.ру/стораге/боок_заитсев_04.хтм](http://www.данилова.ру/стораге/боок_заитсев_04.хтм).
8. Еремеева В. Д. Дидактические принцип системы Л. В. Занкова глазами нейропсихолога. УРЛ: [хтп://www.занков.ру/абоут/тхеорй/артисле=106](http://www.занков.ру/абоут/тхеорй/артисле=106).
9. Диане Ф. Халперн. Тҳоугхт анд Кноуледге: Ан Интродустион то Сритисал Тҳинкинг. Тҳирд эдитион Лавренсе Эрлбаум Ассоиатес, Публишерс 1996 Маҳвах, Нью Жерсей. 4тх международное издание. СПб., 2000.
10. Рубинштейн С. Басис публис психология. Ч. 3. Гл. 10. УРЛ: [хтп://www.гумер.инфо/библиотек_Букс/Психол/рубин/10.пхп](http://www.гумер.инфо/библиотек_Букс/Психол/рубин/10.пхп).

UMUMIY PSIXOLOGOYA VA TURLI XIL PSIXOLOGIK AMALIYOTLAR

Samatova Nigora Davlataliyevna

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Abdurasulova Sitora Oybek qizi

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Oila psixologiyasi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumiy psixologiya va uning bo'limlar va bolalar psixologiyalari haqida malumotlar keltirilgan. Maqoladagi asosiy malumotlarda bolalar psixologiyalari va ularning tartiblash jarayonlari haqida malumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Psixologiya, tarix, psixik, eksperimental, tibbiyot,*

XVIII-XIX asrlarda boshlangan hayvonlarning psixik faoliyatini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar ekologiya, otologiya va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan hayvonot bog'i psixologiyasini vujudga keltirdi. Psixologiyaning alohida bo'limi psixogigiena, tibbiy psixologiya bo'lib, u psixoterapiya va tibbiy deontologiya masalalarini o'rganadi, yo'l psixologiyasi (qabul qilish, xotira, fikrlash va boshqalar kabi ruhiy jarayonlarni tartibga solish qonuniyatlarini o'rganadi.), neyropsixologiya (ruhiy jarayonlarning miyaning ayrim tuzilmalari bilan aloqasini o'rganadi) va ruhiy tuzatish.

Bolalar psixologiyasi (bola psixikasining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi) va pedagogik psixologiya (psixikani maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon kontekstida o'rganadi, ta'lim va tarbiyaning psixologik asoslarini ishlab chiqadi), yosh psixologiyasi (o'rganish mavzusi – psixikaning yosh xususiyatlari), mehnat psixologiyasi (issleduet mehnat jarayonida ruhiy faoliyat va shaxsni o'rganadi, kasb tanlash, mehnat jamoalarini tashkil etish va boshqalar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.), avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini loyihalash va takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muhandislik psixologiyasi ("inson qurilmasi" tizimida inson faoliyatini o'rganadigan mehnat psixologiyasi bo'limi); ular koinot psixologiyasi (koinotga parvoz sharoitida ruhiy faoliyatning xususiyatlarini o'rganadi), ijtimoiy psixologiya (jamoadagi inson faoliyati qonunlarini va shaxslararo munosabatlarning shakllanishini o'rganadi), qiyosiy psixologiya (o'rganish mavzusi umumiylik psixologiyaning ko'plab sohalarining kelib chiqishi va rivojlanishidagi farqlar quyidagi mezonlar bilan ajralib turadi:

- maxsus faoliyat (mehnat psixologiyasi ,tibbiyot, pedagogik psixologiya, san'at, sport psixologiyasi va boshqalar.);

- rivojlanish (hayvonlar psixologiyasi, qiyosiy psixologiya, rivojlanish psixologiyasi, bolalar psixologiyasi va boshqalar.);

- ijtimoiy umumiylik (ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, guruh, sinf psixologiyasi, etnopsixologiya va boshqalar.k.).

Sohalardagi faoliyat maqsadiga ko'ra farq muhim rol o'ynaydi (yangi bilimlarni olish va ularni qo'llash): asosiy va amaliy Fanlar; tadqiqot mavzusiga ko'ra – rivojlanish psixologiyasi, ijodkorlik, shaxs psixologiyasi va boshqalar.k. psixofiziologiya, neyropsixologiya, matematik psixologiya va boshqalar.psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi asosida vujudga kelgan fanlarni keltirish mumkin. Psixologiyaning amaliyotning turli sohalari bilan murakkab aloqalarining rivojlanishini tashkiliy, muhandislik psixologiyasi, sport psixologiyasi, pedagogik psixologiya va boshqalarda kuzatish mumkin.

Turli mualliflar psixologiyaning 100 dan ortiq sohalarini sanab o'tishadi. Lekin, aslida, hozirgi paytda ularning soni bundan oshib ketdi.

Shuningdek, psixologiyaning maxsus bo'limlari va yo'nalishlari mavjud: differentsial psixologiya(odamlar o'rtasidagi individual farqlarni o'rganadi), qabul psixologiyasi, kriminologiya va sud psixologiyasi, ilmiy, texnik va badiiy ijod psixologiyasi ,qarish psixologiyasi (gerontopsixologiya), aviatsiya psixologiyasi.

Hozirgi zamon psixologiyasi boyib bormoqda va rang-barang bo'lib bormoqda, so'nggi yillarda psixologiyaning yangi yo'nalishlari: antropologik psixologiya, acmeology, tahdid va terrorizm psixologiyasi, Nasroniylik psixologiyasi, aloqa psixologiyasi, davriy psixologiya, bio konstitutsiyaviy psixologiya, "buyuk tadqiqotlar" psixologiyasi, o'sish psixologiyasi, hayot psixologiyasi, kvant psixologiyasi, tergov psixologiyasi, badiiy qabul qilish psixologiyasi, psixologik adabiyot, eshitish psixologiyasi, kutish psixologiyasi, orzular va orzular psixologiyasi, sevgi psixologiyasi, inqiroz va xavfli vaziyatlar psixologiyasi, ekzoterik psixologiya, taqdir psixologiyasi, mutaassiblik psixologiyasi, qobiliyatlar psixologiyasi, xususiy shaxslar psixologiyasi, ta'lim faoliyati psixologiyasi, ayollar psixologiyasi, qul xulq-atvori psixologiyasi, genotsid va ommaviy qotillik psixologiyasi, xizmat aloqasi psixologiyasi, o'qituvchi psixologiyasi,tashqi ko'rinish psixologiyasi, Oliy maktab psixologiyasi, psixologiya, saylov xulq-atvori psixologiyasi, erkaklar psixologiyasi, din psixologiyasi, homologiya, qo'rquv psixologiyasi, o'lim psixologiyasi, muqobil psixologiya, va hokazo.faoil shakllanmoqda.

Ushbu sohalarga yoki haqiqiy voqealar va inson turlariga qo'shimcha ravishda, maxsus kurslarni ifodalovchi so'zlarning mutlaqo kutilmagan kombinatsiyasi mavjud, xususan: qarzdor, qarz beruvchi, qimmatli qog'ozlar egasi, narx, so'roq, futbolchilar, rassom, diktatura, bezori, professional daraja, ishonch, e'tiqod, jinsiy aloqalar, murabbiylik faoliyati, aloqa, aloqalar, hissiy kuyish, muxbir psixologik madaniyat, o'qituvchilik faoliyati, bir tomonlama, dizayn, bolalar o'yini,, ular orasida sayohat, millatga mansublik, jinoiy xatti-harakatlar, ta'sir, ishdan bo'shatish, bolalar ijodiyoti, tarbiyasi qiyin o'smirlar, aqli zaif talaba, bayram, tabassum, jizzakilik, juftliklar, telefon suhbatlari, qotil psixologiyasi.

An'anaviy psixologiya fanlari-umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, aloqa psixologiyasi, yosh va pedagogik psixologiya chuqur o'zgarishlarga duch kelmoqda.

Hozirgi zamon psixologiyasining asosini psixikaning umumiy qonuniyatlari, qonunlari, mexanizmlarini o'rganadigan umumiy psixologiya tashkil etadi. U ilmiy kashfiyotlar

qiladigan nazariy tushunchalar va eksperimental tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Umumiy psixologiya akademik fan nomi bilan ataladi. Fan sifatida u universitetlar va Akademiya institutlarida rivojlanib, asosiy bilimlarni olishga qaratilgan.

Aksincha, amaliy psixologiya ma'lum bir Abituriyent bilan savdo tashkiloti, vazirlik yoki idora, harbiy gospital yoki umumta'lim maktabi kabi noma'lum, mijozning amaliy ehtiyojlarini ilmiy jihatdan ochib beradigan keng va chuqur tadqiqotlar o'tkazmasdan shug'ullanadi. Amaliy psixologlarning asosiy ish vositasi treninglar, xususan: psixodrama, jismoniy treninglar, NLP treninglari, o'z – o'zini etishtirish treninglari, ijtimoiy hamkorlik treninglari, gestalttreninglar, shaxsiy o'sish treninglari va biznes treninglari, avtotrenlar va ko'nikmalarni rivojlantirish treninglari, ota-onalar va bolalar uchun treninglar.

Amaliy psixologiyaning bir qismi bir qator masalalarni o'z ichiga oladi, jumladan ishdagi qiyinchiliklar (ishdan qoniqishning yo'qligi, hamkasblar va boshliqlar bilan kelishmovchiliklar, ishdan bo'shatish imkoniyati, yangi ish izlashdagi muammolar), shaxsiy hayotdagi tartibsizliklar, oilaviy nizolar, muammolar. xalqaro oilalar, maktabda yoki o'rta maktabda yomon assimilyatsiya, ota-ona va bola munosabatlari muammolari, o'ziga ishonch va hurmatning yetishmasligi, – psixologik maslahatni tashkil qiladi.

Psixologiya sohalari Psixologiya fani qaysi sohaga bo'linganligi bo'yicha bir necha guruhlarga bo'linadi. Biz buni birinchi bo'lib nazariy va amaliy psixologiya deb ataladigan ikkita katta guruhga ajratamiz.

Nazariy psixologiya bizga asos bo'lib xizmat qiladigan asosiy qonunni, qoidalar va psixologik nazariyalar va tamoyillarni o'rgatadi. Bu bizga juda xilma-xil analizatsiyalar, baholashlar, modifikatsiyalar va xususiyatlarni rivojlantirish texnikasini o'rgatadi.

Amaliy psixologiyada esa nazariy psixologiyada muhokama qilingan va o'rganilgan bilimlar sinovdan o'tkaziladi. Bu erda biz haqiqiy hayotda psixologik qoidalar, printsiplar, nazariyalar va texnikani qo'llab-quvvatlaymiz va bilimlarimizni sinab ko'ramiz.

REFERENCES:

[1]. Rixsiyeva, M., & Samatova, N. (2020). HUMAN PSYCHOLOGY AND ITS ROLE IN ETHNIC SOCIETY. www.conferencepublication.com, 12.

[2]. Davlataliyevna, S. N. (2022). OILADAGI SALBIY MULOQOTNING FARZAND PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 475-478.

[3]. Пирог, Г. В. (2021). Психологические особенности жизненных перспектив современной молодежи. *Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғунлиги*, 253-254.

[4]. Sattorova Mahliyo Burhanovna. (2022). TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 1(2), 436–440. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/227>

PSYCHOLOGY AND ITS PRINCIPLES

Samatova Nigora Davlataliyevna

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotation: *Psychology as a holistic and independent science serves to form a humanistic mentality in people, and its involvement in the human factor necessitates its direct connection with all disciplines that study problems of this direction in a certain sense. These are primarily the spheres of socio-humanitarian science, and the position of psychology between them is unique and leading.*

Key words: *position of psychology between, social philosophy, full understanding*

The connection between philosophy and its part of social philosophy, which has been formed and developing in recent times, arises from the role and importance of both these Sciences in the full understanding of the essence of a person and his life and the determination of trends in its development. General laws and principles on the development of Nature, Society and human thought are borrowed by psychology from the base of philosophy, and at the same time he himself, with his achievements in the field of laws of human consciousness and thinking, contributes to the acquisition of philosophy with rich knowledge. It should be noted that in the search for general scientific laws relating to the ideology of independence and the formation of national consciousness, in the conditions of our country, the cooperation of both sciences - philosophy and psychology is directly felt. This connection primarily serves to fulfill such an urgent task as the formation of national ideology and national idea in the historical period, when the problem of the formation of a new thinking and worldview is transverse.

Since the science of Sociology has also entered an important stage of its development in a new context of social relations, psychology uses both the achievements achieved by this science and serves as an estimated power to expand their scope. The connection of Social Psychology with sociology, which has become especially important in our time of today's development, which has independently separated from psychology, is inextricable; they serve the work of ensuring social progress and development in society. In addition, to ensure in practice the legal culture of the population of Uzbekistan, which carries out the work of building a legal, democratic state with stability, and psychological readiness for democratic changes, it is important to combine the methodology and methods of both disciplines in the timely study, prediction and development of criteria for development of Social Thought and changes in Therefore, the socio-psychological service centers organized in places are aimed at fulfilling the same task. And on the scale of our republic, the social surveys of the Center for "Social Thought" on various topics, together with the expression of the mood, interest, desire, need, intention of the population, lead to what promising plans should be drawn up by the government and the state. The transfer of socio-

psychological surveys at universities makes it possible to find out the teacher-student, student-teacher relationships, employee-leader relationships at work. Through it, it will be possible to identify not only the sociological survey, but also the psychological characteristics associated with the human personality.

The interaction and connection of pedagogy and psychology is traditional and long-standing, their role and prestige in the implementation of the upbringing of the younger generation in the spirit of the requirements of the times are characteristic. The implementation of the "Education Law" and the "National Personnel Training Program" implemented in our republic has made cooperation and interaction between the two disciplines more relevant than ever. Among the conditions that guarantee the perfection of a person of a new model recognized in the national program, his deep knowledge, the introduction of new pedagogical technologies into educational and educational processes, pedagogy's own methods and rules will not be enough. That is why psychology, in cooperation with it, studies from the development trends of the consciousness of the younger generation in educational periods, to the assimilation of new teaching technologies by the child and how mental and intellectual abilities are affected in him, and the organization of work on this basis necessitates the combination of methods in psychology with didactic ones. The introduction of the principles of spiritual perfection in school and educational institutions of a new type also presupposes the practical implementation of the most advanced and modern forms of teaching in the field of profound knowledge of personality psychology. In the joint consideration of education and upbringing of a person, and not separately, the mutual continuity of the disciplines of pedagogy and psychology is important. The fact that nowadays, in order to improve the quality and effectiveness of education, knowing the psychological characteristics of the educational person, the introduction of the technology of pedagogical influence on him and its orientation to New Knowledge also indicates that these two disciplines are closely related.

Natural sciences: biology, physiology, chemistry, physics, etc. It provides material for an understanding of the natural physiological mechanisms of psychic phenomena and processes and, thereby, an objective studies of the laws of their course. In particular, recognizing the role of the brain and the central nervous system in the regulation of mental activity and their coordination, the science of psychology uses the achievements of the natural sciences and research methods in them Factor by factor. For example, since the diagnosis of a person's abilities necessitates the simultaneous knowledge of his innate abilities and acquired qualities, he uses in his place a number of methods of Psychophysiology (the laws of brain asymmetry, recording brain biorhythms, identifying aerodynamic phenomena, methods of measuring blood circulation and body temperature) in determining the characteristics of that natural capacity and uses the achievements Therefore, all achievements in the field of Natural Sciences enrich it by contributing to a more perfect coverage of the subject of psychology.

Achievements in the field of cybernetics science are also significant and necessary for Psychology, which uses in its place the technology of information and methods of research, acquired by cybernetics in the field of self-control and improvement of psychic processes of the human personality. In the XXI century, which is a century of information, the potential for cooperation in Information Technology and modeling in psychology and cybernetics will increase even more. For example, the appropriate use of various cybernetic models in improving the personality system in the process of such social activity in order to further improve the process of simple communication, increase the sensitivity of each word in interpersonal relationships, and increase the role and role of modern psychology in society, and the widespread use of special computer programs guarantees a quick and accurate.

The interaction and cooperation of psychology with technical sciences is clearly felt. On the one hand, the need to use special technical means in solving the problem of the human mind, which controls complex techniques, and on the other, in opening up complex facets of psychic life, presupposes combining the achievements of these two directions. There is another special aspect of the issue, which is that the issue of further perfecting the activities of a person "communicating" with complex techniques and machines at a time when technology is striving for progress and adapting to its capabilities is also an issue that should be addressed in this cooperation. Knowing the secrets of complex modern technology for independent Uzbekistan, how relevant it is to ensure its service to the development of society and science, it is very important for every simple to adapt his mind, thinking and abilities and look for the most effective ways of dialogue "Man - Machine". Even when it comes to training qualified professionals who "speak" freely with the technique, technical sciences achieve success only if they can use the techniques of pedagogy and psychological sciences.

Yangi usul va metodlar, agar zarur bo'lib qolsa optimallashtiriladi. Bu optimallashtirish xo'jalik vazifalarini xal qilish uchun mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda juda ko'p, xilma - xil variantlardan eng samaralilarini tanlab olish imkonini beradi. 47 Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari usul va metodlarni konkret ishlab chiqarish sharoitida tekshirib ko'rish natijasida olingan haqiqiy ma'lumotlar asosida hisoblab chiqiladi. Taqqoslanuvchi variantlar bir xil ishlab chiqarish sharoitlarida tekshiriladi. Har qanday tasodifiy omillarning ta'sir ko'rsatishiga barham berish kerak. Tekshirishning davom etishi, miqèsi, o'lchovlarning umumiyligi ishonchli dastlabki material olish va shu asosida taqqoslanuvchi ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish uchun imkon beradigan darajada bo'lishi kerak. Shunday qilib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari ishlab chiqarishning yangi usul va metodlariga tashkiliy - iqtisodiy baho berish, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, boshqarish va boshqa metodlarini tashkil qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining —Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida||gi Qonuni, 1997 yil 30 avgust, 483-I-son
2. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T., Bakieva I.A., —Mehnat iqtisodiyoti (Darslik) – T.: TDIU, 2011. 237 bet.

**YOSHLARNI SUTKALIK ENERGIYA SARFIGA ASOSLANIB ULARGA OZUQA RATSIONINI
TUZISH**

Isroiljonov Saminjon

FarDU Biologiya fanlar nomzodi dotsent

Toxirova Maloxat Rasuljon qizi

FarDU Biologiya yo'nalishi II – bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola yoshlarda asosiy almashinuv fiziologiyasi haqida bo'lib, ularning bajaradigan kunlik energiya sarfiga qarab ozuqa ratsioni o'rganilgan. O'rganilish natijasida yoshlar uchun turli formulalar yordamida energiya sarfini xamda ratsion tarkibini ishlab chiqish usullarini aniqlash lozim ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Asosiy almashinuv, komfort xarorat, emotsional xolat, yuza qoidasi, kasbning o'ziga xosligi, qalqonsimon bez, jismoniy faollik, metabolizm.*

Аннотация: *В данной статье речь идет о физиологии основного обмена у лиц молодого возраста, а также изучается пищевой рацион, основанный на их суточных энергозатратах. В результате исследования дана информация о том, что необходимо определить методы развития энергоемкости и состава рациона для молодежи с использованием различных рецептур.*

Ключевые слова: *Основной обмен, комфортная температура, эмоциональное состояние, поверхностное правило, специфика профессии, щитовидная железа, двигательная активность, обмен веществ.*

Abstract: *This article is about the physiology of the basic metabolism in young people, and the nutritional ration based on their daily energy consumption is studied. As a result of the study, information was given that it is necessary to determine the methods of developing energy consumption and ration composition for young people using various formulas.*

Key words: *Basic exchange, comfort temperature, emotional state, surface rule, specificity of profession, thyroid gland, physical activity, metabolism.*

YOSHLARDA ASOSIY ALMASHINUV FIZIOLOGIYASI.

Modda va energiya almashinuvining intensivligi umuman organizmning individual xususiyatlariga va holatiga (jinsi, yoshi, gavda vazni va bo'yi, ovqatlanish sharoiti, ovqat turi, muskul ishi, endokrin bezlar, nerv sistemasi va ichki organlar — jigar, buyraklar, hazm yo'lining holati va boshqalarga), shuningdek tashqi muhit sharoitiga (temperatura, barometrik bosim, havoning namlik darajasi va tarkibi, nur energiyasining ta'siri va shunga o'xshashlarga) bog'liq. Energiya almashinuvi jadalligi turli omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Shuning uchun ham har xil odamlardagi energiya almashinuvini solishtirish uchun asosiy almashinuv degan o'lchov, kattalik qabul qilishgan. *Asosiy almashinuv* - deb tirik organizmning fiziologik tinch holatda turgandagi energetik sarfiga aytiladi.

Fiziologik tinch holatga quyidagilar kiradi:

Asosiy almashinuvni aniqlash uchun tekshiriladigan odam:

- 1) muskullari tinch turadigan holatda bo'lishi (muskullarini bo'sh qo'yib yotishi), hayajonlantiruvchi omillar ta'sir etmasligi;
- 2) Komfort harorat (18-20°C issiqlik), bunda inson sovqatmaydi va issib ham ketmaydi;
- 3) yotgan holatda (jismoniy tinchlik, lekin uxlamasligi kerak);
- 4) Emotsional tinch holat chunki emotsional stress holatda metabolizm kuchayib ketadi;
- 5) Naxorda, ya'ni oxirgi marta ovqatlanganidan 12-16 soat o'tgandan so'ng.

Asosiy almashinuv kattaligi jinsga, yoshga, bo'y uzunligiga va tana vazniga bog'liq. O'rtacha yoshda, bo'y uzunligi va vaznga ega bo'lgan erkaklarning asosiy almashinuvi kattaligi 1 kg vazniga 1 soatda 1kkaloriyaga teng. Ayollarda bu ko'rsatkich¹ erkaklarga nisbatan 10% kam, bolalarda esa katta yoshdagilarga nisbatan yuqori. Gavdaning 1 kg vazniga hisob qilingan asosiy almashinuv intensivligi bolalarda katta yoshli kishilardagiga nisbatan ancha yuqori. 20-40 yoshdagi organizm holatida keskin o'zgarishlar ro'y bermasa (vazn aytarlik o'zgarmasa va qandaydir kasalliklar bo'lmasa), asosiy almashinuv miqdori ancha doimiy bo'ladi. Masalan, Suns o'zidagi asosiy almashinuvni 22 yil mobaynida *vaqti-vaqti bilan aniqlab*, uning o'zgarishi o'rtacha miqdorda 7% dan oshmasligini payqagan. Qarilik davrida asosiy almashinuv kamayadi.

Yuza qoidasi. Asosiy almashinuv kattaligi 1kg tana vazniga nisbatan olinganda sutemizuvchilarda keskin farq qiladi: hayvon qancha kichik bo'lsa unda asosiy almashinuv shuncha katta. Agar modda almashinuv jadalligi 1m² tana yuzasiga nisbatan olinsa ulardagi farq uncha katta bo'lmaydi. Maks Rubner 1868 yili energiya sarfi tana yuzasi kattaligi to'g'ri proporsional ekanligini aniqladi. Tana yuzasi qancha katta bo'lsa organizmda issiqlik yo'qotish shuncha yuqori bo'ladi, natijada yo'qotilgan issiqlikni qoplash uchun organizm ko'proq issiqlik ishlab chiqara boshlaydi. Odamlarda asosiy almashinuvni tana yuzasiga bo'lgan nisbati deyarli turg'un holatda bo'ladi.

Tana yuzasini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$R=K \cdot m$$

bu erda m-tananing kg lardagi massasini, K-konstanta, odamlarda 1,2,3 gateng.

Yuza qoidasi ham nisbiy to'g'ri xisoblanadi, chunki tana yuzasi bir xil bo'lsa ikki kishida metabolizm jadalligi har xil bo'lishi mumkin. Bunday bo'lishiga nerv, endokrin va boshqa tizimlarni holati sabab bo'lishi mumkin. Gavda yuzasi bir xil bo'lgan ikki individda modda almashinuv intensivligining ancha farq qilishi «yuza qonuni» ning ahamiyati mutlaq bir narsa emasligidan guvohlik beradi. Oksidlanish jarayonlarining darajasi gavda yuzasidan issiqlik chiqishidan ko'ra hujayralarning issiqlik ishlab chiqarishiga ko'proq bog'liq. Hujayralarning issiqlik ishlab chiqarishi hayvonlar turining biologik xususiyatlariga va butun organizm holatiga, organizm holati esa nerv sistemasining faoliyatiga va endokrin sistemasining holatiga bog'liq.

Gavda vazni, bo'yu, yoshni yoki gavda yuzasini bilib olib, odamlardagi asosiy almashinuv intensivligini maxsus formula yoki tablitsalar yordamida aniqlash mumkin. Dreyer formulasiga binoan asosiy almashinuvning *kkaI* hisobidagi sutkalik miqdori (YA) quyidagicha bo'ladi: $D = N \cdot A / K$

Bu erda № — odamning gavda vazni (gramm hisobida), A — yoshi, / (K — konstanta (erkaklar uchun 0,1015, ayollar uchun 0,1129).

Formula va tablitsalar statistik yo'l bilan tuzilgan, ya'ni jinsi, yoshi, bo'yi har xil kishilarning asosiy almashinuvini qaytaqayta aniqlab chiqarilgan o'rtacha raqamlardir. Gavda tuzilishi normal bo'lgan sog'lom odamlarning asosiy almashinuvini shu tablitsalarga qarab hisoblash energiya sarfi hakida taxminan to'g'ri ma'lumot beradi. Qalqonsimon bez ortiqcha ishlaganda va boshqa ba'zi kasalliklarda asosiy almashinuvni aniqlash shu vazn, bo'yu, yosh va gavda yuzasiga mos kelmaydigan darajada g'oyat yuksak ma'lumotlarni beradi. Qalqonsimon bez etarli ishlamaganda (miksedema), gipofiz, jinsiy bezlar funksiyasi susayganda asosiy almashinuv kamayadi. Uyqu vaqtida energiya almashinuv intensivligi tiyraklik davriga nisbatan 8-10% kamayadi, chunki uyqu vaqtida muskullar maksimal darajada bo'shashadi. Gavda temperaturasining ko'tarilishi energiya almashinuviga ancha katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, odamning gavda temperaturasi 1°C ko'tarilsa, energiya sarfi o'rta hisob bilan 10-11% ortadi. Iqlimiy sharoit ta'sirida ham asosiy almashinuv miqdori o'zgaradi: tropiklarda o'rta geografik kengliklardagiga nisbatan 10-20% kam va shimolda sovuq vaqtda ortiq bo'ladi.

Energiyani kunlik sarfi. Sog'lom odam organizmidagi kunlik energetik sarf asosiy almashinuvdan farqlanadi va u quyidagi qismlardan tarkib topgan: asosiy almashinuv; ishchi qo'shimcha, ya'ni ma'lum bir ishni bajarish uchun sarflangan energiya; ovqatli moddalarning spetsifik dinamik ta'siri. Bir sutkada ajralib chiqqan energiyalarning yig'indisi ishchi almashinuvni tashkil qiladi. Har xil jismoniy xarakatlarda ajralib chiqadigan energiya- *jismoniy faollik* koefitsient bilan aniqlanadi, u umumiy energetik sarfni asosiy almashinuv kattaligiga bo'lgan nisbat bilan aniqlanadi. Muskullar ishlaganda energiya sarfi bir muncha oshadi. Shu sababli sutkani bir qismini jismoniy mehnat va harakatda o'tkazadigan sog'lom odamning bir sutkadagi energiya sarfi asosiy almashinuvdan ancha ortiq bo'ladi. Bu energiya sarfining ortishi *ish qo'shimchasini* tashkil etadi, muskullar qancha zo'r berib ishlasa, ish qo'shimchasi shuncha katta bo'ladi. Muskullar ishlaganda issiqlik energiyasi va mexanik energiya yuzaga chiqadi. Mexanik energiyaning ish bajarish uchun ketgan barcha energiyaga nisbati *foydali ish koefitsienti* deb ataladi va protsent bilan ifodalanadi. Odam ishlaganda foydali ish koefitsienti 16% dan 25% gacha bo'lib, o'rta hisobda 20% ga teng, biroq ayrim hollarda esa bundan ham ortiq bo'lishi mumkin.

Foydali ish koefitsienti bir qancha sharoitlarga qarab o'zgaradi. Masalan, mashq qilmagan odamlarda bu koefitsient mashq qiluvchilardagiga nisbatan ancha kam bo'lib, mashq qilgan sayin ortib boradi. Organizm muskullari bilan qancha zo'r berib ishlasa, energiya sarfi shunchalik ortiq bo'ladi. Bu quyidagi dalillardan ko'rinib turib di: asosiy almashinuv sharoitida energiya sarfi gavdaning 1 kg vazniga 1 soatda 1 *kkaI* bo'lsa, odam

tinch o'tirganda energiya sarfi 1 kg vaznga o'rta hisob bilan 1,4 kkal bo'ladi; ish bajarilmay tik turilganda 1,5 kkal, engil ish bajarilayotganda (yozuvchi va shoirlar, tikuvchilar, o'qituvchilar) - 1,8-2,5 kkal; yurish bilan bog'langan ozgina muskul ishida (doktorlar) -2,8-3,2 kkal; o'rtacha og'irlikdagi muskul ishi bilan bog'liq bo'lgan mehnatda (hunarmandlar) - 3,2-4 kkal; og'ir jismoniy mehnatda (quruvchilar, o't o'chiruvchilar, dehqonlar, va boshqalar) 5-7.5 kkal energiya sarflanadi.

O'tirgan holda engil ish bajarish uchun bir sutkada 2400-2600 kkal jismoniy zo'riqish bilan bajarilayotganda 3400-3600kkal, o'ta og'ir jismoniy mehnat bilan shug'ullanganda 4000-5000 kkal va undan ortiq energiya zarur. Chiniqqan sportchilarda qisqa vaqt ichida jadal mashq bajargan paytlarida ishchi energetik sarf asosiy almashinuvga nisbatan 20 marotabagacha ortishi mumkin. Jismoniy zo'riqish paytda umumiy energetik sarfni sarf bo'layotgan O₂ miqdori bilan aniqlab bo'lmaydi, chunki energiyaning bir qismi glikoliz (anaerob) natijasida hosil bo'ladi. Kislarodga bo'lgan ehtiyoj va iste'mol qilinayotgan O₂ o'rtasidagi farq anaerob jarayon xisobiga hosil bo'layotgan energiyaga to'g'ri keladi va *kislarod qarzi* deb ataladi. Jismoniy ish to'xtagandan so'ng ham O₂ iste'mol qilinishi yuqori qoladi, chunki bu paytda kislarod qarzi organizmga qaytariladi. Ushbu kislarod anaerob metabolism hisobiga hosil bo'lgan maxsulot-sut kislotasini pirovinograd kislotasiga aylantirish, energetik birikma ya'ni kreatinfosfatni fosforlash va O₂ zaxirasi bo'lgan mioglobinni sintezlash uchun sarflanadi.

Energiya sarfiga qarab barcha kasb egalarini 5 ga bo'lish mumkin. Bu guruhlarining sutkadagi energiya sarfi quyidagicha.

Gurux	Kasbining o'ziga hosligi	Jismoniy faollik koefitsienti	Sutkalik energiya sarfi kDj (kkal)
Birinchi	Aqliy mehnat	1,4	9799-10265 (2100-2450)
Ikkinchi	Engil jismoniy mehnat	1,6	10475-11732 (2500-2800)
Uchinchi	O'rtacha og'irlikdagi jismoniy mehnat	1,9	12360-13827 (2950-3300)
To'rtinchi	Og'ir jismoniy mehnat	2,2	14246-16131 (3400-3850)
Beshinchi	O'ta og'ir jismoniy mehnat	2,5	16131-17598 (3850-4200)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. U.Z.Qodirov „Fiziologiyadan amaliy mashg'ulotlar . Toshkent 1995-yil
2. S.Q.Sodiqov „O'quvchilar fiziologiyasi va gigiyenasi. Toshkent „O'qituvchi"1992-yil
3. w.w.w.forum.uz.ziyo.com
4. w.w.w.mezon .uz

УДК: 616.366-003.7-06-07-089

**СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ХИРУРГИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ СИНДРОМА МИРИЗЗИ
(ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)**

Гайбуллаев Темурбек Зокир угли

Ташкентская медицинская академия

Магистр, Ташкентская медицинская академия, факультет общей хирургия

Узбекистан, Ташкент

Акбаров М.М

44 Профессор, доктор медицинских наук, руководитель отделения

Гепатобилиарная хирургия и трансплантаций печени №1

Нишанов М.Ш

Кандидат медицинских наук, заведующий отделением Гепатобилиарная

хирургия и трансплантаций печени №1

Усмонов А.А

врач отделения ГБХ и ТП №1.

Аннотация: Синдром Мириizzi является редкое и трудно диагностируемое заболевание, вызывающее холестаза из-за внешней компрессии общего желчного протока, вторичной по отношению к закупорке желчных камней в мешке Гартмана. Эта хроническая закупорка приводит к воспалению и изъязвлению с образованием холецистобилиарных и/или желчно-кишечных свищей. Эта патология сама по себе увеличивает риск повреждения желчевыводящих путей, связанного с холецистэктомией, что представляет собой проблему даже для опытных хирургов.

Ключевые слова: синдром Мириizzi, гепатикохоledох, цистогепатикобилиарный свищ, компьютерная томография, ретроградная холангиопанкреатография..

Цель исследования. Провести ретроспективный анализ последних литературы лечения синдром Мириizzi.

Материалы и методы исследования. Проведен анализ 17 источников зарубежной литературы по данной теме.

Результат. Несмотря на широкий спектр хирургических методов лечения этого синдрома, результаты лечения на сегодняшний день остаются не совсем удовлетворительными.

Сегодняшний день остаются не вполне удовлетворительными. Наличие синдрома Мириizzi у пациента во время операции повышает риск интра- и послеоперационных осложнений. Трудности в диагностике синдрома Мириizzi, риск повреждения желчного протока, ряд наблюдений, а также достаточно широкий

спектр методов хирургического лечения определяют актуальность изучения данной проблемы. Внедрение современных методов диагностики РС и разработка рациональной хирургической тактики, в зависимости от вида синдрома, позволит улучшить лечение пациентов с данным осложнением желчнокаменной болезни.

ВВЕДЕНИЕ

Синдром Мириizzi является довольно редким заболеванием желчных протоков и, по данным литературы, диагностируется у 0,5-5% пациентов с различными формами желчнокаменной болезни. Компрессия общего желчного протока трансформируется в стриктуру, если хирургическое вмешательство откладывается и заболевание становится

затяжным, при котором периоды благополучия чередуются с обострениями.

Со временем стенки желчного пузыря и гепатикохоледоха сближаются ближе к полному контакту, чему способствует наличие большого камня в кармане Гартмана. Под влиянием его массы уже усугубляются уже имеющиеся трофические нарушения, происходит перфорация (пролежень) стенки желчного пузыря и желчного протока, с последующим формированием везикохоледохеального свища. Через это патологическое сообщение

кальцификаты устремляются из желчного пузыря в просвет гепатикохоледоха, диаметр фистулы увеличивается из-за потери тканей в зоне компрессии. В результате происходит сужение проксимального отдела гепатикохоледоха устраняется, желчный пузырь уменьшается в объеме, его шейка, карман Гартмана и значительная часть тела исчезают. В конце концов, желчный пузырь напоминает дивертикулородное образование, сообщающееся с просветом внепеченочного желчного протока через широкий свищ. Кистозный проток отсутствует в подавляющем большинстве наблюдений [1,2,3,4].

В последнее время большое внимание уделяется классификации синдрома Мириizzi синдрома Мириizzi, методам предоперационной диагностики, а также различным методам хирургической коррекции, включая использование видеолапароскопических техники. Различные авторы предложили несколько классификаций синдрома Мириizzi. Наиболее распространенными классификациями на сегодняшний день являются С. McSherry et al., Lai E. C. H., Lau W. Y. и T. Nagakawa et al [5].

А. Csendes et al. [1] в 1989 г. к вышеназванным типам добавили еще два, приняв за основу степень разрушения пузырно-холедохеальным свищем стенки ОПП. Данная классификация основывалась на том, что при I типе синдрома Мириizzi, как и в классификации McSherry, имеется наружное сдавление общего печеночного протока вклиненным в пузырный проток конкрементом. Следующие стадии (II, III и IV) характеризовались наличием холецистохоледохеальной фистулы, причем при II стадии ее размеры не превышали 1/3 окружности гепатикохоледоха, при III стадии размеры фистулы варьировали от 1/3 до 2/3 окружности и при IV стадии

наблюдалось полное разрушение стенки желчного протока. Особенностью данной классификации являлось то, что в зависимости от стадии синдрома Мириizzi авторы предлагали методы коррекции, правда только хирургические (?).

Синдром Мириizzi является сложным осложнением желчнокаменной болезни для

диагностировать и лечить. Холецистэктомия при синдроме Мириizzi часто заканчивается

интраоперационным повреждением общего желчного протока с образованием дефекта в его стенке. Иногда узкую дистальную часть общегожелчного протока (ОЖП), расположенную подкамнем, принимают за пузырьный проток, а расширенную часть ОПП за продолжение кармана Гартмана. Смертность достигает 17%. Долгосрочные результаты также остаются неудовлетворительными - у 20% пациентов возникают стриктуры проксимального гепатикохоледоха [6]. Хирургия при синдроме Мириizzi очень сложна, и в литературе ее называют в литературе как "ловушка желчного протока".

В этих ситуациях желчный пузырь уменьшен, фиброзно изменен, с плотной нфильтрацией в треугольнике Кало Кроме того, анатомия желчного протока очень искажена, и очень

легко перепутать общий печеночный проток с кистозным протоком, что может привести к неизбежной травме печеночного протока [7]. Калькулез, фиксированный в Карман Гартмана, сдавливающий желчные протоки, затрудняет доступ к треугольнику Кало [8,9]. В связи с прогрессом хирургии желчевыводящих путей, увеличением частоты желчнокаменной болезни, интерес к этой проблеме возрос в последние годы. Однако до сих пор нет единого мнения о диагностике и тактике хирургического лечения [10,11]. Ультразвуковое исследование позволяет диагностировать синдром Мириizzi до операции в 8,6 – 23,8% случаях (Р.М. Ахмедов, 2006; А.Д. Джорбеков, 2006; Э.И. Гальперин, 2006; В.И. Лупальцев, 2006; Е.Н. Майзельс, 2010; В.А. Ступин, 2006; Т.Nagakawa, 1997). При эндоскопической холангиопанкреатографии (ЭРХПГ) данную патологию выявляют до операции у 33,0 – 58,3% больных, что определяет объем и метод оперативного вмешательства (Б.С. Запорожченко, 2006; В.И. Лупальцов, 2010; О. J. Shah, 2001; J. Waisberg, 2005). По результатам УЗИ выявляются такие признаки, как уменьшенный желчный пузырь при наличии расширенных внутрпеченочных протоков при нормальном размере дистального общего желчного протока, позволяют заподозрить СМ на начальном этапе обследования . В последние годы были разработаны неинвазивные

методы предоперационной диагностики МС, такие как спиральная компьютерная томография, магнитно-резонансная холангиопанкреатография, развиваются [13.14]. Nagakawa T. et al. (1997) отмечают, что компьютерная томография (КТ) не дает никакой дополнительной информации по сравнению с абдоминальным УЗИ или ЭРХПГ [10]. Только 79% камней, обнаруженных в желчном

пузыре с помощью УЗИ, могут быть визуализированы с помощью КТ [10]. Тем не менее, этот метод исследования

играет важную роль в дифференциальной диагностике с холангиокарциномой, раком желчного пузыря, сдавлением общего желчного протока метастазами в печеночный холмик [13]. Существует и другая точка зрения на этот метод исследования. Nagakawa T. et al. (1997) в своей работе отметили высокую чувствительность, специфичность и точность, 93%, 98% и 94%, соответственно, спиральной компьютерной томографии после проведения инфузионной холангиографии.

Магнитно-резонансная холангиопанкреатография является новым и еще малоизученным методом для диагностики МС[13].

При анализе вариантов лечения синдрома Мириззи I типа авторами предлагались различные операции. Например, A.Scendes et al. (1989) при I типе синдрома Мириззи у 6 больных выполняли холецистэктомию, а у 17 - холецистэктомию в сочетании с дренированием холедоха. H.Baer et al. (1990) при лечении данной патологии выполняли "открытую" холецистэктомию, в ряде случаев сочетая ее с ревизией гепатикохоледоха. Другие авторы (D.Cottier et al. (1991) предлагают при I типе синдрома Мириззи выполнять субтотальную холецистэктомию, стремясь избежать повреждения гепатохоледоха и дополнять ее ревизией общего желчного протока. Другие авторы также отмечают технические сложности при операциях при синдроме Мириззи I типа. Например, T.Nagakawa et al., (1997) при I стадии рекомендовали проведение "открытой" холецистэктомии "от дна". M.Sare et al. (1998) предприняли попытки проведения ЛХЭ у 3 больных с I типом синдрома Мириззи и наблюдали в одном случае развитие желчеистечения из дефекта гепатикохоледоха, который образовался на 3-е сутки в зоне сдавленного общего печеночного протока ущемленным конкрементом шейки желчного пузыря. В.С.Савельев и В.И.Ревякин (2003) рекомендуют хирургическое лечение I типа синдрома Мириззи и наиболее часто выполняли полное удаление желчного пузыря от шейки или от дна, в большинстве случаев в сочетании с дренированием гепатикохоледоха по Керу. При этом авторы отмечали возникновение различной протяженности стриктур общего печеночного протока, осложненных механической желтухой, в сроки от 8 месяцев до 3 лет после операции у 19,5% больных. По данным других авторов, повторные реконструктивные операции по поводу стриктуры гепатикохоледоха в отдаленные сроки после оперативного лечения больных с I типом синдрома Мириззи необходимы у 11,1—20,8% больных (O.Jimenez et al., 1989; A.Scendes et al., 1990).

Данная ситуация заставляет хирургов искать методы операций, позволяющих устранять стриктуру гепатикохоледоха во время первой операции. Так, P.Enzler et al.(1984)., O.Jimenez et al. (1989) предлагают применять гепатикоеюностомию.

В.С.Савельев и В.И.Ревякин (2003) при наличии стенозирующей формы синдрома Мириззи I типа с успехом применяли пластику холедоха на потерянном дренаже.

Во время операции при подозрении на МС этот метод диагностики позволяет в реальном времени построить многоплоскостное изображение желчных протоков под разными углами, но в настоящее время он остается недоступным и в целом, несмотря на разнообразие диагностических методов, часто не удается диагностировать МС до операции. Такая ситуация во время операции может дезориентировать хирурга и создать опасность травмы общего желчного протока, ошибочно принятого за желчный пузырь или широкий кистозный проток. Таким образом, отсутствие универсальных редоперационных методов исследования МС требует разработки оптимальной диагностической тактики. В современной хирургии существует два основных направления в лечении МС в современной хирургии: рентгеноэндоскопические методы, оперативные вмешательства. Рентгеновские эндоскопические методы могут быть использованы как на первом этапе хирургического вмешательства в качестве предоперационной подготовки или как самостоятельный метод лечения пациентов с МС в случае высокого анестезиологического риска [11, 15]. По данным литературы, методы оперативного доступа и варианты операций при синдроме Мириззи существенно различаются: например, некоторые авторы относят этот синдром к абсолютным противопоказаниям к лапароскопической холецистэктомии [1, 2, 13]. Lledó J. B. et al. (2014) в обзоре литературы по использованию лапароскопической техники при РС указывает на 40% конверсию доступа, 20% осложнений и 6% повторных операций [17]. Однако существует ряд публикаций, авторы которых указывают на возможность использования лапароскопической техники

при определенных условиях. Так, Lai E. C. H., Lau W. Y. (2006) указывают на возможность использования лапароскопического подхода опытным хирургом только при первом типе МС [17]. Наиболее распространенной операцией при первом типе МС является холецистэктомия, дополненная дренированием общего желчного протока [11, 17]. При наличии билиарного свища необходимо его разделить с последующим восстановлением целостности общего желчного протока. В качестве одного из вариантов закрытия дефекта общего желчного протока, используемого большинством хирургов, является устранение дефекта стенки общего желчного протока со специально оставленной частью желчного пузыря [10, 11]. Однако, Waisberg J. et al. (2005) предполагают, что теоретически логично, что сохраненная ткань желчного пузыря может увеличить риск развития остаточного холедохолитиаза [28].

Пугаев А.В. и др. (2019) при наличии холецистобилиарного свища рекомендуется выполнять пластику общего желчного протока временными стентами. Авторы объясняют необходимость временного стентирования наличием длительных воспалительных изменений в области гепатодуоденальной связки, благодаря чему

МС можно рассматривать как "модель повреждения желчных протоков". При значительном повреждении стенки общего желчного протока, вовлеченного в свищ, ряд хирургов указывают на необходимость формирования билиодигестивного анастомоза: холедохо-дуоденоанастомоз, холедохо-еюноанастомоз, холецистохоледохо-еюноанастомоз [17].

Во время операций по поводу МС сохраняется высокий риск развития интра- и послеоперационных осложнений [10,11]. Наиболее распространенным осложнением после операции по поводу МС является стриктура общего желчного протока. По данным Zhang J., Perera P., Beard R. (2020) из 46 пациентов, оперированных по поводу МС, стриктура общего печеночного протока развилась у 6,5%. Результаты операций на так называемом потерянном дренаже, выполненных у четырех пациентов с первой формой МС ("стенозирующая" форма), Vorobey A. V. et al. (2018) оцениваются как положительные [17]. Причины для удаления дренажей из протоков указываются сразу же, например, развитие желтухи, обструкция дренажей, вызванная образованием мелких камней, отложение солей на стенках дренажей и накопление гнойного детрита, что приводит к повторным приступам холангита. Наибольшую сложность для хирургического лечения представляют пациенты с значительным разрушением стенки общего желчного протока. Отмечается, что чем выше степень деструкции стенки общего желчного протока (III - IV тип МС по С.К. McSherry et al, 1982), тем выше уровень послеоперационной смертности [11]. При III - IV типе МС большинство хирургов придерживаются позиции о необходимости наложения холедохоеюностомии.

Таким образом, на сегодняшний день МС является одним из осложнений желчнокаменной болезни, в диагностике и хирургической тактике которого существует ряд нерешенных вопросов. Несмотря на широкий спектр хирургических методов лечения этого синдрома, результаты лечения на сегодняшний день не вполне удовлетворительными. Наличие МС у пациента во время операции повышает риск интра- и послеоперационных осложнений. Трудности диагностики синдрома Мириззи, опасность

повреждения желчного протока, малое количество наблюдений, а также достаточно широкий спектр методов хирургического лечения определяют актуальность изучения данной проблемы. Внедрение современных методов диагностики МС и разработка рациональной хирургической тактики, в зависимости от вида синдрома, позволит улучшить лечение больных с этим осложнением желчнокаменной болезни.

желчнокаменной болезни.

Таким образом, синдром Мириззи является осложнением желчнокаменной болезни, в

диагностике и хирургическом лечении которой существует ряд нерешенных вопросов, связанных как с определением оптимальной лечебно-диагностической тактики, так и с использованием альтернативных методов лечения:

- на сегодняшний день не существует единой общепринятой тактики в отношении

диагностики и хирургической коррекции синдрома;

- результаты лечения остаются неудовлетворительными;

- высока частота послеоперационных осложнений и летальности;

- нет четких показаний и противопоказания к лапароскопическим операциям;

- в мировой литературе нет данных о дренировании желчных протоков лапароскопическим методом;

- в мировой литературе нет данных о дренировании желчных протоков лапароскопическим методом при синдроме Мириззи [17].

Дальнейшая разработка алгоритмов диагностических и лечебных мероприятий при выявлении синдрома Мириззи позволит избежать большого количества повреждений желчных протоков и других жизненно важных анатомических структур, снизить частоту перехода к лапаротомии при осложненных формах холецистита и исключить осложнения, связанные с нарушением оттока желчи.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Bellamlih H. et al. Mirizzi's syndrome: a rare cause of biliary tract obstruction: about a case and review of the literature //The Pan African medical journal. – 2017. – Т. 27. – С. 45-45.

2. Gafurovich N. F. et al. Analysis of the results of surgical treatment of “fresh” damage to the bile ducts //European science review. – 2018. – №. 11-12.

3. Pugaev A. V. et al. Mirizzi syndrome management (in Russian only) //Khirurgiia. – 2019. – №. 3. – С. 42-47.

4. Xu X. et al. Mirizzi syndrome: our experience with 27 cases in PUMC Hospital //Chinese Medical Sciences Journal. – 2013. – Т. 28. – №. 3. – С. 172-177.

5. Ergashev F. R. et al. Damage to the main bile ducts: the frequency and causes of their occurrence, risk factors, classification, diagnosis and surgical tactics (literature review) //International scientific review of the problems of natural sciences and medicine. – 2019. – P. 82-96.

6. Tarasenko S. V. et al. Clinical case of endovideoscopic treatment of choledocholithiasis complicated with Mirizzi's syndrome //IP Pavlov Russian Medical Biological Herald. – 2018. – Т. 26. – №. 4. – С. 533-537.

7. Tataria R. D. et al. Mirizzi's syndrome: A scoring system for preoperative diagnosis //Saudi journal of gastroenterology: official journal of the Saudi Gastroenterology Association. – 2018. – Т. 24. – №. 5. – С. 274.
8. Abkian E. et al. S3326 A Rare Case of Type 1 Mirizzi Syndrome //Official journal of the American College of Gastroenterology| ACG. – 2020. – Т. 115. – С. S1734
9. Zhang J., Perera P., Beard R. A Case of Mirizzi Syndrome with Erosion into the Common Hepatic Duct //Journal of Gastrointestinal Surgery. – 2020. – С. 1-2.
10. Abkian E. et al. S3326 A Rare Case of Type 1 Mirizzi Syndrome //Official journal of the American College of Gastroenterology| ACG. – 2020. – Т. 115. – С. S1734.
11. Akbarov M. M. The analysis of surgical treatment of post-traumatic scar strictures Of magisterial bile ducts and biliodigestive anastomoses //Central Asian Journal of Medicine. – 2018. – Т. 2018. – №. 2. – С. 5-19.
12. Bellamlih H. et al. Mirizzi's syndrome: a rare cause of biliary tract obstruction: about a case and review of the literature //The Pan African medical journal. – 2017. – Т. 27. – С. 45-45. 8. Beltrán M. A. Mirizzi syndrome: history, current knowledge and proposal of a simplified classification //World journal of gastroenterology: WJG. – 2012. – Т. 18. – №. 34. – С. 4639.
13. Chen H. et al. Current trends in the management of Mirizzi Syndrome: A review of literature //Medicine. – 2018. – Т. 97. – №. 4.
14. Ergashev F. R. et al. Damage to the main bile ducts: the frequency and causes of their occurrence, risk factors, classification, diagnosis and surgical tactics (literature review) //International scientific review of the problems of natural sciences and medicine. – 2019. – P. 82-96.
15. Davlatov, S., Rakhmanov K., Qurbonov N., Vafayeva I., & Abduraxmanov D. (2020). Current State of The Problem Treatment of Mirizzi Syndrome (Literature Review)// International Journal of Pharmaceutical Research, 12, – P. 1931-1939. DOI:<https://doi.org/10.31838/ijpr/2020.SP2.340>
16. Valderrama-Treviño A. I. et al. Updates in Mirizzi syndrome //Hepatobiliary surgery and nutrition. – 2017. – Т. 6. – №. 3. – С. 170.
17. Khadjibaev A., Khadjibaev F., Tilemisov S. Retrograde and percutaneous transhepatic interventions in benign mechanical jaundice //HPB. – 2019. – Т. 21. – С. S888

OILADA BOLA TARBIYASI MASALASINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TOMONDAN O`RGANILISHI

Do`sjonova Nilufar Rustam qizi

3-bosqich. Bakalavr

Ajiniyoz Nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti

Annotatsiya: *Maqolada oila haqida sharq va g`arb mamlakatlaridagi ta`lim-tarbiya, mutafakkir olimlarimizning oilaviy hayot borasidagi tasavvurlari, bolalarni qanday tarbiyalash kerakligi, ularni hayotga tayyorlash sirlari hamda bugungi kundagi zamonaviy oila haqidagi qarashlar yoritib o`tilgan.*

Kalit so`zlar: *Oila, oila pedagogikasi, oila psixologiyasi, chet el, Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlari, rus pedagoglari. «Qur`oni Karim » va hadislar, “Avesto”, grammatist, kiforist, didasko, pedagog, palestra, efebiya, efeblar, didaktika.*

«Bola tug`ilgan kundan boshlab, oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an`analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhim farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini angelaydi his etadi».

(O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug`aniyevich Karimov)

Jamiyat uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblangan ota-ona va bola, er va xotin, oila a`zolarining o`zaro munosabatlari bilan bog`liq bo`lgan muammolar aynan oila negizida yuzaga keladi. Shuning uchun ham qadim zamonlardan boshlab oila, undagi munosabatlar masalalari har bir davrning donishmand, olim, mutafakkirlari tomonidan o`rganilib kelinganligini va ularning qarashlarida bu masalalarning yoritilganligini kuzatamiz. Bu qarashlarni, fikrlarni sizning hukmingizga havola etish orqali oila, o`zaro munosabatlar muammolari bizning hayotimizda doimo muhim masalalar sirasiga kirishini qayd etamiz. Inson va insoniy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg`or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazida asosiy masalalardan bo`lib kelgan.

Oila va undagi bola tarbiyasi G`arb mamlakatlaridan biri bo`lgan Yunoniston hamda uning shaharlaridan boshlanadi. Ayniqsa, qadimgi Yunonistonda madaniyat, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlandi. U yerdagi tarbiya ishlari esa davlat ixtiyorida bo`lib, uning asosiy maqsadi spartaliklarning bolalarini baquvvat, jismoniy sog`lom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalashdan iborat edi. Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda yashar, keyin «agella» deb ataluvchi davlat muassasasida 18 yoshga etguncha tarbiyalanar edi. Ular «pedonom» rahbarligida jismoniy sog`lom bo`lish uchun turli mashqlar bilan chiniqtirilar, sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidashga, og`riqqa bardosh 18 berishga o`rgatilar edi. Ta`limning asosiy qismini harbiy gimnastika mashqlari egallar edi. Qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf olim Plutarx Sparta

maktablaridagi ta'lim-tarbiya haqida gapirib, shunday deydi: «O'qish va yozishga kelganda bolalarga faqat ularning eng zaruri o'rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so'zsiz itoat qildirishni, chidamli bo'lishni va yengish ilmini o'rgatishni ko'zda tutar edi». Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yo'l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar edilar. Shuningdek, bolalarni savol-javob jarayonida aniq, qisqa va lo'nda qilib javob berishga o'rgatib borilgan. Spartada 18—20 yoshga yetganda yigitlar «Efeblar» o'spirinlar guruhida harbiy xizmatni o'taganlar. Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan. Ularni harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Chunki erkaklar jangga ketganlarida ular shaharni qo'riqlab, qullarning itoat saqlashini ta'minlar, ular hatto jangda ham qatnashar edilar

Afinada esa hayot, tartib, intizom, maktab tizimi va undagi ta'lim-tarbiya Spartanikidan butunlay farq qilar edi. Afinada eramizdan ilgarigi V-IV asrlarda madaniyat barq urib o'sdi. Fan, me'morchilik va haykaltaroshlik taraqqiy qildi. Afinada bolalar 7 yoshga yetguncha uyda tarbiyalanar, o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qatnar, qizlar esa oilada ona ko'magida uy-ro'zg'or ishlariga o'rgatilar edi. Afinada xotin-qizlarning hayoti uy doirasidan chiqmas, asosan. ichkarida o'tar edi. Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13-14 yoshgacha «grammatist» (savod o'rgatish ma'nosida), «kifarist» (grekcha musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarida tahsil olganlar. Bu maktablar xususiy bo'lib, o'qish pullik edi. Shuning uchun fuqarolarning bolalari bu maktablarda ta'lim ololmas edilar. Bu maktablarda «didaskol» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar. (men o'qitaman, degan ma'nodagi «didasko» so'zidan keyinroq «didaktika» — ta'lim nazariyasi kelib chiqqan). O'g'il bolalarni maktabga qullardan biri boshlab borar edi, bunday qul pedagog deb atalar edi («pays» - bola, «agogeyn» - etaklab borish degan so'zlardan olingan). Grammatist maktabida o'qish, yozish va hisoblash o'rgatilar edi. O'qishda harflarni hijjalab o'qitish usuli, so'ng qo'shib o'qish usulidan foydalanganlar. Yozuvni o'rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalanganlar. Ular ingichka cho'p yordamida yozganlar. Sonlarni barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan hisoblaganlar. Kifarist maktabida o'g'il bolalarga adabiy bilim va estetik tarbiya berilar, musiqa, ashula, deklomatsiyalar o'rgatilar edi. O'g'il bolalar 13-14 yoshga yetganlaridan keyin «palestra» («kurash maktabi») deb atalgan o'quv yurtiga o'tar edilar. Bu o'quv yurtida ular ikki-uch yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanar edilar. Masalan, sakrash, yugurish, kurash tushish, disk va nayza irg'itish, suvda suzish kabilar o'rgatilardi. «Palestra»da o'qish tekin edi, shuning uchun ham yoshlarning ko'pchilik qismi shu yerda o'qish bilan cheklanib qolar edi. Afinada 18 dan 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar efeblar qatoriga o'tib, harbiy xizmatga tayyorlanar va o'zlarining siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirar edilar.

Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining ham tug'ilishiga imkoniyat yaratdi. Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Aristotel va Demokritlar asos soldilar. Ular o'z qarashlari bilan ta'lim-tarbiya

rivojlanishiga juda katta hissa qo'shdilar. Quyida bu faylasuf olimlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Suqrot (eramizdan avvalgi 469-399 yillar) o'zining demokratik ijtimoiy kelib chiqishiga qaramay konservativ zamindor aristokratlarning ideologi edi. U tarbiyada axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya mezonini ishlab chiqdi.

Platon eramizdan ilgari (424—347 yillarda) yashagan. Qadimgi Yunonistonning mashhur – idealist faylasufi, Suqrotning shogirdi, ob'ektiv idealizm nazariyasining asoschisi edi. Platonning fikricha, bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo'yilgan tarbiyachilar rahbarligida maydonchalarda turli o'yinlar o'ynash bilan shug'ullanishlari muhim deb hisoblaydi. Platon o'yinlarni maktabgacha tarbiya vositasi deb hisoblab, ularga katta ahamiyat beradi, shuningdek, bolalarga hikoya qilib beriladigan materiallarni sinchiklab tanlash kerakligini ham uqtirib o'tadi. U bolalarga eng yoshlik chog'idanoq ijtimoiy tarbiya berish tarafdori edi. Bolalar 7 yoshdan 12 yoshgacha davlat maktablariga qatnaydilar va bunday maktablarda o'qish, yozish, hisob, musiqa va ashula o'rgatiladi. Bolalar 12 yoshdan 16 yoshgacha odatdagi badantarbiya mashqlari o'rganiladigan "palestra"da, ya'ni jismoniy tarbiya maktabida o'qiydilar. "Palestra"ni tamomlagan o'spirinlar 18 yoshgacha hisob, geometriya va astronomiyani o'rganadilar, bunda ko'proq amaliy maqsadlar (ularni jangchilar qilib tayyorlash) ko'zda tutilgan. 18 yoshdan 20 yoshgacha yigitlar «Efebiya»da tarbiyalanadilar, ya'ni harbiy gimnastika tayyorgarligini o'taydilar. Aqliy mashg'ulotga mayli bo'lmagan yigitlar 20 yoshdan boshlab, jangchilar qatoriga o'tadilar. Abstrakt tafakkurga qobiliyati borligi ochiq ko'ringan yoshlar, ya'ni yigitlarning ozroq qismi 30 yoshga qadar falsafa, shuningdek, hisob, geometriya, 23 astronomiya va musiqa nazariyasini o'rganish bilan shug'ullanib, shu tariqa ilm olishning uchinchi, oliy bosqichini o'taydilar, ammo bunda amaliy maqsad ko'zda tutilmasdan, balki falsafa—nazariyani mukammal o'rganish ko'zda tutiladi. Shu tariqa ular davlat mansablarida ishlashga tayyorlanadilar. Iste'dodi g'oyat o'tkir ekanligi ma'lum bo'lgan va juda ozchilikni tashkil etgan yigitlar falsafa ilmini o'rganishni yana 5 yil (35 yoshga qadar) davom ettiradilar, shundan so'ng 35 dan 50 yoshgacha davlatni boshqaradilar. Platon xotin-qizlar tarbiyasi xususida ham fikr yuritib, Spartadagi usulni ma'qullaydi

Arastu - Aristotel (eramizdan ilgari 384 - 322 yillar)da yashagan. Platonning shogirdi bo'lgan, makedoniyalik Iskandarni tarbiyalagan, Qadimgi Yunonistonning yirik idealist-faylasufi va olimi edi. Arastu o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktabida o'qishi lozim, deb uqtiradi. Bolalarga aqliy tarbiya berilishi kerakligini aytib, u o'g'il bolalar, avvalo, badantarbiya muallimlarining qo'liga topshirilsin, deb talab qiladi; bunda u bolalarni haddan tashqari charchatib qo'ymaslik kerakligini aytadi va ularning jismi mustahkamlanib olguncha engil mashqlar bilan shug'ullantirishni tavsiya etadi. Arastu jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan bog'langan, deb qaraydi. Boshlang'ich ta'lim vaqtida, badantarbiyadan tashqari, yana o'qish, yozish, grammatika, rasm va musiqa o'rgatilishi kerakligini alohida uqtirib o'tadi. O'smirlar maktabda jiddiy ma'lumot olishlari kerak, ular adabiyot, tarix, falsafa, hisob, falakiyot, musiqa o'rganishlari shart. Go'zallikni his qilishni

o'stirish uchun musiqa o'rganmoq kerak, ammo rasm chizish singari musiqa o'rganish ham oddiy hunarga aylanib ketmasligini kuzatib turish muhim deydi. U xotin-qizlarning tarbiyasi xususida gapirib, bu erkaklarning tarbiyasiga o'xshab ketmasligini, chunki ularning tabiati mutloq erkaklarnikidan farq qilishini aytadi.

Atomizm nazariyasini yaratgan atoqli faylasuf - materialist Demokritning qarashlari (eramizdan avvalgi 460-370 yillar) qadimgi yunon falsafasining cho'qqisidir. U o'z nazariyasida tabiat qonunlariga, xurofotni va qo'rquvni emirib tashlaydigan chinakam bilimlarga murojaat qiladi. Demokrit tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo'lib ilgari surdi. "Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o'xshaydi" deb yozadi u. Demokrit "ta'lim mehnat asosidagina go'zal narsalarni hosil qiladi", deb, tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta'kidladi.

Qadimgi yunon faylasuflari bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g'oyani ilgari surgan edilar. Ular o'z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat ma'nfaatlari bilan bog'liq deb isbotlamoqchi bo'lganlar. Shunga ko'ra bola tarbiyasi bilan, asosan, davlat shug'ullanishi kerak, degan g'oya ilgari surilgan. Ammo, Sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan, asosan, ota-ona shug'ullanishi kerak, degan xulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor berganlar.

Eramizdan avvalgi 528-529 yillar orasida buyuk mutafakkir Zardusht tomonidan yaratilgan "Avesto" kitobida ham ta'lim-tarbiyaga, axloq-odobga oid qator g'oya va qarashlarni ko'rish mumkin. "Avesto"da ta'kidlanishicha, tarbiya hayotning tayanchi, shu boisdan har bir yoshni yaxshi o'qish va yozishga o'rgatish lozim. Uni yosh paytidanoq mehnat qilib, mehnatning tagi rohat ekanligini anglatish uchun daraxt ko'chati o'tkazishga, uy-ro'zg'or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatilishi shart. Zotan uning fikricha, yaxshi va ezgu ishlar yaratish uchun kishi mehnat qilishi zarur, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratmas ekan, u yashash lazzatini ham his qilmaydi, hayotning qadriga ham yetmaydi deb hisoblagan.

Qur'oni Karim, hadisi shariflarda oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaga oid bir butun izchil qarashlar tizimi mavjud bo'lib, u o'z ichiga oilaning shakllanishi, rivojlanishi va mustahkamlanishiga qaratilgan barcha jihatlarni qamrab oladi. Islomiy ma'naviyatda bolani oilada axloqiy tarbiyalash haqidagi qarashlar insoniylik, ezgulik va yaxshilikka da'vat etgani uchun ham umuminsoniy mazmunga egadir. Bunga misol tariqasida Qur'oni Karimning 136-hadisid hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros berolmasligi aytib o'tilgan.

Sharq mutafakkirlari o'zlarining ilmiy merosida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar. Ulardan biri Muhammad ibn Muso al Xorazmiy bo'lib, u: «Ota-onalar ikki xil: tug'ilish otasi va ta'lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli»,-degan fikrni ilgari suradi. Shunga ko'ra ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir deb hisoblaydi.

Faylasuf olimlardan biri bo'lgan Abu Nasr Farobiyning aytishicha, bar bir ota-onaning o'z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo'l ko'rsatuvchi ekanligi va aynan ular bolada ta'lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish ta'siriga ega ekanligi bo'lib hisoblanar ekan.

Abu Rayhon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman axloqiy tushunchalarini insonning tabiati bilan bog'laydi. U ota-onalarga qarata bolaning mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g'azablanishdan, qo'rqish va hafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiradi. Ota-onaning bolaga bunday turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqarishini aytadi. Mutafakkir bola-xulq atvorining mo'tadilligi natijasida tan va ruh sog'lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi.

Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rin egallaydi. U o'zining qator asarlarida bolaning salomatligi, uning tarbiyasi haqida, eng muhimi bola ruhiyatini o'rganish borasida ko'plab qimmatbaho fikrlarni yozadi. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib, uni bolaning yoshligidan boshlab va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeidan qat'i nazar, ularning birlamchi vazifasidir, deb hisoblaydi. U ota-ona davlat boshlig'imi yoki oddiy fuqaromi, baribir, u bola tarbiyasi borasida mas'ul bo'lib, davlat boshliqlari, rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo'lmoqlari lozimligini ta'kidlaydi.. Turmush qurgan er-xotinlar munosabati borasida esa mutafakkir, «Erkak kishi oila boshlig'idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog'i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir», — deb yozadi. Ayol esa erkakning munosib yo'ldoshi, u bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchidir. Uning er-xotin munosabatlari xususidagi fikrlari ham o'sha davr uchun o'ta ilg'or va ahamiyatli edi. U o'zining «Oila xo'jaligi» kitobida ayollar axloqan eng maqbul, yuqori sifatlarga ega bo'lmoqlari lozim, deb yozadi. Shu kitobning «Afsofiy bextarin zanxo» Ayollarning yaxshi fazilatlarini haqida bo'limida ularning quyidagi fazilatlarini ta'kidlanadi: «Ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo'lib, ko'p gapirmasligi lozim: u eriga bo'ysunmog'i, uni sevmog'i, farzandlar tug'ib, doimo halol, pok, to'g'riso'z, kamtar bo'lishi kerak, injiq bo'lmasligi, o'z iffati va obro'sini to'kmasligi lozim; u hech qachon eriga nisbatan dimog'dorlik, viqor hissini ko'rsatmasligi, o'z ishlarini yaxshi, o'z vaqtida bajarib, oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog'i lozim; o'z xulq-atvori bilan o'z erining qalbida hadiksirash hissiga o'rin qoldirmasligi kerak»,—deb «Tadbiri manzil» asarining 38-varog'ida ta'kidlab o'tadi.

XI asrda yashab ijod etgan mutafakkir Yusuf Xos Hojib o'zining «Qutadg'u bilig» asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib, shunday yozadi: «Farzand qanchalik bilimli, aqlli-xushli bo'lsa ota-onasining yuzi shunchalik yorug' bo'ladi». U bola tarbiyasida otaning mas'uliyatiga alohida e'tibor beradi. «Kimning o'g'il-qizi erka bo'lsa, deb yozadi u unga shu kishining o'zi mungli bo'lib yig'laydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo'ysa bolada gunoh yo'q, barcha jafo otaning o'zida; o'g'il-qizning xulq-atvori yaramas bo'lsa, bu

yaramas ishni ota qilgan bo`ladi. Ota bolalarini nazorat qilib, turli hunarlarni o`rgatsa, ular ulg`aygach, o`g`il-qizim bor deb sevinadi; o`g`il-qizga hunar va bilim o`rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe'l-atvorlari go`zal bo`lsin». Yusuf Xos Hojib o`z asarida shunday fikrlarni o`rtaga tashlaydiki, ular bola tarbiyasi uchun madhiyadek yangraydi. Yusuf Xos Hojib bolalar tarbiyasini juda murakkab jarayon deb tushunadi. U beldan madomi, tandan quvvatni, ko`zdan nurni, dildan oromni talab qiladi.

Sharqda keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri Unsurul maoliy Koykovusning «Qobusnoma»sidir. «Qobusnoma» falsafiy didaktik asar bo`lib, shaxs shakllanishining barcha tomonlarini o`z ichiga oladi. Uning «Farzand parvarish qilmoq zikrida» degan bobida bevosita oiladagi bola tarbiyasiga bag`ishlanadi. «Qobusnoma»da ota-onaning qator vazifalari sanab o`tiladi. Ular quyidagilardan iborat: 1) bolaga yaxshi ism qo`yish; 2) oqil va mehribon enagaga topshirish; 3) to`y-tomosha qilib, sunnat to`y o`tkazish; 4) o`qish — yozishni o`rgatib, kasb-hunar va ilmi qilish; 5) harbiylar ahlidan bo`lsa, sipoxiylikni o`rgatish. Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borish lozimligini ta`kidlaydi. «Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o`rganur, o`z ixtiyori bilan o`iganmas. Ammo farzand beadab bo`lsa va sening ul sababdan qahrining kelsa, o`z qo`ling bilan urmagil, muallimlaming tayog`i bilan qo`rqitgil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o`g`lingni ko`nglidagina qolmasin».

Oilada bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham munosib o`rinni egallaydi. A.Navoiy ota-onalarning yaxshi sifatlarini ulug`layi. Bunday sifatlarning ularda jamuljam bo`lishi bola tarbiyasida muhim rol o`ynashini ko`rsatib o`tadi. Masalan, uning xotinlar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: «Yaxshi xotin, deydi Navoiy — oilaning davlati va baxtli uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan husinli bo`lsa — ko`ngil ozig`i, xushmuomala bo`lsa jon ozig`idir. Oqila bo`lsa, ro`zg`orda tartib-intizom bo`ladi. U beandisha bo`lsa, ko`ngil undan ozor chekadi, yomonlik axtaruvchi bo`lsa, undan ruh azoblanadi. Agar mayxo`r bo`lsa, uy obodligi yo`q bo`ladi, aqlsiz bo`lsa, oila rasvo bo`ladi». A.Navoiy oiladagi ayrim illatlarni va o`zaro kelishmovchiliklarni bola tarbiyasiga salbiy ta`siri va uning buzilishiga sabab bo`luvchi asosiy omillar sifatida qaraydi. Yaxshi va yomon xulqlar va ularning kelib chiqishi sabablarini ko`rsatib beradi. Bolada paydo bo`ladigan yomon xulqlarni oldi olinmasa, bora-bora illatga aylanadi - deb uqtiradi

Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Ular «Nasihatnoma», «Pandnoma», «Hikmatnoma» tarzida bizgacha yetib kelgan. Bu manbalarda qizlarni hayotga tayyorlashda, ularda birinchi navbalda insoniy fazilatlar shakllangan bo`lishi, oila muqaddas, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog`liq ekanligi haqida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan hodisalar hikoya qilinadi. Shunday kitoblardan biri turk olimi Yusuf Tovasliy to`plagan «Hikmatlar xazinasini»dir, unda kelin bo`luvchi qizga beriladigan ona o`giti kishining diqqatini o`ziga tortadi. Unda ona uzatilayotgan qiziga quyidagilarni nasihat qiladi: Bolajonim, sevikli qizim, meni yaxshilab tingla. Nasihat bilmaganga o`rgatadi, bilganni esiga soladi. Alloh bergan qonunga ko`ra, hayotga qadam qo`yadigan har bir qiz erga, har bir erkak ayolga muhtoj bo`ladi. Erkaklar

ayol uchun, ayollar erkak uchun yaratilgandir. Hayot mavjud ekan, bu qonunni hech kim buza olmaydi. Shu sababli, sen tugʻilib oʻsgan va voyaga yetgan uyingdan, yayrab-yashnab, oʻynab-kulib yurgan yeringdan chiqib, oʻzing bilmaydigan, notanish uyga borasan. Kelajakda bu uy senikidir. Sen eringga shunday xizmat qilki, ul ham senga qul boʻlsin! Sen unga yer boʻlki, u senga osmon boʻlsin! Sen unga uy boʻl, ul senga ustun boʻlsin! Aytganlariga amal qilsang, ering bilan goʻzal hayot kechirasizlar, masʻud, baxtiyor va saodatli turmush qurasizlar. Bizlar ham huzur-halovatda baxtiyor boʻlamiz. Aks holda ikkala oilada ham huzur-halovat boʻlmaydi. Sen oʻzing bir jahannamda yashagandek boʻlasan.

Yuqoridagi fikrlardan maʼlum boʻldiki, sharq mutafakkirlari oʻzlarining pedagogik qarashlari bilan oʻz davrlaridan ancha ilgarilab ketganlar. Ularning bu qarashlari bir necha asrlardan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib kelmoqda va hozirgi kunda ham ular oʻz qiymatini yoʻqotgani yoʻq, ular bizning maʼnaviy qadriyatimizdir. Shunga koʻra mutafakkirlarning oʻlmas merosi oilada bolalarning maʼnaviy axloqiy tarbiyalashning muhim omili boʻlib qoladi desak aslo mubolagʻa boʻlmaydi.

Shu jumladan, buyuk olim V.Satir bugungi kundagi zamonaviy oilaning bola tarbiyasi va uning manfaatlariga bogʻliq ekanligidan kelib chiqib, bu maskandagi hayot maromini bola rivojlanishining bosqichlari bilan bogʻlaydi va shunga koʻra quyidagicha bosqichlarni farqlaydi:

- 1-bosqich. Oila boshlangʻich nuqtasining boshlanishi;
- 2-bosqich. Ikki yoshning intim qovushishi oqibatida zurriyodning paydo boʻlishi;
- 3-bosqich. Bolaning bogʻchaga va maktabga borishi.
- 4-bosqich. Oʻsmirlik chogʻida ota-onasidan mustaqillikni daʼvo qila boshlashi;
- 5-bosqich. „Bola-ota-ona“ munosabatlari tugab, oʻzining turmush qurishi.
- 6-bosqich. Tanada keksalik belgilarining paydo boʻla boshlashi.
- 7-bosqich. Oilaviy munosabatlarning tugashi.

Oʻzbekistonning milliy mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, tarixiy va maʼnaviy oʻzgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy 130 hayotida mazmunan boy ishlar qilindi. Masalan, 1998-yilning «Oila» yili deb eʼlon qilinishi, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63- moddasida «Oila jamiyatning asosiy boʻgʻinidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida boʻlish huquqiga ega» deyilishi bunga yaqqol misoldir. Oʻz vaqtida yurtboshimiz, oilaning jamiyatda tutgan oʻrni va ahamiyati toʻgʻrisida shunday degan: «Bola tugʻilgan kundan boshlab, oila muhitida yashaydi. Oilaga xos anʼanalar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhim farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi his etadi». Bu oʻrinda ilgari surilayotgan pedagogik gʻoyaning tub mohiyati oila tarbiyasini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish, mustahkamlash, yanada chuqurlashtirish bilan bogʻliqdir. Oila tarbiyasi deganda ota-ona, oiladagi katta kishilar, buva-buvilar, aka-opalar tomonidan bolalarning toʻgʻri milliy axloq-odob normalari asosida tarbiyalanishini tushunish lozim. Zotan bola tarbiyasi ota-ona, aka-opa va boshqalarning oʻzaro muomala munosabatlariga xulq-atvoriga bogʻliq. Xalqimiz ham: «Qush uyasida koʻrganini qiladi» deb bejizga aytishmagan.

Xulosa qilib aytganda, farzand ko'rib, ularni tarbiyalab, kishilarga, jamiyatga halol va fidoiylarcha xizmat qilishga qadar shaxslarni shakllantirish har bir ota-onaning ijtimoiy, ma'naviy burchi sanaladi. Oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning usullarini xalq pedagogikasi manbalaridan o'rganishimiz lozim. Insonni axloqiy tarbiyalashda eng kuchli tarbiyaviy vosita sifatida o'git-nasihat, ibrat ko'rsatish, ma'qullash va maqtash, mukofotlash kabilardan foydalanish samarali natijalar berishi kuzatishlardan ma'lum.

Umuman olganda, tarbiya so'zi aytilishi bilan inson ko'z oldida oila namoyon bo'ladi. Zero, oila tarbiya maskanidir. Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy tarbiya oiladan boshlanadi. O'zbek oilasining ma'naviyati – o'zbekning milliy g'ururidir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. OILA PEDAGOGIKASI O. Hasanboyeva Toshkent-2007 (131-132-b)
2. OILA PEDAGOGIKASI (o'quv qo'llanma) (5110900 – Педагогика ва психология) Ishanova M Andijon-2019 (14-30-b)
3. OILA PSIXOLOGIYASI Akademik litsey va kasb-hunar kollejiari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma Ikkinchi nashr "SHARQ" NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT – 2008 (20-22-b)
4. PSIXOLOGIYA NAZARIYASI VA TARIXI 5110900-Pedagogika va psixologiya SH.R.Baratov, L.Y.Olimov, O.R.Avezov Toshkent-2019 (31-33-b)
5. Arxiv.uz
6. Qalampir.uz
7. WWW.Ziyo.uz

YURIDIK MATNDA TERMIN QO‘LLASH ME‘YORLARI

Sobirova Gulhayo Mo‘minjon qizi

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi o‘quvchisi.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yuridik matn tuzishda so‘z tanlash, zarur so‘zni boshqa ma‘nodagi so‘zlar qatoridan ajratib olish, so‘zlarni nutqning turiga, nutqning kimga atalganiga va maqsadiga ko‘ra tanlash lozimligi haqida so‘z yuritilgan. Terminlar umumiste‘moldagi so‘zlardan o‘ziga xos ayrim xususiyatlari bilan farqlanishi, terminlarning o‘ziga xos belgilari, bir tarmoq terminlari tizimida sinonimiya yoki dubletning qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi yuzasidan fikr bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Til, nutq, yuridik til, termin, terminshunoslik, yuridik matn, so‘z tanlash, ta‘sirchan nutq, yuridik fikr, umumiste‘moldagi so‘zlar, umumxalq tili, obrazlilik, ijtimoiy aloqa, muomala madaniyati, terminologik ma‘no.*

Yuridik matn tuzishda so‘z tanlash, zarur so‘zni boshqa ma‘nodagi so‘zlar qatoridan ajratib olish muhim ahamiyatga ega. So‘zlarni nutqning turiga, nutqning kimga atalganiga va maqsadiga ko‘ra tanlash lozim: huquqshunos-publitsist nutq uchun siyosiy-falsafiy ruhdagi o‘tkir, ta‘sirchan so‘zlar, ilmiy nutq uchun termin xarakteridagi atama so‘zlar, badiiy nutq uchun esa badiylik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan, obrazlilikka xizmat qiladigan so‘zlardan foydalanadi. Rasmiy nutqning turli hujjatlar ko‘rinishlaridagi til xususiyatlari ham bir-biridan birmuncha farq qiladi. Tanlangan so‘z adabiy nutqqa xos, nutq madaniyati me‘yorlari doirasida bo‘lishi lozim, chunki har qanday nutq – tarbiyalovchi omil, u eshituvchi va o‘quvchilarda to‘g‘ri so‘zlash va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini, savodxonlikni tarbiyalaydi.

Huquqqa oid har qanday fikr, tushuncha, belgi, harakat-hodisa va munosabat so‘zlarda o‘z ifodasini topadi, ya‘ni so‘zlardan, iboralardan, atama va terminlardan tarkib topgan ifoda qolipiga, ifoda shakliga tushmaguncha munosabat, ijtimoiy aloqa, muomala (fikrlashuv) yuzaga chiqmaydi. Yuridik fikrning voqe bo‘lishi ham, mavjudligi ham tilda namoyon bo‘ladi. Tilsiz, so‘zsiz hech qanday aniq va tayyor holdagi yuridik fikr bo‘lmaydi. Yuridik tilda fikr so‘zlar, sohaga oid terminlar va bular ishtirokida tuzilgan gaplar orqali shakllanadi va nutqda o‘z ifodasini topadi: til huquqning “tiriklik” shartidir. Shuning uchun ham til va huquq jamiyatga xizmat qiluvchi ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va ruhiy hodisalar hisoblanadi, til huquqqa ruh baxsh etuvchi vosita hisoblanadi.

Darhaqiqat, til yuristning tafakkur yuritish quroli bo‘libgina qolmasdan, balki huquqqa oid o‘tmish bilimlarni hozirgi avlodga yetkazish, huquqiy me‘yorlar bilan fuqarolarni tanishtirish quroli hamdir. Bugungi boy ma‘naviy merosimiz bo‘lgan huquqqa oid barcha bilim va ta‘limotlarning mavjudligi va “tirikligi” ham til tufaylidir.

Davlatimizda bugungi kunda islohotlar eng qamrovda olib borilayotgan sharoitda qonunlar tili va uslubi, huquq terminologiyasi muammolari hamda zamonaviy yuristning

nutq madaniyati masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday turdagi islohotlar qonunlarni o'zgartirmasdan amalga oshirilmaydi, bu esa o'z-o'zidan, yangi-yangi til birliklarining rivoj topishi uchun zamin hozirlaydi.

Terminlar umumiste'moldagi so'zlardan o'ziga xos ayrim xususiyatlari bilan farqlanadi. Birinchidan, so'zlar fan-texnikaning ma'lum tarmog'ida qo'llanilib, iste'mol doirasi chegaralansa, terminlarga aylanadi. Masalan, guvoh, zarar, tuhmat, qo'rqitish kabi umumiste'moldagi so'zlar yurisprudensiya sohalarida ilmiy-rasmiy ma'nolarni ifodalab, hozirgi kunda terminlar tizimiga kirgan.

Guvoh so'zi umumxalq tilida biror voqea-hodisa ro'y bergan paytda shaxsan bo'lgan, uni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishi ma'nosini anglatadi, yuridik terminlar tizimida jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar haqida qonunda belgilangan tartibda so'roq qilinadigan shaxs ma'nosiga ega atama hisoblanadi. Tuhmat so'zi umumiste'molda birovni nohaq ayblash yoki qoralash, nomini yomonga chiqarish maqsadida o'ylab chiqarilgan asossiz da'vo; bo'hton. Masalan, Tuhmat tosh yoradi, tosh yormasa, bosh yoradi (Maqol). Bu so'z yurisprudensiyada yuridik termin sifatida shaxsning qadr-qimmatini va or-nomusiga qilinadigan tajovuz ma'nosini anglatadigan jinoyatning nomini anglatuvchi termindir (JK, 139-modda).

Bundan tashqari jazo, jarima, ko'zdan kechirish, mulk, omonat, topshiriq, qarzdor, hadya, shikoyat, da'vo kabi umumiste'moldagi so'zlar ham yurisprudensiya sohasida yuridik tushunchalarni bildiradi. Bunday so'zlar chegaralangan ma'noda qo'llanilib, terminologik ma'no hosil qiladi.

Ikkinchidan, termin nominativ (nomlash) vazifani bajaradi. Terminning ma'nosi adabiy til me'yorlari doirasida tushunchaga teng bo'ladi. Chunki bir terminologik tizimda termin bir ma'noli bo'lgani uchun uning ma'nosi tushunchaga teng keladi. Ya'ni terminlar bir ma'noni ifodalovchi maxsus rasmiy so'zlardir. Ko'p ma'noli birgina so'z esa bir necha tushunchani ifodalaydi.

Uchinchidan, termin aniq, konkret tushunchalarni bildirib, his-hayajon ma'nolaridan xoli bo'ladi. So'zning ma'nosi murakkab bo'lganligi bois unda tushuncha qo'shimcha ma'no va uslubiy belgilarga ega bo'ladi. Shunga ko'ra tilda bir tushunchani anglatadigan sinonimlar turli ma'no qirralari yoki uslubiy qo'llanilishi bilan bir-birlaridan farq qiladi. Ayniqsa, yuridik sohada sinonimik qator hosil qilgan so'zlarni ma'no nozikliklariga ko'ra farqlab ishlatish maqsadga muvofiqdir. Masalan, inson, odam, kishi, shaxs, bashar, fuqaro so'zlari bir umumiy tushunchani bildirib, sinonimlar hisoblansa-da, biroq turli ma'no qirralariga ko'ra bir-biridan farqlanadi: davlat fuqarosi deyish o'rinli, biroq davlat insoni yoki davlat shaxsi deb matnga kiritish mumkin emas.

To'rtinchidan, terminlarning yana bir o'ziga xos belgisi shundaki, terminlar rasmiylashgan so'zlar bo'lganligi sababli respublika miqyosida, hatto dunyo miqyosida bir tushunchani anglatadi. Bunga xalqaro terminlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin: impichment, demokratiya, respublika, prezident, parlament, amnistiya, deputat,

konstitutsiya, kriminologiya va h.k. Bunday terminlar yer yuzining barcha qit'alarida bir xil ma'noda qo'llaniladi.

Shuningdek, terminlar muayyan bir sohaga oid bo'lib, muayyan mutaxassislar tomonidan maxsus qabul qilingan, rasmiylashgan leksik birliklar sanaladi. Shuning uchun bir tushunchani ifodalovchi termini boshqa bir so'z bilan almashtirish mumkin emas. Ya'ni bir tarmoq terminlari tizimida sinonimiya yoki dubletning qo'llanilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masalan, huquq, burch, shaxs, subyekt, yuridik shaxs, kriminalistika, demokrat, tergovchi, modda, jinoyat kabi terminlar o'rniga muqobil variantlar izlash nojoizdir.

Xulosa qilib aytganda, yuridik til o'ziga xos lug'aviy birliklari, gap qurilishi, uslubiy jihatlari hamda huquqqa oid tushunchalarni ifodalovchi terminlari bilan ajralib turadi. Huquqshunoslikka doir barcha manbalar yuridik tilda yoziladi. Tergov jarayoni, sud, advokat faoliyati, qonunlar ifodasi ham yuridik til asosida yuzaga chiqadi. Shunday ekan, yuridik sohaga oid matnlarni tuzishda har xil noo'rin qaytariqlar, so'z takrorlari, tushunilishi qiyin ifodalar hamda ortiqcha sifatlashlar, ko'chma ma'noli so'zlarni ishlatishdan tiyilish, sohaga xos bo'lgan terminlarni o'z o'rnida qo'llay bilish mutaxassisdan yuksak mahorat va bilim talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.:O'zbekiston, 2012.
2. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. T., 2007.
3. Usmonov S. O'zbek tili. T., 2012
4. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. T.: 2003.
5. O'zbek tilining imlo lug'ati. Tuzuvchilar: Sh.Raxmatullayev, A.Hojiyev.
6. Mirtojdiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. T.:O'zbekiston, 1992.
7. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. T.: 1993.
8. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. T.:2014.

**PROFESSIONAL TA'LIMDA TA'LIM-TARBIYAVIY ISHLARNI RIVOJLANTIRISHDA
O'QITUVCHILARDAGI PEDAGOGIK MAHORATNING O'RNI**

Davletova Manzura Nozorovna

*faxriy dossent, Xiva pedagogika kolleji O'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor
o'rinbosari*

Kalit so'zlar: *pedagog, ta'lim, bilim, ko'nikma, metod, tamoyill, individual, pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat, shaxs, pedagogika va psixologiya, axloq, kasbiy faoliyat, burch, huquq, ijod.*

“Har bir inson hayotda qanday yutuqqa erishgan bo'lsa, ularda qadrdon o'qituvchi va ustozlarining beqiyos hissasi borligini umrbod minnatdorlik bilan eslaydi. Shaxsan men o'qituvchi deganda – zamon bilan hamqadam bo'lgan jonkuyar, ziyoli shaxsni, maktab deganda – bilim va ma'rifat yog'dusi taralib turadigan, Uchinchi Renessans poydevori qo'yiladigan tabarruk maskanni ko'z oldimga keltiraman”.

Shavkat Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan har bir Qarorda barkamol avlod tarbiyasi va ularning kasbiy mahoratini avvalo ta'lim muassasalarida oshirib borishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Professional ta'limda ta'lim-tarbiyaviy ishlarini majmualari rejalashtirish axloqiy tarbiyaviyning samaradorligini oshiruvchi shartlardan biridir. Ta'limda ta'lim-tarbiyaviy ishlarini rejalashtirishning asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya tadbirlarini ma'lum bir tizinga keltirish, aniq maqsadga yo'naltirish, tarbiyaviy jarayonda izchillik, uzviylik va ketma-ketlikni ta'minlash, o'quv-metodik ishlar, ilmiy tadqiqot va tarbiyaviy tadbirlar o'rstasidagi uzilishni bartaraf etish, talabalarni tarbiyalash sohasida ilg'or tajribalarni umumlashtirishdan iborat. Hozirgi kunning talabi ta'lim sohasidagi rivojlanishining vazifalarini bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchilik sharaflidir, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedadodik nazariyani egallashning o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, tamoyillar, umumlashtirilgan metodik g'oyalar bayon etiladi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Kollej hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xil, murakkabdir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar ko'p uchraydi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni va yuksak pedagogik mahorat hamda ijodkorlikni talab etadi. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar, puxta tayyorgarlik, ayrim shaxsiy sifatlar bo'lishi kerak. Pedagogik kasbini tanlagan kishi avvalo sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq va asablari joyida bo'lishi,

boshqalar bilan muomilada o'zini tuta olishi zarur. Shuningdek, bolalarni yoqtirish, ular bilan ishlashga mayli borlik, xushmuomilalik kuzatuvchanlik, keng fikrlay olish, tashkilotchilik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjudligi ham kishining pedagogik ishga yaroqliligini ko'rsatadi.

Pedagogik faoliyat- yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim- tarbiya berish ishi bilan shug'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. "Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi 44-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o'z mutaxassisligi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida (bundan oliy ta'lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi beriladi. Ishlab chiqarish ta'limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o'tmasdan professional ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga haqli. Zarurat bo'lganda professional ta'lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta'limi ustalarini, shuningdek tegishli bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, oliy ma'lumoti bo'lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo'shimcha mashg'ulotlarni olib borish uchun jalb etishi mumkin. 45-modda. Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi. Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi. Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi",- deyiladi."Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda.

Shu o'rinda O'rta osiyoda yashagan allomalar yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash, shuningdek, o'qituvchilik odobiga ta'limotlarni ham yaratganlar.

A.N.al-Forobiy (873-930) o'z asarlarida har bir kishi munosib fuqaro bo'lishi uchun muayyan darajada ta'lim va tarbiya olishi lozim deb hisoblaydi. Ustoz shogirdiga zulm qilishga, shuningdek ,ko'p hollarda yon berishga intilmasligi darkor.Chunki ortiqcha zulm shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi. Agarda shogird ustozini ko'nglini yumshoqligini payqab qolsa, bu hol ustozni mensimaslikka, oxir- oqibatda u beradigan bilimdan sovib ketishga olib keladi.

Forobiyning ta'kidlashicha, har bir kishining fe'l- atvoriga qarab tarbiya ikki usul-ixtiyoriy va majburiy usullar bilan amalga oshirilishi mumkin.Tarbiyalanuvchilar fan va

hunarga moyillik bildirmasalar, ularga nisbatan rag'batlantirish usuli qo'llaniladi, aksincha, mabodo ular o'zboshimcha va itoatsiz bo'lsalar, majburiy usulni qo'llash mumkin. Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, "Pedagogik ensiklopediya"da ta'rif quyidagicha izohlangan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis". Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.
2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
4. O'quv - tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.
2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash. O'qituvchida pedagogik mahoratning rivojlanishida quyidagi omillar ro'l o'ynaydi:

- O'qituvchining axloqiy fazilatlarini bu - o'qituvchi odobining mohiyati, axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy – axloqiy fazilatlarni barcha kishilar, hamda kasb egalari, jumladan, o'qituvchi- tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir. Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi qoidalar, normalar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshiriladigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri ta'sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy boqelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o'z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq normalari, talablari, mezonlarini belgilaydi.

- Yaxshilik qilish – umuminsoniy axloqiy qadriyatlar orasida yaxshilik qilish fazilati muhim o'rin egallaydi. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi yodgorligi- "Avesto"da ezgu fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishlar insoniy fazilatlar sifatida ulug'lanadi. Islom ta'limotida boshqalarga yaxshilik qilish insonning tabiiy ehtiyoji bo'lishi kerakligi tushuntiriladi, ayniqsa, yosh bolalarga yaxshilik qilish juda qadrlanadi. O'qituvchi odobida yaxshilik fazilatiga pedagogik faoliyat bilan bog'liq holda, o'qituvchining yaxshiligi shaklida kiritiladi.

- O'qituvchilik burchi – umuminsoniy va milliy axloqda burch tushunchasi har bir kishining o'z vazifasini to'liq bajarishi, boshqalarga to'g'ri munosabatda bo'lishini

ifodalaydi. Burchda shaxsning jamiyatga bo'lgan munosabati namoyon bo'ladi. O'z burchiga sodiqlik har bir kishiga obro', shon- sharaf keltiradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning huquqlari bilan bir qatorda burchlari ham belgilangan. O'zbekiston xalqining tarixiy, madaniy ma'naviy merosini avaylab asrash; atrof- tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kabilar har bir fuqaroning burchidir.

O'qituvchi yosh avlodga ta'lim – tarbiya berish sohasidagi o'z burchini zo'rlik tufayli yuklatilgan majburiyat emas, balki, o'z hayotining ma'nosi, ishonch va vijdon da'vati deb hisoblaydi. O'qituvchining burchi aql bilan hissiyotning birligidan iborat.

- O'qituvchilik mas'uliyati – shaxs axloqini tavsiflaydigan belgilardan biri mas'uliyatdir. O'qituvchi zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas'uliyati yuklanadi. Pedagog o'quvchilarga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi darkor. Shu bilan birga u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, unda mavjud bo'lgan ijobiy axloqiy fazilatlarni avaylab o'stirishi lozim.

- O'qituvchilik sha'ni va qadr-qimmatini – umuminsoniy va milliy axloqning muhin belgilaridan biri insonlik sha'ni, qadr – qimmatidir. Kishining qadr- qimmatini, avvalo, umumiy ishga qo'shayotgan hissasining salmog'i va sifati bilan belgilanadi. Insonning qadr-qimmatini uning mansabi, kasbi- koridan ko'ra ham ko'proq o'z kasbini qanday bajarishiga, uning odobi va xulq – atvoriga bog'liq. Bu fazilat o'qituvchi odobida muallimning qadr-qimmatini, sha'ni deb ataladi. U, avvalo, o'qituvchidan o'z ishining ustasi, kamtar bo'lishni, shu bilan birga pedagoglar va o'quvchilar jamoasida o'zini tuta bilishni talab etadi. Dars jarayonini kuzatish uchun nazoratchilar va boshqa kishilar kirgan paytda o'qituvchi "g'aflatda" qolmasligi lozim. Bunday paytda o'qituvchi, avvalo, o'z o'quvchilari oldida sinovdan o'tadi. O'sha chog'da o'qituvchi hovliqib, shoshilib qolsa, jahli chiqsa, o'z hulqini o'zgartirsa, o'quvchilar oldida uning qadri ketadi. Aksincha, muallim bunday hollarda o'zini mag'rur tutsa, darsni odatdagidek o'taversa, bolalarning hurmatini qozonadi. O'quvchilar bunday voqealarni uzoq esda qoldiradilar, gaplashib, o'rtoqlariga aytib yuradilar. U katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

- O'qituvchilik vijdoni- vijdon kishining o'z hatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat tuyg'usidir. U diyonat, insof, halollik, sofdillik degan ma'nolarni ham bildiradi. Abdulla Avloniy: "Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurg'on hissiyot, ya'ni sezuv-tuymakdan iborat ma'naviy quvvatni aytiladur" deb ta'rif bergan edi. Pedagogik faoliyatda o'qituvchining vijdoni ta'lim-tarbiya jarayonida axloqiy yo'l-yo'riqlarni va kasbiy burchni qanday bajarayotganini nazorat qiluvchi ma'naviy kuchdir. Vijdonli o'qituvchi kechirimli bo'ladi. Agar u ta'lim berayotgan bolalarning bilimi past, xulqida qusrlar, kamchiliklar uchrayotgan bo'lsa, bundan o'qituvchi vijdonan qiynaladi. O'qituvchining vijdonini faqat uning o'zigina nazorat qiladi. Ta'lim-tarbiya ishalrining samaradorligi faqat o'qituvchining o'ziga emas, balki, ota-onalar, kasbdoshlari bilan hamkorligiga ham bog'liqdir. Haqiqiy pedagog kasbdoshi yoki o'quvchisi sodir etgan

qo'pollikdan ham afsuslanadi, hijolat chekadi. Bunday hissiy holat bolaga kuchli tarbiyaviy ta'sir etadi.

- Talabchan va adolatli bo'lish – o'qituvchining talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolaning kuchi, qobiliyati, imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi ifodalanadi. Bu haqiqiy insonparvarlikning namoyon bo'lishi, ya'ni rivojlanayotgan bola shaxsi to'g'risida, jamiyat uchun foyda keltira oladigan barkamol kishini tarbiyalash to'g'risida g'amxo'rlikdir. Adolatlilik insoniylikning asosi hisoblanadi. Odobli va insonparvar bo'lish uchun adolatli bo'lish zarur, Adolat boshqa kishilarga muomala-munosabatda namoyon bo'ladigan fazilat.

Hozirgi zamon fan va texnikasi jadal sur'atda rivojlanayotgan, zamonaviy axborot texnologiyalarining salmog'i keskin oshayotgan bir davrda o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar, ilgari fanning biror sohasida ro'y berayotgan yirik kashfiyot qariyb o'n besh yillik samarali va kishi zo'rg'a ishonadigan voqea hisoblangan bo'lsa, hozir har yili, hatto har oyda fan, texnika sohasida yangi kashfiyotlar yaratilmoqda, bilimlarning ilgari noma'lum boigan yangi yo'nalishlari maydonga kelmoqda. Kishilarda bilimga bo'lgan intilish beqiyos darajada o'sib borayotir. Shuning uchun hozirgi kunda o'qituvchi faqat o'z fani bo'yicha emas, balki o'z faniga yaqin bo'lgan sohalardagi yangiliklarni bilishi talab etiladi. XXI asrga kelib o'qituvchining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o'qituvchida yuksak mahoratni, o'tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulonazali bolishni talab qiladi. Ijodiy faoliyat olib boruvchi o'qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur. Hozirgi zamon o'qituvchisi fan va texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishi, o'z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo'llay olishi taqozo etiladi.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Malla Ochilov Muallim-qalb me'mori.
2. Tosh. "O'qituvchi" 2001
3. A. Xoliqov Pedagogik mahorat
4. Toshkent «Iqtisod-moliyachi» 2011

**FARG'ONA VODIYSIDA POSTKOVID HOLATI EPIDEMIOLOGIYASI, KLINIK
KO'RINISHLARINI BAHOLASHDA BIR VAQTLI (CROSS SECTIONAL STUDY) TEKSHIRUV
USULINI QO'LLASH**

Nizomova Kamola

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqola Sog'liqni Saqlash sohasida kesma (bir vaqtli) epidemiologik tadqiqotlar ma'lumotlarini rejalashtirish, o'tkazish va afzalliklari haqida. Biz o'tkazayotgan tadqiqotimiz ushbu dizaynda amalga oshiriladi. Ma'lum bir vaqt oralig'ida qilingan bir vaqtli tekshiruv kasallikning dinamikasi va mamlakatning turli regionida kasallanish ko'rinishlarini taqqoslash haqida Sog'liqni Saqlash tizimiga qimmatli ma'lumotlarni beradi.*

Kalit so'zlar: *postkovid holati, epidemiologiyasi, bir vaqtli tadqiqot, reprezentativ guruh, tasodifiy tanlov usuli.*

**ПРИМЕНЕНИЕ ОДНОВРЕМЕННОГО (CROSS SECTIONAL STUDY) МЕТОДА
ИССЛЕДОВАНИЯ ДЛЯ ОЦЕНКИ ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИХ И КЛИНИЧЕСКИХ ПРОЕКТОВ
ПОСТКОВИДНОЙ СИТУАЦИИ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ**

Низомова Камола

Ферганского медицинского института общественного здравоохранения.

Аннотация. Эта статья посвящена планированию, проведению и преимуществам перекрестных (параллельных) данных эпидемиологических исследований в здравоохранении. Наше текущее исследование основано на этом дизайне. Одновременное обследование, проводимое в определенный период времени, дает ценную информацию для системы здравоохранения о динамике заболевания и сравнении проявлений болезни в разных регионах страны.

Ключевые слова: *постковидный статус, эпидемиология, одномоментное исследование, репрезентативная группа, метод случайного отбора.*

**APPLICATION OF SINGLE-TIME (CROSS SECTIONAL STUDY) INVESTIGATION
METHOD FOR ASSESSING THE EPIDEMIOLOGY AND CLINICAL VIEWS OF THE POST-COVID
SITUATION IN FERGANA VALLEY**

Nizomova Kamola

Fergana Medical Institute of Public Health.

Annotation. *This article is about planning, conducting and data advantages of cross-sectional (concurrent) epidemiological studies in health care. Our current research is based on this design. A 1-time examination performed at a certain time interval provides valuable information to the Health Care System about the dynamics of the disease and the comparison of the manifestations of the disease in different regions of the country.*

Key words: *post-covid situation, epidemiology, cross sectional study, representat group, random selection method.*

KIRISH

COVID- 19 pandemiyasi butun dunyoni egalladi, o'zining ortidan asoratlarning olovli dumini, minglab o'lganlar armiyasini va surunkali stressni qoldirmoqda. Chunki, COVID- 19 ning o'zgartirilgan qismi inson tanasida immun reaksiyalarini faollashtiradi, interleykin – 6 chiqishi bilan kuchli immunli yallig'lanishni, qonda D-dimerlarni va laktatning miqdorini o'ta keskin oshishini chaqiradi.

Metabolik jarayonlarni organizmda sindirilishi oqibatida COVID- 19 da energiya va metabolik inqirozi yuz beradi, aynan shu jarayon organlar va tizimlarning tezda tiklanishiga, COVID- 19 dan tuzalgan bemorning to'liq tiklanishiga yo'l qo'ymaydi. COVID- 19 ga qarshi faol davolash, asosan an'anaviv tibbiyot usullari bilan va umuman xalq tabobatida yaratib qo'yilgan preparatlarni o'tkazilishiga qaramasdan, postkovid holatining asosiy belgilari (kuchli behollik, ko 'krak qafasida og'irlik, to'liq nafas ololmaslik hissiyoti, bosh va bo'g'imlar hamda mushak og'riqlari, uyquni buzilishi, depressiya, kognitiv funksiyalarni pasayishi, termoregulyatsiyani buzilishi) saqlanib qoladi va shiddatlanib avjlanadi.

Xorijiy populyatsiya va tadqiqotlarda tasdiqlanishiga, COVID- 19 da postkovidli holatga o'tish ikki yo'l bilan yakunlanadi – o'tkir respirator virusli infeksiya, endoteliit, trombovaskulit va pulmonit kabi sindromlar evolutsiyasi sababli – qulay kursli kechish, rekonvalestsiyaga o'tish bilan va ikkinchisi, sitokinli bo'ron, o'tkir respirator distress sindrom, polia'zoli tizimli yallig'lanish evolutsiyasi sababli – noqulay kursli kechish, potensial o'limga olib keladigan xolat bilan dunyoda postkovidli holat, turli davlatlardan 15 ta tadqiqotni qamrab olib o'tkazilgan sharh bo'yicha allaqachon ommaviy hodisa va hayotimizning bir qismiga aylandi.

Xalqaro kasalliklar klassifikatsiyasi (XKK) 10 – tahririga binoan U 071 yoki U 072 kodi bilan, COVID – 19 tashxisi bilan shifoxonaga tushib va davolanib chiqqan, poliklinikada ro'yxatga olinib kuzatuvda bo'lgan aholi guruhi – bir vaqtli epidemiologik tadqiqotga jalb qilindi.

Postkovid holatiga klinik alomatlar bo'yicha va klinik jihatdan oldingi yuqumli kasallik anamneziga asoslangan holda tashxis qo'yiladi.

Buyuk britaniyaning milliy salomatlik markazi (NICE) tomonidan tavsiya qilingan mezonlar bo'yicha COVID – 19 tafovutlandi (2020, dekabr):

- O 'tkir COVID -19 – to 4 haftagacha cho'ziluvchi simptomlar

- Davom etuvchi simptomatik COVID -19 – simptomlarni 4 haftadan to 12 haftagacha yetib davom etishi

- Postkovidli holat sindrom – 12 haftadan o‘tib simptomlarni cho‘zilib saqlanib qolishi, vaqti- vaqti bilan o‘zgarib turishi, yo‘qoladi va yana kelib chiqadi, organizmning qon tizimlarini qamrab aks ettiradi.

80% ga yaqin holatlarda tasdiqlangan koronavirus anamneziga ega bo‘lgan odamlar o‘zlarini to‘liq tuzalmaganlar qatorida ko‘radilar va ba‘zilar uchun a‘lomatlar saqlanib qolgan balki necha oydan keyin ham kuchayadi. Bunday klinik vaziyat, aniqrog‘i 12 haftadan ortiq davom etadigan, muqobil tashxis bilan izohlanmagan, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi, yo‘qolishi va qayta paydo bo‘lishi , ko‘plab tana tizimlariga ta‘sir qiladigan alomatlar – postkovidli holat (postkovidli sindrom deb ataladi.

Shularni inobatga olgan holda bizning tadqiqotimizning maqsadi- bir vaqtli - kesma (cross-sectional study) tadqiqotni qo‘llash, o‘tkazish metodologiyasi, COVID -19 bilan kasallangan bemorlardan reprezentativ guruh ajratilib, tasodifiy tanlov yo‘lini qo‘llash tamoyillarini shakllantirish. O‘zbek populyatsiyasida, xususan Farg‘ona vodiysi iqlimiy sharoitida, postkovid holatini, “epidemiologik yo‘li”, mahalliy klinik kechishi va erta aniqlash, oldini olish hamda davolash yo‘llarini optimallashtirishga yo‘naltirilib amalga oshirilgan maxsus tadqiqot yo‘q. Bunday natijalarga ega bo‘lish COVID-19 ga nisbatan noxush epidemiologik vaziyat mamlakatimiz atrofida davom etayotgan hozirgi davrda, dolzarb masala va zaruriyatga aylangan, postkovid holati misolida ayniqsa ilmiy mavzu xisoblanadi.

MATERIAL VA TEKSHIRISH USULLARI

Tadqiqotimiz bir vaqtli epidemiologik tadqiqot kuzatuv harakteriga ega va COVID -19 bilan kasallangan va shifoxonalardan chiqarilgan aholidan (COVID-19aA) ma‘lumot to‘plashga qaratilgan. Ushbu tadqiqot Farg‘ona shahridagi barcha poliklinikalar hududi aholisi orasida olib borilmoqda. Tadqiqot davomida har bir bemorni bir marta tekshiriladi , ya‘ni bemor kuzatuvga olinmaydi. Olingan ma‘lumotlar bir vaqtning o‘zida kasallikning xavf omillari va o‘rganilayotgan kasallik haqida ma‘lumotlar to‘planadi. Bunda tadqiqotchi kasallikning tarqalishi, uchrash chastotasini aniqlashi mumkin. Misol tariqasida, biz tekshirgan COVID-19 bilan kasallanganlarning qancha qismida postkovid sindrom rivojlanganini aniqlaymiz, bu bilan postkovid holatning tarqalish darajasini aniqlaymiz. Barcha tekshiruvlar ma‘lum vaqt oralig‘ida bir marta o‘tkaziladi. Xavf omillarini aniqlash uchun retrospektiv analiz ham kerak bo‘ladi.

Ma‘lum bir vaqt oralig‘ida qilingan bir vaqtli tekshiruv kasallikning dinamikasi va mamlakatning turli regionida kasallanish ko‘rinishlarini taqqoslash haqida Sog‘liqni saqlash tizimiga qimmatli ma‘lumotlarni beradi. Ushbu tekshiruv usuli kasallik va uning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda yordam beradi. Shuni e‘tiborga olgan xolda biz bir vaqtda kasallik va uning rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi omillar haqida ma‘lumot to‘playapmiz.

Tadqiqotning quyidagi afzalliklari mavjud:

1. Tarqalganlikni tekshirish.
2. Bajarish tezligi.
3. Moliyaviy xarajatlarning pastligi (boshqa turdagi tadqiqotlarga nisbatan).
4. Surunkali kasalliklarni o'rganish uchun qulay.
5. Ko'p sonli xavf omillarni o'rganish imkoniyati.
6. Bir nechta natijalarni o'rganish qobiliyati.
7. Bir vaqtning o'zida bir nechta ketma-ket tadqiqotlar davomida hodisa / kasallik tarqalish dinamikasini baholash imkoniyati.
8. Keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun asosni shakllantirish (sabab-oqibat gipotezalarini ishlab chiqishga hissa qo'shish).

Bir vaqtli tekshiruv usulida dastlab - keyinchalik tekshiruv yo'li bilan aniqlik kiritmoqchi bo'lingan ishchi gipoteza tuziladi, so'ng esa tekshiruv rejalashtiriladi. Ushbu usul barcha populyatsiyani qamrab olmaydi, kerakli birlik o'rganilayotgan populyatsiyadan representativ yo'l bilan ajratib olinadi. Representativlikni ta'minlash uchun bir necha xil usullar mavjud, ulardan biri tasodifiy tanlov usuli. Tadqiqotimizda tasodifiy tanlov printsiptini qo'llamoqdamiz. Farg'ona shahrida COVID – 19 ni boshidan o'tkazgan 18- 60 yoshdagi erkak va ayol aholi ro'yxati olinyapti. Ulardan representativ guruh tuziladi, tasodifiy tanlov printsipti qo'llaniladi, ya'ni shahardagi COVID – 19 bilan xastalanib o'tgan aholi tekshiruv o'tkazish uchun o'tkazilgan tanlovga tushish imkoniyati birday teng bo'lishi kerak. Shu yo'l bilan 1600 ta dan kam bo'lmagan COVID – 19 a A shakllantiriladi:

Yosh/jins	18- 29	30- 39	40- 49	50- 59	≥18 – 59
Erkaklar	200	200	200	200	800
Ayollar	200	200	200	200	800
Ja'mi	400	400	400	400	1600
Nazorat guruhi	50	50	50	50	200

Xalqaro miqiyosda populyatsiyani shu tarzda tekshiruv uchun shakllantirish tavsiya etilgan, chunki shunday usul qo'llanilgan, olingan natijalar minimal statistik talablarni qondiradi.

Keyingi bosqich. To'plangan ma'lumotlarni qayta ishlab, natijalar tartibga solinadi. Statistik ishlovda COVID – 19a A ning klinik – demografik tavsifini baholash va COVID – 19 og'irligini tahlili o'tkaziladi. Koksning ko'p omilli regressionli modeli tuziladi va boshqa an'anaviy statistika usullaridan foydalaniladi. Olingan natijalarni statistik tahlili: Excel - 2020 dasturiy ta'minoti yordamida amalga oshiriladi. Xatar omillarini prognostik ahamiyatlari regressionli (diskriminantli va ko'p sonli qadamma- qadamli) tahlil yordamida

baholanadi. Styudent – Fisher mezonlaridan foydalaniladi, qo'shimcha ravishda korrelyatsiya tahlili qo'llaniladi.

Tadqiqotning maqsadi postkovid holatning epidemiologiyasi va klinik ko'rinishlarini o'rganish, davolash - profilaktika usullarini Farg'ona vodiysi sharoitida optimallashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari- postkovid holatning epidemiologiyasini $\geq 18-70$ yoshli Farg'ona aholisi orasida o'rganish va baholash;

- Farg'ona aholisi orasida postkovidli holatning genderli va yoshga bog'liq xususiyatlarini o'rganish va baholash;

- Farg'ona vodiysi sharoitida postkovidli holatning asosiy klinik sindromlari va belgilarini o'rganish va baholash;

- Postkovidli holat bilan mijoz - populyatsiyani Farg'ona vodiysi sharoitida olib borishning muntazam amaliyotini farmakoepidemiologik tahlil qilish va baholash;

Tadqiqotning predmeti sifatida EKG, qon bosimi, antropometrik o'lchovlar, venoz qon, UTT hamda so'rovnoma tadqiqot usullaridan olingan ma'lumotlar olinmoqda

Tadqiqotning usullari. Postkovidli holatni katta yoshdagi aholida baholashda so'rovnomali, umumklinik, biohimik va instrumental, statistik tadqiqot usullari qo'llanilmoqda.

So'rovnomali usul qo'llanilib postkovidli holatning rivojlanishiga eng moyil omillar aniqlanadi va baholanadi: 50 yoshdan oshgan shaxslar; kovid infeksiyasining og'ir shaklini o'tkazganlar va uzoq o'pka ventilyatsiyasida bo'lgan shaxslar; surunkali kasalliklari bo'lgan aholi guruhlari- surunkali yurak yetishmovchiligi, o'pka patologiyasi, arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi, semizlik, qandli diabet, autoimmun kasalliklar kabilar bilan kasallangan shaxslar.

XULOSA

Tibbiy tadqiqotlarni to'g'ri rejalashtirish dalillarga asoslangan tibbiyotning ajralmas qismidir. Postkovid holati epidemiologiyasi ustida qilinayotgan tadqiqotimizda bir vaqtli tadqiqot usulini qo'llashning quyidagi afzalliklari bor : postkovid holati epidemiologiyasi, klinik ko'rinishlarini aniqlash; bajarish tezligi; surunkali kasalliklarni o'rganish uchun qulay; ko'p sonli xavf omillarni o'rganish imkoniyati; bir nechta natijalarni o'rganish qobiliyati; bir vaqtning o'zida bir nechta ketma-ket tadqiqotlar davomida hodisa/kasallik tarqalish dinamikasini baholash imkoniyati; keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun asosni shakllantirish (sabab-oqibat gipotezalarini ishlab chiqishga hissa qo'shish).

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Рекомендации по оформлению дизайна исследования А.П. Серeda, М.А. Андрианова// травматология и ортопедия россии / Traumatology and orthopedics of Russia 2019;25(3)

Setia M.S. Methodology series module 3: Cross-sectional studies. Indian J Dermatol. 2016; 61(3): 261-264. <https://doi.org/10.4103/0019-5154.182410> PMID:[27293245](https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/27293245/)

2.<https://doi.org/10.47093/2218-7332.2021.12.1.4-17> Дизайн научных исследований в медицине Н.М. Буланов1,*, О.Б. Блюсс1,2, Д.Б. Мунблит1,3, Н.А. Неклюдов1 , Д.В. Бутнару1 , Х.Б. Кодзоева1 , М.Ю. Надинская1 , А.А. Заикин1,4

3.Setia M.S. Methodology series module 3: Cross-sectional studies. Indian J Dermatol. 2016; 61(3): 261-264. <https://doi.org/10.4103/0019-5154.182410> PMID:[27293245](https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/27293245/)

4.Поперечные исследования: планирование, размер выборки, анализ данных

5. World Health Organization. Listings of WHO's response to COVID-19. <https://www.who.int/ru/news/item/29-06-2020-covidtimeline>.

6. COVID-19 Dashboard by the Center for Systems Science and Engineering at Johns Hopkins University. [https:// coronavirus.jhu.edu/map.html](https://coronavirus.jhu.edu/map.html)

7.Wells, Athol U, et al. «Interstitial Lung Disease after COVID-19 Infection: A Catalog of Uncertainties» Radiology. 2021; 299 (1): E216-E218. DOI:10.1148/ radiol.20212044828.

8.Guler SA, Ebner L, et al. Pulmonary function and radiological features 4 months after COVID-19: first results from the national prospective observational Swiss COVID-19 lung study. Eur Respir J. 2021; 57 (4): 2003690. DOI: 10.1183/13993003.03690-2020.

9.Halpin SJ, McIvor C, Whyatt G, et al. Postdischarge symptoms and rehabilitation needs in survivors of COVID-19 infection: A cross-sectional evaluation. J Med Virol. 2021; 93 (2): 1013-1022. DOI: 10.1002/jmv.26368.

ANTHROPOMETRIC INDICATORS OF CHILDREN

Isaqova Nasiba Raxmatjonovna

Ferghana medical institute of public health.

Anthropometric: *parameters of children under 18 years old living in the Fergana region were studied by age, gender and region. Based on the data obtained, the anthropometric parameters of children were analyzed. It was found that constipation caused by various diseases of the large intestine, common in children, has a negative impact on the anthropometric parameters of children.*

Key words: *anthropometric indicator, physical development, endogenous and exogenous factors, constipation.*

АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ДЕТЕЙ

Исакова Насиба Рахматжоновна

Ферганский медицинский институт общественного здоровья

Изучены антропометрические параметры детей до 18 лет, проживающих в Ферганской области, по возрасту, полу и региону. На основании полученных данных проанализированы антропометрические параметры детей. Было обнаружено, что запор, вызванный различными заболеваниями толстой кишки, часто встречающимся у детей, оказывает негативное влияние на антропометрические показатели детей

Ключевые слова: *эндогенные и экзогенные факторы, запор, антропометрический показатель, физическое развитие.*

INTRODUCTION

Physical development reflects the processes of growth and development of the body at certain stages of ontogenesis when genotypic information is manifested phenotypically under the influence of environmental factors. Anthropometric data is used not only in medicine, but also in criminalistics to describe and identify criminals. The obtained data are compared to some parts of the body (head, neck, chest, abdomen and groin, arms and legs) and their growth or changes are monitored.

It is known that one of the important indicators of the human body is its physical development, and this indicator studies the morphological and functional parameters that are the basis of a holistic and multifaceted assessment of health. One of the most relevant issues of age-related morphology is the study of growth and body weight of children and adolescents of different ages. Anthropometry - quantitatively describes the changes in all characteristics of human body parts (length, width, thickness, shape, color, etc.)

According to the authors, the indicators of physical development of the population living in the mountainous regions have several differences compared to the population in other regions. It is also recognized that anthropometric indicators in different age periods are significantly dependent on climatic and geographical factors as a multifactorial process.

Accordingly, the environmental factors affecting the physical development of children and adolescents require individual and cross-regional study based on the lifestyle and health status of each organism.

When the anthropometric indicators of children aged 7-12 years, of primary school age, living in low mountain areas are studied depending on gender, age and external environment, the body weight increases 1.5 times in boys and 1.9 times in girls, and the most intensive growth in boys is at 9 and 11 years, and in girls and it is observed at 11 and 12 years old. When studying the anthropometric and somatotypological characteristics of people aged 16-21 years living in Penza and Penza region, their regional characteristics are body length (up to 0.5-2.5%), weight (up to 1-10%), chest width and its circumference. (up to 2-8%) was found to be less.

It is known that the physical development of children is significantly influenced by the climate, living conditions, daily routine, eating habits, and experienced diseases. Afanasievskaya Yu.S. according to his research, it was found that there is a difference in anthropometric and somatotypological characteristics of the population aged 16-21 living in Krasnodar and Krasnodar region compared to other regions.

According to the authors, the level of physical development of children is influenced by genetic factors, constitution type, intensity of metabolism, endocrine background of the body, activity of blood enzymes and fluids of digestive glands. In 2013, Orlova M.I. studied the factors affecting the anthropometric indicators of the fetus and observed the dynamics of the child's development indicators in the period from birth to 1 year. In this case, he gave his conclusions based on the influence of external environmental factors, the child's diet, natural and artificial nutrition. By studying the effects of endogenous and exogenous factors using modern regional standards of physical development, it is possible to optimize preventive examinations of the child population.

Reaksiya qaytar bo'lganidan uni amalga oshirish uchun spirtga to'yinguncha quruq vodorod galogenidlar yuboriladi yoki spirt galogenid kislotaning konsentrlangan eritmasi bilan qizdiriladi. Ba'zan vodorod bromid o'rniga uning tuzi (NaBr, KBr) bilan konsentrlangan sul'fat kislota olinadi. Spirtning tuzilishi va galogenid kislotalardagi galogenlarning tabiatiga qarab, reaksiya tezligi turlicha bo'ladi. Aldegidlar kimyoviy reaksiyalarga moyil birikmalardir. Ulaming yuqori reaksiyaga kirishish qobiliyati asosan tarkibidagi funksional-karbonil guruhning borligidandir. Karbonil guruhidagi qo'sh bog' xuddi alkenlardagi qo'sh bog'ga o'xshash bo'lib, δ va π -bog'lardan tashkil topgandir. Lekin uglerod-uglerod orasidagi qo'sh bog'ga nisbatan uglerod-kislorod oralig'idagi qo'sh bog' karbonil guruh kuchli qutblangan bo'ladi. Bunga sabab, kislorod atomining uglerodga nisbatan elektromanfiy element ekanligida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Z. Sobirov. Organik Kimyo. –Toshkent: “Aloqachi” nashriyoti, 2005
2. Pirmuhammedov I. M. Organik kimyo. -Toshkent: “O'zbekiston”, 1992
3. Axmedov K.N., Yo'ldoshev X.Y. Organik kimyo usullari. -Toshkent: “O'qituvchi”, 1998
4. Umarov V. Organik kimyo. -Toshkent: “Iqtisod”. 2007 yil

**«MAKTAB INFORMATIKA DARSIDA 3D MODELLASHTIRISHNI O'RGATISH
METODIKASI**

Jalilova Gulrux Ruxiddinova

*Toshkent viloyati Parkent tumani Xalq ta'limi vazirligi qarashli
49-maktabning matematika informatika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada informatika darslarida 3D modellashtirishni talablari va xususiyatlari tahlil etiladi. Dars davomida o'quvchilar 3D modellashtirish yo'llari o'rgatib o'tilgan. Hozirgi kunda zamonaviy fanda hamma narsa rivojlanishda bo'lgani kabi modellashtirish yo'llari berilgan.*

Kalit so'zlar: *3D modellashtirish, davlat standarti talabi, informatika.*

3D bosib chiqarish texnologiyalari har qanday raqamli tasvirni "uyda" qayta ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan, uch o'lchamli jismoniy ob'ektga aylantirish imkonini beradi. Agar o'ylab ko'rsangiz, vaqt o'tishi bilan ushbu texnologiyalar oddiy foydalanuvchining xatti-harakatini tubdan o'zgartirishi kerak: u ommaviy ishlab chiqarish unga beradigan narsalarni passiv iste'mol qilish o'rniga, u o'ziga kerak bo'lgan narsalarni mustaqil ravishda va aniq shaklda yaratishi mumkin. Ular uni to'liq qondiradi. Insonni o'rab turgan moddiy dunyo noyob va mualliflik qilish uchun barcha imkoniyatlarga ega.

Aslida 3D bosib chiqarish unchalik yangi texnologiya emas. Uning hikoyasi 1984-yilda boshlangan. Amerikalik Charlz Xull fotopolimerlanadigan kompozit materiallardan (PPC) raqamli modellardan 3D ob'ektlarni chop etish uchun "stereolitografiya" (SLA) texnologiyasini ishlab chiqdi. 1985-yilda Mixailo Feigen qatlamli materialdan uch o'lchamli modellarni qatlam-qatlam shakllantirishni taklif qildi: plyonkalar, poliester, kompozitlar, plastmassa, qog'oz va boshqalar, qatlamlarni isitiladigan rolik yordamida bir-biriga mahkamlangan. Ushbu texnologiya laminatsiya ob'ektlarini ishlab chiqarish (LOM) deb ataladi. Aslida, choyshablar bir-biriga yopishtirilgan va lazer konturni kesib tashlaydi. Biroz vaqt o'tgach, volumetrik modellar turli xil materiallar qatlamlaridan shakllanishni o'rgandi. Keyin boshqa 3D bosib chiqarish usullari paydo bo'ldi, lekin ular asosan sanoat va yuqori ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishda qo'llanildi. Fused deposition modeling (FDM) 1980-yillarning oxirida ixtiro qilingan va allaqachon 1995-yilda "3D printer" va "3D bosib chiqarish" tushunchalari paydo bo'lgan. Gap shundaki, aynan shu usul uyda tez prototiplashni qo'llash imkonini berdi: polimer ipdan modellarni shu tarzda yaratadigan nisbatan kichik qurilmalar paydo bo'ldi. 3D bosib chiqarish - kuchli ta'lim vositasi bo'lib, bolada nafaqat tayyor modellardan foydalanish, balki o'zinikini yaratish odatini uyg'otishi mumkin. Yangi texnologiyalar paydo bo'lishidan ta'limning ikkita asosiy afzalliklari: endi o'qituvchining o'zi uch o'lchamli ko'rgazmali qurollarni yaratadi, ularsiz materialni tushunish qiyin; 3D-printerlar o'rganishni amaliyotda qo'llash imkonini beradi:

talabalar mustaqil ravishda o'zlarining dizayn va dizayn g'oyalarini o'zida mujassam etgan modellar va kerakli detallarni yaratishlari mumkin. "3D modellashtirish" o'qitish metodologiyasining dolzarbligi bir qator omillar bilan bog'liq bo'lib, ulardan eng muhimi quyidagilardir:

Birinchidan, model-axborot muhitining rivojlanishi sharoitida insonning ma'lumotni to'g'ri taqdim etish qobiliyati, ya'ni. axborot modellarini yaratish. Modelni qanday taqdim etish mumkinligini tushunmasdan, odam endi yangi axborot muhitining o'zgaruvchan sharoitlariga to'liq moslasha olmaydi;

Ikkinchidan, asosiy maktabning informatika kursida modellashtirishdan foydalanish masalalarini o'zlashtirish ko'plab umumiy ta'lim muammolarini hal qilishga, shaxsning motivatsion, instrumental va kognitiv resurslarini rivojlantirishga yordam beradi. 3D modellashtirish bugungi kunda kompyuter sanoatida juda mashhur, rivojlanayotgan va ko'p vazifali sohadir. Biror narsaning virtual modellarini yaratish zamonaviy ishlab chiqarishning ajralmas qismiga aylandi. Ko'rinadiki, media-mahsulotlarni ishlab chiqarish endi kompyuter grafikasi va animatsiyasiz amalga oshirilmaydi. Albatta, ushbu sohada turli xil vazifalarni bajarish uchun aniq dasturlar mavjud.

Uch o'lchovli modellashtirish uchun vositani tanlashda, birinchi navbatda, u mos keladigan vazifalar oralig'ini aniqlash kerak. Bizning sharhimizda, shuningdek, dasturni o'rganishning murakkabligi va unga moslashish uchun vaqt kerakligi masalasini ko'rib chiqamiz, chunki uch o'lchovli modellashtirish bilan ishlash oqilona, tezkor va qulay bo'lishi kerak va natijasi yuqori sifatli va eng ijodiy bo'ladi.

Ilgari xorijda 3D modellashtirish maktablarda faqat qo'shimcha fakultativ fan sifatida o'rganilar edi va u yuqori sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan edi. Raqobatbardosh bo'lishga intilayotgan texnika oliy o'quv yurtlari bosqichma-bosqich zamonaviy axborot texnologiyalarini o'qitishga o'tmoqda. Ammo, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kasbga qiziqish va birinchi ko'nikmalar maktabda singdirilishi kerak. Texnik mutaxassisliklarga qiziqishni shakllantirish, fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun biz maktabda 3D modellashtirishni o'rganishga harakat qilmoqdamiz. Maktab o'quvchilariga 3D modellashtirishni o'rgatishning bir necha yo'nalishlari mavjud. Bolalarga AutoCAD bilan tanishish vaboshlang'ich darajada modellashtirish bilan shug'ullanish imkonini beruvchi maxsus texnikalar ishlab chiqilgan.

Modellashtirish liniyasining to'liq mazmuni taqdim etilgan o'quv-uslubiy majmualarda Bosova L.Yu., Henner E.K., Ugrinovich N.D., Gein A.G., Polyakov K.Yu. kabi mualliflarning nomlari mavjud. Ko'pgina mualliflar 8-sinfdan boshlab modellashtirishni ham nazariy, ham amaliy jihatdan ko'rib chiqq boshlaganligi sababli, asosiy modellashtirish vositalaridan tashqari Paint 3 D, Excel, o'qituvchilar va informatika tajribasiga asoslangan yangi dastur - MagicaVoxel ni joriy etish tavsiya etiladi. Ushbu dastur simulyatsiya jarayonini mavjud qiladi. Bu qiziqarli va jozibalidir.

Voksel modellashtirish mavzusi va Minecraft o'yini endi mashhur bo'lganligi sababli, yangi kompyuter fanlari o'qituvchilari modellar va ob'ektlarni amaliyotda o'rganish uchun

MagicaVoxel dasturini joriy qilishlari mumkin. Ushbu dastur hozirda o'qituvchilar orasida mashhur emas, chunki rasmiy veb-saytda barcha tavsif ingliz tilida taqdim etilgan. Bundan tashqari, mashg'ulotlar deyarli yo'q. MagicaVoxelni informatika bo'yicha asosiy darslarga qo'shimcha kurs sifatida qo'llash mumkin. MagicaVoxel juda qulay dastur ekanligini qayd etilgan. Interfeysni tahlil qilib, modellarni yaratish uchun boshqa muhitlarni solishtirgandan so'ng, biz ushbu dastur bo'yicha turli ta'lim muassasalarida o'qish mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin. Dasturning mohiyati kublar - vokselar asosida modelni qurishdir.

Dasturning asosiy afzalliklari:

- 1) Oddiy interfeys;
- 2) Bepul ariza;
- 3) Turli xil operatsion tizimlarga o'rnatish;
- 4) Kompyuter o'yinlarida modellarni realizatsiya qilish;
- 5) Modelni boshqa dasturlarda qo'llash;
- 6) O'rnatish uchun kichik hajmdagi xotira talab qilinadi;
- 7) Yaxshi asboblarga to'plami;
- 8) Ta'lim jarayonida qo'llash mumkin.

Eng boshida kub beriladi, undan tashqariga chiqish mumkin emas. Chapda palitra va cho'tkalar to'plami, o'ngda esa yuklab olishda asosiy bo'lgantayyor modellar. Yuqorida 2 ta dastur rejimi mavjud - Model va Render. Birinchi rejim sizga model yaratish imkonini beradi, ikkinchisida yorug'lik sozlamalari va ob'ekt materialini tanlash bilan kompyuter modelning tasvirini olish jarayoni sodir bo'ladi. Dasturda faqat 3 ta asosiy amal mavjud - bu qurish (qo'shish), kesish - o'chirish (o'chirish), chizish (bo'yoq). Sichqoncha yordamida dasturni boshqarish jarayoni: Sichqonchani o'rta tugmasi - kubni siljitish; Sichqonchani o'ng tugmasi - kubni aylantirish; Sichqonchani chap tugmasi - maydonga chizish.

Dasturning asosiy vositalari: Palitra - kerakli rangni sozlash, almashtirish, gradient qilish, oldingisidan yarim tonna farq qiladigan soyani tanlashga yordam beradi. Cho'tkalar - chizish uchun zarur (6 dona). Chiziq cho'tkasi tekis va egri chiziqlar yaratish uchun ishlatiladi. Center cho'tkasi dumaloq chizmalar (naqshlar) qilish uchun kerak. Naqsh cho'tkasi model yaratishi, uni saqlashi va keyin uni boshqa loyihaga joylashtirishi mumkin. Voksel cho'tkasi kichikroq detallar bilan ishlash uchun bitta voksel bilan bo'yash imkonini beradi, Box buyrug'i esa katta bloklarni chizadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Белова, И.М. Компьютерное моделирование / И.М. Белова. – М.: МГИУ, 2010
2. Богданова, М.В. Особенности преподавания компьютерного моделирования в средней школе // Молодой ученый. / М.В. Богданова, Е.В. Рощупкина. — 2017. — №44
3. Гусева, Е.Н. Информатика: учеб. пособие / Е.Н. Гусева, И.Ю. Ефимова и др. – Магнитогорск: МаГУ, 2008

ONKOLOGIK KASALLIKLARDA LIMFA TUGUNLARIDA MORFOFUNKSIONAL O'ZGARISHLAR

Ibragimova Ziyoda Jalolidinovna

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institute

Аннотация: *Инсонлар ўлимига сабаб бўлаётган юрак-қон томир касалликларидан сўнг ўсма касалликлари 2-ўринни эгалламоқда. Ҳар бешинчи эркак ёки ҳар олтинчи аёлда ўсма касалликларининг у ёки бу тури учрамоқда. Ушбу мақола бачадон ўсмаси касаллиги ва у билан касалланган бемор аёлларда йўғон ичак тутқичидаги лимфа тугунларини морфофункционал ўзгаришларини аниқлашга бағишланган.*

Калит сўзлар: *бачадон ўсмаси, онкологик касалликлар, лимфа тизими, алиментар семизлик.*

MORPHOFUNCTIONAL CHANGES IN LYMPH NODES IN ONCOLOGICAL DISEASES

Ibragimova Ziyoda Jalolidinovna

Ferghana medical institute of public health.

Annotation: *Tumors are the second leading cause of human death after cardiovascular diseases. Every fifth man or every sixth woman has one or another type of cancer. This article is devoted to determining the morphofunctional changes of the lymph nodes in the mesentery of the colon in women with uterine tumor disease.*

Key words: *uterine tumor, oncological diseases, lymphatic system, alimentary obesity*

МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ЛИМФАТИЧЕСКИХ УЗЛОВ ПРИ ОНКОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ

Ибрагимова Зиёда Жалолидинова

Ферганский медицинский институт общественного здоровья.

Аннотация. *Опухоли являются второй по значимости причиной смерти человека после сердечно-сосудистых заболеваний. Каждый пятый мужчина или каждая шестая женщина болеет тем или иным видом рака. Данная статья посвящена определению морфофункциональных изменений лимфатических узлов брыжейки толстой кишки у женщин с опухолевым заболеванием матки.*

Ключевые слова: *опухоль матки, онкологические заболевания, лимфатическая система, алиментарное ожирение.*

КИРИШ

Инсонлар ўлимига сабаб бўлаётган юрак-қон томир касалликларидан сўнг ўсма касалликлари 2-ўринни эгалламоқда. 2012-йилда 8 млн инсонда онкологик касалликлар натижасида ўлим ҳолати қайд этилган. ЖССТ нинг 2018-йил 12-сентябрдаги маълумотига кўра, 18 млн инсонда онкологик касаллик қайд этилиб, шундан 9.6 млн инсоннинг ҳаёти ўлим билан яқунланган. Ҳар бешинчи эркак ёки ҳар олтинчи аёлда ўсма касалликларининг у ёки бу тури учрамоқда.

Онкологик касалликлар таснифланганда бачадон ўсмалари барча жинсий тизим аъзоларининг ўсмалари орасида биринчи ўринни эгалламоқда. Ҳозирги кунда инсон организмнинг турли сохаларида жуда кўп учраётган ўсма касалликлари бачадонни ҳам четлаб ўтгани йўқ. Бачадондаги ўсма касалликлари хавfli ва хавфсиз турларда учраб, инсонларни саросимага солиб қўймоқда. Кўпгина морфологларнинг фикрича, ўсма ҳужайраларининг лимфа системаси орқали тарқалиши ва шу жумладан бачадон ўсма касалликлари келиб чиққанда ёки бу ўсма касалликларини даволаш жараёнидан сўнг унинг атрофидаги органларнинг лимфа тугунларида ўзгаришларни келтириб чиқаради.

Чаноқ бўшлиғида жойлашган органлар лимфа тугунлари ва лимфа томирларидаги ўзгаришлар йўғон ичак тутқичидаги лимфа тугунларида иммуноморфологик ўзгаришларни келтириб чиқаради. Ушбу ўзгариш айниқса бачадон ўсмаларини химиявий ва нур бериш усуллари билан ўрганишда чаноқ бўшлиғидаги ва унинг атрофидаги лимфа тугунларининг морфоструктурал ҳамда иммунлогик ўзгаришларини ўрганиш охириги вақтларда патоморфолог ва онкологлар олдидаги долзарб муаммо бўлиб қолмоқда.

Лимфа тизими организм иммун системасини шаклланишида иштирок этади. Организмнинг иммун системасига бир қанча омиллар таъсир кўрсатади: зарарли одатлар, нотўғри овқатланиш, ортиқча вазн, камҳаракат ҳаёт тарзи ва бошқалар. Ҳозирда дунё бўйича 2 млрд инсон ортиқча вазндан азият чекмоқда. Шундан 200 млн эркаклар ва 300 млн аёллар ташкил этади. Ҳар 10-бола семизликка дучор бўлган. Ҳар 10 йилда бу кўрсаткич 10 % га ортиб бормоқда. Алиментар семизлик оқибатида юрак-қон томир касалликлари, меъда-ичак касалликлари ва бунинг натижасида моддалар алмашинув жараёнининг бузилиши келиб чиқади. Метаболизмнинг бузилиши организм иммун фаолиятининг сусайиши лимфа тизимидаги ўзгаришларни келтириб чиқаради(Н. Ю.Дробижев, 2009);

Яна шуни таъкидлаш жоизки, ўсма касалликлари асосан кўп миқдорда гўшт истеъмол қилиш ва клетчаткаларга бой мева-сабзавотларни кам ейиш оқибатида келиб чиқишини Фарҳод Даутов, Тошкент Врачлар малакасини ошириш институтининг “Проктология” кафедраси профессор-олимлари исботлашган. Чунки гўштли овқатлар организмда ёғ кислоталарининг йиғилишига олиб келади, бу эса овқат ҳазми жараёнида кансероген моддаларни кўпайтиради.

Бу долзарб муаммо юзасидан кўпгина давлатларда бир қанча илмий тадқиқот ишлари олиб борилган. Жумладан, Россияда аспирант Д.Б.Астафаева, б.ф.н. Р.Ш.Тайгузин, проф. Э.Г. Хабибуллин 2007-йилда йўғон ичак лимфа тугунларини ўрганилиб, унинг микроскопик характеристикасини ҳайвонлар устида олиб борган тажриба асосида исботлаб берган.

Йўғон ичак саратон касаллигида иммунотерапиянинг бир қанча аспектларига бағишланган илмий тадқиқот ишлари орқали онкологик касалликларда иммунотерапияни қўллашнинг афзалликлари, ёмон сифатли ўсма касалликларини келтириб чиқарадиган ҳужайраларга қарши иммун системасини компонентлари ўрганилган.

Гематоген йўл орқали (жигар, суяк, ўпкада учрайдиган онкологик касалликлар) ҳамда лимфоген йўл (регионар лимфа тугунлари) орқали ўсма касалликларининг ҳужайралари метастазланади. Аҳолининг саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш борасидаги муаммоси давлат сиёсатининг устивор йўналишларидан бўлиб, у барча мамлакатларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши ҳолатига катта таъсир кўрсатади.

ТАДҚИҚОТНИНГ МАҚСАДИ ВА ВАЗИФАЛАРИ

Тадқиқотнинг мақсади:

- Бачадон ўсмаси билан касалланган бемор аёлларда йўғон ичак тутқичидаги лимфа тугунларини морфофункционал ўзгаришларини аниқлаш

- Бачадон ўсмаси билан касалланган бемор аёлларда йўғон ичак тутқичидаги лимфа тугунларини иммунологик фаолиятидаги ўзгаришларни аниқлаш

Тадқиқотнинг вазифалари

- Бачадон ўсмаси касалликларида йўғон ичак тутқичидаги лимфа тугунларининг морфофункционал ўзгаришларини ўрганиш

- Бачадон ўсмаси касалликларида йўғон ичак тутқичидаги лимфа тугунларининг гистокимёвий ва иммунологик ўзгаришларини ўрганиш

- Бачадон ўсмаларида даволаш муолажаларини ўтказишдаги химиявий препаратларни ҳамда роентген нурлари қўллашдаги лимфа тугунларини патоморфологик ўзгаришларини ўрганиш.

НАТИЖА ВА ХУЛОСА

Онкологик касалликларни диагностика қилиш ва даволаш усуллари борасида кўпгина илмий тадқиқот ишлари олиб борилган. Лимфа томирлари ва лимфа тугунларини ўрганиш борасида ҳам бир қатор ишлар амалга оширилган. Онкологик касалликларни келиб чиқишида лимфа системасининг аҳамияти жуда катта. Чаноқ бўшлиғи органларида учраган онкологик касалликлар шу жумладан, бачадонда учраган ўсма касалликларида ўтказилган даволаш муолажаларидан сўнг унинг атрофидаги органларнинг лимфа тизимига ҳам ўз таъсирини кўрсатмай қолмайди.

Тадқиқот Лимфа тугунлари ичига рангли суюқлик киритиш (инъекцион усул) йўли билан лимфа тугунлари, қон томирлари ва лимфатик синусларни ўрганиш,

лимфа тугунининг гистоморфологиясини ўрганишда Гематоксиллин-еозин бўёғи билан бўяш ҳамда гистохимик усулларида фойдаланиш, лимфа тугунининг ультраструктурасини электрон микроскоп ёрдамида кўриб, олинган гистологик текширув натижаларини статистик таҳлил қилиш усуллар ёрдамида ўрганилди.

Бачадон ўсмаси учраган аёлларда касалликни даволаш амалиётидан сўнг (онкологик оператсиядан ёки нур терапиясидан сўнг) лимфа тугунлари ва лимфатик синусларни гистохимик усуллардан фойдаланиб гистоморфологиясини ўрганиш давомида бачадон атрофида жойлашган йўғон ичакнинг лимфа тугунларидаги ўзгаришларни аниқланади. Бунинг натижасида ўсма касалликларини тарқалишини олиш мумкин.

Бачадон ўсмаси учраган аёлларнинг ёш гуруҳлари орасидаги динамикасини ва ривожланиш тенденцияси аниқланади ва ушбу маълумотлар асосида ижтимоий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш бўйича аниқ, мақсадга йўналтирилган қонунчилик ва амалий характерга эга бўлган қарорларни қабул қилишда ахборот базаси бўлиб хизмат қилади.

Аҳоли орасида касалликнинг реабилитацияси ва касалликни камайтириш бўйича комплекс тадбирлар ишлаб чиқарилишига асос бўлади ва уларнинг профилактикасига доир илмий асосланган тавсиялар тақдим этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ашурова Н.Г., Наврузова Н.О. Доклиническая диагностика заболеваний шейки матки// Новости дерматовенерологии и репродуктивного здоровья. 2017. № 3 4(1). С. 29 - 30.
2. Ф.М.Аюпова, ЮД.Жабборова. Гинекология дарслик.Тошкент-2008 й.
3. ЮД. Джаббарова, Ф.М. Аюпова. Акушерлик дарслик. Тошкент-2013 й.
4. Анализ результатов хирургического лечения рака шейки матки пациенток фертильного возраста -В.С. Наврузова Республиканский онкологический научный центр Министерства здравоохранения Республики Узбекистан.2015й
5. Горобцова В.В., Ковалев А.А. Рак шейки матки: актуальность проблемы, принципы лечения. // Главный врач Юга России. 2016; 1 (48): 63–66.
6. Джемал А., Винеис П., Брей Ф., Торре Л., Форман Д. (редакция) Атлас по онкологии. Издание второе. – Атланта, штат Джорджия: Американское онкологическое общество, 2014
7. Makhmudova G.F. Age-related clinical,anatomical and morphological features of malignant tumors of the cervix// Journal of science and technology//2021.
8. Marlow LA, Waller J, Wardle J. Barriers to cervical cancer screening among ethnic minority women: a qualitative study. J Fam Plann Reprod Health Care 2015; 41 (4): 248–54.

INSON HUQUQLARI MASALASIDAGI QARASHLAR, ULARNING BUGUNGI KUN UCHUN AHAMIYATI

Yuldasheva Husnidaxon

O'zbekiston respublikasi Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annatsiya: *Ushbu maqolada inson huquqlari masalasidagi qarashlar, ularning bugungi kun uchun ahamiyati hamda O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurilishining asosiy shartlari–dan biri shaxsning asosiy huquq va erkinliklari himoyasini rag'batlantirish va jamiyatdagi har bir inson huquqlarining amaliy kafolatlari tizimini yaratish haqida yoritilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются взгляды на вопросы прав человека, их актуальность на сегодняшний день, а также одно из основных условий построения демократического правового государства в Узбекистане- стимулирование защиты основных прав и свобод личности и создание системы практических гарантий прав каждого человека в обществе.*

Annotation: *This article discusses views on human rights issues, their relevance today, as well as one of the main conditions for building a democratic rule of law in Uzbekistan - stimulating the protection of fundamental rights and freedoms of the individual and creating a system of practical guarantees of the rights of every person in society.*

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurilishining muhim shartlaridan biri har bir shaxsning asosiy huquq va erkinliklari himoyasini va jamiyatdagi har bir inson huquqlarining amaliy kafolatlari tizimini yaratishdir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Konstitutsiyamizda oliy qadriyat sifatida belgilab qo'yilgan inson huquqlarini ta'minlash masalasi bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi. Buning uchun sud hokimiyatining chinakam mustaqilligiga erishish naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini albatta barchamiz yaxshi tushunamiz» .

O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi va ichki siyosatida BMTning 1993 yil Inson huquqlari bo'yicha Ikkinchi umumjahon konferentsiyasida tasdiqlangan «inson huquqlari shak-shubhasiz universal xususiyatga ega, ularning himoyasi esa tegishli davlatlarning qonuniy ehtiyojidir» degan printsipga asoslanadi.

Yurtimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida maqsadli ishlar olib borilmoqda. Qonun hujjatlarining butun bir tizimi ishlab chiqilib, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar muvaffaqiyatli ishlab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, qo'shilgan birinchi xalqaro huquqiy hujjat «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» edi. Bu O'zbekistonning inson huquqlarini rivojlantirish, himoya etish va kafolatlash borasidagi haqiqiy maqsadlarini bildiradi. Bugungi

kunda, O'zbekiston Respublikasi inson huquq va erkinliklariga oid 70 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatni ratifikatsiya qilgan.

O'zbekiston Respublikasi inson huquq va erkinliklariga oid asosiy hujjatlarga qo'shilishi bilan, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan printsiplari bosqichma-bosqich milliy huquqiy tizimga implementatsiya qilib borilmoqda.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlar implementatsiyasida BMT konventsiyaviy hujjatlari bo'yicha hisobotlar mexanizmi muhim o'ringa ega. 2011 yilning boshida O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan BMTning asosiy hujjatlari bo'yicha Tashkilotning tegishli qo'mitalariga milliy hisobotlar taqdim etilgan va ko'rib chiqilgan. Xususan, quyidagi hujjatlar bo'yicha hisobotlar topshirilgan:

- Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konventsiya;
- Irqiy kamsitishning barcha turlariga barham berish to'g'risidagi konventsiya;
- Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiya;
- Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konventsiya;
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt;
- Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt.

Shuni ta'kidlash joizki, xalqaro huquqiy standartlarni O'zbekiston milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish jarayoni barqaror, tizimli va ortga qaytmas xususiyat kasb etmoqda. Buning natijasida bir qator qonun va qonunosti hujjatlarining xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan printsiplari va normalari talablariga mosligi qayta ko'rib chiqilmoqda.

Tabiiyki, u yoki bu sohada rejalarning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi emas, balki strategik ustuvorlikni aniqlab olish va qo'yilgan vazifalarning to'liq hal etilishi muammoning yechimidir.

Xalqaro hamjamiyat rivojlanishga bo'lgan huquqqa alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu huquq xalqlar va inson uchun uzviy bo'lib, inson asosiy huquqlarining bir qismi hisoblanadi. Ushbu huquq yakuniy ravishda 1986 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Rivojlanishga bo'lgan huquq to'g'risidagi deklaratsiyada qayd etilgan. Ushbu deklaratsiyada ta'kidlanishicha, rivojlanish har tomonlama iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyot bo'lib, unda ishtirok etgan barcha shaxslar farovonlikdan teng ravishda adolatli foydalanishi va unda faol ishtirok etishiga yo'naltirilgandir. Ta'kidlanganidek, inson rivojlanish jarayonining asosiy sub'ekti bo'lib, rivojlanishga bo'lgan huquqning faol ishtirokchisi bo'lishi zarur.

Ko'pchilik demokratik davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, milliy darajada inson huquqlar va ayniqsa, «birinchi avlod» huquq va erkinliklarini ta'minlash va himoyalashning samarali mexanizmini yaratmay turib, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni tashkil etish mumkin emas. Shaxsiy huquq va erkinliklarni amalda ta'min etish har bir davlatning barqaror va izchil rivojlanishining asosidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasiga ko'ra davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar. Korruptsiya o'z mazmun mohiyati bilan mazkur konstitutsiyaviy qoidaga mutalaqo ziddir. SHunday ekan davlat va uning organlari davlatning konstitutsiyaviy asoslariga rahna solishi mumkin bo'lgan bunday huquqbuzarliklarga qarshi barcha kuch imkoniyatini ishga solishi kerak.

Mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashda juda muhim bo'lgan ikki hujjat, O'zbekiston Respublikasining "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni va uning asosida davlat rahbarining "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatlar o'z mazmun mohiyati, maqsadi bilan mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashning yangi bosqichini boshlab berdi, deyishimiz mumkin. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev o'zining saylovoldi ma'ruzalaridan birida "bugungi kundagi yana bir ustuvor vazifamiz – mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'layotgan yovuz illat, ya'ni, korruptsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarlikning oldini olish masalalarini samarali hal etishdan iborat"ligini ta'kidlagan edi.

Bu illatni aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan muvosiiz munosabatni shakllantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish, shu jumladan korruptsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta'limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish kabi vositalardan faol foydalanish lozim bo'ladi.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda yangi davr boshlandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1995–2005-yillarni kurrimizda Inson huquqlari o'n yilligi deb e'lon qildi. Inson huquqlarini himoya qilish Mustaqilligimiz qomusi bo'lmish Konstitutsiyaning asosiy tamoyillari, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy tizimini tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishi va yakuniy maqsadidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis VI sessiyasida, Konstitutsiyaning to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishida va Vazirlar Mahkamasining O'zbekistonning 1996-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yakunlari hamda 1997-yildagi iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida qilgan ma'ruza va nutqlarida inson huquqlari sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi besh strategik yo'nalish belgilab berilgan:

– birinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini ta'minlash;

– ikkinchidan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish;

– uchinchidan, qabul qilingan qonunlarga og'ishmay amal qilish mexanizmini ishlab chiqish va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta'minlash;

– to'rtinchidan, sudlov islohotini amalga oshirish yo'li bilan butun sud tizimini demokratlashtirish;

– beshinchidan, aholi, ayniqsa, yoshlar va mansabdor shaxslar o'rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish.

Inson huquqlari muammosi – hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridandir. Inson huquqlari – bu jamiyatning eng oliy qadriyati, himmatidir. Inson huquqlari – bu butun insoniyatning intilishlari, orzu-umidlarini o'ziga jamlagan keng qamrovli tushunchadir.

Inson huquqlari – bu hozirgi taraqqiyotning asosi va davr talabidir.

Inson huquqlari – bu demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Inson huquqlari har bir davlatning demokratik taraqqiyoti darajasini ko'rsatuvchi muhim mezondir. Shuning uchun ham inson huquqlari xalqaro huquqda va milliy huquqiy tizimda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston respublikasi Qonunga sharhlar / A.H. Saidov va boshq.; Inson huqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, T.: “Vektra-Press”, 2009 – 272 b.

2. A. Saidov, T. Ikramov, Yu. Ahmedov. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. Darislik. Toshkent: 2002. – 456 b.

3. A. X. Saidov *Общепизнаемые права человека Учебное пособие.* – Moskva, MZ PRESS, 2002. – 267 s.

4. A. X. Saidov, A. SH. Jo'zjoniy “SHARQ TSIVILIZATSIIYaSI: INSON VA HUQUQ” (o'tmish va hozirgi zamon). Toshkent “Adolat”, 2005. – 272 b.

5. A. X. Saidov, F. X. Bakaeva *Konstitutsiya Respubliki Uzbekistan i prava cheloveka: ot norm k realizatsii.* – T.: Natsionalnyy tsentr Respubliki Uzbekistan po pra-vam cheloveka, 2010. – 128 s.

6. Abdunazarova, Dilfuza Tukhtasinovna, Maxfuza Madraximova, and Shuhrat Madrahimov. "SOLVING EQUATIONS IS FOUNDATIONAL FOR MIDDLE AND HIGH SCHOOL MATH." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 3.5 (2021): 7-10.

7. Axmedovna, Madraximova Maxfuza, Turdaliyev Sodiqjon Muminjonovich, and Abduraxmonov Dilmurod Akramaliyevich. "CORRELATION COEFFICIENT AS A MATHEMATICAL SOLUTION OF ECONOMIC ISSUES." *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 72-75.

8. Рахматуллаев, М. "Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори СТ Турғунов Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор МР Қодирхонов Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р. Жалалов Т А Ҳ Р И Р Ҳ А Й Ъ А Т И."

9. Shukurovich, Madrahimov Shuhratjon, and Madrahimova Mahfuza Ahmedovna. "Measures For Monitoring And Evaluation Of Power Activity In Higher Education." *JournalNX*: 423-426.

10. Madrakhimov, Shukhrat Shukurovich, and Mahfuza Akhmedovna Madrakhimova. "A HERO WHO SAW THE WAR!" 75-летию Победы Великого народа посвящается: Люди. События. Факты. 2020.

11. Madrakhimova, Mahfuza Akhmedovna, and Maftuna Islomjon qizi Yakubjonova. "CRITERIA OF MONITORING AND EVALUATION FOR EDUCATIONAL ACTIVITIES." Scientific Bulletin of Namangan State University 1.6 (2019): 346-347.

12. Shukurovich, Madrakhimov Shukhratjon, et al. "OPPORTUNITIES TO DEVELOP STUDENTS' TEXT WORKING COMPETENCIES IN LECTURE LESSONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 799-803.

13. Ugli, Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon, et al. "ORGANIZATIONAL FORMS OF COMPUTER SCIENCE EDUCATION." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 790-794.

14. Ugli, Muydinjonov Davlatjon Rafiqjon, et al. "USE OF REMOTE TECHNOLOGIES IN TEACHING COMPUTER SCIENCE." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 785-789.

15. Siddikova, Ahmedova Zebikhon, Marasulova Zulayho Abdullayevna, and Yuldashev Abdurauf Rozmatjonovich. "Innovations and Advanced Foreign Experiences in Teaching Informatics in Higher Education in Interdisciplinary Relations." JournalNX (2021): 371-374.

16. Ruzmatjonovich, Yuldashev Abdurauf. "MODERN SOFTWARE." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 795-798.

17. Turdaliyev, SM va boshqalar. "Axborot xavfsizligini biznes uchun strategik qilish." ACADEMICIA: Xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali 11.4 (2021): 1019-1021.

18. Muydinjonov, Davlatjon R. "Uch singulyar koeffitsientli Helmgolts tenglamasi uchun Xolmgren masalasi". Elektron tahlil va amaliy matematika jurnali 2019.1 (2019): 15-30.

19. Muydinjonov, Ziyodjon, and Davlatjon Muydinjonov. "INFORMATION, COMMUNICATION AND TECHNOLOGY (ICT) IS FOR TEACHER AND STUDENT." (2022).

IQTISODIY O`SISH TAHLILI VA MODELLARI

Narimov Jandarbek Anarmatovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada iqtisodiy barqarorlik, o`shish haqidagi tahliliy fikrlar ilgari surilgan. Jumladan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi nimalarga bog`liq ekani haqida to`xtalib, asosiy ishtirokchi mexanizmlari keltirib o`tilgan. Shuningdek, bu borada mamlakatimiz erishayotgan yutuqlar aniq raqam va faktlar bilan keltirib o`tilgan.*

Kalit so`zlar: *iqtisodiy o`shish, davlat, infratuzilma, intensive o`shish, rag`batlantirish.*

In this article: *the analytical opinion about economic stability and growth is put forward. In particular, the economic development of the country was discussed, and the main participating mechanisms were mentioned. Therefore, the achievements of our country in this regard are stated with specific figures and facts.*

Key words: *economic growth, state, infrastructure, intensive growth, stimulation.*

Har bir davlatning siyosati mamlakatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, millat farovonligini oshirishga qaratilgan. Davlat ushbu ko'rsatkichni oshirishga urinishda qanday usullardan foydalanish kerakligi haqidagi savolga duch keladi. Iqtisodiy o'sish tushunchasini ta'riflashda ko'plab yondashuvlar mavjud. Ko'pgina ko'rsatkichlar taqqoslanadi, ko'plab formulalar, omillar keltiriladi, bu tushunchaning qanchalik murakkab va qarama-qarshi ekanligini va uni bashorat qilish va rag'batlantirish qanchalik qiyinligini ko'rsatadi. Bu mavzuning dolzarbligi shubhasiz, chunki mamlakatda iqtisodiy o'sish birinchi davlat tashkil etilgandan beri ustuvor vazifa bo'lib kelgan va kamida bitta davlat o'z faoliyatini davom ettirar ekan, dolzarb bo'lib qoladi.

Masalan, mashinalar sonining asossiz ko'payishi ularning ba'zilarining ishlamay qolishiga va yo'qotishlarga olib keladi. Ish kuchi, yer, kapital xarajatlarning ko'payishi bilan ham xuddi shunday bo'ladi. Bunday resurslarga innovatsiyalar, yangi ishlab chiqarish texnologiyalari, boshqaruv texnologiyalari va inson kapitali sifatining o'sishi kirmaydi. Intensiv omillar miqdoriy emas, balki sifat o'zgarishini bildiradi. O'sish mehnat unumdorligi, asbob-uskunalar sifati, innovatsiyalar, modernizatsiya kabi ko'rsatkichlarni oshirish hisobiga erishilmoqda. Yuqori sifatli inson kapitali asosiy intensiv omil sifatida tan olingan. Barqaror o'sish, asosan, mehnat unumdorligini oshirish, barqaror investitsiyalar, raqobatchilarga va umuman iqtisodiyotga nisbatan arzonroq xarajatlar hisobiga erishiladi. Uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sish texnologik taraqqiyot, kapital to'planishi, infratuzilma va iqtisodiy institutlarning yaratilishi kabi omillar bilan ta'minlanadi. Bularning barchasi mehnat unumdorligini oshirish, jismoniy kapitalni oshirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni aytishimiz mumkinki, iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar: 1. Mehnat resurslarining miqdori va sifati; asosiy kapitalning samaradorligi; tabiiy resurslarning miqdori va sifati; boshqaruv samaradorligi; texnologiya

samaradorligi; institutsional omillar. Eng muhim omil - bu mehnat xarajatlari. U birinchi navbatda mamlakat aholisi tomonidan belgilanadi. Shuni yodda tutish kerakki, butun mamlakat aholisini mehnatga layoqatli deb hisoblash mumkin emas. Biroq, ishchilar soni bo'yicha mehnat xarajatlarini hisoblashning ushbu usuli ishlarning holatini to'liq aks ettirmaydi. Ish vaqtining umumiy qiymatini hisoblash imkonini beruvchi ishlagan odamsoat ko'rsatkichi aniqroqdir.⁴⁵ Ish vaqtining narxi aholining o'sish sur'ati, ishlashga intilish, pensiya va ishsizlik nafaqalari darajasi kabi ko'plab omillarni hisobga oladi. Barcha omillar birgalikda mamlakatdan mamlakatga farq qiladi, bu esa iqtisodiy rivojlanish sur'ati va darajalaridagi farqlar uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratadi. Iqtisodiy rivojlanish uchun nafaqat miqdor omillari, balki ishchi kuchining sifati ham katta ahamiyatga ega. Ta'lim va malaka qanchalik yaxshi bo'lsa, mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sish shunchalik yuqori bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, mehnat xarajatlari nafaqat ishchilar sonining ko'payishi, balki ishchi kuchi sifatining oshishi natijasida ham oshishi mumkin. O'sishning eng muhim omili mehnat xarajatlari bilan bir qatorda kapital hisoblanadi. Kapitalga quyidagilar kiradi: uskunalar, binolar, inventar. Kapitalning qiymati to'plangan kapital miqdoriga bog'liq. Kapitalning to'planishi jamg'arish tezligiga bog'liq: ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, kapital qo'yilmalar miqdori shunchalik ko'p bo'ladi. Kapitalning o'sishi kompaniyaning to'plangan aktivlari hajmiga ham bog'liq - ular qanchalik katta bo'lsa, kapitalning o'sish sur'ati shunchalik sekin bo'ladi.

Shuni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, bir ishchiga to'g'ri keladigan kapital hajmi, ya'ni kapital-mehnat nisbati mehnat unumdorligi dinamikasini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bular. kapital qo'yilmalarning bir xil o'sishi bilan, lekin ishchi kuchining tez o'sish sur'ati bilan kapital va mehnat nisbati pasayadi va shunga mos ravishda mehnat unumdorligi pasayadi. Iqtisodiy o'sishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan uchinchi omil - bu yer, shuningdek, tabiiy resurslarning miqdori va sifati. Resurslar qanchalik ko'p bo'lsa, ularning sifati va xilma-xilligi qanchalik yaxshi bo'lsa, mamlakatning iqtisodiy salohiyati shunchalik yuqori bo'ladi. Unumdor erlar va qulay iqlim sharoitlarining mavjudligi ham katta ahamiyatga ega. Biroq, yuqoridagi shartlarning barchasi o'z-o'zidan iqtisodiy o'sishning o'zini o'zi ta'minlovchi omil emas.

Ko'pgina qoloq mamlakatlar katta resurs bazasiga va yaxshi iqlimga ega, ammo ulardan foydalanish samarali emas va shuning uchun iqtisodiy o'sishga olib kelmaydi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti iqtisodiy o'sishning muhim dvigatelidir. U nafaqat jihozlarni modernizatsiya qilish, balki innovatsiyalar, ishlab chiqarishni tashkil etishni boshqarishning yangi usullari va shakllarini ham o'z ichiga oladi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti yakuniy mahsulot hajmini oshirish uchun ushbu resurslarni yangi usulda birlashtirish imkonini beradi. Buning oqibati yangi, samaraliroq ishlab chiqarishlarni yaratishdir. Samarali ishlab chiqarishning o'sishi esa iqtisodiy o'sishga olib keladi. Yuqoridagi barcha omillardan tashqari,

⁴⁵ <https://bodyandface.ru/uz/senses/sovremennye-modeli-ekonomicheskogo-rosta-sravnitelny.html>

iqtisodiyotda katta ahamiyatga ega bo'lgan bir qator ko'rsatkichlar mavjud. Bu ko'rsatkichlar institutsional omillarni o'z ichiga oladi. Ularsiz institutsional omillarni oqilona taqsimlash mumkin emas.⁴⁶

Buni mamlakatimiz misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning dastlabki olti oyida yalpi ichki mahsulot 6,2 foizga o'sdi. Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida pandemiya va lokdaun tufayli iqtisodiyot atigi 1,1% ga, 2021 yilning dastlabki uch oyida esa 3%ga o'sdi.⁴⁷

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari bo'lgan davlatlar iqtisodiyotidagi vaziyat yilning birinchi yarmida barqarorlashib, o'sish tendensiyasi qaytishga intilmoqda. Shunday qilib, Qozog'iston yalpi ichki mahsuloti 2,2%, o'tgan yilning shu davriga nisbatan pasayishiga qarshi 1,8% ga oshdi. Qirg'iziston iqtisodiyotidagi turg'unlik ko'lami asta-sekin pasayib bormoqda - yanvar-iyun oylarida pasayish sur'ati 1,7% gacha sekinlashdi, 2020 yil birinchi yarmida 5,6% qayd etilgan. Xitoy bu yil dinamik o'sishni saqlab turibdi, joriy yilda yarim yillikning oxirida YaIMning 12,7% ga o'sishi qayd etilgan. Rossiyada Rossiya Federatsiyasi Iqtisodiy rivojlanish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, YaIM yanvar-may oylarida 3,7% ga o'sdi.

O'zbekistonda sabzi va o'simlik yog'i kabi ayrim tovarlar uchun jiddiy narx ko'tarilishiga qaramay, iste'mol sektorida inflyasiya sekinlashishda davom etmoqda. Joriy yilning olti oyi yakunlariga ko'ra, narxlar umuman o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 4,4% ga, 2020 yilda esa shu davr uchun - 4,6% ga oshgan. 2021 yilning may oyiga kelib narxlar mavsumiyliги sababli 0,2% kamaydi. Narxlarning eng katta o'sishi oziq - ovqat mahsulotlari uchun qayd etilgan - 5,7% (2020 yilning birinchi yarmi uchun - 6,2%). 2020 yil yanvar-iyun oylarida 3,6% ga nisbatan 3%. Shu bilan birga, xizmatlar narxlari bu yil ham yuqori sur'atlar bilan o'sishda davom etmoqda - 3,1% ga nisbatan 4,1%.

Iqtisodiyotga investitsiyalar oqimi o'tgan yilning va joriy yilning birinchi choragidagi pasayishni bekor qildi va ijobiy dinamikaga qaytdi. Asosiy fondlarga investitsiyalar o'tgan yilning shu davrida deyarli 5,9% pasayishiga qarshi 10% ga oshdi. Markazlashtirilgan mablag'lar hisobiga investitsiyalarni markazlashtirilmaganlarga nisbatan jalb qilishni kamaytirish tendensiyasi mavjud. Byudjet hisobidan investitsiyalar 8,5% ga kamaydi. Hukumat kafolati ostida jalb qilingan investitsiyalar va kreditlar 36% dan ortiqqa kamaydi va ularning umumiy investitsiya hajmidagi ulushi 8,9% ga kamaydi. O'tgan yilning birinchi yarmida 14,9% o'sishiga qarshi, 1,9% ga-markazlashgan bo'lmagan manbalardan investitsiyalar oqimi sezilarli darajada oshdi. Aholi va korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan investitsiyalar biroz oshdi - mos ravishda 4,4 va 4,7% ga. Investitsiyalarning salmoqli oqimi tijorat banklari tomonidan jalb qilingan kreditlar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xorijdan kredit mablag'larining o'sishi bilan bog'liq.

Ishlab chiqarishning ijobiy dinamikasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kuzatiladi. Asosiy drayverlar-sanoat va xizmat ko'rsatish sohasi.

⁴⁶ J. M. Keynes va Xarrod-Domarning iqtisodiy o'sish modellar

⁴⁷ <https://stat.uz/uz/>

Yanvar-iyun oylarida sanoat sektori o'sishning yuqori sur'atlarini namoyish etdi - o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,3% pasayishiga qarshi 8,5%. Tog'-kon sanoati 7,5% (2020 yil yanvar-iyun oylarida 18% pasayish), ishlab chiqarish sanoati – 8,6% (4,9%), elektr, gaz ta'minoti va havoni konditsiyalash – 12,1% (8,4%) o'sdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,7% ga oshdi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish jadal sur'atlarda o'sib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://bodyandface.ru/uz/senses/sovremennye-modeli-ekonomicheskogo-rosta-sravnitelnyi.html>
2. J. M. Keynes va Xarrod-Domarning iqtisodiy o'sish modellar
3. <https://stat.uz/uz/>

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR TARBIYASIDA MAKTABGACHA
TA'LIM, OILA VA JAMIYATNING O'RNI**

Xudoyberganova Shaxodat Baxtiyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tarbiyasiga maktabgacha ta'lim, oila va jamiyatning o'rni qay darajada ekanligi haqida ma'lumot olasiz.*

Kalit so'zlar: *bola tarbiyasi, oila tarbiyasi, jamiyat ta'siri, kichik davlat, tarbiya bo'limlari.*

Аннотация: *Благодаря данной статье вы получите информацию о роли дошкольного образования, семьи и общества в воспитании детей дошкольного возраста.*

Ключевые слова: *детское воспитание, семейное воспитание, социальное влияние, малое государство, образовательные ведомства.*

Abstract: *Through this article, you will get information about the role of preschool education, family and society in the upbringing of children of preschool age.*

Keywords: *child education, family education, community impact, small state, educational departments.*

Tarbiya - ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun, avvalo ,tarbiyalanishi zarur. Abu Lays Samarqandiy «Bo'stonul-orifin» asarida tarbiya va tarbiyalashning ma'nosini ta'riflab: «Ey o'g'il, farzandlaringni tarbiyalashdan oldin o'zingni tarbiyala, tarbiya ko'rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga yetadi», - degan edi. Ibn Sino ijodiyotida ham bu g'oya alohida o'rin tutadi. «Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil», - deydi alloma. Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar.

Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama shaxsni shakllantirish.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tarbiyalanuvchilarning maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;

- jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash;

- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;

- ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarining qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

Tarbiya qonuniyatlari - bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalardir.

Maktabgacha Ta'lim Muassasasining maqsadi: bolalarni o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezilari amalga oshiruvchi ta'lim - tarbiya jarayonini olib borishdir. Maktabgacha Ta'lim Muassasasi maktabgacha ta'lim ustaviga muvofiq bo'lgan zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Bolalar hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlashga doimo g'amxo'rlik qiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda tafakkur faoliyatini tarkib toptirishi, bu hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ularning muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga o'rgatishi lozim.

Bola shakllanishi va rivojlanishida qiziquvchanlik o'ziga xos xususiyatdir. U bolaning tevarakatrodagi voqea-hodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashida, hamma narsani ushlab, his qilib, diqqat bilan kuzatishida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni mustaqil javob qidirishga yo'llab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo'l qo'ymaydi. Bolalarni o'z navbatida tarbiyalab boradi.

Maktabgacha Ta'lim Muassasasi o'z navbatida ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishganlar. Bu esa bola tarbiyasida oila bilan hamkorlikning eng samarali usullaridan biridir. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;

- maktabgacha tarbiya muassasasining yillik ish rejasi to'g'risida;

- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi. Tarbiyachilar bola tarbiyasini shakllantirishda oila tarbiyasiga chambarchas bog'laydilar.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to'rt bo'limga ajratadi:

1. "Tarbiyaning zamoni".

2. "Badan tarbiyasi".

3. "Fikr tarbiyasi".

4. "Axloq tarbiyasi" haqida hamda uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritadi. Shunday ekan bola tarbiyasi bir vaqtning o'zida "Maktabgacha ta'lim", "Oila"

va "Jamiyat" nuqtai- nazarida shakllanib boradi. Biz oilani "davlat ichra kichik davlat"- deb ataymiz. Unda yangi inson, ya'ni davlatning yangi bir vakili dunyoga keladi. Kichik davlat - oila esa bu inson uchun dastlabki hayot dorilfununi bo'ladi. Shu sababli ota - onalar farzandning birinchi o'qituvchisi va tarbiyachisidir. Farzandni barkamol va ma'naviy yetuk qilib o'stirish uchun, eng avvalo ota - onaning o'zi yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lishi kerak. Farzand tarbiyasini ota - onalar o'z shaxsiy ishi deb bilmasliklari kerak. Aslida bola tarbiyasi ota - onaning jamiyat oldidagi fuqarolik burchi va davlat oldidagi mas'uliyati hamda qarindosh - urug'lar oldidagi javobgarligi. Shuning uchun ham ota - ona obro'si farzand tarbiyasida ma'naviy ozuqa bo'ladi. Bu ma'naviy ozuqa bola tarbiyasida "ufq" ni ko'zlab ish tutishda mustahkam poydevor hisoblanadi. Bunday tarbiyalash jarayonida mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo'shib olib boradigan farzandlari hayotiga qiziqadigan va ularga oqilona, odilona rahbarlik qiladigan ota - onalar ijobiy o'rnak bo'ladigan kishilardir, ya'ni obro'li ota - onalardir. Bunday odamlar o'z farzandlari tarbiyasiga oilada ham, maktabgacha ta'limda ham e'tibor beradigan aqlli odamlar, namunali oilalar a'zolari bo'ladi.

Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta faktorlar ta'sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri bo'lsa, ikkinchisi odamga uzoq muddat davomida sistemali beriladigan ijtimoiy ta'lim- tarbiyaning ta'siridir va nihoyat, uchinchisi odamga nasliy yo'l bilan beradigan irsiy omillarning ta'siridir. Shunday qilib, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida bola shaxsini tarbiyalashda oila va jamiyatning ham roli nihoyatda katta ekanligini ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasida maktabgacha ta'lim, Oila va Jamiyatning ham birdek xissasi bordir. Chunki bola oilada ilk bor ta'lim- tarbiya olsa, uni maktabgacha ta'limda yanada shakllantiradi, mustahkamlaydi va qisqa tushuntirish, nasihat yoki o'yinlar orqali tarbiya elementlarini egallaydi. Egallagan tarbiyani esa albatta jamiyat va o'zaro munosabatlarda qo'llaydi. Bu esa bola tarbiyasining asosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Samarqand Qishloq Xo'jalik Instituti. Pedagogika Tarixi va G'oyalari (O'quv uslubiy qo'llanma). Samarqand-2014. 14-bet
2. O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Sh.K. Toshpo'latova va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun o 'quv qo'llanma. (To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri). T.: «ILM ZIYO», 2011. — 184 b.
3. Kushmatova Maftuna Maxamadali qizi. Mavzu: Farzand tarbiyasida oilaviy munosabatlar va tarbiyaning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Bitiruv malaka ishi. Andijon-2017
4. Усаров, Ж. Э., Л. Г. Бобоходжаева, and Н. Юсупова. "Аралаш таълим шакли педагогик таълим кластерининг замонавий ёндашуви сифатида." Science and Education 2.Special Issue 1 (2021): 286-295.
5. Йўлдошев, О. А. "Бошланғич синфларда техноген цивилизациядан фойдаланишнинг педагогик шарт-шароитлари." Science and Education 2.Special Issue 1 (2021): 88-97.

INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Otajonova Barno Sobirjonovna

Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi ingliz tili o'qituvchisi

Annontatsiya; *Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar; *Chet tili, o'yin, ta'lim, dars, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, usullar, metodlar.*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 dekabrda Oliy majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatida 2023 yilni bejizga "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb belgiladi. "Ta'lim sifatini oshirish - Yangi O'zbekiston taqaqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir" deb aytganlaridek, Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori va 2022 yil 16-fevral chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida qarorlarida o'z aksini topgan. Chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innavtsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnoogiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning ro'li beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab

tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'zni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, passive o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi, sinfda o'quvchilar o'rtasida raqobat, ayni paytda jamoadoshlik muhitini hosil qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning ustozlariga bo'lgan hurmatini oshiradi. Bu o'yin tezkor o'yin hisoblanadi. Lekin O'quvchilarga o'ylash uchun biroz vaqt beradi. Bu o'yin birgalikda o'rganishga undaydi, ya'ni boshqa o'quvchilar so'zlayotganida qolgan o'quvchilar o'zlari so'z o'ylayotgan bo'lishadi. O'yinni o'ynash uchun sizga ko'ptokcha kerak bo'ladi. Va hamma o'quvchilar doira shaklida turib olishlari kerak. Birorta mavzu tanlashingiz kerak bo'ladi. Masalan: Things found in a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar), food, profession va hokazo. Biror o'quvchiga to'pni uloqtirish orqali o'yin boshlanadi. O'sha o'quvchi mavzuga doir biror inglizcha so'z aytadi va to'pni keying o'quvchiga uloqtiradi. To'pni qabul qilgan har bir o'quvchi shu mavzuga doir biror so'z aytishi kerak bo'ladi. Agar ular aytilgan so'zlarni qayta aytsa yoki bir necha soniya ichida so'z topa olmasa, ular o'yindan chiqadi va o'yinni o'tirgan holda kuzatadi. Havotir olmang, ular baribir o'rganayotgan bo'ladi. Hozir interfaol mashg'ulotlarni olib borishda ma'lumki, asosan interfaol usullar qo'llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma'lum darajada interfaol texnologiyaga o'sib o'tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o'zaro farqini bizningcha, shunday ta'riflash mumkin. Interfaol ta'lim usuli - har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi. Interfaol ta'lim texnologiyasi - har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi. Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim. Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishli tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan

iborat. Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur. Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi. To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ta'lim texnologiyasining hozirgi taraqqiyot bosqichi ta'lim jarayonida interfaol dars usullarining keng qo'llanilayotganligi bilan xarakterlanadi. Uzoq yillar foydalanilgan o'qitish texnologiyasidagi bir xillik, ta'lim jarayonida o'qituvchi gegemonligi, o'qituvchi tamonidan fanni tayyor, ortiqcha mushohada qilmasdan ham qabul qilinadigan darajaga keltirib o'quvchiga taqdim etishga urinish o'quvchilarning faolligini pasaytirib, ularda ijodiy fikrlash malakasini shakllanishiga to'sqinlik qila boshlagan edi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoniga o'quvchini o'qitadigan emas, balki uni o'qishga, bilim olishga o'rgatadigan interfaol dars usullari ni qo'llashga urinish kuchaydi. Xulosa qilib aytganda, dars samaradorlini ta'minlashni maqsad qilib olgan o'qituvchi interfaol dars usullaridan o'z o'rnida mohirona foydalansagina o'z maqsadiga erishadi. Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;

1. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat.
2. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi
3. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
4. F. M. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish.

ONA TILI FANINI O'QITISHDA IMLOVIY SAVODXONLIKKA DOIR AYRIM QAYDLAR

Lolayeva Ozoda

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs bakalavr

Annotatsiya: *ushbu maqolada O'rta ta'lim maktablarida ona tili fani darslarida fanning o'qitilishiga doir qarashlar aks etgan, ya'ni fan doirasida o'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish uchun o'qituvchi oldiga qo'yiladigan talablar yoritilgan hamda ularning yechimlaridagi imloviy lug'atlarning tutgan o'rni haqda xulosalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ona tili fani, imloviy savodxonlik, imlo lug'ati, imlo qoidasi.*

Til mavjud ekan, so'z uning libosidir. So'zlayotgan so'zimiz, yozayotgan jumllarimiz bexatoligi ana shu libos ko'rkamligini belgilaydi va xato qilmaslik uchun esa imlo qoidalardan boxabar bo'lish darkor. Shu ma'noda leksemalar va so'zlar doirasida imlo qoidalarining ishlab chiqilishi, tilimiz sofligini ta'minlashda o'ziga xos bosqich vazifasini o'tagan va bu boradagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Yozma savodxonlikka erishgan har bir individ quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lmog'i darkor:

- 1) orfografik savodxonlik;
- 2) punktuansion savodxonlik;
- 3) mustaqil fikrlar ketma-ketligida uzilmagan ijodiy matn tuzish savodxonligi;
- 4) davlat hujjatlaridan xabardorlik darajasidagi savodxonlik.

Har bir o'quvchiga o'qituvchi tomonidan 1-4 sinflar oralig'ida asosan orfografik hamda nisbatan oddiyroq nisbatga ega ijodiy matn savodxonlik doirasidagi ko'nikmalar berib boriladi, yuqori 5-11 sinflar oralig'ida esa barcha 4 kategoriyalarni o'z ichiga olgan ko'nikma va malakalar berib boriladi.

To'g'ri yozish qoidalari tilshunos olimlar guruhi tomonidan ishlab chiqiladi, jamoatchilik muhokamasiga havola etiladi va aprotatsiyadan o'tkaziladi. Ushbu jarayonlar o'tkazilagandan so'ng, imloviy qoidalari hukumatning ayni shu doiradagi mutasaddi tashkilotlari tomonidan tasdiqlanadi. Kishilar o'zaro yozishmalarida, rasmiy ish yuritishda, ta'lim jarayonida, madaniy-ma'rifiy faoliyatda tilning imlo qoidalariga amal qilishga majburdirlar⁴⁸. Leksemalar, so'zlar va affikslarning imlosida bir xillikning ta'minlanmasligi yozuvlar jarayonida har xillikni yuzaga keltiradi⁴⁹. Pivardida til qatlamida bir-birini tushunish imkoniyati asta-sekin yo'qola boradi. Shundan kelib chiqib, 1995- yilning 24-

⁴⁸ N. Mahmudov, A. Rafiyev, I. Yo'ldoshev. DAVLAT TILIDA ISH YURITISH. –T. Cho'lpon. 2007. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 128.

⁴⁹ Kholova M. Peech genres of texts and passport mete-metrics in the dialect corpus (Baysun district on the example of the sound "J" dialects) //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – T. 12. – №. 6. – C. 1103-1107.

avgustida tasdiqlangan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”⁵⁰da harflar imlosi, asos va qo‘shimchalar imlosi, qo‘shib, chiziqcha bilan, ajratib yozish, bosh harflar imlosi hamda ko‘chirish qoidalari doir yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatilgan. Umumiy kesimda kirill yozuviga asoslangan o‘zbek yozuvi va lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining qo‘llanishiga doir farqli holatlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, fe‘l so‘z turkumining so‘zlashuv uslubiga oid – *япти* affiksi kel asosiga qo‘shilganda *келаяпти* shaklida yozish me‘yoriy holat hisoblansa, lotin grafikasiga asoslangan imloviy qoidalarga asosan transliterativ *kel(a)yapti* eshitilsa-da, *kelyapti* shaklida yozilishi me‘yoriy holat sifatida belgilangan. Ayni shu kabi orfografik qoidalardagi o‘zgarishlarni –dan affiksi orqali hosil qilinadigan takroriy so‘zlarning ni qo‘llash bilan bog‘liq holatda ham kuzatish mumkin. Ya‘ni: тошдан-тошга – toshdan toshga va hokazo.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-9-sinflar kesimida «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari»dan samarali foydalanishni, kundalik qo‘llanmaga aylantirish o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Yozma nutqda birinchi navbatda uzviylik, davomiylik zarur va har bir so‘z jumlaning oldingisini to‘ldirib borishi, unga aloqador bo‘lishi lozim. Bir-biriga bog‘lanmagan fikrlar esa matnni o‘qiyotgan kishini chalg‘itadi⁵¹. Og‘zaki matn bilan yozma matnning orasida juda katta farq bor. So‘zlashuv nisbatan ma‘lum darajada oson va qulay hisoblanib, xayolga kelgan, hali miyada yaxshi shakllanib ulgurmagan fikrlar avtomatik tarzda tilga ko‘chadi, ya‘ni gapdan keyin gap quyilib kelaveradi. Yozma nutq esa fikrlashni talab qilib, matn yaratish jarayonida o‘quvchining mahorati oshadi. Bu haqda ona tili fanidan davlat ta‘lim standartida o‘quvchidan matn yaratish jarayonida o‘zbek adabiy tili grammatikasining me‘yor va imkoniyatlariga rioya qilish, so‘zlashuv nutqi bilan kitobiy nutq me‘yorlariga amal qilish, gapda so‘zlarni to‘g‘ri joylashtira olish, o‘zgargan tartib va inversiyalardan to‘g‘ri foydalana bilish kabi qobiliyatlarni egallash talab qilinadi⁵².

— Avvalo, har bir inson uchun og‘zaki va yozma nutqning ikkisi ham birdek zarur. O‘quvchilarning ba‘zilarida yozma, ba‘zilarida og‘zaki nutq ustunlik qiladi. Bu — tabiiy. Ularga qo‘yib bersak, ko‘pincha biror mavzuni muhokama qilish jarayonida yozib berishdan ko‘ra gapirishni afzal ko‘rishadi. Ammo bu o‘quvchilarning o‘z fikr-mulohazalarini ta‘sirli jumlar bilan ifodalashiga imkoniyat bermaydi. Shu bois, o‘qituvchi biror asar yoki mavzu haqida, albatta, o‘quvchiga yozma vazifa berishi kerak. Yozma nutqning ustunligi ko‘proq. O‘quvchi o‘z fikrini bayon etishda so‘zlarni tanlab-saralab, ma‘nosini tushunib ishlatadi. Xuddi shu holat bugun o‘quvchilarda susayib boryapti nazarimda. O‘quvchida og‘zaki nutq

⁵⁰ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlash haqida” 339-son qarori. <https://lex.uz/docs/-1625271>

⁵¹ Xolmanova Z. O‘zbek tili imlo qoidalari takomillashtirish davr talabi. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. 2017. – B. 30-33

⁵² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori: Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida/ Hujjat kuchini yo‘qotgan " " 01.09.2020/ <https://lex.uz/acts/-316337>

madaniyatini shakllantirish uchun avval yozdirib, keyin unga hikoya qilib berishni mashq qildirishimiz maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini uyg'un ravishda oshirish maqsadida qiziqarli o'quv materiallari, didaktik o'yinlar, muammoli vaziyat va bahs-munozaralar bilan birga, to'g'ri yozishga o'rgatuvchi turli xil qiziqarli mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shu ma'noda, ta'lim sohasi o'qituvchidan doimiy izlanishni, ijodkorlikni talab etadi.

O'quvchi kichik hajmli matnlarni yaxshi o'zlashtirib olishi uchun, unda matnni yaxshilab o'qish, mazmunida nimaga ishora qilinayotganini tushunish ko'nikmasini shakllantirish lozim.

Matnlar o'quvchilarning yozma nutq faoliyatini rivojlantirish, tushuncha va tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladigan mazmun kasb etishi kerak. Matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilarga yozma nutqni rivojlantirishga oid vazifalar qo'yilishi o'quvchilarning nafaqat fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, balki yozma nutq ko'nikmalarini ham rivojlantirib boradi.

Orfografik malakalarni o'rgatishda :

-eshitilgani kabi yoziladigan harflardan tashkil topgan so'zlarni yozishdan boshlash;

-ochiq va yopiq bo'g'inlarni tushuntirish;

-yozish va tagiga chizish;

-sodda uch bo'g'inli so'zlardan foydalanish usullarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Insho va bayon yozishda:

-rasmli mashqlar: rasm yuzasidan bir qancha savollar berish, rasmga yozma dialog yozish;

-vaziyatli mashqlar;

– matnga oid savollarga yozma javob berish, matnga yozma savollar tuzish, hikoyaga reja tuzish, qisqacha bayon qilish, nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yish kabilar .

Orfografik malakalarni o'rgatish o'qitishning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi va umumta'lim maktablarida yozuvni o'rgatishning maqsadi hisoblanadi.

Tilga oid yozma bajariladigan leksik mashqlar so'zlarni — qo'shimchalar, o'zakni to'g'ri yozishni o'rqatishga xizmat qiladi.

Bunda:

-so'zlarni tahlil qilish mashqi;

-so'zlarni turli xil so'z yasovchi qo'shimchalar orqali guruhlariga ajratish mashqi;

-xatolarni topish va to'g'ri yozish mashqi;

-so'z yasash mashqlaridan foydalanish mumkin.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, yozma nutq savodxonlik darajasining katta bir omilidir. Chunki yozma nutqda grammatik, stilistik, imloviy xatolarga yo'l qo'ymaslik talab etiladi. Odam qanchalik ko'p yozsa, uning husnixati ham shunchalik chiroyli bo'lishi ma'lum. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda birgina harfni o'qituvchilar qayta-qayta yozdirishadi. Bundan maqsad esa — o'quvchining husnixati chiroyli bo'lishiga erishish va

savodxonligini oshirishdir. Bu esa, o'z navbatida, bilim sifatiga ta'sir etuvchi ikki omilning uyg'unlikdagi yutug'i hisoblanadi.

Imlo haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'lishimiz uchun imlo haqida barcha yangiliklardan boxabar bo'lishimiz lozim.

IMLO (arab. — to'g'ri yozish) , orfografiya — so'z va gaplarning, so'z qismlarining fafika vositalari yordamida to'g'ri yozilishi; muayyan tildagi to'g'ri yozish qoidalari majmui. Bu qoidalar so'zlarning tovush tarkibi hamda so'z va uning morfologik tarkibining yozilishi, so'zlarni qo'shib yoki alohida yozish, bosh harflarni to'g'ri qo'llash, bog'in ko'chirish va b. bevosita yozuv bilan bog'liq bo'ladi. Shu bois Imlo qoidalari vaziyatga ko'ra o'zgarib ham turadi.

Kirill yozuvidagi o'zbek adabiy tilining Imlo qoidalari 1940-y. dan shakllana boshlagan bo'lsa, 1956-y. da mukammal qoidalar to'plami qabul qilingan. O'zbek adabiy tilida fonetik, morfologik, tarixiy-etimologik Imlo qoidalari ama qiladi. Fonetik yozuv Imlo qoidalariga muvo-fiq ayrim so'zlarning o'zak va ko'shimchalaridagi o'zgarishlar hisobga olinib, talaffuzga muvofiq yoziladi .

O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARINI TASDIQLASH HAQIDA

O'zbekiston Respublikasining „Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish tog'risida"gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: 1. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin (ilova qilinadi). 2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar. 3. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Davlat Matbuot qo'mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo'llanma sifatida o'zbek tilining imlo lug'atini, kishi ismlari va joy nomlari lug'atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralari ko'rsinlar. 4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta'lim va fan hamda Ijtimoiy masalalar va madaniyat bo'limlariga yuklansin. Vazirlar Mahkamasining Raisi

I. KARIMOV

Imlo ustida ishlash metodikasi. O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so'zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so'z yasalishiga oid materiallarni ma'lum darajada bilmasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo'ladigan grammatik nazariyaga

bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo'shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar "Ot", "Sifat", "Son", "Kishilik olmoshlari", "Fe'l" mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika bilan orfografiyani bir-biriga bog'liq holda o'rganishni ta'minlaydi.

Til har bir millat madaniyatining o'zagi va ko'zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayotdir. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, urf-odat, an'analarini saqlaydi. Tilni Onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o'z onasini ko'rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Bu fikrimizning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqini keltirishimiz mumkin: «Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrlari qo'shiqlariga quloq tutsin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozimligini butun vujudimiz bilan his etishimiz lozim. Bunday vatanparvar harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz bilanoq o'zbek tilini rivojlantirishga bevosita ulkan hissa qo'shgan bo'lamiz. Zero, buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: «Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on o'yinai hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Ona tili va adabiyot fani namunaviy o'quv dasturi. Toshkent. 2017)
- 2) O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari, T., 1956;
- 3) O'zbek tilining imlo lug'ati, T., 1995.
- 4) "O'zbek tilining iimlo lug'ati" 2003
- 5) Orfografiya o'itish metodikasi. Ma'ruza

YO'LLARNING IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Aliqulova Madina Ural qizi
Saydullayeva Sarvinoz Muzaffar qizi
Yo'ldoshov Humoyun Olim o'g'li
Saidmurodova Feruza Faxriddin qizi
Termiz muhandislik texnologiya instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yo'llarning iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi. Respublikada transport yo'laklariga bo'lgan talablarni yechimini topish maqsad qilib olingan.*

Kalit so'zlar: *Aloqa yo'llari, transport, transport yo'laklari, Buyuk ipak yo'li*

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy infratuzilmaning eng muhim vazifasi jamiyatning barcha sohalarining bir maromda ishlashini ta'minlash, ishlab chiqarish va umuman iqtisodiyotni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bois bizga transport, ayniqsa, yo'l transporti O'zbekiston sanoat va ijtimoiy infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismi vazifasini o'taydi. Hozirgi kunda O'zbekiston ulkan transport salohiyatiga ega bo'lib, mavjud yo'nalishlarda transportning barcha turlarida yuklar va

yo'lovchilarni tashishda mamlakatning ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyatlarga ega. 2021-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, transport sohasida qariyb 18 723 ta korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ularning soni 1 947 birlikka ko'paydi, o'sish 11,6 ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, temir yo'l transporti yuk aylanmasi hajmi 18 702,3 mln. ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 958,6 mln. t-km. ga yoki 5,4% ga o'sish kuzatildi. Mamlakatning savdo aloqalari ko'p jihatdan qo'shni mamlakatlarning rivojlanish darajasi, tranzit imkoniyatlari va ochiqligi, eng muhimi, siyosiy irodaga bog'liqdir. O'zbekistonda bu masalaga alohida ahamiyat berilmoqda. O'tgan davr davomida zamonaviy yo'l-transport infratuzilmasini shakllantirish, jahon bozorlariga yangi

yo'nalishlar ochish, mamlakatimizni dunyoning boshqa mintaqalar bilan bog'lovchi zamonaviy transport kommunikatsiyalarni yaratish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Rivojlantirish, yangi

bosqichida maqsadli transport ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uzoq muddatda raqobatdoshligini saqlash haqida o'ylash, kompaniyaning ish jarayonlarini uzluksiz va har tomonlama optimallashtirish, boshqaruv tamoyillari takomillashtirish hisoblanadi. Transport ishlab chiqarishning talab darajasida sifatini ta'minlash uchun me'yoriy huquqiy bazani shakllantirish biznes-jarayonlar samaradorligini oshirish yo'lidagi birinchi qadamdir. Kompaniyaning strategik maqsadlari, uning vazifasi, sifatini boshqarish, resurslar, ishlab chiqarish texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy-ijtimoiy

rivojlanishni ko'pirativ boshqarish sohasidagi faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy maqsad va vositalarni belgilovchi hujjatlardan biri. So'nggi yillarda yo'lga bo'lgan talablar oshmoqda. Yo'llarga bo'lgan e'tibor nafaqat iqtisodiyot o'sishi balki insonlarning uzog'ini yaqin qiluvchi unumdorlik xususiyatlarini ham belgilab bermoqda. Yo'llar inson hayoti bilann alohida chambarchas bog'liqlikda o'z ifodasini topmoqda. Yo'llar insonning og'irini yengil, uzog'ini yaqin qilishi uchun muhim rol tutmoqda. Avtomobillar rivojlanishi bilan yo'l qurish me'yorlari va qoidalari ham o'zgarib bordi. Birinchi texnik shartlar 1931-yilda keyingisi esa 1934-yilda chiqdi. 1938-yilda esa "Ko'priklar va

yo'llar qurish texnik shartlari" tasdiqlandi. Bundan ko'rinib turibdiki, yo'llar inson hayotida muhim ahamiyat kasb etishi, ularning rivojlanish istiqbollarida yo'lga bo'lgan ehtiyoj ortib borishidan dalolat beradi. Mamlakatning tashqi va ichki aloqalarini, xalq xo'jaligining iqtisodiy sohalarini rivojlanishi bilan yo'lga bo'lgan talablar aloqa yo'llarining rivojlanishiga bog'liq. Aloqa yo'llari qisman insoniyat tarixi ya'ni, so'qmoqlardan iborat bo'lgan. Yo'l qurilishi ko'p yillik tarixga ega. Yo'l konstruksiyalari va ularni qurish usullari insoniyat tarixida turli jabhalarda o'zgarib kelgan. Yo'l tarmoqlarni lokomotivlar, kemalar, avtomobillar, temiryo'llar, havo yo'llari bilan iqtisodiy samaradorligining yuqori ko'rsatkichda rivojlanishida yo'llarning o'rnini beqiyos desak, mubolag'a bo'lmaydi, albatta. Bugungi kunda Respublikada avtomobil yo'llari tarmog'ining umumiy uzunligi 183783 km ni tashkil qilmoqda. Yo'llarning tasnifi quyidagilardan iborat:

- Temir yo'llar
- Avtomobil yo'llar
- Havo yo'llar
- Quvvur yo'llar
- Sanoat yo'llar va boshqalar

Har qaysi yo'llar o'ziga xos ustun va kamchilik tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, Temiryo'l transportining ishlab chiqarish iqtisodiy faoliyati samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish, fan va texnika yutuqlariga asoslanadi, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usullarini joriy etish, temiryo'l transportining ichki jarayonlarini tashqi subyektlar bilan hamkorlikda tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat bo'ladi. Temiryo'llar boshqa transport vositalariga nisbatan yuk tashishi ustun bo'lsa, harakat tezligi pastligi uning kamchiliklari bilan ifodalanadi. Yo'llarning iqtisodiy sohalarida boshqa davlatlar bilan o'zaro bog'liqlikda import va eksport sohasida ularning tovar almashinishida yo'llardan keng miqyosda foydalanish o'rnini beqiyosdir. Respublikamizda iqtisodiy rivojlanish shartlarini ta'minlaydigan xalqaro transport

yo'laklarini barpo qilish, tranzit va viloyatlar oralig'ida ishonchli transport aloqalarini ta'minlash, respublikaning tashqi integriyatsiyalashgan va ichki birikkan yagona transport muhitini shakllantirish qolaversa, Buyuk ipak yo'lini qayta tiklash va jahon bozoriga chiqish kabi masalalar davlat yo'l siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib

hisoblanadi. Bunda yo'llarga bo'lgan talablarning amaliy yechimi shundan iboratki, yo'llarni rekonstruksiya qilish, transport talablariga bo'lgan talablarni qondirish, avtomobillar qulayligini oshirish va xavfsizligini ta'minlash iqtisodiy rivojlanishda muhim kasb etadi. Bugungi kunda transport yo'laklariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikada transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha davlat texnik siyosatida ustuvor vazifalar belgilangan va talablar qo'yilgan.

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.08.2003-yildagi UP-3292 sonli qarorida " foydalaniladigan avtomobil yo'llarini qurish va ulardan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirish" to'g'risidagi qonuni mana shular jumlasidandir. Bu borada Yevropa hamjamiyatining TESIS dasturi asosida tuzilgan TRASEKA loyihasini O'zbekistonda qo'llab quvvatlanishiga misol bo'ladi. Bunga xulosa qilib shuni aytib o'tishimiz joizki, kishilik jamiyati

rivojlanishi bilan yo'lga bo'lgan talab va takliflar rivojlangan. Hozirgi kunga kelib iqtisodiy sohalarning turli jabhalarida rivojlanish suratlari oshirilishida aloqa yo'llariga borib taqaladi. Iqtisodiyotning bir bo'lagiga aylangan yo'llar rivojlanishida, ularga bo'lgan e'tibor shular jumlasidandir. Bugungi kunda O'zbekiston yo'lsozlari oldida turgan asosiy vazifa, bu jahon bozoriga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradigan transport kommunikatsiyalarini qurish, ularning xavfsizligina

ta'minlash, mustahkam, uzoq vaqt xizmat qiladigan yo'llarni qurish va ularni rivojlantirishdan iborat. Yo'llar qanchalik rivojlansa davlatlararo hamjamiyatlik, chetki davlatlararo tovar almashinuvi, iqtisodiyotning yuqori ko'rsatkichlarda o'sishi yo'llarning keng tarmoqda rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Avtomobil yo'llari rivojlanish tarixi va ahamiyati"
2. "Avtomobil yo'llari va aerodromlar"

FUQAROLIK XIZMATLARI AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMINING ERWIN DASTURI METODOLOGIYALARI ORQALIYARATILGAN LOYIHASI

Shoyqulova Munisa Maxmanazar qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Jizzax

Ergashev Sirojiddin Baxtiyor o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Jizzax

Annotatsiya: *Maqolada fuqarolik xizmatlari tizimini loyihalashtirishni IDEF0, DFD va IDEF3 metodologiyalarida ko'rib chiqamiz. IDEF0, IDEF3 va DFD diagrammalari Erwin dasturi yordamida yaratiladi. Ular biznes jarayonlarni grafik modellashtirish uchun mo'ljallangan. Metodik IDEF0 juda qulay, tizim loyihagini grafik tarzda namoyish etish, uni tushunish oddiy va juda oson. Uy-joy kamunal xizmatlari tizimining loyihalarini ko'rib o'tamiz.*

Kalit so'zlar: *axborot tizimi, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, biznes jarayonlarini tahlil qilish, loyihalash, axborot tizimini ishlab chiqish, IDEF0, DFD va IDEF3 metodologiyalari,decompositsiya*

Abstract: *In the article, we will consider the design of the housing utility services system in the IDEF0, DFD and IDEF3 methodologies. IDEF0, IDEF3 and DFD diagrams are created using the Erwin program. They are designed for graphical modeling of business processes. It is simple and very easy to understand.*

Key words: *information system, business process automation, business process analysis, design, information system development, IDEF0, DFD and IDEF3 methodologies, decomposition*

KIRISH


Erwin dasturi biznesning turli sohalarida keng qo'llaniladi. Bu dasturiy ta'minotni ishlab chiquvchilarga yangi dasturiy ta'minot tizimlari va loyihalarini vizuallashtirish, qurish va hujjatlashtirishda yordam beradi. Bu murakkab dasturiy ta'minot tizimlarining arxitekturasi, dizayni va amalga oshirilishini tasavvur qilishning standartlashtirilgan usulini taqdim etishda qo'llaniladi. Bu dasturiy yechimlarni, dastur tuzilmalarini, tizim xatti-harakatlarini va biznes jarayonlarini modellashtirish uchun boy tildir. Erwin dasturi nafaqat dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilari tomonidan qo'llanilibgina qolmasdan amaliy tuzilmalar va modellashtirish, shuningdek, dasturiy ta'minotni hujjatlashtirishda kengroq qo'llaniladigan yondashuvdir.

Dasturiy ta'minotni ishlab chiquvchilar uchun tizim ichidagi ierarxiya va munosabatlarni saqlab qolish qiyin bo'lishi mumkin - ayniqsa kodning murakkab va batafsil sohalariga e'tibor qaratishda. Fuqarolik xizmatlari tizimini loyihalashtirishni IDEF0,DFD va IDEF3 metodologiyalarida ko'rib chiqamiz.IDEF0, IDEF3 va DFD diagrammalari Erwin dasturi yordamida yaratiladi.Ular biznes jarayonlarni grafik modellashtirish uchun mo'ljallangan.

Metodik IDEF0 juda qulay,tizim loyihasini grafik tarzda namoyish etish, uni tushunish oddiy va juda oson. Ishbilarmonlar ko'pincha biznes jarayonlarini vizualzatsiya qilish uchun sxemalar yordamiga murojaat qilishadi. Minglab biznes - tahlilchilar biznesning ishlashini o'rganadilar va oddiy sxemalar yordamida biznes jarayonlarini aniqlaydilar. Fuqarolik (uy-joy kamunal xizmatlari) tizimini Erwin dasturi yordamida loyihalasini shakllantiramiz,tizimni loyihalash davomida IDEF0, DFD va IDEF3 metodologiyalaridan foydalanamiz.


Ijro hujjati bo'yicha qarzdorlikni tekshirish.

Fuqarolik tizimining bo'limlarga bo'linishi. Unga ko'ra Fuqarolik tizimi ijro hujjati bo'yicha qarzdorlikni tekshirish, xorijga chiqishga cheklov, yashash joyiga doimiy ro'yhatga turish, pasportni ID kartaga almashtirish va yashash joyida yashovchilar ro'yxatini to'g'irlatish bo'limlaridan iborat. Bu bo'limlarni tasvirlashda Erwin dasturining IDEF0 metodologiyasidan foydalanilgan. IDEF0 metodologiyasidan foydalanganligimiz sababi bu metodologiyani decomposite qilganimizdan keyin, decomposite natijasida paydo bo'lgan elementlarni yana DFD yoki IDEF0 metodologiyasida decomposite qilishimiz mumkin.



1-rasm.

Fuqarolik tizimiga kirishning 1-bosqichi ijro hujjati bo'yicha qarzdorlikni tekshirish bo'limining ro'yxatdan o'tishi. Bunda tizimga kirayotgan shaxs ma'lumotlari(passport seriasi, passport raqami, tug'ilgan sana, JSHSHIR) bazadan avtomatik ravishda to'ldiriladi va himoya kodini tizimga kiritish shart. Ma'lumotlarni tizimga kiritilganidan so'ng keyingi qadamga o'tiladi.



2-rasm.

Majburiy ijro byurosidan ma'lumotlar keladi va qarzdorlik bor yo'qligi haqida habar chiqadi, so'ng qarzdorlik bo'lganida to'lov amalga oshiriladi.

XORIJGA CHIQISHGA CHEKLOV.

Fuqarolik tizimidagi xorijga chiqishga cheklov bo'limining ikkita bo'limchalarga tekshirish va natija kabi bo'limchalarga bo'linib ketgan.




2-rasm.

Xorijga chiqishga cheklov xizmatlari shartnomasini tuzish bo'limchalarining tizimga kirishdagi 1-bosqichi ko'rsatilgan. Bu bo'limda foydalanuvchi tizimga kiradi, tekshirishda ma'lumotlarini kiritadi va xorijga chiqishga cheklov bor yo'qligi natijasi chiqadi.


VAQTINCHA TURGAN JOYI BO'YICHA HISOBGA QO'YISH

Vaqtincha turgan joyi bo'yicha hisobga qo'yish




3-rasm.

Vaqtincha turar joyi bo'yicha hisobga qo'yish 7 qadamda bajariladi.



4-rasm.


Vaqtincha turar joyi bo'yicha hisobga qo'yish 1-qadamida oferta shartlariga rozi bo'ladi va keyingi qadamlarga o'tiladi.



5-rasm.


Bu rasmda Uy-joyga egalik huquqini tasdiqlovchi kadastr ma'lumoti bor yo'qligi aniqlanadi va bor bo'lsa bazadan uy egasi haqida ma'lumot, uy-joy kadastr raqami olinadi

Pasportni ID kartaga almashtirish



6-rasm.

Bu rasmda pasportni ID kartaga almashtirish uchun foydalanuvchi ma'lumotlari bazadan olinmoqda, ID karta turi kiritilib, keyingi navbatda bo'limchalardan o'zimizga kerakligi yani Pasport yoki ID kartani almashtirishni tanlaymiz. FUQAROLIK tizimidagi gaz tarmoqlariga ulanish bo'limining gaz ta'minoti loyihasini kelishish bo'limining interfeysi ko'rsatilgan. Bunda jismoniy shaxsning ma'lumotlari so'raladi. Ma'lumotlar kiritilgandan so'ng kiyingi bosqichga o'tishimiz mumkin.



8-rasm.

FUQAROLIK tizimidagi gaz tarmoqlariga ulanish bo'limining gaz ta'minoti loyihasini kelishish bo'limining interfeysi ko'rsatilgan. Bunda so'ralayotgan har bir ma'lumot kiritilishi shart

XULOSA

Hozirgi vaqtda jarayonlarni modellashtirish uchun ko'plab vositalar va metodologiyalar mavjud. Mana shu vositalardan biri Erwin dasturi ekanligini bu dasturda IDEFO, DFD va IDEF3 metodologiyalari mavjud ekanligini ko'rib o'tdik. Ular biznes

jarayonlarni grafik modellashtirish uchun mo'ljallangan. Metodik IDEFO juda qulay, tizim loyihasini grafik tarzda namoyish etish, uni tushunish oddiy va juda oson. Ishbilarmonlar ko'pincha biznes jarayonlarini vizualizatsiya qilish uchun sxemalar yordamiga murojaat qilishadi. Minglab biznes - tahlilchilari biznesning ishlashini o'rganadilar va oddiy sxemalar yordamida biznes jarayonlarini aniqlaydilar. Erwin dasturi tizim loyihalarini yaratishda juda oson va qulay dastur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bultakov Kamoliddin, & Kholmatov Javlon. (2022). HAND MOTION CLASSIFIER USING BIOMIMETIC PATTERN RECOGNITION WITH CONVOLUTIONAL NEURAL NETWORKS WITH A DYNAMIC THRESHOLD METHOD FOR MOTION EXTRACTION USING EF SENSORS. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 282–285. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/180>
2. Бурнашев В., Холматов Ж. МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ГИДРОДИНАМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ МНОГОФАЗНОЙ ФИЛЬТРАЦИИ В НЕФТЯНОМ ПЛАСТЕ ПРИ ЕГО ЗАВОДНЕНИИ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 137-154.
3. Karshiyev Abror Amrullayevich, Salimov Jamshid Obid o'g'li. (2022). ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA TALABALARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 641–645.
4. Фитратович, В., & обид ўғли Салимов, Ж. (2022, March). МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ МНОГОФАЗНОЙ ФИЛЬТРАЦИИ В НЕФТЕГАЗОВОМ ПЛАСТЕ ПРИ ЕГО ЗАВОДНЕНИИ. In INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING (Vol. 1, No. 4, pp. 520-525).
5. Тавбоев Сирожиддин Ахбутаевич; Мамараимов Аброр Камолиддин ўғли. (2022). НЕКОТОРЫЕ МЕТОДЫ И ЗАДАЧИ ЦИФРОВОЙ ОБРАБОТКИ И РАСПОЗНАВАНИЯ ИЗОБРАЖЕНИЙ. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 334–339. Retrieved from
6. Muxtorov Doston, & Sher Muhammedov Abdulatif. (2022). SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI SOHALARDA QO'LLANILISHI. Educational Research in Universal Sciences, 1(5), 144–147
7. Yusupbekov, N., Gulyamov, S., Khojiev, N., & Ergashev, S. (2021). EXERGET ANALYSIS OF ENERGY TECHNOLOGICAL INSTALLATIONS. InterConf.
8. Семёнов А.Л. Роль информационных технологий в общем среднем образовании. М., 2000. – С.32.
9. Бермус, А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентного подхода в образовании // Новостной сайт «Эйдос» - <http://www.eidos.ru/journal/2005/0910-12.htm> (82)

10. Грук В.Ю. Формирование ключевых компетенций учащихся основной школы при организации исследовательских лабораторий на базе реального физического эксперимента: автореф ... дис. канд. пед. наук. – Москва, 2008. – 20 с.

11. Karshiyev A. A. The Structure Of Information Competence Of High School Students //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – С. 98-107.

12. Каршиев А. А. ЎҚУВЧИЛАРДА АХБОРОТ БИЛАН ИШЛАШ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ДАРАЖАВИЙ ТУЗИЛМАСИ //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2021. – Т. 4. – №. 4.

13. Қаршиев А. МАКТАБ ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИСИНИГ АХБОРОТ КОМПЕТЕНТЛИГИ ТУЗИЛМАСИ //Журнал математики и информатики. – 2020. – Т. 1. – №. 1.

14. Amrullayevich K. A., Mamatkulovich B. B. TALABALARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI SHAKILLANTIRISHDA DIDAKTIK VOSITALARINING METODIK XUSUSIYATLARIDAN FOYDALANISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 645-650.

15. Amrullayevich K. A., Obid o'g'li S. J. ELEKTRON TALIM MUHITIDA TALABALARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 641-645.

16. Karshiyev A. A., Sobirovich E. G. INFORMATION FOR STUDENTS COMPETENCE DEVELOPMENT METHODOLOGICAL FEATURES //Thematics Journal of Education. – 2022. – Т. 7. – №. 3.

17. Karshiyev A. A., Mamatkulova U. E., Shobutayev Q. S. IMPLEMENTATION OF A QUALIMETRIC APPROACH IN MANAGING THE QUALITY OF EDUCATION OF STUDENTS OF A MODERN UNIVERSITY //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 12.

18. Қаршиев А. МАКТАБ ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИСИНИГ АХБОРОТ КОМПЕТЕНТЛИГИ ТУЗИЛМАСИ //Журнал математики и информатики. – 2020. – Т. 1. – №. 1.

19. Каршиев А. А. ЎҚУВЧИЛАРДА АХБОРОТ БИЛАН ИШЛАШ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ДАРАЖАВИЙ ТУЗИЛМАСИ //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2021. – Т. 4. – №. 4.

20. Қаршиев АА П. Ш. М. Глобаллашув жараёнида таълим сифатини таъминлаш ва унинг ўзига хос хусусиятлари //Интернаука»: научный журнал. – №. 44. – С. 126.

21. Bultakov Kamoliddin, & Kholmatov Javlon. (2022). HAND MOTION CLASSIFIER USING BIOMIMETIC PATTERN RECOGNITION WITH CONVOLUTIONAL NEURAL NETWORKS WITH A DYNAMIC THRESHOLD METHOD FOR MOTION EXTRACTION USING EF SENSORS. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 282–285. Retrieved from

22. Бурнашев В., Холматов Ж. МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ГИДРОДИНАМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ МНОГОФАЗНОЙ ФИЛЬТРАЦИИ В НЕФТЯНОМ ПЛАСТЕ ПРИ ЕГО ЗАВОДНЕНИИ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 137-154.

23. Фитратович В. и др. МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ МНОГОФАЗНОЙ ФИЛЬТРАЦИИ В НЕФТЕГАЗОВОМ ПЛАСТЕ ПРИ ЕГО ЗАВОДНЕНИИ //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 520-525.

24. Amrullayevich K. A., Obid o'g'li S. J. ELEKTRON TALIM MUHITIDA TALABALARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 641-645.

25. Doston M., Abdulatif S. SUN'IIY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI SOHALARDA QO 'LLANILISHI //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 144-147.

26. Ergashev S. B., Baxtiyor o'g'li E. S. DESIGN OF AUTOMATED ENTERPRISE INFORMATION SYSTEMS USING UML DIAGRAMS IN THE CREATION OF APPLICATIONS //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 25-33.

27. Yusupbekov N. et al. EXERGET ANALYSIS OF ENERGY TECHNOLOGICAL INSTALLATIONS //InterConf. – 2021.

28. Obid o'g' A. S. J. et al. Numpy Library Capabilities. Vectorized Calculation In Numpy Va Type Of Information //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 15. – С. 132-137.

